

2017

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

ONA TILI VA ADABIYOT



**5111700 – BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT
TARBIYAVIY ISH TA'LIM YO'NALISHI**

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti Kengashining 2017 yil "___" avgustdagi ___-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida
o'qituvchisi Z.M.Amirqulova

Taqrizchilar: Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta
o'qituvchisi, pfn.A.RAXMATULLAYEV
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida
o'qituvchisi I.SHOYMARDONOV

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2017 yil "___" _____ dagi ___-sonli bayonnoma).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

« T a s d i q l a y m a n »
Termiz davlat universiteti
o'quvishlar bo'yicha prorektor
Axmedov O'.CH.

2018 yil " _____ " _____

**5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim
yo'nalishi III- kurs uchun**

**«ONA TILI VA ADABIYOT»
fanidan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: *100000 – Gumanitar*
Ta'lim sohasi: *140000 – Pedagogika*
Ta'lim yo'nalishi: *5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish*

Termiz-2018

Termiz davlat universiteti

Pedagogika fakulteti
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI
№ 1 -sonli bayonnomasidan
K O' C H I R M A

26.08.2018 y

Termiz shahri

Qatnashdilar Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining barcha professor -
: o'qituvchilari.

K U N T A R T I B I D A:

1. Har xil masalalar. (Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining o'qituvchisi Sh.Choriyevning 5111700 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun Ona tili fanidan tayyorlagan o'quv ishchi dasturi muhokamasi).

Eshitildi: Kafedra mudiri p.f.n. X.Norbo'tayev 5111700 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o'quv ishchi dasturining tuzilishi, uning mazmuni bilan kafedra a'zolarini tanishtirdi. Ushbu o'quv ishchi dasturi asosida o'quv-uslubiy majmuani tayyorlash va uning elektron versiyasini yaratish bo'yicha Sh.Choriyevning tayinlanganligini ma'lum qildi.

So'zga chiqdilar: Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti Sh Yoqubov mazkur o'quv-uslubiy majmua mazmuni bilan tanishib chiqqanliklari hamda o'z takliflarini bildirgan holda, uni tasdiqlash mumkinligi haqida o'z ijobiy fikrlarini bildirdilar.

Qaror:

1. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining mudiri p.f.n. X.Norbo'tayevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining o'qituvchisi Sh.Choriyevning 5111700 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o'quv uslubiy majmuasi tasdiqlansin va o'quv amaliyotida qollash tavsiya etilsin.

Rais:

Kotib:

p.f.n. X.Norbo'tayev

Sh.Choriyev

Termiz davlat universiteti

Pedagogika fakulteti
Ilmiy-metodik kengashining
№ 1-sonli bayonnomasidan
K O' C H I R M A

29.08.2017 y.

Termiz shahri

Rais dots.R.Mustafoqulov, a'zolari : p.f.n.A.Raxmatullaev,
Qatnashdilar: O.Ergasheva, A.Jo'raqulova. Fakultetning barcha professor-o'qituvchilari

K U N T A R T I B I D A:

1. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining o'qituvchisi Sh.Choriyevning 5111700 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlagan ishchi o'quv dasturi muhokamasi.

Eshitildi: Pedagogika fakulteti dekani IMK raisi, M.Mirzayev 5111700 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan ishchi o'quv dasturining tuzilishi, uning mazmuni bilan ilmiy–metodik kengash a'zolarini tanishtirdi. Ushbu o'quv dasturining negizuda uslubiy majmuani tayyorlash va uning elektron versiyasini yaratish bo'yicha kafedralardan vakillar tayinlanganligini IMK a'zolariga ma'lum qildi.

So'zga chiqdilar: Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining mudiri p.f.n. X.Norbo'tayev, shuningdek kafedra a'zolari tayyorlangan ishchi o'quv dasturi mazmuni bilan tanishib chiqqanliklari hamda o'z takliflarini bildirgan holda, uni tasdiqlash mumkinligi haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

Qaror:

1. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining mudiri p.f.n. X.Norbo'tayevning axboroti inobatga olinsin.

2. 5111700 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishai uchun Ona tili va dabiyyot fanidan tayyorlangan ishchi o'quv dasturi ishchi o'quv dasturi tasdiqlansin va uning asosida o'quv – uslubiy majmuani tuzib, amaliyotda foydalanish tavsiya etilsin.

IMK raisi:

Kotiba

dots. R.Mustafoqulov

O'qit. O.Ergasheva

Termiz davlat universiteti Pedagogika
fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi

kafedra o'qituvchisi Z. Amirqulova tomonidan
Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan
o'quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbir etadigan etuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarning joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa, ukituvchilarning o'z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ukituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartiradi.

O'qituvchi tomonidan fanning shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'limga asoslangan o'qitish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Fanni o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish, o'tkazish, bilim va ko'nikmalarni baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalari ishlab chiqilgan. Texnologik xaritaning loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

O'quv-uslubiy majmuada o'qituvchi tomonidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqilgan. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalar ishlab chiqilgan, bu esa o'z navbatida o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

Kurs davomida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar rejalashtirilgan bo'lib, har bir mavzu bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyalari batafsil izohlab berilgan bo'lib, majmuada aqliy hujum, munozara usuli, kichik guruhlarda ishlash texnologiyalarini qo'llash, rolli o'yinlar, kichik ma'ruza usuli, namoyish etish usuli, «Skarabey» texnologiyasi, «Venn» texnologiyasi, «Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim» texnologiyasi kabi interfaol o'qitish usullaridan keng foydalanilgan.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi I.A. Shoymardonov tomonidan 5111700 –boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuasi qo'yilgan talablarga to'la mos keladi va ta'lim tizimida talabalarni o'qitishda qo'llash o'z samaradorligini beradi.

”Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedra dotsenti:

Sh. Yoqubov

Termiz davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi Z. Amirqulova tomonidan Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalari, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va tarqibotchisidir. Zamonaviy o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida dars mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o'quv materiallari shunday taqdim etilishi kerakki, u talabaning vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin.

Zero o'qituvchi-ta'lim islohatining bosh ijrochisidir. Bunda har bir talabani qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi. Darsda kompyuterdan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi.

O'quv-uslubiy majmuada talabalarning o'zlashtirish imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olib kichik guruhlarda va individual ishlash uchun muayan mavzuga oid bir biriga bog'liq bo'lgan masalalar, topshiriqlar, muammoli vaziyatlar ishlab chiqilgan. Ularni bajarish uchun aniq ko'rsatmalar va tavsiyalar berilgan.

Fan buyicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni baholash uchun savol va testlar, topshiriqlar va mashqlar, loyihalar, yozma ishlar berilgan. Nazorat savollari va testlar talabalarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Yozma savollar va topshiriqlar o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchiga yozma tarzda javob olishga mo'ljallab ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi Z. Amirqulova tomonidan Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuasi qo'yilgan talablarga to'la mos keladi va ta'lim tizimida talabalarni o'qitishda qo'llash o'z samaradorligini beradi.

Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti:

A. Rahmatullayev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

« T a s d i q l a y m a n »

Termiz davlat universiteti o'quv
ishlar bo'yicha prorektor
_____ O`. Axmedov.

Ro'yxatga olindi № _____

2017 yil " ____ " _____

2017 yil " ____ " _____

ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN ISHCHI O'QUV DASTURI

(III-kurs talabalari uchun)

Bilim sohasi: **100000 – Gumanitar**
Ta'lim sohasi: **110000 – Pedagogika**
Bakalavriat yo'nalishi: **5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish**

	I semestr	II semestr	Jami
Ma'ruza	22	22	44
Amaliy	26	26	52
Mustaqil ta'lim	26	26	52
Jami	78	78	148

Termiz-2018

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Amirqulova. Z TerDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi
 kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

L. Muxtorova TerDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası katta o'qituvchisi

Fanning ishchi o'quv dasturi Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining 2017 yil " " avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri :**p.f.n.Norbo'tayev X.**

Fanning ishchi o'quv dasturi Pedagogika fakul'teti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2017 yil "___"_____dagi 1-sonli bayonnoma).

Fakul'tet dekani:**Mirzayev M.J.****Kelishildi:****O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i:****dots. B.Imanov****KIRISH**

Mazkur ish dasturi hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishi, morfemika, morfologiyasi haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak o'qituvchilariga ona tilining grammatik qurilishi, morfologik xususiyatlari yuzasidan nazariy bilim berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish yuzasidan nazaruy va amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi – ona tilining muayyan bo'limlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo'llashga o'rgatish. Ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda "Ta'lim to'g'risida" gi qonun materiallariga tayanish bilan bog'liq bo'lgan o'zgartishlar yetkazish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Talabalar ona tili fanini o'zlashtirish jarayonida quyidagilarni:

- o'zbek tilidagi so'z yasash usullarini, morfemik tarkibni, mustaqil va yordamchi so'zlarni, modal, undov va taqlid so'zlarni **bilishi kerak:**

Mazkur kursni o'rganish jarayonida talaba quyidagi:

- so'z tarkibi, so'z turkumlarining xususiyatlarini farqlay olish; gap tarkibidagi so'zlarning turkumlarga bo'linishini aniqlay bilish **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:**

Ona tili fanini o'zlashtirgan talaba quyidagi:

- berilgan matndagi gaplarni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan to'liq tahlil qilish; mavjud tinish belgilarining qo'yilish o'rinlarini aniqlay olish va qo'yilish sabablarini to'liq tushuntira olish; tildagi mavjud birliklardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish **malakalarga ega bo'lishi kerak:**

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bo'g'liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi

Ona tili fanini chuqur o'rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bo'g'liqdir. Tilning lu'g'at boyligida yuz beradigan o'zgarishlar jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o'zgarishlar asosida amalga oshadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o'rgatish lozim.

Fanning ta'limdagi o'rni

Ona tili fanining amaliy ahamiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har bir inson, ayniqsa, ziyoli inson o'z ona tilining imkoniyatlaridan mumkin qadar unumli foydalana bilishi kerak;

- ona tili har bir millatni millat sifatida farqlantiradigan, shakllantiradigan buyuk ne'mat ekanligini tushunishimiz kerak;

- ona tili fani milliy til va uning tarkibiga kiruvchi adabiy tilning an'anaviy vazifalaridan tashqari, kompyuter lingvistikasining keng imkoniyatlarini hayotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi.

Fanni o'qitishda qo'llanadigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ona tilini puxta o'rgatish maqsadida o'qituvchning dars jarayonida slaydlar, proyektor, diaproyektorlar kabi zamonaviy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o'qitilayotgan fanning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mashg'ulotning qiziqarliroq bo'lishiga, o'tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limi va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi III kurs talabalari uchun "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasi

V semestr

№	Mavzular	soat
1	Sintaksis haqida umumiy ma'lumot.	2
2	So'z birikmasi.	2
3	Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida	2
4	Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.	2
5	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	2
6	Gapning uyushiq bo'laklari, Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.	2
7	Gapning ajratilgan bo'laklari, Ajratilgan bo'laklarning turlari	2
8	Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar	2
9	Bir bosh bo'lakli gaplar. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar	2
Jami		18

ASOSIY QISM

"Ona tili va adabiyot" fanining "Ona tili" qismi nazariy mashg'ulotlari mazmuni
12- bob. Sintaksis.

Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. So'z birikmasi, gap bo'lagi va gap sintaksisning tekshirish obyekti sifatida. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi; teng va ergash bog'lanish haqida umumiy ma'lumot. Ergash bog'lanish so'z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi.

So'z birikmasi. So'z birikmasining tuzilishi va grammatik ma'nolari. Birikma tarkibidagi so'zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So'z birikmalarining turlari: hokim so'zning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra turlari (otli, fe'lli, ravishli, sifatli, modal so'zli birikmalar). Tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra turlari (to'ldiruvchili, aniqlovchili, holli so'z birikmalari). Tuzilishiga ko'ra turlari: sodda so'z birikmalari, murakkab so'z birikmalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; Q1; Q3; Q4.

Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar. His-hayajoniga ko'ra turlari: his-hayajonli (undov) gaplar, his-hayajonsiz gaplar, ularning turlari (darak-undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar).

2 Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot. Ega va kesim (bosh bo'laklar) ikki sostavli
2 gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi.
. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: fe'l-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim. Ega
3 bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol). To'ldiruvchi va
2 uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali to'ldiruvchilar, ularning shakllanishi.
. Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi, qaratqich va izohlovchilar
4 aniqlovchining turlari ekanligi. Hol va uning ifodalanishi, turlari: ravish holi, miqdor-
daraja holi, payt holi, o'rin holi, sabab holi va maqsad holi. Gap bo'laklarining
joylashish tartibi. Inversiya.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Gapning uyushiq bo'laklari; uyushishning ifoda vositalari: sanash ohangi va teng
2 bog'lovchilar. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning
. qo'llanishi. Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.
5 Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Gapning ajratilgan bo'laklari, ularning ajratilish sabablari. Ajratilgan bo'laklarning
2 turlari: ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi,
. ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol.
6 Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot:
undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo'laklari
bilan grammatik jihatdan bog'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish
belgilarining ishlatilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

7

Bir bosh bo'lakli gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplar.
2 Egasiz bir bosh bo'lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar).
. Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi
8 topilmaydigan - shaxssiz gaplar. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap - atov (yoki nominativ)

gaplar va infinitiv gaplar ekanligi. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Boshlang'ich ta'limi va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi III kurs talabalari uchun "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotining kalendar tematik rejasi

V-semestr

N	Mavzular	soat
1	Sintaksis haqida umumiy ma'lumot.	2
2	So'z birikmasi.	2
3	Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida	2
4	Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.	2
5	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	2
6	Gapning uyushiq bo'laklari	2
7	Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.	2
8	Gapning ajratilgan bo'laklari Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ajratilgan bo'laklarning turlari	2
9	Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar	2
10	Bir bosh bo'lakli gaplar. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar	2
Jami		20

"Ona tili va adabiyot" fanining "Ona tili" qismi amaliy mashg'ulotlari mazmuni

7-bob. Sintaksis.

- 7.1 So'zlarning teng va ergash bo'g'lanishi (aloqasi), ergash bo'g'lanishning turlari (boshqaruv, bitishuv, moslashuv) yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

- 7.2 So'z birikmasi, uning turlari, birikma tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *O'yinli mashqlar ta'lim texnologiyasi: zinama-zina, zakovat, bumerang metodlari.*

Adabiyotlar:A1; Q2; Q3.

- 7.3 Gap, uning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajratish; gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar. Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra o'zgartirishga oid mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasi: ijodiy o'yin, konferentsiya, siyujetli-ro'lli o'yin metodlari.*

Adabiyotlar:A1; Q2; Q3.

- 7.4 Yig'iq va yoyiq gaplarni, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *O'yinli mashqlar ta'lim texnologiyasi: zinama-zina, zakovat, bumerang metodlari.*

Adabiyotlar:A1; Q2; Q3.

- 7.5 Gapning bosh bo'laklarini aniqlash (ega va kesimni aniqlash); sodda va tarkibli kesimlar; kesimning ega bilan moslashuvi. ularning ba'zan sonda mos kelmaslik hollari; yozuvda ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishiga ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

- 7.6 Ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, turlarga ajratish yuzasidan mashqlar.

- 7.7 To'ldiruvchi, aniqlovchi, hollarning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasi: ijodiy o'yin, konferentsiya, siyujetli-ro'lli o'yin metodlari.*

Adabiyotlar:A1; Q2; Q3.

- 7.8 Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash va ularni umumiy sintaktik tahlil qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *O'yinli mashqlar ta'lim texnologiyasi: zinama-zina, zakovat, bumerang metodlari.*

Adabiyotlar:A1; Q2; Q3.

- 7.9 Gapning uyushiq bo'laklarini, qanday bo'lak uyushganini aniqlash, uyushiq bo'laklarning shakllanishi, bo'g'lovchili, bog'lovchisiz birikkanini, umumlashiruvchi birliklar qatnashgan holatlarni, tinish belgilarning ishlatilishini belgilash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar o'tkazish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *O'yinli mashqlar ta'lim texnologiyasi: zinama-zina, zakovat, bumerang metodlari.*

Adabiyotlar:A1; Q2; Q3.

- 7.1 Ajratilgan bo'laklar va ularning turlarini belgilash, bunday gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

- 7.11. Bir bosh bo'lakli gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplar. Egasiz bir bosh bo'lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar). Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan - shaxssiz gaplar. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap - atov (yoki nominativ) gaplar va infinitiv gaplar ekanligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4.

Boshlang'ich ta'limi va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi III kurs talabalari uchun "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasi VI semestr

N	Mavzular	soa t
1	<p>G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar.G'afur G'ulomning nasriy asarlari o'zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.G'afur G'ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi.</p> <p>Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir shehrlardagi musiqiylik. Q.Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'rni hamda ahamiyati.</p>	2
2	<p>Zafar Diyorning hayoti va ijodi. Zafar Diyorning "Mashinist" dostonida ilgari surilgan g'oyalar.Zafar Diyorning she'riy asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi. Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi. Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.</p>	2
3	<p>Sulton Jo'raning hayoti va ijodi.Hakim Nazirning hayoti va ijodi. Sulton Jo'raning hayoti va ijodi.Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she'rlarida ifodalangan g'oyalar haqida.</p> <p>Sulton Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili. Hakim Nazirning hayoti va ijodi.Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag'ishlangan asarlarining ahamiyati haqida.</p>	2
4	<p>Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi. Po'lat Mo'min ijodida odob-axloq mavzusi.Po'lat Mo'min – qo'shiqchi shoir. Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari. Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar.</p>	2
5	<p>Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi. "Sariq devni minib", "Qasoskorning oltin boshi", "Besh bolali yigitcha" asarlarining badiiy xususiyatlari. Farhod Musajon hayoti va ijodi.Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalar. Farhod Musajon - dramaturg adib.</p>	2
6	<p>Miraziz A'zamning hayoti va ijodiy faoliyati. M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini. Adib</p>	2

	dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati. Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. T.Adashboyevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati. Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she'rlari badiiyati.	
7	Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati.Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she'rlarining mavzu doirasi. Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari. Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar. Muhammad Alining temuriylarga bag'ishlab yozilgan romanlari haqida.	2
8	Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida. Anvar Obidjon she'rlarida kitobxon ongiga ta'sir qilish emas, qalbiga yo'l topishga bo'lgan urinishlar.Anvar Obidjonning "Sen eshitmagan qo'shiqlar" turkumi – o'quvchilarning eng sevimli to'plami. Anvar Obidjon – ustozlar e'tirofida. Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. Abusaid Ko'chimovning kichikintoylarga bag'ishlangan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.	2
9	Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.Hamza Imonberdiyevning "Adolat kaliti" ertagida ilgari surilgan g'oyalar. Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik.Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi.Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari haqida. Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari haqida.	
Jami		18

**“Ona tili va adabiyot” fanining “Adabiyot” qismi ma`ruza
mashg'ulotlari mazmuni**

VI. G'afur G'ulom va Quddus Muhammadiy ijodi

G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar.G'afur G'ulomning nasriy asarlari o'zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.G'afur G'ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi. Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir shehrlardagi musiqiylik. Q.Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'rni hamda ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar:A1; Q1; Q3; Q4

VII. Zafar Diyor va Shukur Sa'dulla ijodi

Zafar Diyorning hayoti va ijodi. Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar. Zafar Diyorning she‘riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi. Shukur Sa‘dulla hayoti va ijodi. Sh. Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: *Muammoli ta‘lim, bahs-munozara, blits-so‘rov, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; Q1; Q3; Q4.

VIII. Sulton Jo‘ra va Hakim Nazir ijodi

Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi. Hakim Nazirning hayoti va ijodi. Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi. Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she‘rlarida ifodalangan g‘oyalar haqida.

Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili. Hakim Nazirning hayoti va ijodi. Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: *T-sxemasi, blits-so‘rov, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; Q1; Q3; Q4

IX. Po‘lat Mo‘min va Qudrat Hikmat ijodi

Po‘lat Mo‘minning hayoti va ijodi. Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq mavzusi. Po‘lat Mo‘min – qo‘shiqchi shoir. Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi. Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: *Muammoli ta‘lim, bahs-munozara, blits-so‘rov, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; Q1; Q3; Q4.

X. Xudoyberdi To‘xtaboev va Farhod Musajon ijodi

Xudoyberdi To‘xtaboev hayoti va ijodi. “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiyatlari. Farhod Musajon hayoti va ijodi. Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar. Farhod Musajon - dramaturg adib.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: *Muammoli ta‘lim, bahs-munozara, blits-so‘rov, o‘z-o‘zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; Q1; Q3; Q4.

XI. Miraziz A‘zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

Miraziz A‘zamning hayoti va ijodiy faoliyati. M. Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini. Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati. Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. T. Adashboyevning so‘nggi yillardagi ijodiy faoliyati. Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she‘rlari badiiyati. .

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: *Muammoli ta‘lim texnologiyasi: aqliy hujum, charxpalak, klaster metodlari.*

Adabiyotlar: A1; Q3; Q4.

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi

Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati. Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she'rlarining mavzu doirasi. Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. Muhammad Alining ona-tabiati tasviri chizilgan asarlari. Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar. Muhammad Alining temuriylarga bag'ishlab yozilgan romanlari haqida.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim texnologiyasi: aqliy hujum, charxpalak, klaster metodlari.*

Adabiyotlar: A1; Q3; Q4.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko'chimov ijodi

Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida. Anvar Obidjon she'rlarida kitobxon ongiga ta'sir qilish emas, qalbiga yo'l topishga bo'lgan urinishlar. Anvar Obidjonning "Sen eshitmagan qo'shiqlar" turkumi – o'quvchilarning eng sevimli to'plami. Anvar Obidjon – ustozlar e'tirofida. Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati.

Abusaid Ko'chimovning kichikintoylarga bag'ishlangan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *Muammoli ta'lim, bahs-munozara, blits-so'rov, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; Q1; Q3; Q4.

XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi

Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi. Hamza Imonberdiyevning "Adolat kaliti" ertagida ilgari surilgan g'oyalar. Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik. Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi. Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari haqida. Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari haqida.

Boshlang'ich ta'limi va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi III kurs talabalari uchun "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotining kalendar tematik rejasini

VI semestr

Ona tili va adabiyot" fanining "Adabiyot" qismi amaliy mashg'ulotlari mazmuni

	Mavzular	soat
	<p>Gʻafur Gʻulomning bolalar uchun yozilgan sheʼrlarida ilgari surilgan gʻoyalar.Gʻafur Gʻulomning nasriy asarlari oʻzbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.Gʻafur Gʻulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi.</p> <p>Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir shehrlardagi musiqiylik. Q.Muhammadiy sheʼriyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning oʻrni hamda ahamiyati.</p>	2
	<p>Zafar Diyorning hayoti va ijodi. Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan gʻoyalar.Zafar Diyorning sheʼriy asarlarida inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarning ifodalanishi. Shukur Saʼdulla hayoti va ijodi. Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.</p>	2
	<p>Sulton Joʻraning hayoti va ijodi.Hakim Nazirning hayoti va ijodi. Sulton Joʻraning hayoti va ijodi.Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi sheʼrlarida ifodalangan gʻoyalar haqida.</p> <p>Sulton Joʻraning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili. Hakim Nazirning hayoti va ijodi.Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bagʻishlangan asarlariga xos xususiyatlar.Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bagʻishlangan asarlarining ahamiyati haqida.</p>	2
	<p>Poʻlat Moʻminning hayoti va ijodi. Poʻlat Moʻmin ijodida odob-axloq mavzusi.Poʻlat Moʻmin – qoʻshiqchi shoir. Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi sheʼrlarining oʻziga xos xususiyatlari. Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan gʻoyalar.</p>	2
	<p>Xudoyberdi Toʻxtaboyev hayoti va ijodi. “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiatlari. Farhod Musajon hayoti va ijodi.Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bagʻishlangan hikoyalarida ilgari surilgan gʻoyalar. Farhod Musajon - dramaturg adib.</p>	2
	<p>Miraziz Aʼzamning hayoti va ijodiy faoliyati. M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini. Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati.</p>	2

Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. T.Adashboyevning so‘nggi yillardagi ijodiy faoliyati. Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she‘rlari badiiyati.	
Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati.Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan she‘rlarining mavzu doirasi. Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar. Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari. Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar. Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida.	2
Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo‘nalish sifatida. Anvar Obidjon she‘rlarida kitobxon ongiga ta‘sir qilish emas, qalbiga yo‘l topishga bo‘lgan urinishlar.Anvar Obidjonning “Sen eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi – o‘quvchilarning eng sevimli to‘plami. Anvar Obidjon – ustozlar e‘tirofida. Abusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. Abusaid Ko‘chimovning kichkintoylarga bag‘ishlangan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar. Abusaid Ko‘chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.	4
Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.Hamza Imonberdiyevning “Adolat kaliti” ertagida ilgari surilgan g‘oyalar. Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik.Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj‘) shaklidagi turkumidagi she‘rlarning o‘ziga xosligi.Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi she‘rlari haqida. Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari haqida.	2
Jami	20

6.1 G‘afur G‘ulomning bolalar uchun yozilgan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..

6.2 G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..

6.3 G‘afur G‘ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash..

6.4 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo‘yicha ishlash.

6.5 Shoir she'rlardagi musiqiylik yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash..

6.6 Q.Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'rni hamda ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash. 7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

7.2 Zafar Diyorning "Mashinist" dostonida ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

7.3 Zafar Diyorning she'riy asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

7.4 Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

7.5 Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.1 Sulton Jo'raning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she'rlarida ifodalangan g'oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.3 Sulton Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.4 Hakim Nazirning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.6 Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag'ishlangan asarlarining ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.1 Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

9.1 Po'lat Mo'min ijodida odob-axloq mavzusi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.3 Po'lat Mo'min – qo'shiqchi shoir. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.4 Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.5 Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.6 Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

10.1 Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

10.2 "Sariq devni minib", "Qasoskorning oltin boshi", "Besh bolali yigitcha" asarlarining badiiy xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

10.3 Farhod Musajon hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan hikoyalarda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

10.5 Farhod Musajonning dramaturg sifatidagi ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.1 Miraziz A'zamning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash

11.2 M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.3 Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.4 Tursunboy Adashboev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.5 T.Adaboshevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.6 Shoirning ona tabiat va Vatan mavzusidagi she'rlari badiiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.2 Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she'rlarining mavzu doirasi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.3 Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.6 Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.7 Muhammad Alining temuriylarga bag'ishlab yozilgan romanlari haqida yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.1 Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida.

13.2 Anvar Obidjon she'rlarida kitobxon ongiga ta'sir qilish emas, qalbiga yo'l topishga bo'lgan urinishlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.3 Anvar Obidjonning "Sen eshitmagan qo'shiqlar" turkumi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.4 Anvar Obidjon ustozlar e'tirofida.

13.5 Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.6 Abusaid Ko'chimovning kichkintoylarga bag'ishlangan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.7 Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.1 Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.2 Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.3 Hamza Imonberdiyevning "Adolat kaliti" ertagida ilgari surilgan g'oyalar.

14.4 Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.5 Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.6 Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.7 Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliqlarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi shakllar tavsiya qilinadi:

- dasturda tavsiya qilingan darslik va qo'llanmalardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;

- o'zlari mustaqil izlab topgan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;

- badiiy adabiyotlardan ona tili bo'yicha muayyan mavzularga doir misollar ko'chirish;

- chuqur o'rganilishi talab qilinadigan mavzular yuzasidan jadvallar va slaydlar tayyorlash;

- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda test topshiriqlarini tayyorlash ;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda lug'atlar tuzish ;

Boshlang'ich ta'limi va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi III kurs talabalari uchun "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ish mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi soatda
V-semestr uchun				
1	Sintaksis haqida umumiy ma'lumot.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va konspekt qiladi	2,3- haftalar	2
2	So'z birikmasi.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	4- haftalar	4
3	Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	2
4	Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va konspekt qiladi	2,3- haftalar	4
5	Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	2
6	Gapning uyushiq bo'laklari	Referat	2,3- haftalar	2
7	Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	4
8	Gapning ajratilgan bo'laklari	Referat	2,3- haftalar	2

9	Ajratilgan bo'laklarning turlari	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	2
Jami				24
№	Mustaqil ish mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish muddati	Hajmi soatda
VI-semestr uchun				
1	Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	2,3- haftalar	2
2	Bir bosh bo'lakli gaplar	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va konspekt qiladi	4- haftalar	4
3	To'liq va to'liqsiz gaplar.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	2
4	G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar.	Referat	2,3- haftalar	4
5	Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	2
6	Zafar Diyorning hayoti va ijodi.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	2,3- haftalar	2
7	Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va konspekt qiladi	4- haftalar	4
8	Sulton Jo'raning hayoti va ijodi.	Hujjatlarni mustaqil o'rganadi va hisobot yozadi	5- haftalar	2
9	Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi	Referat	2,3- haftalar	2

	bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar			
Jami				24

“Ona tili va adabiyot” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari

“Ona tili va adabiyot” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektiv, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan monitoring va ichki nazorat bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Ya.N.-30 ball, J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabani saralash balldan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabani fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = V * O' / 100$,
bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori bali to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabani semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendarъ tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) nafardan kam bo'lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Appelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakul'tet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

“Ona tili va adabiyot” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezon

“Ona tili va adabiyot”fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan monitoring va ichki nazorat bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Ya.N.-30 ball, J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash ballidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = V * O' / 100$,

bu yerda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' - fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendarь tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakulьtet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakulьtet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) nafardan kam bo'lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Appelyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakulьtet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Nazorat turlari va ularning soni

“Ona tili va adabiyot” fani yuzasidan 2 ta joriy, 2 ta oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Fan bo'yicha ballar amaliy mashg'ulotlarida tegishli nazoratlarni o'tkazish orqali to'planadi.

3-kurs talabalari uchun “Ona tili va adabiyot” fanidan nazorat shakllari bo'yicha ballar taqsimoti va talabalar bilimni baholashning reyting mezonlari

N	Baholash turlari	O'tkazish shakli	Bajarilish mexanizmi	Maksimal ball	Bajarish vaqti	Izoh
I. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha						

I	1-JN (MT)	amaliy	Har bir mashg'ulotda topshiriqlardan iborat amaliy ish o'tkazish. Topshiriqlar mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi.	har bir topshiriq 1,5 balldan ajratilgan, 14-amaliy mashg'ulotdan keyin talabalar to'plagan ballari jamlanadi. Jami 20 ball	dars davomida	o'tish balini to'play olmagan talabalar mustaqil ta'lim soati hisobidan dars jadvalidan tashqari vaqtda qayta topshirishi mumkin
	2-JN (MT)	amaliy	Har bir mashg'ulotda topshiriqlardan iborat amaliy ish o'tkazish. Topshiriqlar mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi.	har bir topshiriq 1,5 balldan ajratilgan, 14-amaliy mashg'ulotdan keyin talabalar to'plagan ballari jamlanadi. Jami 20 ball	dars davomida	o'tish balini to'play olmagan talabalar mustaqil ta'lim soati hisobidan dars jadvalidan tashqari vaqtda qayta topshirishi mumkin.

Joriy nazorat uchun umumiy ball 40 ball

II. Ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha

II	1-ON (MT)	test	30 ta savoldan iborat variantlar asosida test nazorat ish o'tkazish. Test savollari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi	30 ta savol: har biri 0,5 balldan Jami 15 ball	darsdan tashqari	ayrim talabalar bilan ON o'tkazish og'zaki suhbat tarzda amalga oshirili-shi mumkin
	2-ON (MT)	yozma	3 ta savoldan iborat variantlar asosida yozma nazorat ish o'tkazish. Savollar mustaqil ta'lim	3 ta savol: har biri 5 balldan Jami 15 ball	darsdan tashqari	ayrim talabalar bilan ON o'tkazish og'zaki suhbat tarzda amalga oshirili-shi mumkin

			uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi			
Oraliq nazorat uchun umumiy ball 30 ball						
I II	YaN	yozm a	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha 3 ta savoldan iborat variant asosida amaliy nazorat ish o'tkazish	3 ta savol: har biri 10 balldan. Jami 30 ball	darsda n tashqari	-
Yakuniy nazorat uchun umumiy ball 30 ball						

3-kurs talabalari uchun "Ona tili va adabiyot" fanidan nazorat shakllari bo'yicha ballar taqsimoti va talabalar bilimni baholashning reyting mezonlari

N	Baholash turlari	O'tkazish shakli	Bajarilish mexanizmi	Maksimal ball	Bajarish vaqti	Izoh
I. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha						
I	1-JN (MT)	amaliy	Har bir mashg'ulotda topshiriqlardan iborat amaliy ish o'tkazish. Topshiriqlar mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi.	har bir topshiriq 1,5 balldan ajratilgan, 14-amaliy mashg'ulotdan keyin talabalar to'plagan ballari jamlanadi. Jami 20 ball	dars davomida	o'tish balini to'play olmagan talabalar mustaqil ta'lim soati hisobidan dars jadvalidan tashqari vaqtda qayta topshirishi mumkin
	2-JN (MT)	amaliy	Har bir mashg'ulotda topshiriqlardan iborat amaliy ish o'tkazish. Topshiriqlar mustaqil ta'lim	har bir topshiriq 1,5 balldan ajratilgan, 14-amaliy mashg'ulotdan keyin talabalar	dars davomida	o'tish balini to'play olmagan talabalar mustaqil ta'lim soati hisobidan dars jadvalidan tashqari vaqtda

			uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi.	to'plagan ballari jamlanadi. Jami 20 ball		qayta topshirishi mumkin.
Joriy nazorat uchun umumiy ball 40 ball						
II. Ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha						
I I	1-ON (MT)	test	30 ta savoldan iborat variantlar asosida test nazorat ish o'tkazish. Test savollari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi	30 ta savol: har biri 0,5 balldan Jami 15 ball	darsda n tashqari	ayrim talabalar bilan ON o'tkazish og'zaki suhbat tarzda amalga oshirili-shi mumkin
	2-ON (MT)	yozma	3 ta savoldan iborat variantlar asosida yozma nazorat ish o'tkazish. Savollar mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi	3 ta savol: har biri 5 balldan Jami 15 ball	darsda n tashqari	ayrim talabalar bilan ON o'tkazish og'zaki suhbat tarzda amalga oshirili-shi mumkin
Oraliq nazorat uchun umumiy ball 30 ball						
I II	YaN	yozma	Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha 3 ta savoldan iborat variant asosida amaliy nazorat ish o'tkazish	3 ta savol: har biri 10 balldan. Jami 30 ball	darsda n tashqari	-
	Yakuniy nazorat uchun umumiy ball 30 ball					

**Baholash me'zonlari
1-joriy nazort uchun:**

Amaliy mashg'ulotlarda qatnashib, uning topshiriqlarini to'la bajargan talabalarga 1,4 ball beriladi, agar to'liq bo'lmasa bajarish darajasiga qarab 0,8 ballgacha beriladi. Mashg'ulotlarda mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi. 14-amaliy mashg'ulotdan keyin to'plangan ballar jamlanadi. Jami ball-20 ball.

A'lo bahoga (86-100)- 17,2-20 ball

Yaxshi bahoga (71-85)-14,2-17,1 ball

Qoniqarli bahoga (55-70)-11-14,1ball

Qoniqarsiz bahoga (55-dan kam)-11 balndan kam.

2-joriy nazort uchun:

Amaliy mashg'ulotlarda qatnashib, uning topshiriqlarini to'la bajargan talabalarga 1,5 ball beriladi, agar to'liq bo'lmasa bajarish darajasiga qarab 0,8 ballgacha beriladi. Mashg'ulotlarda mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi. 13-amaliy mashg'ulotdan keyin to'plangan ballar jamlanadi. Jami ball-20 ball.

A'lo bahoga (86-100)- 17,2-20 ball

Yaxshi bahoga (71-85)-14,2-17,1 ball

Qoniqarli bahoga (55-70)-11-14,1ball

Qoniqarsiz bahoga (55-dan kam)-11 balndan kam.

1-oraliq nazort uchun:

Oraliq baholash test tarzda o'tkazilib, 50 ta savolga javob berish so'raladi. Test savollari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi. Har bir savol 0,3 balgacha qo'yiladi va baholanadi, jami 15 ball.

A'lo bahoga (86-100)- 12,9-15 ball

Yaxshi bahoga (71-85)-10,7-12,8 ball

Qoniqarli bahoga (55-70)-8,3-10,6 ball

qoniqarsiz bahoga (55-dan kam)- 8,2 balndan kam.

2-oraliq nazort uchun:

Oraliq baholash yozma variant asosida o'tkazilib, 3 ta savolga javob berish so'raladi. Variant savollari mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni ham qamrab oladi. Har bir savol 5 balgacha baholanadi, jami 15 ball.

–Agar savol mohiyati to'liq ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq bo'lsa – 4,3-5 balgacha;

–Savolning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa 3,5-4,2 balgacha;

–Savolga umumiy tarzda javob berilgan ammo ayrim kachiliklar bo'lsa 2,8-3,5 balgacha;

–Savolga umumiy javob berilgan ammo, ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa 2,7 baldan kam ball qo'yiladi.

A'lo bahoga (86-100)- 12,9-15 ball

Yaxshi bahoga (71-85)-10,7-12,8 ball

Qoniqarli bahoga (55-70)-8,3-10,6 ball

qoniqarsiz bahoga (55-dan kam)- 8,2 baldan kam.

Yakuniy nazorat uchun:

Yakuniy baholash yozma ish shaklida o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi.

- har bir savolga 10 ball ajratiladi.

- Agar berilgan barcha savollarga aniq va to'g'ri javoblar belgilansa 8,6-10 ball;

- Savollarga javob to'g'ri bo'lsa, ammo kichik xatoliklarga yo'l qo'ysa 7,1-8,5 ball;

- Savollarga javob berilgan, lekin ayrim xatoliklari bor bo'lsa, 5,5-7 ball;

- Berilgan savolda javoblar umumiy va xatoliklar ko'proq bo'lsa 5,4 balldan kam ball beriladi.

A'lo bahoga (86-100)- 25,8-30 ball

Yaxshi bahoga (71-85)-21,3-25,7 ball

Qoniqarli bahoga (55-70)-16,5-21,2 ball

Qoniqarsiz bahoga (55-dan kam)- 16,4 baldan kam.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslari hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2011, 260 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 3.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 4.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
5. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

1-MAVZU. Kirish. Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. (2 soat)

REJA:

1. Grammatika terminining qisqacha tarixi .
2. Grammatikaning o'rganish ob'ektlari.
3. Grammatikaning umumiy xususiyati.
4. Grammatikaning tarkibiy qismlari.
5. Sintaksisning maqsad va vazifalari

1- asosiy savol: Grammatika terminining qisqacha tarixi.

Darsning maqsadi: talabalarda grammatika fanining tarixiy taraqqiyoti haqida qisqacha ma'lumot hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI

Grammatika terminining ma'nosini aytib beradi .

Grammatika tushunchasi doirasining kengayib borganligini tushuntirib beradi.

Grammatikaning ikki ma'noda tushnilishini izohlab beradi.

Tilning asosi nima ekanligini ochib beradi .

Grammatikaning turlarini aniqlaydi.

Grammatikaning ilmiy - amaliy ahamiyatini asoslab beradi

1- savol bayoni:

Grammatika yunoncha «grammatike» so'zidan olingan bo'lib, aslida "yozish san'ati" ma'nosini bildiradi. Manbalarga qaraganda, u qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi. (1-89-b): gramma – yozuv belgisi, chiziq degani. Fonogramma, telegramma, stenogramma so'zlari tarkibida bor.

Demak, grammatika hozirgi grammatika darajasiga ko'tarilguncha, uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini boshidan kechirgan. Dastlab u, darhaqiqat, yozuv tilini tekshirish bilan shug'ullangan. Shu sababli ham u "yozuv san'ati" ma'nosini bildirgan. Biroq ijtimoiy hayot va fan taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda grammatika tushunchasining doirasi kengayib, yozuvi bo'lmagan jonli tillarni ham tekshira boshlagan, lekin nomi o'zgarmagan. Biz bu erda shakl va mazmun nomutanosibligini ko'ramiz. Shunday qilib, grammatikaning ma'nosi ham, uning o'rganish ob'ekti ham kengayib, tilshunoslik fanining muhim tarkibiy qismini anglatadigan atamaga aylana bordi va bir tildagi so'zlarning tuzilishi, gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishi kabi masalalarni o'rgana boshladi. Grammatika endi tilning muhim xususiyatlarini o'rganuvchi ilmning nomi sifatida til qonunlarini, til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini, til taraqqiyoti jarayonida bo'ladigan turli o'zgarishlar, hodisalarni nazariy o'rganib, umumlashtira boshladi. Bu esa tilning amaliy jihati uchun ham katta ahamiyatga egadir. Har bir tilning asosi uning fonetik tizimi, leksikasi va grammatikasidir. Grammatika vositasida kishilar o'z fikrlarini gap orqali ifodalaydilar. Gap, odatda, bir-biri bilan o'zaro bog'langan so'zlardan tashkil topadi. Demak, yakka holdagi so'zlar mustaqil, ayrim ma'nolarni ifodalay olsa ham, ular nutqda chambarchas bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Ular yolg'iz holda, odatda, bir butun fikrni ifodalay olmaydi. Masalan: ko'katlar, shamol, silkitmoq so'zlarining har biri alohida ma'noga ega bo'lsa ham, aniq bir fikrni ifodalamaydi. Lekin ularni grammatik qonun-qoidalar asosida bog'lab, "Shamol ko'katlarni silkitdi" desak, ma'lum fikr ifodalanadi. Ko'rinadiki, grammatika, birinchi galda, fikrning ifodalanishi uchun, demak, gapni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Binobarin, grammatika, har qanday so'zlarni emas, balki gap tarkibidagi so'zlarni va bu so'zlarning o'zaro birikishi natijasida hosil bo'ladigan bog'lanmalar: so'z birikmasi va gaplarni o'rganadi. Gap tarkibidagi so'zlar gapdan tashqaridagi so'zlardan farq qilib, gap bilan bog'liq belgi-xususiyatlarga ega bo'ladi. Gapdan tashqarida so'z leksikologiya aspektida qaralib, tub va yasama so'z holatida lug'aviy ma'no ifodalasa, gap tarkibida

muayyan grammatik ma'no va vazifa bajarish uchun muvofiqlashadi: muayyan grammatik (morfologik va sintaktik) ma'no ifodalovchi semantik-sintaktik elementga aylanadi. Bu ularning muayyan sintaktik birikmalarda muayyan morfologik shakllarda kelishida o'z ifodasini topgan.

Muhokama uchun savollar:

1. Grammatikani keng va tor ma'noda tushunish.
2. Grammatikaning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi va farqi.
3. Sintaksis nutq birliklarini o'rganishi kerakmi, til birliklarini o'rganishi kerakmi?
4. Grammatikaning umumiyliigi nimada?

2- savol: Grammatikaning o'rganish ob'ektlari.

Darsning maqsadi: Grammatikaning o'rganish ob'ektlari: so'z turkumlari, so'z-shakllari, so'zlarning o'zaro aloqasi va munosabati, so'z birikmalari, gaplar haqida umumiy tushuncha hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI.

- 2.1. Grammatikaning o'rganish ob'ektlarini aytib beradi.
- 2.2. Grammatikaning o'rganish ob'ektlarini farqlaydi .
- 2.3. Berilgan javobdan grammatikaning o'rganish ob'ektlarini topib beradi.
- 2.4. Grammatikaning va leksikologiyaning o'rganish ob'ektlarini taqqoslaydi.
- 2.5. Berilgan til birligiga grammatik jihatdan baho beradi.

2- savol bayoni :

Grammatika so'zlarning umumiy ma'nolari, so'zlarning o'zgarishi, gapdagi munosabati, o'zaro bog'lanishi haqidagi qoidalaridan iborat bo'lib, u tilning ichki xarakterini, holatini ko'rsatadi. Adabiy tilni yaxshi egallash, fikrni aniq, ravshan tushuntirish, adabiy tilda so'zlashish uchun tilning lug'at tarkibi bilan birga grammatikasini puxta bilish zarur. Tilning so'z boyligini, so'zlarning to'g'ri va turli ko'chma ma'nolarini, uslubiy imkoniyatlarini, shuningdek, grammatik hodisalar, qonun-qoidalarni o'zlashtirmay turib, tilni mukammal egallash mumkin emas.

Har bir tilning leksikasi va frazeologiyasi uning lug'aviy birliklarini tashkil qiladi. Lug'aviy birliklar gap tarkibida doimo o'zaro bog'langan holda bo'ladi, bu esa ularning muayyan shakllarda kelishini taqozo qiladi. Shu ma'noda leksikologiyada leksemalar, lug'aviy ma'no birliklari o'rganilsa, grammatikada so'zlarning umumiy leksik-grammatik kategoriyalari, so'zlarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan so'z-shakllar, so'zlarning o'zgarishini ta'minlovchi omillar, so'zlarning bog'lanishi, buning natijasida yuzaga keladigan bog'lanmalar, bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar, qonun-qoidalar, usullar o'rganiladi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1.1. Grammatika nimalarni o'rganadi?
- 2.1.2. Morfologiya va sintaksis nima uchun grammatikaning tarkibiga kiradi?
- 2.1.3. Morfologiya va sintaksisning o'zaro bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
- 2.1.4. Morfologiya nimalarni o'rganadi?
- 2.1.5. Sintaksis nimalarni o'rganadi?
- 2.1.6. Sintaktik birliklar qaysilar?
- 2.1.6. Sintaktik birliklar qanday xususiyatlarga ega?

3-savol: Grammatikaning umumiylik xususiyati.

Darsning maqsadi: Talabalarda grammatikaning umumiyliigi to'g'risida tushuncha hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI :

- 3.1. Leksik va grammatik ma'noni aytib beradi.

3.2. Turkumlik belgisini izohlab beradi.

3.3. Turkumlarga xos belgilarning umumiyiligini tushuntirib beradi .

3.4. So'zlarning bog'lanish usullarining umumiyiligini izohlab beradi.

3-savol bayoni:

Tilning tovush tizimi va leksikasi uning aniq, bevosita sezish, anglash mumkin bo'lgan tomonlaridir. Bunda tilning tovush tomoni uning ma'nosiz tomoni bo'lsa, leksika uning ma'noli tomonidir. Biroq tilning ma'noli tomoni ma'nosiz tomonisiz voqelana olmaydi, moddiylik kasb etmaydi. To'g'ri, leksika yozma shaklda ham moddiylik kasb etadi, biroq hozirgi yozuvlarni tovushlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning fonetik (tovushli) yozuv deyilishi ham shundan. Bu holda tovush tizimi, ta'bir joiz bo'lsa, harfning «ma'nosidir» Demak, yozuv tovush tomoni tufayli mavjuddir. Binobarin, til ma'noli tomonining ikki xil shakli bordek tuyulsa-da, bu ikki shakl aslida bir hodisaning ikki ko'rinishi bo'lib, bu ko'rinishning biri ikkinchisi asosida yuzaga kelgan. Boshqacha aytganda, ular til ma'noli tomonining o'ziga xos farqli ikki ko'rinishi emas. So'zlarning yozma shakli tovushsiz alohida yashash imkoniyatiga ega emas, ular tovushsiz o'z kuchi, ahamiyatini yo'qotadi. Xullas, yozuv tilning fonetika yoki leksika singari mustaqil sohasi emas, balki ularning «soyasi»dir. Fonetika va leksika uchun bu «soya»ning bo'lishi-bo'lmasligining ahamiyati yo'q, biroq «soya» uchun ularning bo'lishi shart. Shu bilan birga, bu «soya» tovush tizimi va leksikaning tilning aniq, konkret mohiyatga ega tomonlaridan ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Tilning tovush tomoni va leksikasiga konkretlik, aniqlik xarakterli bo'lsa, tilning grammatikasi uchun mavhumlik va umumiylik xosdir. To'g'ri, grammatik shakllar aniq, konkret, biroq bu aniq shakllarning ma'nosi leksik ma'noga nisbatan umumiyligi, mavhumligi bilan xarakterlanadi. Chunki grammatik shakl va grammatik ma'no bir so'zni nazarda tutmay, u yoki bu turkum, guruhga oid so'zlarga taalluqlidir. Jumladan, so'zlarning o'zgarishi, birikishi haqidagi har bir qoida ma'lum bir so'zning o'zgarishi, bog'lanishigagina emas, balki shu turdagi bir guruh so'zlarga, chunonchi, otlarga yoki otlashgan so'zlarga xos grammatik qoida bo'lib umumlashadi. Masalan, otlardagi kelishik, egalik, son, fe'llardagi zamon, nisbat, mayl, shaxs-son; sifat va ravishlardagi daraja kabilar yoki ega yoki kesim, ergash, bosh gap kabi hodisalar muayyan bir so'z, gapga xos emas, balki bir necha yoki bir turkumga xos umumlashgan grammatik hodisalardir.

Grammatika muayyan bir predmet nomi bilan qiziqmaydi. Grammatika predmetning og'ir-engilligi, rangi, to'g'ri-egriligi, qattiq-yumshoqligi, uzun-qisqaligi va boshqa xususiyatlarni nazarda tutmaydi. Grammatika uchun er, osmon, daryo, daraxt, suv, tuproq, odam, quvonch, do'stlik kabi so'zlarning umumlashgan, mavhumlashgan grammatik xususiyati muhimdir (bularning umumiy belgisi predmet yoki hodisa, munosabatning umumiylik nomini anglatishdir), shuning uchun grammatika bu so'zlarni ot kategoriyasi doirasida umumlashtiradi va shu yo'sinda o'rganadi.

Demak, so'zning aniq, bevosita uqiladigan ma'nolari uning leksik sathiga oid bo'lsa, uning ana shu aniq ma'nosi asosidagi mavhum, umumiy ma'nosi grammatika sathiga oiddir. Biz buni grammatikaning o'rganish ob'ekti bo'lgan har bir hodisada, jumladan, so'z birikmasi komponentlarining o'zaro bog'lanish usullarida ham ko'ramiz. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv deb atalgan bu usullar chegaralanmagan miqdordagi so'zlarning bog'lanish xususiyatlarini o'zlarida aks etiradi. Jumladan, moslashuv mening daftarim, shoir qalbi, uzukning ko'zi, futbolchining harakati, gapning bo'lagi, kostyumning tugmasi, qovunning ta'mi kabi cheksiz miqdordagi birikmalarning bog'lanish xususiyatlarini bildiradi.

Muhokama uchun savollar:

3.3.1. Grammatik ma'noning umumiyligi nimalarda ko'rinadi ?

3.3.2. Grammatikaning o'ziga xos xususiyati nimada ?

3.3.3. Umumiyligiga ko'ra morfologik ma'no va sintaktik ma'noning farqi nimalarda ko'rinadi?

4-SAVOL: Grammatikaning tarkibiy qismlari.

Darsning maqsadi: Grammatikaning ikki qismdan-morfologiya va sintaksisdan iborat ekanligi to'g'risida tushuncha hosil qilish .

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI :

- 4.1. Morfologiya haqida umumiy tushuncha beradi.
- 4.2. Sintaksisning o'rganish ob'ektlarini aytib beradi.
- 4.3. Morfologiya va sintaksisning o'zaro bog'liqligi va farqini ko'rsatib beradi.
- 4.4. Sintaksisning o'rganish ob'ektlarini aytib beradi.
- 4.6. Sintaktik birliklarni talqin qiladi.

4- savol bayoni:

Biz yuqorida ko'rdikki, grammatikaning o'ziga xosligi leksikadan farqlanuvchi tomoni uning umumiyligi, umumlashma xarakterda ekanligidir. Biroq bu umumiylilik chek-chegarasiz, bilib bo'lmaydigan, tushunib bo'lmaydigan umumiylilik emas. Grammatikadagi umumiylilik ma'lum shakllardagi, daraja va chegaradagi umumiyliklardir. Ularning ayrimlari muayyan tur, guruhga oid umumiyliliklar bo'lsa, ba'zilar bir necha tur, guruhga oid umumiyliliklardir. Ular orasida umuman tilga oid umumiyliliklar ham bor. Ana shu umumiyliliklar xarakteriga ko'ra grammatika ikki qismga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiya grammatikaning quyi darajadagi umumiyliliklarni o'rganadigan qismi va shunday umumiylilik darajasidagi hodisalardir. Morfologiya so'zlarning birikish qonuniyatlari, usullari va bu birikish natijasida yuzaga keladigan hodisalarni emas, birikishgacha va birikishga tayyor bo'lgan umumiyliliklarni o'rganadi. So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari-so'z turkumlari, so'zlarning ma'noli qismlari, so'z shakllari, ularning hosil bo'lish yo'llari ana shunday hodisalardir. Morfologiyada gap tarkibidan ajratib olingan so'zlarning va so'z-shakllarning belgi-xususiyatlari tekshiriladi. Buning sababi shuki, morfologiyada tilning leksik sathi bilan bog'liq umumiyliliklar ham va sintaktik sath bilan bog'liq umumiyliliklar ham va shu bilan birga ayni morfologiyaning o'zi uchungina xos bo'lgan hodisalar uyg'unlashgandir. Masalan, kitobga so'z shakli morfologik nuqtai nazardan ot (predmetning nomi) predmet tushunchasi bilan bog'liq, kitob o'zak; -ga qo'shimcha, konkret ot, yakka ot, turdosh ot, birlikdagi ot, sanaladigan ot, tushum kelishigidagi ot tavsifiga egadir. Bu erda kitobga so'zining predmet ma'nosini anglatishi, «predmet» tushunchasi bilan bog'lanishi uning leksik sath bilan aloqador jihati bo'lsa, tushum kelishigidagi ot ma'nosi uning sintaktik sathga aloqador xususiyatidir, boshqa belgi-xususiyatlari morfologiyaning o'zi bilan bog'liq ma'nolaridir. Demak, morfologiyada uch xil umumiylilik mujassamlashgan. 1. So'zning bevosita nimani anglatishi, bildirishi, bilan bog'liq leksik sathga aloqador umumiy ma'nosi (predmet, belgi, miqdor, harakat kabilar). 2. So'zning boshqa so'zlar bilan aloqasi, bog'lanishi bilan bog'liq sintaktik sathga aloqador munosabat, bog'lanish holati bilan izohlanuvchi umumiy ma'nosi. 3. Ayni morfologiya bilan izohlanuvchi umumiy ma'no-xususiyatlar. Shu ma'noda morfologiya, leksika va sintaksis orasidagi oraliq shakllarni o'rganuvchi oraliqdagi sohadir. Uning o'ziga xosligi ham shundadir.

Grammatikaning ikkinchi qismi sintaksis esa yuqori darajadagi umumiyliliklarni o'rganadi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, gap bo'laklari, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil hodisalarning birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi bilan bog'liq hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shuning uchun ham u so'zdan, so'z-shakldan yuqori turadigan umumiyliliklarni o'rganadi. Ularni umumiyashtiradi, umumiy qonuniyatlarni yoritadi .

Muhokama uchun savollar:

4.1.1. Morfologiyaning o'rganish ob'ektlari nimalardan iborat?.

4.1.2. Sintaksis nimalarni o'rgatishi kerak ?

4.1.3. Morfologiya va sintaksisning o'zaro aloqadorligi va farqini asoslang.

5-savol: Sintaksisning maqsad va vazifalari

Darsning maqsadi: Talabalarga sintaksisni o'rganishdan maqsad nima ekanligini, uning vazifalarini tushuntirish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

Sintaksisning o'rganish ob'ektlarini aytib beradi.

Sintaksisni o'rganishdan maqsad nima ekanligini biladi.

Sintaksisning vazifalarini bayon qiladi.

5-savol bayoni:

Sintaksis grekcha syntax so'zidan olingan bo'lib, tuzish degan ma'noni bildiradi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, sintaksis tayyor, avvaldan mavjud bo'lgan narsalarni emas, nutq jarayonida tuziladigan, hosil qilinadigan birliklarni o'rganadi. Sintaksisning o'rganish ob'ektlari mohiyat e'tibori bilan kamida ikki mustaqil so'zdan hosil qilingan tuzilma, bog'lanma xususiyatiga ega bo'lishi va bu bog'lanmalar ham bizning xotiramizda saqlanmagan bo'lishi, ayni nutq jarayonida hosil qilinishi lozim. Bu talabga javob bermagan til hodisalari, garchi ular tashqi jihatdan ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan bo'lsa-da, sintaksisning ob'ekti bo'la olmaydi. Shu sababli, so'z birikmasi va gapga har qancha o'xshash bo'lmasin, iboralar, birikmali terminlar, qo'shma so'zlarning barcha turlari, turli xil analitik shakllar sintaksisning o'rganish ob'ekti hisoblanmaydi. Sintaksis jonli nutq jarayonida hosil bo'lgan birikmalar, bog'lanmalar, tuzilmalarnigina tekshiradi. Bunday tuzilmalarning hozirgacha aniqlangan turlari to'rtta: so'z birikmasi, gap(sodda gap), qo'shma gap, mikro matn. Xuddi shu tuzilmalarga qarab sintaksis so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi, qo'shma gap sintaksisi, mikro matn sintaksisiga bo'linadi.

Sintaksisning o'rganish ob'ektlari bevosita nutq jarayonida hosil qilinishi tufayli sintaksis ana shu jarayonni o'rganishga ham alohida diqqat qiladi. Boshqacha aytganda, sintaksis nutq jarayonida hosil bo'lgan tuzilmalarnigina emas, bu tuzilmalarning hosil bo'lish jarayonini ham o'rganadi. Shu sababli sintaksis nutq jarayonida so'zlar, gaplar qanday bog'lanadi, bu bog'lanish jarayonlari qanday kechadi, bu jarayonda qanday hodisalar, o'zgarishlar ro'y beradi? degan savollarga ham javob beradi. Keyingi paytda bu jarayonlar haqidagi ma'lumotlar sintaktik aloqa va munosabatlar rubrikasida alohida o'rganilmoqda va sintaktik birliklarni o'rganishdan oldin berilmoqda. Bu bejiz bo'lmay, sintaktik aloqa va munosabatlarning barcha sintaktik birliklarga taalluqli ekanligi bilan belgilanadi. Zero, har qanday sintaktik tuzilma u yoki bu sintaktik aloqa-munosabat natijasida yuzaga keladi. Demak, sintaksisda so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, mikro matn kabi sintaktik birliklar bilan birga, bu birliklarning yuzaga kelish jarayonlari, sintaktik aloqa va munosabatlar ham o'rganiladi. Sintaksisning vazifalari ham shulardan kelib chiqadi. Bu vazifalarning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. So'zlarning o'zaro bog'lanish usullari va vositalarini o'rganish.
2. Sintaktik aloqa va uning tur va tiplarini o'rganish.
3. Sintaktik munosabat va uning turlarini o'rganish.
4. So'z birikmasi, uning tur va tiplarini o'rganish.
5. Gap va uning grammatik kategoriyalarini o'rganish.
6. Gaplarni tasnif qilish.

Bu hodisalar orasida gapni o'rganish asosiy o'rin tutadi. Chunki gap fikr ifodalovchi asosiy sintaktik birlikdir. Sintaksisni o'rganishdan maqsad esa mustaqil fikr ifodalash va fikrlarni maqsadga muvofiq shakllantirishni o'rganish, fikrni har xil shakllarda ifodalashga ko'nikma hosil qilishdir. So'z birikmasi gapning tarkibiy qismi sifatidagi sintaktik birlik hisoblanadi. So'z birikmasi mustaqil sintaktik birlik emas. qo'shma gap ham gap bilan bog'liq asosiy grammatik xususiyatlarga ega. Mikro matn turli gaplarning bir mavzu, g'oya atrofida uyushishidan hosil bo'ladi. Demak, gap sintaksisda markaziy o'rin tutuvchi, boshqa sintaktik birliklarning mohiyatini belgilashda qatnashuvchi markaziy masaladir. Shu sababli ba'zilar sintaksisni gap haqidagi ta'limot ham deyishadi. Shu ma'noda sintaksisni o'rganishdan maqsad gapni o'rganishdir, deyish mumkin. Ammo gapni nimaga o'rganamiz, degan savol ham bor. Biz gapni fikrni to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalash uchun o'rganamiz. Gap tuzish qonun-qoidalarini o'rganish har bir talabning oldida turgan muhim vazifadir. Bunda bizga yordam beruvchi asosiy fan sintaksisdir.

Demak, biz sintaksisni mohiyat e'tibori bilan fikrlash mohiyatini o'rganish, fikrimizni yaxshi, to'g'ri, chiroyli, maqsadga muvofiq ifodalashga ko'nikma hosil qilish uchun o'rganamiz. Sintaksisning oldiga qo'yilgan vazifalar ham ana shu bosh maqsadga bo'ysundirilgan va shunday bo'lishi lozim. Aks holda, u o'zining vazifasini to'liq bajarmagan bo'ladi.

IDENTIV O'QUV MAQADLARI:

Sintaktik munosabat turlarini aytib beradi.

Sintaktik munosabat nima ekanligini tushuntirib beradi.

Berilgan matndan sintaktik munosabat turlarini topib beradi .

Sintaktik munosabatlarning ifodalanishidagi nomutanosiblik haqida fikr yuritadi.

1-savol bayoni:

1. Sintaktik birliklar – so'z birikmasi, gap va matnning mohiyatini bilib olish ularni tashkil etuvchi qism – bo'laklarning belgi xususiyatlarini o'rganishni taqozo qiladi. qismlar belgi-xususiyatlari doirasida ularning o'zaro munosabati va aloqasi masalasi muhim o'rin tutadi. Zero, sintaktik butunliklar yoki birliklar ayni qismlarning o'zaro munosabati va aloqasi natijasidagina yuzaga keladi. Sintaktik birliklar qismlarining (so'z, gap bo'lagi, sodda gap, qo'shma gaplarning) mazmuniy munosabati kishi ongida aks etgan moddiy dunyodagi elementlarning o'zaro munosabatini aks ettiradi. Masalan, predmet va uning belgisi (ta'mi-mazasi, rangi, miqdori va boshqa xususiyati) o'rtasidagi munosabat, harakat va uning belgisi (tarzi, sababi, o'rni, payti va shu kabilar) o'rtasidagi munosabat, harakat va uning sub'ekti o'rtasidagi munosabat, harakat va uning ob'ekti o'rtasidagi munosabat va boshqalar. Demak, sintaktik munosabat sintaktik birliklar komponentlarining o'zaro mazmuniy munosabatini ifodalovchi sintaktik kategoriyadir. Mazmuniy sintaktik munosabatlarni umumlashtirgan holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Sub'ekt va predikat munosabati yoki sub'ektli munosabat.

Belgi va predmet o'rtasidagi munosabat yoki atributiv munosabat..

Belgi bilan harakat o'rtasidagi munosabat yoki relyativ munosabat .

Predmet (ob'ekt) va harakat o'rtasidagi munosabat yoki ob'ektli munosabat .

Sub'ektli munosabat sub'ekt va uning harakati munosabatidir. Bu munosabat ikki xil bog'lanish orqali ifodalanadi. Birida ega va kesimning moslashuv yo'li bilan bog'lanishi orqali ifodalanadi. Masalan: Behzod kelyapti. Ikkinchisida esa sub'ektni bildiruvchi qism qaratqich aniqlovchi shaklida, qaratuvchi predmetni bildiruvchi qism egalik shaklida qaralmish vaziyatida keladi. Demak, qaratuvchi va qaralmishning moslashuv aloqasi orqali ifodalanadi. Masalan : Otamning xotirasi .

Anglashiladiki, sub'ektli munosabat borliqdagi ma'lum holat- vaziyatni aks ettiradi va tilning ikki xil birligi orqali ifodalanadi : a) gap orqali (ega-kesim orqali); b) so'z birikmasi orqali (qaratuvchi va qaralmish orqali). Sub'ektli munosabatning bu ikki turini farqlash uchun ega-kesim munosabati orqali ifodalangan sub'ektli munosabatni predikativ, qaratuvchi-qaralmish munosabati orqali ifodalangan sub'ektli munosabatni nopredikativ (muvofiqlashuv) munosabati terminlari bilan atash mumkin.

Relyativ munosabat bir qancha semantik modellarga ega :

1. Harakat-uning sifat yoki miqdor tavsifi (tez gapirmoq, ko'p o'ylamoq).
2. Harakat-uning yuzaga chiqish o'rni (Toshkentdan kelmoq, Germaniyada ishlamoq).
3. Harakat yoki belgi- uning yuzaga chiqish payti (Tushda kelmoq, hamisha baxtiyor);
4. Harakat yoki belgi-uning yuzaga chiqish sababi (Betoblighi uchun bora olmadi yoki betobligidan bora olmadi, mehribonligi uchun hurmatli);
5. Harakat-uning yuzaga chiqish maqsadi (davolanish uchun bordi, o'qish uchun keldi va boshqalar.)

Atributiv munosabat belgi-predmet semantik modelidagi so'z birikmasi uchun xosdir: oq ko'ylak, yaxshi inson, to'rtinchi sinf kabilar. Shoir Abdulla Oripov tipidagi birikmalar ham atributiv munosabatning bir turidir.

Ob'ektli munosabat ob'ekt-predmet, predmet-belgi (chog'ishtiruv birikmalarda: Dadamdan katta, Anvardan kuchli va boshqalar) semantik modellaridagi so'z birikmalarida ifodalanadi. Demak, sintaktik munosabat turlari bilan ularning ifodalanishi o'rtasida nomutanosiblik bor. Bir sintaktik munosabat ikki va undan ortiq shakllarda ifodalanishi mumkin. Bu tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining bir ko'rinishidir. Bulardan tashqari, undalma, kirish, kiritma orqali ifodalanadigan sintaktik munosabat turlari ham borki, bu mazmuniy munosabat yuqoridagi mazmuniy munosabatlardan farqlanadi. Bu undalma orqali ifodalangan predmetning (tinglovchining) gap (jumla) orqali ifodalangan mazmun bilan va kirish, kiritma orqali ifodalangan mazmun bilan jumla mazmuni o'rtasidagi sintaktik munosabatlardir.

Atributiv, relyativ, ob'ektli, sub'ektli munosabatlar gapning sintaktik tuzilishi orqali ifodalanadigan mazmunning ikki birligi o'rtasidagi munosabat bo'lsa, kirish, kiritma, undalma bilan jumla o'rtasidagi munosabat, jumla mazmuni bilan so'zlovchi, tinglovchi o'rtasidagi munosabatdir. Birinchi tipdagi munosabat o'zining shakliy bog'lanish vositalari va usuliga ega bo'lsa (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), ikkinchi turi bunday xususiyatga ega emas. Shuning uchun keyingi tip gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan unsurlar hisoblanadi. Ular so'zlovchining munosabati bilan bog'liq bo'lganligi sababli sub'ektiv munosabat ham hisoblanadi. Birinchi tip esa ob'ektiv munosabatdir.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.1. Sintaktik munosabat nima?
- 1.1.2. Sintaktik munosabat necha turga bo'linadi?
- 1.2.1 Predikativ va muvofiqlashuv munosabatining umumiy va farqli xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

2-savol: Sintaktik aloqa va uni ifodalovchi vositalar.

Darsning maqsadi: Sintaktik aloqa va uni ifodalovchi vositalar to'g'risida tushuncha hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 2.1.1. Sintaktik aloqa va uning ifodalovchi vositalarni aytib beradi.
- 2.2.1. Sintaktik aloqa vositalarining farqlarini tushuntiradi.
- 2.3.1. Sintaktik aloqa vositalari yordamida sintaktik birliklar tuzadi.
- 2.4.1. Sintaktik aloqa vositalarini tuzilishiga ko'ra tasniflaydi .

2-savol bayoni:

Har qanday sintaktik birliklar qismlarining o'zaro mazmuniy munosabati o'zining shakliy bog'lanish vositalariga va bog'lanish usuliga ega. Ayni shu hodisa sintaktik aloqa timsolida namoyon bo'ladi. Demak, sintaktik aloqa o'zaro mazmuniy munosabatda bo'lgan sintaktik birliklar qismlarining so'z birikmasi, gap va matn tarkibida shakliy bog'lanishidir. Bu shakliy sintaktik munosabat ham deyiladi. Demak, sintaktik aloqa u yoki bu mazmuniy munosabatdagi qismlarning o'zaro bog'lanishini ifodalovchi sintaktik tushunchadir. Sintaktik aloqa ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida ro'yobga chiqadi. Bunday vositalar sintaktik aloqa vositalari deyiladi.

O'zbek tilining qonun-qoidalari asosida ma'lum bir so'z yoki so'zlar guruhini bog'lab, nutqning mustaqil (sodda, qo'shma gaplar va mikro matn) va nomustaqil xususiyatga ega bo'lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog'lovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari hisoblanadi. Hozirgacha quyidagi sintaktik aloqa vositalari aniqlangan:

1. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar. Bular kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalaridan iboratdir.

So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar.

1-jadval

Kelishiklar		Egalik qo'shimchalari.			Shaxs - son qo'shimchalari		
Nomi	qo'shimchasi	Shaxs	Birlik	Ko'plik	Shaxs	1-tur	2-tur
Bosh k.	O	1-sh.	-m,-im	-miz	1-shaxs	-m, -k	-man
Qaratqich k.	-ning			-imiz			
	-ni	2-sh.	-ng-	-ngiz	2-shaxs	-ng	miz
Tushum k.	-ga		ing	-ingiz		-ngiz	
	-ka						
Jo'nalish.k.	-qa	3-sh.	-i,	-lari			-san,
	-da		-si		3-shaxs	0,-lar	-siz
O'rin - payt.k	-dan						
Chiqish k.							o,-lar

1. Bulardan egalik va shaxs-son qo'shimchalari bog'li nutqda mustaqil so'zlarni o'zaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar sanalsa, kelishik qo'shimchalari bundan tashqari, ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishida ham ishtirok etadi. qiyoslang: Universitetda o'qiyman. Universitetda o'qiyotganimda, akam mendan doim xabar olib turdi.

2. Fe'l shakllarini yasovchi qo'shimchalar: - r, -ar, -gan, -b, -ib, -gach,-guncha, -gani, -sa kabilar. Bular ko'proq ergash gaplarning kesimi vazifasida kelib,ularni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda ulardan ayrimlari, xususan, sifatdosh yasovchi -r, -ar, -gan, -yotgan qo'shimchalari to'liqsiz fe'l (edi, ekan) yoki kelishik qo'shimchasi, asosan - o'rin-payt kelishigi shakli yoki ko'makchilar bilan birga keladi. Masalan: Nigora biznikiga tez-tez kelib turgani uchun, onam hammani ularnikiga borishga majbur qilar edi. Chet el tovarlari har yoqni to'ldirib, kosiblarning bozori kasod bo'ldi. Er to'ymaguncha, el to'ymas. Otasi o'sha kuni ham kelmagach, ularni vahima bosdi. Borsam, yo'q ekansiz. Hozir mamlakatimizning qaysi burchagiga bormang, u erda bunyodkorlik ishlarining avj olganiga guvoh bo'lasiz. O't o'chiruvchilari etib kelguncha uy yonib, kul bo'lgan edi.

3. Ko'makchilar. Ko'makchilar ham xuddi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar singari gap bo'laklarini va qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vosita hisoblanadi. Masalan: Paxta mashina bilan terilganda, o'z xususiyatini birmuncha yo'qotadi. Sen uchun hech narsamni ayamayman. Shisha bo'shagan sayin, Saidiy o'zini Salimxonga yaqinroq seza boshladi.

4. Yuklamalar. Yuklamalar gap bo'laklari va gaplarga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan birga bog'lovchi vazifasini ham o'taydi. Bu ko'proq ham, -u, -yu, -da, -mi yuklamalariga xosdir. Masalan: Kelibdi-yu ketibdi. Sen-u men. Keldi-da ketdi. "Ham" yuklamasi ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasini o'taydi.

5. Bog'lovchilar. Bog'lovchilar sodda gap qismlarini, qo'shma gap qismlarini o'zaro grammatik va mazmuniy aloqaga kiritish uchun xizmat qiladi. Masalan: Suylab beray Zaynab va Omon, sevgisidan yangi bir doston. Havoni bulut qopladi, ammo yomg'ir yog'madi.

6. Olmoshlar. Olmoshlar ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishida va matn qismlarining o'zaro bog'lanishida xizmat qiladi. Masalan, Toileim shuki, Vatanda bir guliston tanladim. Bu gapda ergash gapni bosh gapga bog'lashda-ki yuklamasi ishtirok etish bilan birga, olmosh mazmuniy "puch" so'z bo'lganligi uchun keyingi gap ana shu "puch" so'zning ma'nosini izohlash, uni "to'ldirish" uchun xizmat qilmoqda. Demak, olmosh asosida ikki gap bog'lanadi.

Olmosh matn hosil qilish vazifasini ham bajaradi. Bu vaqtda mikro matnning birinchi qismida qatnashgan ot, sifat, son o'rnida keyingi gapda olmosh almashinib keladi va bu almashinish matn qismlarini bir butun ichida birlashtirishga xizmat qiladi. Masalan: Bu erimning yaqin o'rtog'i To'lanboy ismli kishi edi. U qiz tanlab – tanlab yoshini o'tkazib qo'ygan, oxiri qirqni qoralab qolganda uylangan, o'zi kichiginagina, har gapiga maqol yoki matal qo'shib gapiradigan so'zamol kishi edi. U kelgan davra birdan yashnab ketar, to'y-hashamlarda u bo'lmasa, o'rni izlanib turadi. U o'zini katta olmas edi.

Bu mikromatndagi gaplarning sintaktik aloqasi birinchi gap tarkibida kelgan atoqli ot To'lanboyning keyingi gaplarda III shaxs kishilik olmoshi bilan almashinish orqali yuzaga chiqadi.

7. Bog'lama. Bog'lama ega va kesimning birikishida shaxs-son, zamon ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchidir. U shu ma'nolarni o'zicha ko'rsata olmaydigan, shu ma'nolarni ifodalovchi formalarga ega bo'lmagan so'zlar bilan birga kelib, ularni ega bilan grammatik jihatdan bog'laydi. (Biz o'qituvchi bo'ldik. U chavandoz edi).

Demak, bog'lama kesim ot bilan (keng ma'noda) ifodalanadigan gaplarda ega va kesimning birikishini ko'rsatuvchi bo'lmoq, hisoblamok, edi, ekan kabi yordamchilardir.

8. Gap bo'laklarining tartibi. So'zlarning sintaktik vazifalari maxsus ko'rsatkichlar bilan ifodalanmaganda, ya'ni yuqoridagi leksik-grammatik vositalar bo'lmaganda, ularning sintaktik aloqasida tartib(nutqda tartib va intonatsiya) bosh rolni o'ynaydi. Bunda so'zning sintaktik vazifasi, asosan, tartib orqali belgilanadi. Tartib o'zgarsa, mazmun bilan birga sintaktik holat ham o'zgaradi. Katta bino - bino katta. Toshkent - O'zbekistonning poytaxti. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent kabi.

9. Intonatsiya. Intonatsiya ham turli sintaktik aloqalarni ifodalashda xizmat qiladigan vositadir. Biror gruppada intonatsion o'zgarish bo'lar ekan, bu odatda sintaktik bo'linishning, mazmunning boshqaligini ko'rsatadi. Masalan : qalin muqovali-kitob (muqova qalin). – qalin - muqovali kitob (kitob qalin). U - ahmoq odam emas (u aqlli)- U ahmoq, odam emas. (U aqlli emas,axmoq).

Bog'lovchisiz qo'shma gapning shart, qarama-qarshilik, sabab kabi ma'nolarni ifodalovchi qismlarida ham maxsus intonatsiya bo'ladi. Masalan: Kunduzi issiq-kechasi sovuq (qarama-qarshilik: kunduzi issiq, lekin kechasi sovuq), tong otdi – men ketdim (harakatning tez almashinishi, harakat tezligi: Tong otdi-yu, men ketdim). Sen kel,u boradi (shart : Sen kelsang, u boradi) kecha boraolmadim: uyga mehmonlar kelib qolishdi (sabab: kecha borolmadim, chunki uyga mehmonlar kelib qolishdi).

Sintaktik aloqalarni ifodalovchi vositalar. 2-jadval

№	Sintaktik aloqalar-ni ifodalovchi vositalarning turlari va xususiyatlari	Biriktiruvchi vositalarning turlari va morfalogik ko'rsatkichlari	Misollar
---	--	---	----------

1	So'z shakli. Bir so'zning boshqa so'zga bog'lanishini ko'rsatadi. Grammatik ma'noni bildiradi	Shakliy-grammatik vositalar: A)kelishik affikslari: -ga, -ning, -ni, -da, -dan B)egalik affikslari: -im, -ing, -i,- ingiz, -imiz V)shaxs-son affikslari: - m,-k,-ing, -ingiz	Maktabga bormoq; uydan chiqmoq; jurnalni o'qimoq Mening kitobim; sening ukang; uning daftari Men keldim; biz keldik; siz keldingiz
2	Yordamchi so'zlar Kelishik affikslariga o'xshash funktsiyani bajaradi. Otni fe'lga bog'laydi.	Leksik-grammatik vositalar: A) ko'makchilar: bilan, uchun, kabi, singari B)bog'lovchilar: (uyu-shiq bo'laklarni va gaplarni bog'laydi) V)bog'lamalar: edi, bo'ldi (ega va kesimni bog'laydi)	Diqqat bilan tinglamoq. O'quvchilar uchun olmoq Dadam fermer edi, hozir rais bo'ldi.
3	So'z tartibi So'zning sintaktik vazi-fasi maxsus ko'rsatkich-lari bilan ifodalanma-ganda, tartib bosh rolni o'ynaydi. Tartib o'zgarsa, grammatik vazifa ham o'zgaradi	Joylashishi	qizil qalam.- qalam qizil Sovuq suv. – Suv sovuq qalin daftar. – Daftar qalin.
4	Ohang Pauzaning o'zgarishi birikmaning bog'lanishini o'zgartiradi	Ohang	Qalin muqovali (kitob, qalin) muqovali kitob., Katta mevali (daraxt. Katta)mevali daraxt., Uchta bolali (ayol. Uchta) bolali ayol. Anvar ukam injener bo'ldi. Anvar, ukam injener bo'ldi. Anvar, ukam, injener bo'ldi.

Muhokama uchun savollar:

IDENTIV O'QUV MAQSADI:

Sintaktik aloqa turlarini sanaydi.

Sintaktik aloqa turlarini izohlaydi.

Berilgan sintaktik birlik qismlari qaysi sintaktik aloqa turi asosida bog'langanini aytib beradi.

Sintaktik aloqa turlari farqini izohlaydi.

Sintaktik aloqa qanday birliklar hosil qilishiga ko'ra dastlab ikkiga bo'linadi.

A) predikativ aloqa; B) nopredikativ aloqa.

PREDIKATIV ALOQA

Ega va kesim orasidagi sintaktik aloqa predikativ aloqadir. Demak, predikativ aloqa natijasida ikki sostavli gap hosil bo'ladi : Havo sovuq. Suvlar muzlagan. Men hayronman. Siz kiring.

NOPREDIKATIV ALOQA

Aniqllovchi-aniqlanmish, to'ldiruvchi va to'ldirilmish orasidagi hamda hol va hollanmish orasidagi aloqa nopredikativ aloqadir. Demak, nopredikativ aloqada fikr ifodalovchi kommunikativ birlik emas, balki tushuncha ifodalovchi nominativ birlik – so'z birikmasi hosil bo'ladi. Masalan: Katak daftar, paxtani termoq: daryoda so'zmoq kabi.

Nopredikativ aloqa barcha turdagi so'z birikmasi komponentlarining o'zaro aloqasini o'z ichiga oladi, shuningdek, uyushiq bo'laklar orasidagi sintaktik aloqa ham nopredikativ aloqa doirasiga kiradi. Uyushiq bo'laklar so'z birikmasiga nisbatan olib so'z tizmalari deb ham yuritiladi.

Sintaktik birliklar komponentlarining sintaktik mavqei bir xil bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shunga ko'ra, sintaktik aloqa ikkiga bo'linadi :

1) teng aloqa, 2) tobe aloqa.

TENG ALOQA

O'zaro bir xil sintaktik vaziyat – mavqedagi, bir xil sintaktik shakldagi, bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar, qismlar aloqasi teng aloqa deyiladi. Sodda gapdagi uyushiq bo'laklar, bog'langan qo'shma gap qismlari va bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari, bir xil tipli ergash gaplar o'zaro teng aloqada bog'langan. Masalan : Ega va kesim sodda gapning grammatik asosi, predikativ qo'shilmadir. Soy shuvillab oqar va uning muzdek shamoli o'tlarni silkitar edi. Agar traktor berilsa,erlar traktor bilan haydalsa, birinchidan, mehnat unumi ortadi, ikkinchidan, hosil mo'l bo'ladi .

Teng bog'lanish turlari. 3-jadval

Teng bog'lanishning asosiy xususiyatlari	Teng bog'lanishni hosil qiluvchi vositalar	Teng bog'lanishdan hosil bo'lgan birliklar	Misollar
Teng qismlarning munosabatini ifodalaydi. Ular o'r-nini almashtirish mumkin: bu gram-matik va mazmun o'zgarishiga olib kelmaydi. Ular boshqa bir qismni aniqlaydi yoki boshqa bir qism tomonidan aniq-lanadi, grammatik vazifasi bir xil bo'ladi.	<p>1. <i>Teng bog'lovchilar:</i></p> <p>a)<i>biriktiruvchi: va, bilan, hamda</i></p> <p>b)<i>zidlovchi: ammo, lekin, biroq, balki</i></p> <p>v)<i>ayiruvchi: dam... dam; yo, yoki, goh...goh</i></p> <p>2.<i>Sanash intonatsiyasi</i></p>	<p>Uyushiq bo'laklar</p> <p>2. qo'shma gap</p>	<p>Kitob va qalam. Men kitob va qalam oldim. Ali bilan Vali keldi. Salim o'qidi, biroq yozmadi. Goh opam, goh akam xabar olib turdi. Karim yoki Salim bir kelib ketsin.</p> <p>Soy guvillab oqar va uning shamoli o'tlarni silkitar-di. Havo bulut bo'ldi, lekin yomg'ir yog'madi. Yo men boray, yo siz keling.</p>

TOBE ALOQA

Har xil, ya'ni biri hokim, ikkinchisi tobe sintaktik mavqedagi bo'laklar yoki komponentlar o'rtasidagi aloqa tobe aloqa hisoblanadi. Tobe aloqadagi komponentlardan biri doim hokim, biri tobe holatda bo'ladi. Tobe bo'lak hokim bo'lakni mazmunan izohlaydi, to'ldirib keladi.

So'z birikmalarida ergash – tobe so'zlar hokim - bosh so'zga uch xil usul bilan: moslashuv, boshqaruv, bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. U yoki bu jihatdan aniqlanadigan, to'ldiriladigan, izohlanadigan komponent doim hokim bo'ladi, hokim bo'lakdagi ana shu noaniqlikni aniqlaydigan, izohlaydigan, to'ldiradigan bo'lak tobe bo'lak hisoblanadi. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim bo'laklari (sodda gapda), ergash gap (qo'shma gapda) ana shunday komponentlardir. Tobelanish gapning asosini tashkil qiluvchi bog'lanishdir, tobelanishsiz gap yuzaga kelmaydi. Gapning asosini tashkil qilgan ega va kesimning o'zaro aloqasi tobelanish yo'li bilan bo'ladi. Anglashiladiki, so'zlarning tobelanish orqali bog'lanishi natijasida yo so'z birikmasi (quvnoq qiz kabi) yoki gap hosil bo'ladi. (qiz quvnoq kabi). Tobelik CBda moslashuv, boshqaruv, bitishuv orqali reallashadi.

Moslashuv deb shaxs va sonda bir biriga mos bo'lgan ergashishli birikmalarga aytiladi. qaratqichli birikmalarda qaratqich bilan qaralmish shaxs va sonda mos bo'lib, moslashuvni tashkil qiladi. Masalan: bizning uyimiz birikmasidagi ergash so'z (bizning) ham, bosh (uyimiz) ham birinchi shaxs ko'plikda kelgan. Mening vatanim birikmasida komponentlar 1-shaxs orqali moslashgan. Ergash so'z bosh so'zning talabiga muvofiq muayyan kelishik affikslari yoki ko'makchilar olib kelishi natijasida hosil bo'lgan tobelik boshqaruv deyiladi. Bunda ergash so'z tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklaridan birini yoki shunga mos ko'makchilardan birini olib keladi. Akmalni vokzalga kuzatib qo'y. Terrorchilar qirg'iziston tomonga qochib ketdilar.

Bitishuv deb birining o'zgarishi ikkinchisiga ta'sir etmaydigan, komponentlari tartib va ohang orqali bog'lanishga aytiladi. Bitishuv ikki turli bo'ladi: birinchi turda ergash so'z ravish, ravishdosh va ravish vazifasidagi son, sifatlar bilan ifodalanib, bosh so'zga (fe'lga) bog'lanadi : tez yozmoq, asta yurmoq, kulib gapirmoq, yaxshi ko'rmoq kabi. Ikkinchi turi sifatlovchi bilan sifatlanmish munosabatini ko'rsatadi. Bunday birikmalarda ergash so'z sifat, son, olmosh, ot, sifatdosh bilan ifodalanadi: odobli qiz, katta orzu, uchta kitob, beshinchi uy, shu ko'cha, o'sha bino; kumush qoshiq, po'lat sandiq, hurmat taxtasi kabi. quyidagi kabi zimdan kuzatmoq, to'satdan kelmoq, birga ko'rmoq birikmalari ham shaklan boshqaruv bo'lsa-da, aslida bitishuv aloqasidir. Chunki bu erdagi kelishik shakllaridagi so'zlar shu shaklda ravishga ko'chgan.

Tobelanish turlari (4-jadval)

Asosiy xususiyati	Tobelanishning turlari va mazmuni	Misollar
Tobelanish bir qismning boshqa-sini aniqlashga xizmat qilishidir; A) gap bo'laklari orasida; B) ergash gap bilan bosh gap orasida	Moslashuv Ikki so'z – tobe va hokim so'z bir-biriga muvofiq-lashadi. Harakat, belgi yo predmetning qaysi pred-metga tegishliligini ko'rsatadi	Kitobning varag'i, qishlog'imiz o'quvchilari, ishlab chiqarish, unumdorligi, bolaning tug'ilishi.
	Boshqaruv Tobe so'z hokim so'zning talabi bilan o'z shaklini o'zgartiradi. Fe'l boshqaruv va ot boshqaruv. Kelishik va ko'makchili boshqaruv	Uyga ketmoq, uydan ketmoq, uni ko'tarmoq, uquvchilar bilan gaplashmoq, tinchlik uchun ko'rashmoq. Asal qanddan shirin. Otdan baland, itdan past.
	Bitishuv so'zlarning o'zaro aloqasi tartib va ohang orqali belgilanadi. A) sifatlovchi-sifatlan-mish: sifatlovchi vazifa-sida otlashgan so'zlar va sifatdoshlar qo'llanadi; B) hol-hollanmish: Hol vazifasida ravish va ravishdoshlar qo'llanadi.	Yashil bayroq, bu bino, beshta o'quvchi, oqar suv, oltin kuz, ko'p kitob Notiq sekin so'zladi. quyosh qizarib botdi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLARI

Sintaktik aloqa va uning turlari.

- Sintaktik munosabat to'liq ifodalangan javobni toping.
 - Ega –kesim, aniqlovchi-aniqlanmish munosabati.
 - Sub'ektlil munosabat, atributiv munosabat.
 - Sub'ektlil, atributiv, relyativ, ob'ektlil munosabat.
 - Predikativ, ob'ektiv, sub'ektiv munosabat.
- Sintaktik aloqa haqida ma'lumot bering.
- Sintaktik aloqani ifodalovchi vositalarni ko'rsating.
 - shakl yasovchilar, so'z yasovchilar, so'z o'zgartuvchilar;
 - shaxs-son qo'shimchalari, egalik va son kategoriyasi;
 - kelishiklar, egaliklar, birlik va ko'plik qo'shimchalari.
 - so'z o'zgartuvchilar, fe'l shakllarini yasovchilar, ko'makchilar, undalmalar va kirishlar.
 - so'z o'zgartuvchilar, fe'l shakllarini yasovchilar, ko'makchilar, bog'lovchilar, olmoshlar, bog'lama, gap bo'laklarining tartibi, intonatsiya.
 - so'z o'zgartuvchilar, fe'l shakllarini yasovchilar, ko'makchilar, bog'lovchilar, modal so'zlar, undovlar.

Mavzuga oid muammoli savollar:

- Tilshunoslikda grammatikaning ikki, uch xil ma'no anglatishi ko'rsatiladi. Ularning qaysi biri hozirgi grammatikani to'g'ri yoritadi? Siz bu haqda nima degan bo'lardingiz?

2. Sintaksisni grammatikaning yuqori darajasi deyishadi. Nima sababdan?

3. Hozirgi kunda sintaksisning o'rganish ob'ekti nima bo'lishi kerak degan savolga ikki xil qarash vujudga keldi. Siz bularning qaysisiga qo'shilasiz? Sizningcha, sintaksisning o'rganish ob'ekti nima bo'lishi kerak? Fikringizni asoslab bering.

4. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabatning bir qancha turlari aniqlangan. Ular sintaktik aloqa va sintaktik munosabatni to'liq qamrab olganmi? Ularda sintaktik aloqalar to'g'ri talqin qilinganmi? Sizningcha, sintaktik aloqalarni yana qanday turlarga bo'lish mumkin.

5. Sintaktik aloqa va munosabatni valentlikka aloqador hodisa deyishadi. Shu to'g'rimi? Sizningcha, sintaktik birliklarning hosil bo'lishida qaysi hodisa muhim rol o'ynaydi? Valentlikmi, sintaktik aloqami, sintaktik munosabatmi? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

6. Sintaktik birliklarni tasnif qilishda har xil mezonlarga asoslanilganini ko'rish mumkin. Bunda sintaktik birliklar qismlarining miqdoriga, bu qismlarni bog'lovchi vositalarga, qismlarning ma'no munosabatiga yoki ularning o'zaro sintaktik aloqasiga qaraladi. Siz tasnif qilganingizda nimaga asoslagan bo'lardingiz? Nima uchun shunday qilgan bo'lardingiz? Siz taklif qilayotgan tasnifning afzal tomonlari nimada?

GLOSSARIY

Grammatika yunoncha «grammatike» so'zidan olingan bo'lib, aslida "yozish san'ati" ma'nosini bildiradi. Manbalarga qaraganda, u qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi. (1-89-b): gramma – yozuv belgisi, chiziq degani. Dastlab u, darhaqiqat, yozuv tilini tekshirish bilan shug'ullangan. Shu sababli ham u "yozuv san'ati" ma'nosini bildirgan. Biroq ijtimoiy hayot va fan taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda grammatika tushunchasining doirasi kengayib, yozuvi bo'lmagan jonli tillarni ham tekshira boshlagan, lekin nomi o'zgarmagan. grammatikada so'zlarning umumiy leksik-grammatik kategoriyalari, so'zlarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan so'z-shakllar, so'zlarning o'zgarishini ta'minlovchi omillar, so'zlarning bog'lanishi, buning natijasida yuzaga keladigan bog'lanmalar, bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar, qonun-qoidalar, usullar o'rganiladi.

Morfologiyada uch xil umumiylik mujassamlashgan. 1. So'zning bevosita nimani anglatishi, bildirishi, bilan bog'liq leksik satxga aloqador umumiy ma'nosi (predmet, belgi, miqdor, harakat kabilar). 2. So'zning boshqa so'zlar bilan aloqasi, bog'lanishi bilan bog'liq sintaktik sathga aloqador munosabat, bog'lanish holati bilan izohlanuvchi umumiy ma'nosi. 3. Ayni morfologiya bilan izohlanuvchi umumiy ma'no-xususiyatlar. Shu ma'noda morfologiya, leksika va sintaksis orasidagi oraliq shakllarni o'rganuvchi oraliqdagi sohadir.

Sintaksis. Grammatikaning ikkinchi qismi sintaksis yuqori darajadagi umumiyliklarni o'rganadi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, gap bo'laklari, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil hodisalarning birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi bilan bog'liq hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shuning uchun ham u so'zdan, so'z-shakldan yuqori turadigan umumiyliklarni o'rganadi. Ularni umumiy lashtiradi, umumiy qonuniyatlarni yoritadi .

Sintaksis grekcha syntax so'zidan olingan bo'lib, tuzish degan ma'noni bildiradi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, sintaksis tayyor, avvaldan mavjud bo'lgan narsalarni emas, nutq jarayonida tuziladigan, hosil qilinadigan birliklarni o'rganadi. Sintaksisning o'rganish ob'ektlari mohiyat e'tibori bilan kamida ikki mustaqil so'zdan hosil qilingan tuzilma, bog'lanma xususiyatiga ega bo'lishi va bu bog'lanmalar ham bizning xotiramizda saqlanmagan bo'lishi, ayni nutq jarayonida hosil qilinishi lozim.

Sub'ekтли munosabat sub'ekt va uning harakati munosabatidir. Bu munosabat ikki xil bog'lanish orqali ifodalanadi. Birida ega va kesimning moslashuv yo'li bilan bog'lanishi orqali ifodalanadi. Masalan: Behzod kelyapti. Ikkinchisida esa sub'ektni bildiruvchi qism qaratqich aniqlovchi shaklida,

qaratuvchi predmetni bildiruvchi qism egalik shaklida qaralmish vaziyatida keladi. Demak, qaratuvchi va qaralmishning moslashuv aloqasi orqali ifodalanadi. Masalan : Otamning xotirasi .

2-MAVZU. So'z birikmasi. (2 soat)

REJA:

1. So'z birikmasi sintaktik qurilmalarning bir ko'rinishi sifatida.
2. So'z birikmasining ta'rifi va tasnifi.
3. So'z birikmasining tarkibiy qismlari: tobe va hokim komponentlar haqida ma'lumot.
4. So'z birikmasi va unga o'xshash hodisalar: turg'un birikmalar, iboralar, qo'shma so'zlar, analitik shakllar, gapning o'zaro qiyosiy tavsifi.

Tayanch tushuncha va atamalar:

Sintaktik qurilma va ularning tiplari, so'z birikmasi komponentlari va mustaqil so'zlar, tobe so'zning grammatik shakli, hokim so'zning grammatik shakli, tobe va hokim so'zning ifodalanishi, tobe va hokim so'z gap tarkibida; yaxlit, bo'linmas ma'no ifodalovchi bog'lanmalar: lug'aviy birikmalar va so'zshakllar.

1-savol: So'z birikmasi sintaktik qurilmaning bir ko'rinishi sifatida.

Darsning maqsadi: Sintaktik qurilmalar va so'z birikmasining sintaktik qurilmalarning bir ko'rinishi ekanligi to'g'risida aniq tushuncha hosil qilishga erishish.

INDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

Sintaktik qurilmalarning turlarini aytib beradi

So'z birikmasi sintaktik qurilmalarning bir turi ekanligini asoslab beradi.

Sintaktik birliklar doirasidan so'z birikmasini ko'rsatib beradi.

Berilgan matnni sintaktik qurilmalar bo'yicha tasnif qiladi.

Sintaktik qurilmalarning umumiy xususiyatlari to'g'risida xulosalar chiqaradi.

So'z birikmasining sintaktik qurilmalar va sintaktik birikmalar doirasidagi o'rni va roliga baho beradi.

1-savol bayoni:

Sintaksisning asosiy tekshirish ob'ekti sintaktik qurilmalardir. So'z birikmasi ham sintaktik qurilma. Shuning uchun so'z birikmasi haqida gapirishdan oldin sintaktik qurilma tushunchasini aniqlab, chegaralab olish lozim.

Har qanday so'z bog'lanmasi sintaktik qurilma hisoblanavermaydi. O'rinbosar (qo'shma so'z), ishlab chiqarish birlashmasi (turg'un birikma), og'a-ini (juft so'z), misi chiqdi (frazologik birlik) tipidagi bog'lanmalar lug'aviy birliklar hisoblanadi. Maktab tomon, dadam bilan, vatan uchun, o'qib chiqdi kabi ifodalar ham sintaktik qurilma sanalmaydi. Bular mustaqil so'z bilan ko'makchining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zning analitik shakli, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidir. Yuqoridagilarning hammasi bir necha so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular bo'laklarga bo'linmaydigan bog'lanmalar, so'z shakli holatidagi til birliklaridir. Ular nutqda ham, nutqdan tashqarida ham shunday shaklda mavjuddirlar. Sintaktik birliklar, qurilmalar esa nutq jarayonida ma'lum grammatik qoidalar asosida hosil bo'lgan, bo'laklarga bo'linuvchi bog'lanmalar yoki o'ziga xos semantik – sintaktik, intonatsion sifatga ega bo'lgan alohida so'zlardir. Mayli. Xo'p. Bahor. Kuz. Tun kabilar.

Sintaktik qurilmalar uch xil ko'rinishga ega: bir so'zli qurilmalar, ikki so'zli qurilmalar, ko'p so'zli qurilmalar.

Bir soʻzli sintaktik qurilma koʻpincha bitta mustaqil maʼnoli soʻz bilan ifodalanadi va soʻz –gap, bir soʻz shaklidagi atov, vokativ gaplarni, shuningdek, «Eshitdim» tipidagi bir bosh boʻlakli gaplarni oʻz ichiga oladi.

Ikki soʻzli sintaktik qurilmalar yo sodda soʻz birikmasidan (Vatanni sevmoq, ona mehri, chiroyli qiz), yoki sodda yigʻiq gapdan (Vatan yagonadir. Havo isib ketdi) tashkil topadi.

Koʻp soʻzli sintaktik qurilmalar esa ikkitadan ortiq mustaqil soʻzning birikishidan hosil boʻlgan murakkab soʻz birikmasi va yoyiq sodda gaplardan iborat: Etmishlarga borib qolgan chol. Biz oʻz vatanimizni sevamiz.

Koʻrinadiki, soʻz birikmasi ikki soʻzli va koʻp soʻzli sintaktik qurilmalarning oʻziga xos koʻrinishlaridan biridir.

Muhokama uchun savollar:

Sintaktik qurilmalar necha turga boʻlinadi?

Nopredikativ qurilmalarning qamrov doirasi.

Predikativ qurilmalar qaysi sintaktik birliklarni oʻz ichiga oladi?

Nima uchun ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlardan tashkil topgan barcha til birliklari soʻz birikmasi hisoblanmaydi?

2-savol: Soʻz birikmasining taʼrifi va tavsifi.

Darsning maqsadi: Soʻz birikmasining nutq jarayonida ikki yoki undan ortiq til birliklaridan birining ikkinchisiga turli grammatik shakllar yoki tartib va intonatsiya orqali tobelanishi asosida yuzaga keladigan tushuncha ifodalovchi erkin bogʻlanma ekanligini asoslab berish.

IDENTIV OʻQUV MAQSADLARI:

2.1. Soʻz birikmasining taʼrifini aytib beradi.

2.2. Soʻz birikmasining komponentlari oʻzaro qanday bogʻlanishini tushuntirib beradi.

2.3. Soʻz birikmasi komponentlarining qanday vositalar orqali bogʻlanishini aytib beradi.

2.4. Soʻz birikmasining tushuncha ifodalovchi nomustaqil ochiq sintaktik qurilma ekanligini izohlab beradi.

2.5. Soʻz birikmasining nominativ vazifasini asoslab beradi.

2.6. Berilgan matndan soʻz birikmasini ajratib beradi.

2.7. Berilgan soʻz birikmasini tavsiflab beradi.

2-savol bayoni:

Sintaktik qurilmaning bir koʻrinishi boʻlgan soʻz birikmasi boshqa sintaktik qurilmalardan nomustaqilligi, butunning tarkibiy qismi holatidagi erkin birikma ekanligi bilan farqlanadi. Bu uning qurilish materiali boʻlib xizmat qilishida oʻz ifodasini topgan. Shuning uchun soʻz birikmasi fikr ifodalay olmaydi, tushuncha ifodalovchi ochik qurilma hisoblanadi, kommunikativ emas, nominativ funktsiya bajaradi. Shu maʼnoda soʻz birikmasi kamida ikkita mustaqil soʻzning tobelanish asosida, birining ikkinchisiga ergashishi natijasida hosil boʻladigan nominativ birlik, tushuncha ifodalovchi erkin soʻz bogʻlanmasidir.

Soʻz birikmasi nechta soʻzdan hosil boʻlishidan qatʼi nazar, albatta, ikki komponentdan – tobe va hokim komponentdan iborat boʻladi. Bu maʼnoda esa soʻz birikmasi bir soʻzning yoki komponentning ikkinchi bir soʻz yoki komponentga tobelanib, u bilan birga bir semantik- grammatik bogʻlanma hosil qilishidir. Bunda tobe soʻz –komponent doim aniqlash, izohlash, toʻldirish vazifasini bajaradi. Masalan: farovon hayot, sigir quyruq qilib tushuntirmoq, tovushdan tez, uchta katta qora qoʻy kabilar.

Yuqoridagi gaplardan kelib chiqib soʻz birikmasiga shunday taʼrif berish mumkin:

Nutq jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil til birliklaridan birining ikkinchisiga grammatik jihatdan tobelanib, uning ma'nosini aniqlab, izohlab, to'ldirib kelishi natijasida hosil bo'ladigan tushuncha ifodalovchi erkin birikma so'z birikmasi deyiladi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1.1. So'z birikmasining ta'rifi.
- 2.1.2. So'z birikmasining asosiy leksik –grammatik xususiyatlari.
- 2.1.3. So'z birikmasi komponentlari asosan qanday usullar yordamida bog'lanadi?
- 3-savol: So'z birikmasining tarkibiy qismlari.

Darsning maqsadi: So'z birikmasi tarkibiy qismlarining belgi – xususiyatlari, tobelik va hokimlik haqida aniq tushuncha hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

- 3.1. So'z birikmasi qanday komponentlardan tashkil topganini aytib beradi.
- 3.2. So'z birikmasi komponentlarining tobelik va hokimlik mavqelarini izohlab beradi.
- 3.3. So'z birikmasidagi hokim va tobe komponentlarni ko'rsatib beradi.
- 3.4. So'z birikmasi komponentlarini ajratib beradi.
- 3.5. So'z birikmasidagi hokim va tobe komponentlarga ta'rif beradi.
- 3.6 So'z birikmasining hokim komponenti bilan besh kelishikdagi otni taqqoslaydi.

3-savol bayoni: So'z birikmasining tarkibiy qismlari: tobe va hokim komponentlar haqida ma'lumot.

So'z birikmasida komponentlarning biri tobe (ergash komponent), ikkinchisi hokim (bosh komponent) hisoblanadi. Bunday hokim-tobelik bog'lanmaning xarakteridan: boshqaruvchi so'zning semantikasi, so'z formasi va so'z tartibidan anglashilib turadi. Morfologik ko'rsatkichlar bo'lmaganda tobe-hokimlik leksik-semantik holatdan, bog'lanishning xarakteridan, tartibdan, intonatsiyadan bilinib turadi. Masalan: kulib gapirmoq (tobe-hokim), aytgan kitobing(tobe-hokim), beshta daftar (tobe-hokim).

Tobe-hokimlik mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Birikma ikki komponentdan iborat bo'lsa, tobe-hokimlik mutlaq bo'ladi: mehribon ona (mehribon –mutlaq -tobe), ona-mutlaq hokim. Birikma uch yoki undan ortiq komponentdan iborat bo'lsa, hokim-tobelik nisbiy bo'lishi mumkin. Masalan: paxta gulli piyola. Birikmadagi gulli komponenti paxta komponentiga nisbatan hokim, piyola komponentiga nisbatan esa tobedir. Shuningdek, yog'och karavotdagi odam birikmasidagi karavotdagi so'zi yog'och so'ziga nisbatan hokim, odam so'ziga nisbatan esa tobe hisoblanadi.

So'z birikmasi 5-jadval

So'z birikmasi qismlarini bog'lovchi vositalar	Grammatik aloqa turlari	Tobe bo'lakning sintaktik vazifasiga ko'ra	Hokim bo'lakning ifodalani shiga ko'ra	Tuzilishiga ko'ra
So'z shakli 1. Egalik qo'shimchalari: mening kitobim	Moslashuv	Atributiv (aniqlovchili) birikma (me-ning kitobim, yaxshi kitob)	Otli birikma (yaxshi kitob)	Sodda birikma (yaxshi kitob)

2. Kelishik qo'shimchalari kitobni olmoq	Boshqaruv	Ob'ektli (to'ldiruvchili) birikma (kitob-ni olmoq, qalam bilan yozmoq)	Fe'lli birikma (kitobni olmoq)	Murakkab birikma (chiroyli ko'ylakli qiz)
3. Ko'makchilar: qalam bilan yozmoq			Ravishli birikma (shamoldan tez)	
4. So'z tartibi va ohang (yaxshi kitob)	Bitishuv	Relyativ (holli) birikma: kecha keldi, kasalligi uchun kelmadi		


Muhokama uchun savollar:

3.4.1. So'z birikmasi necha tarkibiy qismdan iborat va ular nimalar bilan ifodalanadi?

3.4.1. Tobe va hokim komponentlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

So'z birikmasi komponentlarining biri nima sababdan doim tobe, ikkinchisi nima sababdan hokim bo'ladi?

4-mavzu: So'z birikmasi va unga o'xshash hodisalar: turg'un birikmalar, iboralar, qo'shma so'zlar, analitik shakllar, gapning o'zaro qiyosiy tavsifi.



Erkin bog'lanish so'z birikmasini, turg'un bog'lanish esa frazeologizmlarni o'z ichiga oladi.

Erkin bog'lanish sintaksisning, turg'un bog'lanish frazeologiyaning tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Solishtiring; 1) qizil olma, o'tmas pichoq, 2) o'tmas burchak.

Sintaktik so'z birikmalari frazeologik birikmalardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) sintaktik so'z birikmalari ma'lum so'z birikmasi modeli asosida nutq jarayonida hosil bo'ladi. Shuning uchun ham real sintaktik so'z birikmalari nutq birliklari sanaladi. Frazeologik birliklar esa nutq jarayonigacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Nutqqa tayyor holda bir lug'aviy birlik sifatida olib kiriladi;

2) sintaktik so'z birikmalarida qismlarning sintaktik aloqasi erkin, frazeologik birikma kesimlari o'rtasidagi sintaktik aloqa turg'un bo'ladi;

3) sintaktik so'z birikmalari qismlari gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'lib keladi. Frazeologik birikma qismlarining grammatik munosabati faqat shu birikma ichida amal qiladi. Frazeologik birikma bir butun sifatida gap ichida bir gap bo'lagi o'rnida keladi.

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLARI



So'z birikmasining o'zga birikmalardan farqi

1.3.1. quyidagi sintaktik birliklardan qaysinisi so'z birikmasi?

- A) Tez-tez gapir;
- B) tez gapirmoq;
- V)Ko'nglimga tugib qo'ydim;
- G) masala yuzasidan;

D) yordam bera boshladi.

2.3.1. Kelishik qo'shimchalari va egalik qo'shimchalari nima uchun so'zlarni bog'lovchi grammatik vositalar deyiladi?

2.4.4. So'z birikmasi to'g'risidagi qaysi hukm to'g'ri.

A) So'z birikmasi ikki so'zning bog'lanishidan tuzilgan kommunikativ birlikdir.

B) So'z birikmasi fikr ifodalovchi nomustaqil ochiq sintaktik qurilma.

V) So'z birikmasi uch va undan ortiq mustaqil so'zlardan tashkil topgan birlik.

G) So'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelanish asosida bog'lanishidan hosil bo'ladi.

D) Ikki yoki undan ortiq mustaqil, yordamchi so'zlarning tobelanishidan tuzilgan sintaktik qurilma so'z birikmasi deyiladi.

3.3.1 To'ldiruvchili va holli so'z birikmalarining umumiy va farqli xususiyatini tushuntiring.

Bir xil grammatik shakldagi to'ldiruvchili va holli so'z birikmasi berilgan javobni toping?

a) Akam uchun oldim. O'qish uchun keldim .

b) Maktab tomon ketdi. Sen haqingda gapirdi.

v) Sen tomon ketdi. She'r haqida kuyladi.

g) Onamga salom ayting. qishloqqa qaytish.

d) a, g javob to'g'ri.

Mavzuga oid muammolar:

1. Tilshunoslikda so'z birikmasiga bir qancha ta'rif berilgan. Mana ulardan biri: Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlardan birining ikkinchisiga grammatik jihatdan tobelanishidan hosil bo'lgan birikma so'z birikmasi deyiladi. Siz ushbu ta'rifga qanday qaraysiz? Sizningcha, so'z birikmasiga yana qanday ta'rif berish mumkin.

2. Tilda so'z birikmasiga o'xshash bir qancha hodisalar mavjud. qo'shma so'zlar, ko'makchi fe'lli qurilmalar, iboralar ana shular jumlasidandir. Bu til birliklari ham kamida ikki so'zning birikuvidan hosil bo'lgan. Bas, shunday ekan, ular ham so'z birikmasi hisoblanishi kerak emasmi? Ular nima uchun so'z birikmasi hisoblanmaydi? Ularni so'z birikmasidan farqlashning eng oson yo'li ko'rsating.

3. Hozir til va nutq farqlanyapti. Shunga ko'ra, hozirda so'z birikmasining ikki xil ta'rifi ishlab chiqilgan deyish mumkin. Sizningcha, qaysi ta'rif afzal? Fikringizni asoslab bering. Umuman, shunday yo'lini tutishga qanday qaraysiz?

GLOSSARIY

Atributiv munosabat belgi-predmet semantik modelidagi so'z birikmasi uchun xosdir: oq ko'ylak, yaxshi inson, to'rtinchi sinf kabilar. Shoir Abdulla Oripov tipidagi birikmalar ham atributiv munosabatning bir turidir.

So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar. Bular kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalaridan iboratdir. sintaktik aloqa o'zaro mazmuniy munosabatda bo'lgan sintaktik birliklar qismlarining so'z birikmasi, gap va matn tarkibida shakliy bog'lanishidir.

Intonatsiya. Intonatsiya ham turli sintaktik aloqalarni ifodalashda xizmat qiladigan vositadir. Biror gruppada intonatsion o'zgarish bo'lar ekan, bu odatda sintaktik bo'linishning, mazmunning boshqaligini ko'rsatadi. Masalan : qalin muqovali-kitob (muqova qalin). – qalin - muqovali kitob (kitob qalin). U - ahmoq odam emas (u aqlli)- U ahmoq, odam emas. (U aqlli emas, axmoq).

Predikativ aloqa. Ega va kesim orasidagi sintaktik aloqa predikativ aloqadir. Demak, predikativ aloqa natijasida ikki sostavli gap hosil bo'ladi : Havo sovuq. Suvlar muzlagan. Men hayronman. Siz kiring.

3-MAVZU. Gap. Gap- kommunikativ (aloqa) birlik sifatida. (2 soat)

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar:

1. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari.

2. Soʻz birikmasining hokim komponentning ifodalanishiga koʻra turlari

3. Soʻz birikmasining tobe komponentning sintaktik vazifasiga koʻra turlari.

Tayanch tushuncha va atamalar:

Shakl, tuzilish, shakliy soddalik va murakkablik, mustaqil soʻz turkumi, oʻtli birikmalar, feʼli birikmalar, ravishli birikmalar, sintaktik vazifasiga, aniqlovchili, toʻldiruvchili, holli birikmalar.

1-savol: Soʻz birikmasining tuzilishiga koʻra turlari.

Darsning maqsadi: Talabalarda soʻz birikmasining tuzilishiga, hokim komponentning materialiga, tobe komponentning sintaktik mavqega koʻra turlari toʻgʻrisida tushuncha hosil qilish.

IDENTIV OʻQUV MAQSADLARI:

Soʻz birikmasi tasnif mezonlarini aytib beradi.

Soʻz birikmasining tuzilishiga koʻra turlari haqida maʼlumot beradi.

Sodda va murakkab soʻz birikmasini izohlab beradi.

Sodda va murakkab soʻz birikmasiga misollar keltiradi.

Berilgan matndagi soʻz birikmalarini tasniflaydi.

Soʻz birikmasining soddalik va murakkablik belgilarini ishlab chiqadi.

Oʻqib chiq, yoza qol, aytib qoʻya qol kabi soʻz-shakllariga baho beradi.

1-savol bayoni : Soʻz birikmalari uch tomonlama, uch mezonga koʻra tasnif qilinadi:

1) tuzilishiga koʻra;

2) hokim komponentning ifodalanishiga koʻra;

3) tobe komponentning sintaktik vazifasiga koʻra.

Soʻz birikmalarining tuzilishiga koʻra turlari. Har qanday sintaktik qurilma singari soʻz birikmasi ham tuzilishiga koʻra ikkiga boʻlinadi.

1. Sodda soʻz birikmasi. 2. Murakkab soʻz birikmasi.

SODDA SOʻZ BIRIKMASI. Sodda soʻz birikmasining asosan quyidagi koʻrinishlari bor: a) sifat - ot : yaxshi kitob b) ravish-feʼl: tez gapirmoq.v) ot-ot: tilla uzuk, onamning mehri g) ot-feʼl : magazinga bormoq.

Koʻrinadiki, tobe va hokim komponenti bittadan mustaqil soʻzdan tashkil topgan birikmalar sodda birikmalar hisoblanadi. Buni inkor qilib boʻlmaydi, lekin sodda soʻz birikmasi tushunchasi shu bilan chegaralanmaydi.

Sodda soʻz birikmasining har ikki komponenti yoki ulardan biri qoʻshma soʻz, soʻzning analitik shakli. juft soʻz, takror soʻz boʻlishi mumkin. Har ikki komponenti qoʻshma soʻz boʻlib keladi: Mehnatsevar oʻrinbosar, oʻrinbosarning qoʻlqopi kabi.

Bir komponenti qoʻshma soʻz boʻlib keladi: beshiktervatarning likillashi, havorang koʻylak, rektorning oʻrinbosari kabi.

Har ikki komponent juft soʻz boʻlib keladi: oʻgʻil-qizlarimizning baxt-saodati: ota-onamning qarindosh-urugʻi kabi.

Bir komponenti juft soʻz boʻlib keladi: baxt-saodat tilamoq, ogʻa-inilarga aytmoq. Har ikki komponent takror soʻz boʻlib keladigan sodda soʻz birikmasi deyarli uchramaydi, biroq bir komponenti takror soʻz boʻlib keladigan soʻz birikmasi kuzatiladi, lekin shunisi borki, bunda tobe komponent takrorlanib keladi: asta-asta gapirmoq, yurib-yurib etmoq, yum-yum yigʻlamoq, asta-asta chaqirmoq, shiq-shiq tugma, gala-gala chumchuqlar kabilar.

Har ikki komponent analitik shakl boʻlib keladi : men uchun aytib bering, oʻzingiz uchungina oʻylab koʻring, feʼl haqida gapirib qoʻya qoling kabi. Bir komponent (tobe yoki hokim) analitik shakl boʻlib keladi: shundan beri oʻylanmoq, vatan haqida suhbatlashmoq, yolgʻiz turib qolmoq, chidamay turib ketmoq kabi. Bulardan tashqari, toʻrt qavatli bino, besh yashar bola, uzun boʻyli yigit, yarim soatda etmoq, til oldi undoshi kabi birikmalar ham sodda soʻz birikmalari qatoriga kiradi, chunki bu erdagi “toʻrt qavatli”, ”besh yashar”, ”uzun boʻyli,” “yarim soatda” birikmalari bir soʻz hukmida, ajralmas aniqlovchi sifatida qaraladi, ikkinchidan, ular ishtirokida tuzilgan soʻz birikmalar qavatli bino, yashar bola, boʻyli yigit, soatda etmoq kabi birikuvlar tarzida deyarli ishlatilmaydi. Soʻz birikmasi komponenti frazeologik ibora bilan, turgʻun birikma bilan, sostavli nom bilan ifodalanganda ham, sodda

hisoblanadi. Masalan : qo'li engil shifokor, yolg'iz oyoq yo'l, borsa-kelmas oroli, "Ming bir kecha" hikoyasi kabilar. Bu birikmalardagi "qo'li engil", "yolg'iz oyoq", "borsa kelmas", "Ming bir kecha" ifodalari ajralmas tobe komponentlardir, ular yaxlit holda (qo'li engil shifokor, yolg'iz oyoq yo'l, borsa kelmas oroli, "ming bir kecha"ertagi tarzida) bosh so'zni aniqlab, tobelanib keladi.

Demak, tobe va hokim komponentlar ikki mustaqil so'zdan, shuningdek, bir so'z yoki bir so'z shakli hukmida qabul qilinadigan frazeologizmlar, turg'un birikmalar, tarkibli nomlar bilan ifodalangan so'z birikmalari sodda so'z birikmalari hisoblanadi.

Murakkab so'z birikmalari sodda so'z birikmasining kengayishidan, birikmalarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bunda ko'zga tashlanadigan xarakterli jihat shundaki, odatda kengayish, yoyiqlashish tobe komponentga taalluqli bo'ladi. Bu hokim komponentni yanada aniqlashtiradi, konkretlashtiradi, bo'rttiradi. Demak, murakkab birikma hokim komponentni yanada aniqlashtirish, konkretlashtirish, yorqinlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Masalan: Erkak kishi – anavi erkak kishi, setka ko'targan anavi erkak kishi yoki chinni piyola – gulli chinni piyola – paxta gulli chinni piyola-yangi paxta gulli chinni piyola kabi. Demak,bunda ham grammatik jihatdan ikki bo'lak mavjud: aniqlovchi - aniqlanmish. Biroq bulardan biri aslida so'z birikmasidan iborat bo'ladi.

Murakkab birikma hosil qilishning ham o'z tartib –qoidasi bor. Sodda birikmani kengaytiradigan so'z, bo'lak, yana ham aniqrog'i, yangi aniqlovchi to'g'ridan-to'g'ri avvalgi sodda birikmaning hokim komponentiga bog'lanmaydi: balki avvalgi sodda birikmaga tegishli bo'ladi. Masalan: yosh yozuvchi –iste'dodli - yosh yozuvchi-o'nta - iste'dodli yosh yozuvchi yoki qiziqarli kitob-katta-qiziqarli kitob kabi. Yana quyidagi birikmalarni chog'ishtiring: keng ko'chalar- bu yil qurilgan - keng ko'chalar, mevali daraxt- katta - mevali daraxt, aytilmaydigan gap-hech kimga - aytilmaydigan gap, yangi musiqa- ko'ngilochar - yangi musiqa.

Ko'rinadiki, murakkab birikma unga asos bo'lgan sodda birikma ma'nosini kengaytirish, aniqlash, bo'rttirish, yaqinlashtirish bilan xarakterlanadi. Murakkab birikmaning hosil bo'lish yo'llari va ularning tiplari ham har xil.

So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari. 6- jadval

Asosiy xususiyatlari	Birikmaning turlari	Misollar
<p>Tobe va hokim so'zlar tarkibiga qarab, sodda va murakkab birikmalarga ajratiladi. Tarkibi ikki mustaqil so'zdan iborat bo'lgan birikmalar sodda, uch va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgani esa murakkab birikma sanaladi.</p>	<p>Sodda birikma: A) ikki mustaqil so'zdan; B) Tobe so'z ajralmas birikmadan; V) Tobe so'z frazeologik ibora, turg'un birikma va tarkibli nom bilan ifodalanganda.</p> <p>2. Murakkab birikmalar: A) sifatlovchili murakkab birikma. B) sifatdosh oborotli murakkab birikmalar V) harakat nomli murakkab birikmalar. G) ravishdosh oborotli murakkab birikmalar.</p>	<p>Kexsa bog'bon, kichik maydon, qilichbo'yin ot Dumi xurjunda ish qilib qo'yibsan-da, uka! Tishini tishiga qo'yib yuraveradi. O'zbekiston Respublikasi-ning poytaxti. Borsa kelmas oroli; «qutlug' qon» romani.</p> <p>Katta mevali daraxt; paxta gulli chinni piyola. Baliq ovlash uchun keltirgan qarmoqlar. qudrat tezroq tog' ko'rinishlarini suratga olib qolishga shoshildi. (H.N) Archalarning bir- biriga tutashib ketgan shoxlarini asta qayirib kirdi.</p>

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.1. So'z birikmasi qaysi tomonlariga ko'ra tasnif qilinadi?
- 1.2.1. So'z birikmasi tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?

1.3.1. Sodda soʻz birikmasining necha xil koʻrinishi bor?

1.4.1. Murakkab soʻz birikmasi qanday hosil boʻladi?

2-savol: Hokim komponentning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmasining turlari.

Darsning maqsadi: soʻz birikmasining hokim komponenti turli soʻz turkumlari bilan ifodalalanishini koʻrsatib berish.

Identiv oʻquv maqsadlari:

2.1. Soʻz birikmasining materialiga koʻra turlarini aytib beradi.

2.2. Soʻz birikmasining ifodalanishiga koʻra turlarini tushuntirib beradi.

2.3. Otli va feʼlli soʻz birikmalarining farqlarini koʻrsatib beradi.

2.4. Keng maʼnodagi otli va feʼlli soʻz birikmalariga misollar keltiradi.

3.5. Berilgan matndagi soʻz birikmalarini ifodalanishiga koʻra tasniflaydi.

2-savol bayoni:

Soʻz birikmasining hokim komponenti turli soʻz turkumlari bilan ifodalangani. Masalan: Sifat: hammadan chiroyli, otdan past. Son: uchdan biri, ikkitadan bitasi. Ot: qiziqarli kitob, obroʻli oʻqituvchi. Olmosh: tergaydigan hech kimim, mening nimam. Feʼl: Toshkentda oʻqigan, kulib gapirmoq. Ravish: Tovushdan tez, oʻntadan koʻp. Undov soʻz: jangchilarimizning “ura” si. Taqlidiy soʻz: yuragimning “duk-duk”i, aravalarning taqir-tuqiri. Biroq boʻlar soʻz birikmalarining hokim komponentning ifodalanishiga koʻra bir turi sifatida ajratilmaydi. Ular umumlashtirilib, asosan ikki guruhga ajratiladi:

1.Otli soʻz birikmalari.

2. Feʼlli soʻz birikmalari.

OTLI SOʻZ BIRIKMALARI

Bosh soʻzi shaxsli feʼl formasi va ravishdosh, sifatdosh shakllaridan boshqa soʻzlar bilan ifodalangan soʻz birikmalari otli soʻz birikmalari hisoblanadi. Demak, otli soʻz birikmalari keng maʼnoda boʻlib, komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, undov, taklidiy soʻzlar bilan ifodalangan juda koʻp soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Bu erda koʻrinib turibdiki, hatto feʼlning harakat nomi shakli hokim komponent boʻlib kelgan soʻz birikmasi ham otli birikma doirasiga kiradi. Bunda uning otga yaqin turishi-harakatning nomi ekanligi hisobga olingan.

Otli soʻz birikmalari komponentlari oʻzaro bitishuv, boshqaruv, moslashuv usullari bilan bogʻlanadi .

BITISHUVLI OTLI BIRIKMALAR

Bitishuvli otli birikmalarning quyidagi tiplari bor:

Ot-ot. Bu ikki otning qoʻshimchasiz tobe bogʻlanishidir. Bunda birinchi kelgan ot aniqlovchi, ikkinchisi aniqlanmish boʻladi. Masalan: qoʻngʻiroq ovozi, otash yurak, shoir tabiat, shamol tegirmon, oʻrik domla kabi.

Olmosh-ot. Odatda, soʻroq, koʻrsatish, belgilash olmoshlari otga bitishuv orqali bogʻlanadi : oʻsha bodomzor, qaysi gap, har bir kishi, barcha odam kabi.

Son-ot: yigirmatadan qalam, oʻn beshinchi qavat, toʻrt talaba kabi.

Sifat-ot: Bu tip otli birikmalar eng keng tarqalgandir: yaxshi niyatli, uzoq yoʻl, goʻzal qiz, shu bola kabi.

Sifatdosh-ot:kelayotgan asr, oʻqigan bola, oqar suv, boʻlmagan voqea.

BOSHQARUVLI OTLI BIRIKMALAR

Ot boshqaruvi deganda, asosan ot, sifat son, ravish soʻzlar boshqaruvi nazarda tutiladi. Ot boshqaruvning ikki turi ajratiladi (bu feʼl boshqaruvga ham taalluqlidir): kelishikli boshqaruv, koʻmakchili boshqaruv.

KELISHIKLI BOSHQARUV

Bunda hokim komponent oʻrnidagi ot, sifat, ravish, sonlar joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigidagi tobe komponentni boshqarib keladi . Masalan: oyogʻida etik, elkasida xurjun, tilga eʼtibor, vatanga mehr, gʻishtdan devor, respublikada mashhur. soʻzga chechan, mehmonlardan uchtasi, haqiqatga yaqin, oʻqdan tez kabi.

K Oʻ M A K C H I L I B O S H Q A R U V

Bunda tobe soʻz boshqaruvchi otga koʻmakchilar yordamida tobelanib bogʻlanadi: bolalar haqida sheʼr, onam uchun sovgʻa, shahar birinchiligi uchun musobaka, shoirlar bilan uchrashuv kabilar.

MOSLASHUVLI OTLI BIRIKMALAR

Bu qaratuvchi va qaralmish munosabatidagi ikki otning birikuvidir:

Maktabimiz hovlisi, universitetimizning rektori, Vatanimizning kelajagi kabi. Bu tipdagi bogʻlanishning bitishuvli bogʻlanishdan farqi shundaki, bitishuvda ikki ot hech qanday qoʻshimchasiz yoki koʻmakchisiz birikadi: deraza parda, yogʻoch uy, tosh yoʻl, tandir kesak kabi. Moslashuvli otli birikmalarda esa birikmaning birinchi (tobe) komponenti qaratqich kelishigi shaklida, hokim komponent egalik shaklida bir-biri bilan moslashib, muvofiqlashadi: yaxshilarning suhbat, mening orzuim, bizning qishlogʻimiz. Biroq moslashuvli otli birikmalarning yoz issigʻi, paxta terimi, Guliston guldastasi, shahar hokimi, bizning sheʼr, bizning qishloq kabi belgisiz qaratqichli, belgisiz egalikli koʻrinishlari ham faol qoʻllanadi.

Bu shakllarning qoʻllanilishida nozik farqlar ham koʻzga tashlanadi. Tobe komponentning qoʻshimchasini olmagan moslashuvli birikma, belgili moslashuvga nisbatan umumiylik maʼnosi, maʼnosining mavhumligi bilan xarakterlanadi. Masalan, chogʻishtiring: Ona mehri-onaning mehri, deraza pardasi-derazaning pardasi, kuz manzarasi-kuzning manzarasi.

Hokim komponentning egaliksiz, belgisiz qoʻllanilishida ham shu holat kuzatiladi, shu bilan birga maʼnoni kuchaytirish ham seziladi. Chogʻishtiring: Bizning Vatani-bizning Vatanimiz, bizning zamon-bizning zamonimiz.

Koʻrinadiki, moslashuvli otli birikmaning qaratqich va egalik qoʻshimchasini olgan turi konkretlikni ifodalaydi. Ularda egalik va qarashlilik maʼnosi kuchli boʻladi. Ularning qoʻllanilmasligi bilan bu maʼnolar kuchsizlanadi, umumiylik holati yuzaga keladi.

FE'LLI SO'Z BIRIKMALARI

Hokim komponenti barcha turdagi tuslanadigan feʼl shakllari, ravishdosh, sifatdoshlar bilan ifodalangan birikmalar feʼlli soʻz birikmalari hisoblanadi: kitobni oʻqidi-kitobni oʻqigan-kitobni oʻqib-kitobni oʻqiguncha-kitobni oʻqigach-kitob haqida gapirdi-kitob haqida gapirgan-kitob haqida gapirgach kabi. Feʼlli soʻz birikmalari otli soʻz birikmalardan farqli oʻlaroq moslashuvli birikma shaklida kuzatilmaydi. Feʼlli soʻz birikmalari ikki katta guruhga boʻlinadi:

Bitishuvli birikmalar .

Boshqaruvli birikmalar.

BITISHUVLI FE'LLI BIRIKMALAR

Tobe komponent hokim komponent feʼlga harakat belgisini bildiruvchi sifat, ravish, ravishdoshlar orqali hech qanday qoʻshimcha olmay tartib va intonoatsiya orqali birikib kelsa, bitishuvli feʼlli birikmalar hosil boʻladi. Masalan: Dadajonga ishonmang, yomon qaridi u (I.Raxim)Normat toʻy egasi bilan xayrlashgach, tez chiqib ketdi. Oʻynab gapirsang ham, oʻylab gapir.

Ot, olmosh va otlashgan soʻzlar turli yasovchilar vositasida ravishga aylanadi va feʼlga bogʻlanib bitishuvli birikma hosil qiladi. Uning koʻzlari paxsa devorga munchoq qadalganday yiltirar edi. Saidaning oʻz fikrida turib olishiga qalandarov oʻzicha maʼno berdi. Buni Ochil buva haligacha bilmaydi. U otasidan yashirincha xotinini koʻrib ketardi. Tobe komponenti – a, -y, -b, -ib, -gani, -gach, -guncha qoʻshimchali ravishdosh, -r, -ar, -mas qoʻshimchali sifatdosh, takror qoʻllangan taqlidiy soʻzlar bilan ifodalangan feʼlli birikmalar ham bitishuvli birikmalar hisoblanadi. Masalan : U maktabdan kela solib oʻqishga kirishadi. Kifoyatxon ... yosh qizday uyala-uyala zinadan chiqib keldi. Hammasi senga-toʻyguningcha eyaverasan. Saida eshitilar –eshitilmas: Ayol boshim bilan, dedi-yu, u yogʻini aytmadi. Nigor oyim dasturxon yozib tovoqni Anvarning oldiga qoʻyar ekan, birdan piq-piq yigʻlab yubordi.

BOSHQARUVLI FE'LLI BIRIKMALAR

Tobe komponenti qaratqich kelishigidan boshqa koʻrsatkichli kelishiklar yoki koʻmakchilar bilan birga hokim komponent feʼlga tobelanib keladigan birikmalar boshqaruvli feʼlli birikmalar hisoblanadi. Masalan: Vatanni sevadi, telefonda gapirdi, qalam bilan yozdi, baxt haqida kuyladi kabi.

Ayon boʻladiki, kelishikli boshqaruv va koʻmakchili boshqaruv feʼlli soʻz birikmalarga ham xosdir. Bunda kelishikli feʼlli boshqaruv koʻmakchili feʼlli boshqaruvdan farqli oʻlaroq belgisiz qoʻllanilish

xususiyatiga ham ega. Bu holat tushum kelishigi formasidagi tobe komponentga ko'proq xos bo'lsa-da, ba'zan jo'nalish kelishigi shaklida ham kuzatiladi. Masalan: Lola terгани tog' sayliga chiqdik. Gul teraman, gullar teraman. Toshkent boramiz, Parij ketdi. *Boshqaruvli fe'lli birikmalar asosan ob'ekt bilan harakat o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.*

Hokim bo'lakning ifodalanishiga ko'ra 7-jadval

Asosiy xususiyati	Hokim bo'lakning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra	Misollar
<p>Odatda, so'z birikmasida oldingi so'z tobe, keyingi so'z hokim vaziyatda bo'ladi.</p> <p>Tobe so'z ham, hokim so'z ham turli ma'noli mustaqil so'zlardan bo'lishi mumkin.</p>	<p>Otli birikma:</p> <p>A) hokim so'z ot, tobe element ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, infinitiv, ravish va mimemalar bilan ifodalanadi.</p> <p>B) hokim so'z sifat, tobe so'z ot, olmosh, son kabilar bilan ifodalanadi.</p> <p>V) hokim so'z olmoshdan</p> <p>G) hokim so'z sondan</p> <p>D) hokim so'z undovdan</p> <p>E) hokim so'z bor, yo'q so'zlari bilan ifodalanadi.</p> <p>2. Fe'lli birikma:</p> <p>Hokim so'z fe'l bilan, tobe so'z esa ot, olmosh, sifat, ravishlar bilan ifodalanadi.</p> <p>3. Ravishli birikma:</p> <p>Hokim so'z ravish bilan, tobe so'z esa ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.</p>	<p>Otaning vasiyatlari, keng dala, ochilgan gullar, uchta olma, shu uy, o'qimoq orzusi, o'zbekcha maktab, shivir-shivir gap.</p> <p>Nomus o'limdan qattiq. Ahmoq do'st yovdan yomon. Baliq suv bilan tirik. Toshdan qattiq, Oltindan qimmat.</p> <p>Saylovchilarning hammasi ovoz berishda qatnashdi.</p> <p>O'quvchilarning uchtasi musobaqada g'olib chiqdi.</p> <p>Oyinga ko'pdan-ko'p salom.</p> <p>Dadangda ishim bor. Latofatdan darak yo'q.</p> <p>Vazifani bajarmoq, she'rni yozmoq, kitobni o'qimoq, seni chaqirmoq, yayov yurmoq, o'qishga bormoq, yaxshi ishlamoq.</p> <p>O'qdan tez, do'stlardan o'zoq, haqiqatga yaqin, barchaga baravar, har kungidan kechroq.</p>

3-SAVOL: So'z birikmasining tobe komponentning sintaktik tabiatiga ko'ra turlari.

Darsning maqsadi: So'z birikmasining tobe komponentning sintaktik mavqeiga ko'ra turlari to'g'risida tushuncha hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI :

- Tobe komponentning sintaktik mavqeiga ko'ra so'z birikmasining turlarini aytib beradi.
- Aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli so'z birikmalarini izohlab beradi.
- Har bir turning ifodalanishini ko'rsatib beradi .
- Berilgan birikmalarni tobe komponentning sintaktik mavqei bo'yicha turini aniqlaydi.
- Berilgan birikmalarni tobe komponentning sintaktik mavqei bo'yicha turlarga ajratadi.
- Kesim, ega mavqeidagi tobe bo'lakli so'z birikmalari yo'qligi sabablarini asoslab beradi.
- Berilgan birikmalarga tobe komponentning sintaktik mavqeiga ko'ra baho beradi.

3-savol bayoni:

So'z birikmalari tobe komponentning sintaktik mavqei, vazifasiga ko'ra uch turga ajratiladi: 1. Aniqlovchili so'z birikmalari. 2. To'ldiruvchili so'z birikmalari. 3. Holli so'z birikmalari .

Ko'rinib turibdiki, bunda tobe komponentning gapning semantik-sintaktik tuzilishida qanday vazifa bajarishiga, qaysi gap bo'lagi bo'lib kelishiga asoslanilgan. Izohlovchi aniqlovchining bir tipi

bo'lgani sababli izohlovchili birikmalar alohida tur sifatida ajratilmaydi. Yuzaki qaraganda egali, kesimli so'z birikmalari yo'qmi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunga hech ikkilanmay "yo'q" deb javob berish mumkin. Chunki ega va kesim birikmasi predikativ aloqaning natijasi, so'z birikmasi esa nopredikativ aloqa doirasiga kiradi. Binobarin, kesim egaga tobe bo'lsa-da, bu tobelik boshqa kategoriyadagi tobelikdir. Ikkinchidan, ega mutlaq hokim bo'lakdir. Bizning e'tiborimiz ayni tasnifda tobe komponentga qaratilgandir. Bu jihatdan kesimli so'z birikmalari bo'lishi kerakday tuyuladi, chunki unda ham tobelik holati bor, biroq kesimdagi tobelik yuqorida aytilganidek, predikativ aloqa doirasiga mansub bo'lib, nopredikativ aloqada bu hol butunlay o'zgaradi: nopredikativ aloqa doirasida kesim asosiy hokim bo'lakka aylanadi. Chunki to'ldiruvchili, holli so'z birikmalarining hokim komponenti odatda gapda kesim bo'lib kelishi bilan xarakterlanadi. Zotan, to'ldiruvchi va hol kesimga boshqaruv yo'li bilan tobelanadi, ularning sintaktik mavqei ham kesimga nisbatan belgilangan. Ular kesimning ma'nosini ochish aniqlash, to'ldirish, izohlash, konkretlashtirish uchun xizmat qiladi. Binobarin, egali, kesimli so'z birikmalari bo'lishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. To'g'ri, ega-kesim birikmasi odatdagi o'rinlaridan "chetlashtirilib" aniqlovchi o'rniga "ko'chirilsa" tobe komponent aniqlash, tushunish, izohlash xususiyatini namoyon qiladi. Onasi mukofotlangan qiz, sochi uzun kelinchak, beli bukri odam kabi birikmalarda onasi mukofotlangan, sochi uzun, beli bukri birikmalari kabilar shular jumlasidandir. Biroq bunda ular o'zlarining odatdagi vazifalarini yo'qotib, aniqlovchi vazifasiga o'tgan bo'ladi. Boshqacha aytganda, ular shaklangina ega-kesim bo'lib, mohiyatan aniqlovchidir. Ular bunday o'rinlarda na semantik jihatdan, na sintaktik jihatdan ega-kesimlik vazifasini o'tay olmaydi. Demak, tobe komponenti ega yoki kesim (yoki ularning har ikkisi) bo'lgan haqiqiy ma'nodagi egali yoki kesimli so'z birikmalari haqida gapirib bo'lmaydi. So'z birikmasining tobe komponentlari aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifalari uchun xoslangan bo'ladi. Bu so'z birikmalari tobe komponenti uchun qonuniyatdir .

ANIQLOVCHILI SO'Z BIRIKMALARI. Aniqlovchili so'z birikmalari so'z birikmalari sistemasida nihoyatda keng tarqalgan va faoldir. Aniqlovchili birikmalarining tiplari ham nihoyatda rang-barang bo'lib, turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi va har xil shakliy ko'rinishga ega. Masalan: 1. Sifat-aniqlovchili birikmalar: yaxshi niyat, yoqimli shabada, kamtar inson,

Ot aniqlovchili birikmalar: taxta ko'prik, mustaqillik sharofati .

Son-aniqlovchili birikma: uchinchi kurs, ettinchi tramvay, beshta daftar.

Olmosh- aniqlovchili birikmalar: bu yo'l, ana shu vazifa, hamma odam .

Ravish -aniqlovchili birikmalar : oz so'z, ko'p gap .

Sifatdosh -aniqlovchili birikma: ko'tayotgan qalb, kelayotgan yil, oqar suv.

Taqlid so'z- aniqlovchili birikma: g'ir-g'ir shabada, piq-piq yig'i, lim-lim suv.

Undov so'z-aniqlovchili birikmalar : "ura" sadolari, ox-vox ovozlari.

Aniqlovchili so'z birikmasi o'z ichida ikkiga bo'linadi:

Sifatlovchi aniqlovchili birikmalar .

Qaratqich aniqlovchili birikmalar.

Sifatlovchi-aniqlovchili so'z birikmalarining tobe komponenti sifat, sifatdosh, ot, olmosh son, ravish, taqlidiy so'zlar, frazeologizmlar bilan ifodalanadi. Tuzilishiga ko'ra ular mustaqil so'z, birikma, gap shakllarida bo'ladi.

Masalan: oppoq qor, omadi yurishmagan odam, ichimdan top qiz, ko'ngli tor rahbar, no'noq mutaxassis kabi.

Qaratqich aniqlovchili so'z birikmalarining tobe komponenti ko'proq ot bilan yoki otlashgan so'zlar, frazeologizmlar bilan ifodalanadi. Masalan: Shaharning havosi, hafsalasi pir bo'lganning ishi, yaxshining sharofati, birining gapi, ko'pning oshi.

Ikki qaratqich ketma-ket kelganda, birinchisi belgisiz qo'llanilishi mumkin, lekin bu barcha holatlarga taalluqli emas. Ba'zan qaratqich qo'llanmasligining iloji bo'lmaydi. Masalan: qiyoslang:

Karimning akasining qizlarining to'yi – Karim akasining qizlarining to'yi – Karimning akasi qizlarining to'yi – Karimning akasining qizlari to'yi. So'nggi holatning bo'lishini tasavvur qilish qiyin.

Aniqlovchili so'z birikmalarining yana bir turi izohlovchili so'z birikmalaridir. Bunda bir ot ikkinchi otni uning boshqacha nomi, atamasi sifatida aniqlab izohlab keladi. Natijada, izohlanmish ma'lum xarakteristikaga ega bo'ladi. Musa Toshmuhammad o'g'li- Oybek she'r o'qidi. Professor A.quljonov – katta olim. Izohlovchili so'z birikmalarining ikki turini ajratish mumkin:

- a) mustaqil izohlovchili so'z birikmalari,
- b) mustaqil bo'lmagan izohlovchili so'z birikmalari.

Birinchi tur birikmalarda izohlovchilar izohlamishdan keyin keladi. Biz-qizlar uni kuzatib yurardik. Olimjon istardiki, bu odam, jamoa raisi, mahallaga qadam qo'yish bilanoq qishloqning markaziga, ulug' bir makonga kelganini payqasin. Ikkinchi tur izohlovchili birikmalarda izohlovchi izohlanmish ot bilan juda zich bog'lanadi, bir tomondan, uning sifatlovchisi kabi qo'llanadi, ko'p o'rinlarda aniqlovchi (sifatlovchi) bilan izohlovchi orasidagi chek yo'qoladi (Akademik A.A.Shaxmatov). Bunday hollarda izohlovchi sifatlovchidan otlik xususiyati va o'ziga maxsus sifatlovchi qabul qila olish xususiyati bilan farqlanadi. Izohlovchili birikmalarda ko'pincha atoqli ot bilan turdosh ot bog'lanib keladi, bunda turdosh ot izohlovchi sanaladi. Masalan: General Rahimov mukofotlandi. Dotsent To'ychiboev - til tarixi bilimdoni. O'rinboy tog'am sizni yo'qladi.

TO'LDIRUVCHILI SO'Z BIRIKMALARI. Tobe komponenti tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi yoki ko'makchilar bilan birga hokim komponentga bog'langan ob'ektni bildirgan birikmalar to'ldiruvchili birikmalar hisoblanadi. To'ldiruvchili birikmalar ikkiga bo'linadi: a) vositasiz to'ldiruvchili birikmalar; b) vositali to'ldiruvchili birikmalar;

Vositasiz to'ldiruvchili birikmalarda tobe komponent tushum kelishigi formasida, belgili yoki belgisiz holda qo'llanadi. Masalan: Vatanni sevmoq, anor termoq, taom emoq, ekinni yig'ishtirmoq kabi.

Vositali to'ldiruvchili so'z birikmalarida tobe komponent jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchili konstruksiyalar bilan kelib, hokim komponentga bog'lanadi. Masalan: Vatan haqida qo'shiq, onamga xat, televizorga qaramoq, telefon orqali gaplashmoq, hech kimga kerak emas.

HOLLI SO'Z BIRIKMALARI. Tobe komponenti jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shaklida yoki ko'makchilar bilan kelgan relyativ birikmalar holli so'z birikmalari deyiladi.

Harakat - uning sifat, xususiyatini bildiradi: tez yurmoq, ko'rib gapirmoq.

Harakat - uning yuzaga chiqish o'rnini bildiradi: Toshkentdan kelmoq. Samarqandda yashamoq.

Harakat yoki belgi - uning yuzaga chiqish paytini bildiradi: Hamisha baxtiyor, ertalab olmoq.

Harakat yoki belgi-uning yuzaga chikish sababini bildiradi: Halolligi uchun mukofotlandi, bag'ri kengligi uchun hurmatli.

Harakat - uning yuzaga chiqish maqsadini bildiradi: o'qish uchun keldi, yashash uchun kurashdi

Harakat - uning yuzaga chiqish shartini bildiradi: O'lmasa yashaydi, qaynamasa kuydirmaydi.

To'ldiruvchili va holli so'z birikmalarining grammatik shakli tushum kelishigidan boshqa hollarda bir-biridan farq qilmaydi. Bunda tobe komponentining leksik-semantik xususiyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harakat o'tgan predmetni yoki harakatning bajarilishi uchun vosita bo'lgan predmetni bildirgan tobe komponentli birikmalar to'ldiruvchili, harakatning bajarilish o'rnini, paytini bildirgan tobe komponentli birikmalar esa holli so'z birikmalari hisoblanadi

Tobe bo'lakning vazifasiga ko'ra 8-jadval

Asosiy xususiyati	Tobe bo'lakning turlari	Misollar
So'z birikmasidagi tobe bo'lak gapda aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol vazi-fasida keladi. Aniqlovchi ot bilan ifodalangan bo'lak-ka tobe bo'ladi, hol va to'ldiruvchilar esa fe'l bilan ifodalangan bo'lakka tobe bo'ladi.	A t r i b u t i v Aniqlovchi-aniqlanmish munosabati (tobe bo'lak ot, sifat, olmosh, ravish, sifatdosh kabi so'zlar, hokim bo'lak esa ot va otlashgan so'zlar bo'ladi) O b ' e k t l i To'ldiruvchi - kesim munosabati (tobe bo'lak otning kelishikli va ko'makchili shaklida, hokim bo'lak fe'l, sifat bo'ladi) R e l y a t i v Hol-kesim munosabati (tobe bo'lak ravish, ravishdosh va ba'zan otdan, hokim bo'lak esa fe'ldan bo'ladi)	Daraxtlarning soyalari, gulzorning xusni, ko'm-ko'k o'tlar, sariq gullar, ikkita kitob; o'sha anorzor; po'lat pichoq; g'uj-g'uj oppoq tutlar. Mardni mehnat eng-mas. qochoqqa shafqat yo'q, qo'rqqoqa – hurmat. Yaxshidan ot, yomondan dod. Marosim kechqurun o'tkazildi. Eshik g'iyq etib ochildi. Hamma gurillab o'rni-dan turdi. Osmon sekin-sekin qizara boshladi.

Mavzuga oid muammoli savollar:

1. So'z birikmasi uch xil mezonga ko'ra tasnif qilinishi ma'lum. qaysi tasnif ma'qul? Nima uchun shu tasnifga qo'shilasiz?

2. Bilamizki, so'z birikmalarining hokim komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so'z bilan, shuningdek, harakat nomi bilan ifodalansa, otli birikma deyiladi. Nima sababdan harakat nomli birikmalar ham otli birikma hisoblanadi? Siz ham shu fikrga qo'shilasizmi? 3. Ma'lumki, so'z birikmalari tobe komponentning vazifasiga ko'ra aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalarga bo'linadi. Nima sababdan gaplar mana shunday turlarga ajratilmaydi? Zotan, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol so'z birikmasining emas, gapning bo'lagi-ku!

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR.

1- topshiriq

1. Quyidagi savol bo'yicha ilmiy axborot tayyorlang: O'zbek tilining sintaktik qurilishida qaysi sintaktik aloqa keng tarqalgan ?

2. Ota yoki ona mavzusidagi badiiy yoki publitsistik uslubga xos biror matnni sintaktik munosabat va sintaktik aloqa yuzasidan tahlil qiling.

2-topshiriq

1. So'z birikmalari va ularning gapdagi vazifalari» mavzusida ilmiy axborot tayyorlang.

2. So'z birikmalarini yana qanday turlarga ajratish mumkin va bunda nimalarga asoslaniladi? Ushbu savolga javob tayyorlang.

3. Ushbu savol asosida o'z fikrlaringizni bayon qiling. Sintaksisni nima uchun o'rganamiz?

4. Sintaktik aloqa vositalarini fonetik, leksik grammatik nuqtai nazardan umumlashtiring.

5. Sintaktik aloqa vositalariga faollik-passivlik asosida baho bering.

GLOSSARIY

Gap. Grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi .

Predikativlik quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalardan iborat:

- 1) gapning grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) gapning grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) Gapning grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;
- 4) Gapning modallik kategoriyasi.

So'roq gap. So'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror voqea - hodisa, harakat-holat, belgi haqidagi so'roqni bildirgan gaplar so'roq gap deyiladi.

Buyruq gaplar. Buyurish, iltimos, maslahat kabilarni ifoda qiluvchi gaplar buyruq gaplar deyiladi. Tasdiq gaplar narsa-hodisalar orasidagi munosabatning mavjudligini tasdiqlaydi. Masalan: Yig'im-terim tugadi. qor yog'di.

Inkor gaplar esa shu munosabatning mavjudligini inkor qiladi. Masalan: Yig'im-terim tugamadi. qor yog'madi. Tasdiq va inkor kategoriyalari orasida chambarchas bog'liqlik bor. Har qanday tasdiqdan inkor, har qanday inkordan tasdiq kelib chiqadi. Havo sovuq (issiq emas). Havo issiq (sovuq emas).

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, o'ziga xos his-hayajon, ayrim undov intonatsiyasi, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir.

4-MAVZU. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot. (2 soat)

REJA:

1. Gapning semantik - sintaktik bo'laklari:
2. Gap bo'laklari.
3. Gap bo'laklari hisoblanmaydigan sintaktik shakllar.

1 – masala: Gapning sintaktik tuzilishi

Darsning maqsadi: Talabalarda gapning sintaktik tuzilishi haqida aniq tushuncha hosil qilish

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Gapning sintaktik tuzilishi deganda nima tushunilishini aytib beradi.
- 1.2. Gapning sintaktik tuzilishini izohlaydi.

1-masala bayoni.

Sintaksisning asosiy birligi bo'lgan gap fikriy va intonatsion tugallikka ega bo'lgan sintaktik butunlikdir. Lekin gap bo'linmaydigan, qismlarga ajralmaydigan sintaktik butunlik emas. To'g'ri, ayrim gap turlari, xususan, so'z-gaplar bo'linmas sintaktik butunlikdir. Biroq bunday sintaktik butunliklar boshqa tipdagi sintaktik butunliklarga nisbatan juda kamchilikni tashkil etadi. Gaplarning aksariyati o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib bir butunlikni hosil qilgan lug'aviy birliklardan tashkil topgan sintaktik qurilmalardir. Bunday qurilmalar hamma vaqt bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Ammo bu gapning sintaktik tuzilishi gapdagi lug'aviy birliklardan tashkil topgan degani emas. Gapning sintaktik tuzilishi undagi lug'aviy birliklarga aloqador bo'lsa-da, lug'aviy birliklar va gapning tuzilish birliklari bir xil hodisa emas va ularning miqdori ham mohiyat e'tibori bilan bir- biriga teng emas. To'g'ri, gapdagi lug'aviy birliklar va sintaktik tuzilish birliklari miqdor jihatdan teng bo'lishi mumkin. Masalan, Vatan yagonadir, Vatan bittadir gaplarida gaplarning sintaktik tuzilish birliklari ham ikkita, unda qatnashgan lug'aviy birliklar ham ikkita. Demak, ayni misollarda ular miqdoran teng. Biroq quyidagi gapda lug'aviy birliklar va gapning tuzilish birliklari soni farq qiladi (sintaktik tuzilish birliklari 4 ta, lug'aviy birliklar soni 6 tadir): Uzoqdan bo'ylari uzun uch dugona ko'rindi. qolaversa, sintaktik tuzilish birliklari va lug'aviy birliklar har xil hodisalardir. Lug'aviy birliklar leksikologiya va frazeologiyaning o'rganish ob'ekti sanalsa, sintaktik tuzilish birliklari sintaksisning o'rganish ob'ektidir. Demak, lug'aviy birliklarni va sintaktik tuzilish birliklarini har tomonlama tenglashtirib bo'lmaydi.

Sintaksisning o'rganish ob'ekti bo'lgan gapning sintaktik tuzilishi va bu tuzilishni vujudga keltirgan birliklar gapning semantikasi bilan bog'liq ravishda belgilanadi. Shu ma'noda gapning sintaktik tuzilishi gapning sintaktik ma'nosini ifodalovchi sintaktik shakllarning mazmunga mutanosib birikishidan hosil bo'lgan sintaktik strukturadan iboratdir. Bu struktura strukturani tashkil etishdaga vazifasiga ko'ra bir-birdan farq qiluvchi bir necha struktur birliklardan tashkil topgan. Demak, gapning sintaktik tuzilishi gapning semantikasini shakllantiruvchi struktura bo'lib, u shu sintaktik semantikaning ifodalanishida muayyan vazifaga ega bo'lgan struktur birliklar-sintaktik shakllarning maqsad- mazmunga muvofiq o'rinlashishi va bog'lanishidan vujudga keladi. Gapning sintaktik tuzilishini yanada aniq tasavvur qilish uchun sintaktik tuzilish birliklarini, ularning

gap semantik-sintaktik strukturasi shakllantirishdagi roli va vazifalarini, qisqasi, gapning semantik-sintaktik bo'laklarini o'rganish kerak bo'ladi.

Darsning maqsadi: talabalarda gapning struktur biliklari, gap bo'laklari, gap bo'lagi hisoblanmaydigan sintaktik shakllar, ularning gap sintaktik tuzilishini shakllantirishdagi roli, vazifalari haqida ilmiy tushuncha hosil qilish.

2- masalaning bayoni:

Ma'lumki, kishi nutqining intonatsion butunlikdagi, grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy tugal bir fikrni bildiradigan so'zlar bog'lanmasi yoki alohida bir so'z shaklidagi parchasi gap sanaladi. Gap yolg'iz muhokamani, hukmni bildirmasdan istak, buyruq, so'roq kabi ma'nolarni ham ifodalab keladi. Shu bilan birga, gap orqali ichki tuyg'ularimiz, hayajonlarimiz ham ifodalanadi. Demak, gap hukmning til materiallari bilan ifodalangan shakli, qobig'idir. Hukm gapsiz mavjud bo'lmaydi. Lekin gapda hukmdan tashqari fikrning boshqa turlari (buyruq, so'roq va b.k) ham ifodalanishi mumkin. Shuningdek, gap so'zlovchining dunyoga, voqelikka va fikrga bo'lgan munosabatini ham bildiradi. Demak, gap shakl va mazmunga ega birlikdir. Bundan ayon bo'ladiki, gap semantik- sintaktik butunlikdir. Semantik-sintaktik butunlik bo'lgan gaplarning aksariyati bir necha qismlardan iborat. Chunki gaplarning ko'pchiligi odatda so'zlar bog'lanmasidan tashkil topgan bo'ladi. Gap semantik- sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini semantik-sintaktik bo'laklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 semantik-sintaktik bo'lakdan iborat bo'ladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap bo'laklari bo'lsa, 3 tasi odatdagi gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklardir. Bular, ma'lumki, undalma, kirish va kiritma deb ataladi.

Demak, semantik-sintaktik bo'lak gap bo'laklaridan kengroq tushunchaga ega bo'lib, gapni to'liq qamraydi. Shu ma'noda semantik-sintaktik bo'lak gapning o'ziga xos ma'no-vazifa va shaklga ega bo'lgan qismidir.

Bu holda semantik-sintaktik bo'lak ikkiga bo'linadi:

1.O'zaro sintaktik aloqaga kirishadigan semantik - sintaktik bo'laklar.

2.Bevosita sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik- sintaktik bo'laklar.

O'zaro sintaktik aloqaga kirishadigan bo'laklar shu choqqacha gap bo'laklari doirasida o'rganilgan semantik-sintaktik bo'laklardir. Bular gapning predikativlik ifodalovchi qismini shakllantiruvchi bo'laklar ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun gap bo'laklari nisbatan gaplarning doimiy, zaruriy bo'laklari hisoblanadi.

Gap bo'laklari ma'no-vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1.Bosh bo'laklar.

2. Ikkinchi darajali bo'laklar.

Gap bo'laklarini belgilashda quyidagilar asosga olinadi:

1)gap bo'laklarining leksik - semantik xususiyati.

2)gap bo'laklarining o'zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari.

3)gap bo'laklarini sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar.

4)Sintaktik aloqa komponentlarining formasi.

5)sintaktik aloqaga kiruvchi komponentlarning bir-biriga nisbati.

Gap bo'laklarini belgilashda so'zning leksik-semantik xususiyati ham rol o'ynaydi. Masalan: Paxtalarni jonim bilan teraman misolidagi jonim bilan bo'lagi harakatning qanday bajarilishini bildiradi: qanday - jonim bilan - ravish holi. Paxtani mashina bilan terdik misolidagi mashina bilan bo'lagi qanday bajarilishini bildirmay, balki harakat vositasi bo'lgan predmet ma'nosini anglatib, to'ldiruvchi sanaladi. Gap bo'laklari deganda odatda gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaruvchi mustaqil so'zlar nazarda tutiladi, yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan birgalikdagina gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin. Anglashiladiki, gap bo'laklari bilan so'z turkumlari orasida ma'lum bog'lanish bor. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya bo'lib, gap sostavidagi elementlarning o'zaro munosabatini, bu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo'laklarga bo'linishini, so'zning gapdagi rolini ko'rsatadi. Demak, bunday munosabatda gap bo'laklarining aloqasini, bog'lanishini ko'ramiz. Masalan, ega bilan kesim, qaratuvchi bilan qaralmish orasidagi moslashuv, aniqlovchi bilan aniqlanmish, hol bilan hollanmish orasidagi munosabat bitishuv, to'ldiruvchi bilan to'ldirilmish orasidagi munosabat boshqaruvdir.

Gap bo'laklarining turini aniqlashda so'zlarning bog'lanish yo'li ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Jumladan, yordamchi so'zlar orqali bog'langan so'zlardan biri-yordamchi so'z qo'shilib kelgan so'z bosh bo'lak bo'la olmaydi, demak u ikkinchi darajali bo'lakdir.

So'zning qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotgani uning qaysi formada qo'llanayotganiga ham bog'liqdir. Odatda ega bosh kelishik formasida, vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchi va hol tushum, o'rin-payt, chiqish kelishigi formasida yoki ko'makchilar bilan birga ko'makchili konstruktsiya shaklida keladi.

Gapdagi so'zlar to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bir-biriga nisbatan belgilanadi. Kesim doim egaga tobedir, to'ldiruvchi va hol esa kesimga, aniqlovchi barcha gap bo'laklariga va boshqa aniqlovchiga tobedir. Demak, gap bo'laklarining sintaktik munosabati tobelikka asoslangan. Bundan yana shunday xulosa chiqadiki, so'zning qaysi gap bo'lagi ekanligi uning qaysi so'zga tobeligiga ham bog'liqdir. Egaga bog'lanib, tobelanib kelayotgan so'z yo aniqlovchi, yo kesimdir. Kecha tilla zirak oldim - tilla - aniqlovchi; Ziragim tilla. tilla - kesim.

Gap bo'laklarini belgilashda so'zlarga savol berish ham muhim o'rin to'tadi. Masalan, Zaynab keldi - kim keldi- Zaynab; Zaynab - ega, keldi - nima qildi? - keldi - kesim. Lekin bu usul hamma vaqt ham o'zini oqlamaydi: Masalan, qanday? so'rog'iga, odatda, aniqlovchi javob bo'lib keladi, lekin ba'zan hol ham shunday so'roqqa javob bo'ladi. Bunday hollarda gap bo'lagini belgilashning boshqa usullariga murojaat qilinadi.

Gap bo'laklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni to'liq qamrab olmas ekan, demak, gapni bo'laklarga gap bo'laklari rukni ostida ajratish etarli asosga ega emas. Gapning semantik-sintaktik bo'laklari tushunchasi shuni hisobga olgan holda kiritildi. Gapning semantik-sintaktik bo'laklari doirasida asosiy rolni odatdagi gap bo'lagi o'ynaydi. Shuning uchun gap bo'lagini aniq bilib olish muhimdir.

2.1. Gap bo'laklari

Tobe aloqada muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Muayyan so'z shaklining boshqa so'z shakliga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ba'zan ayni bir so'z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Masalan, Shahar-shahar, qishloq-qishloq, sen-sen, u-u. Bu gaplardagi bosh kelishikdagi so'z shakllari ega va kesim vazifasida kelayapti.

Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim bo'laklar gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu bo'laklar gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliy tomondan ham, mazmun tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida etakchi rol o'ynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning axborot hajmini kengaytiradi. Shunga muvofiq, gap bo'laklari ikki darajaga bo'linadi:

- a) bosh bo'laklar;
- b) ikkinchi darajali bo'laklar.

Gapning tuzilish asosini ega va kesim munosabati tashkil etadi. Odatda gap ega va kesim birikuvidan yoki bosh bo'lakning bir o'zidan iborat bo'ladi. Bu bo'laklarsiz gap tushunchasini tasavvur qilish qiyin.

Gapdagi bu ikki bosh bo'laklardan boshqa elementlar ikkinchi darajali bo'laklardir. Ikkinchi darajali bo'laklar doim bosh bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishgan bo'ladi. Chunki ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan zich bog'liq bo'lib, gapning strukturasi shular orqali kiradi. Ega va kesimning sostaviga kiradigan so'zlar-bo'laklar qancha bo'lmasin gapda baribir, ularning birligi, yaxlitligi seziladi; bu elementlarning har biri yo eganing, yo kesimning mazmunini to'latish uchun xizmat qiladi (ba'zilar biri ikkinchisini aniqlash orqali). Ikkinchi darajali bo'laklar o'z funktsiyalariga qarab uchga bo'linadi: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

Gap tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan ifodalar ham bor. Bular gapga mazmun jihatdan bog'lansa ham, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Shuning uchun ular gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi. Bunday ifodalar nutqda gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi. Bular tilshunoslikda kirish, undalma va kiritma qurilmalar deb yuritiladigan sintaktik hodisalardir.

Gap bo'laklari tuzilishiga ko'ra turli shakllarda bo'ladi: bir mustaqil so'zdan iborat bo'ladi. Ertaga Toshkentga boraman; ikki mustaqil so'zning birikishidan tashkil topgan erkin holdagi lekin

ajralmaydigan birikmadan iborat bo'ladi. Bu yil katta o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Hech qachon bunday holat kuzatilmagan edi; ba'zan predikativ modeldagi birikmalar ham bir gap bo'lagi vazifasida keladi. Onasi o'pmagan qizga uylantirib qo'ymoqchi bo'ldi otasi uni. Ma'lumki, gap bo'laklari ba'zan frazeologik birikma bilan ifodalangan bo'ladi. U taqdirga tan berdi. Hafsalasi pir bo'lib uyga qaytdi.

2.2-gap bo'laklari hisoblanmaydigan sintaktik shakllar

Gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik-sintaktik birliklar ulardan o'ziga xos pauza bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular boshqa gap bo'laklaridan vergul orqali ajratiladi. Gapning boshida kelsa, ulardan so'ng, o'rtasida kelsa, har ikki tomondan, boshida kelsa, ulardan oldin vergul qo'yiladi. Lekin bu ularning gap bo'laklari bilan hech qanday aloqaga ega emas, degani emas. Undalma, kirish va kiritmalar gapning boshqa bo'laklari bilan mazmunan aloqadordir. Ularning ma'no-vazifasi ham aslida shu bilan belgilanadi. Masalan, undalmalar nutq qaratilgan shaxs (predmet)ni bildiradi. Shu ma'noda u bir tomondan, gapning ta'bir joiz bo'lsa, predikativligi bilan aloqador bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu gapda amalga oshiriladigan yoki amalga oshirilmaydigan ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisi bo'lishi ham mumkin: Masalan: Yoshlar, fan sirlarini egallangiz. Harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan II shaxs ko'plikdagi olmosh(siz) bo'lsa-da, u yoshlarning ekvivalentidir. Demak, haqiqiy bajaruvchi yoshlardir. Kirish, undalmali gaplarda odatda ega yashiringan bo'ladi. Undalmaning bosh kelishik shaklida kelishi ham shu bilan izohlanadi. Undalmalar kesim bilan grammatik jihatdan moslashmasligina ularni grammatik ega emas, balki undalma ekanligini ko'rsatib turadi.

Kirishlar, kiritmalar ham gapning predikativ qismi va gap bo'laklari bilan mazmuniy aloqadordir. Kirishlar so'zlovchining gapning predikativ qismida ifodalangan mazmunga sub'ektiv munosabatini bildirsa, kiritmalar ana shu qismni yoki uning biron bo'lagi ma'nosini qo'shimcha ma'lumot bilan boyitadi.

Ana shularga ko'ra, undalma, kirish va kiritmalar ham gapning semantik-sintaktik bo'laklari hisoblanadi.

Gap bo'laklari 18-jadval

1.1.1. a'nosi	Gap qurilishidagi vazifasiga ko'ra	1.1.2. a'nosi	Tuzilishiga ko'ra	1.1.3. a'nosi
Ma'lum so'roqqa javob bo'lib, ma'lum bir sin-taktik vazifa keluvchi so'z yoki so'z birikmalari	Bosh bo'laklar (ega, kesim) Ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol)	Gapning kesim-lik asosini tashkil etuvchi bo'laklar. Bosh bo'laklar-ning yoki o'zaro tobe aloqada bo'ladigan hokim bo'lakning ma'nosini aniqlab, to'ldirib, izohlab keladigan bo'laklar	Sodda bo'lak Murakkab bo'lak	Birgina mustaqil so'z yoki turg'un so'z birikmasi bilan ifodalangan bo'lak. Birdan ortiq lug'aviy birlik bilan ifodalangan gap bo'lagi.

Muhokama uchun savollar

1. Gapning sintaktik tuzilishi mavjud grammatikada to'liq ifodalanganmi?
2. Gap bo'laklari nima uchun gapning sintaktik tuzilishini to'liq qamrab olmaydi?
3. Semantik-sintaktik bo'lakning gap bo'laklaridan farqi nimada?
4. Undalma, kirish va kiritmalarining gap bo'laklaridan farqlari nimalarda ko'rinadi?

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR.

Muhokama uchun savollar:

1. Gapning sintaktik tuzilishi deganda nima tushuniladi?
2. Gapning sintaktik tuzilishi nimalardan tashkil topgan?
3. Sintaktik tuzilish struktur birliklarning yig'indisi bo'la oladimi?

2-masala: Gapning semantik – sintaktik bo'laklari.

GLOSSARIY

Gap bo'laklarini belgilashda quyidagilar asosga olinadi:

- 1) gap bo'laklarining leksik - semantik xususiyati.
- 2) gap bo'laklarining o'zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari.
- 3) gap bo'laklarini sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar.
- 4) Sintaktik aloqa komponentlarining formasi.
- 5) sintaktik aloqaga kiruvchi komponentlarning bir-biriga nisbati.

Ega. Ikki bosh bo'lakli gapning fikr, hukm qarashli bo'lgan shaxs, narsa-hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo'lagi ega deyiladi.

Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi, biroq grammatik jihatdan ega tobe bo'lgan bosh bo'lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi.

Gapning markazini tashkil etib, tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab, hukm bildiradigan va gapning boshqa bo'laklarini (ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) o'z atrofiga birlashtirib keladigan bo'lak **kesim** deb ataladi.

Kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab 2 xil bo'ladi:

1. **Fe'l-kesim** quyidagicha ifodalanadi:

- 1) **sof fe'l** bilan: *Karimjon maktabdan keldi.*
- 2) **sifatdosh** bilan: *Bu kitoblarning barchasi o'qilgan.*
- 3) **ravishdosh** bilan: *Bolta tushguncha, to'nka dam oladi. (Maqol)*

2. **Ot-kesim** quyidagicha ifodalanadi:

1) **bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar** bilan: *O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. Bu sovg'a ukamga. Uning kaliti onamda. Bularning hammasi sevinchdan.*

2) **sifat** bilan: *SHahar go'zal.*

3) **olmosh** bilan: *Bu narsa o'z-o'zimmiki.*

4) **otlashgan son** bilan: *Ikki o'n besh - bir o'ttiz.*

5) **ravish** bilan: *Dangasaning vaji ko'p.*

6) **undov so'z** bilan: *Buyruqni bajarmaganning holi voy.*

7) **modal so'z** bilan: *Uning ezgu niyatlari bor.*

Kesimlar tuzilishiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi:

1. **Sodda kesim** bir so'zdan iborat bo'ladi:

1) **sodda fe'l-kesim**: *Men keldim.*

2) **sodda ot-kesim**: *Uyat o'limdan qattiq.*

2. **Murakkab kesim** kamida ikkita so'zdan tuzilgan bo'ladi:

1) **murakkab fe'l-kesim** quyidagicha tuziladi:

a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan iborat bo'ladi: *Odamlar tarqala boshladi.*

b) sifatdosh va to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi. *Mashg'ulot haftada bir marta o'tadigan bo'ldi. U*

kelgan edi.

v) ibora bilan ifodalanadi: *Sobir so'zining ustidan chiqdi.*

2) **murakkab ot-kesim** quyidagicha tuziladi: a) ot, sifat, son, olmosh, ravish hamda "bo'lmoq" fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Mehnat qancha qiyin bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi.*

b) *yo'q, bor, oz, ko'p, zarur, lozim, kerak, darkor* kabi so'zlar hamda *bo'lmoq* fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Uzoqda ko'ringan sharpa bir zumda yo'q bo'ldi.*

v) *harakat nomi* hamda *kerak, lozim* kabi so'zlardan iborat bo'ladi, bunda kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son qo'shimchalari harakat nomiga qo'shiladi: *CHoyxona yangi solingan qishki binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.*

5-MAVZU. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. (2soat).

REJA:

1. Aniqlovchi va uning turlari.
2. To'ldiruvchi va uning turlari.

3. Hol va uning turlari

1 – masala Aniqlovchi va uning turlari.

Darsning maqsadi: aniqlovchining ma'no-vazifasi, turlari, ko'rinishlari to'g'risida tushuncha hosil qilish.

1 - masala bayoni:

Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir predmetning boshqasiga qarashlilikini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Masalan: Yalang'och daraxtlar mayda yulduzchalar bilan yongan qorga ajib chiroyli ko'lkalar tashlaydi. Navoiyning ko'z o'ngida Xirof gavdalandi.

Aniqlovchilar ikki xil bo'ladi. 1. Sifatlovchi aniqlovchi. 2. qaratqich - aniqlovchi.

Sifatlovchi - aniqlovchi qanday? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerdagi? qachongi? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Sifatlovchi aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1.Sifat, son, olmosh, sifatdosh bilan: Biz serjun va serunum qo'ylarni ko'paytirayotirmiz. Ko'k - yuvilgan, artilgan shisha.

2.Ot bilan: Nigora bu yilgi yig'im-terim mavsumida oltin soat oldi.

3. Ibora bilan: Uning xushomadlar oldida og'zining tanobi qochadigan odati bor edi.

4.Ajralmas birikma bilan: Bozordan ikki tavaqali darvoza oldik.

5.Sifatdosh oborot bilan: Oyqiz ko'zni qamashtirgudek chaqnagan cho'qqiga tikilganicha ich-ichidan quvondi.

Qaratqich -aniqlovchi

Qaratqich aniqlovchi kimning? nimaning? qaerning? so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Qaratqich tomonidan aniqlangan bo'lak qaralmish deb yuritiladi: qaratqich qaralmish bilan moslashuv yo'li bilan birikadi. Behunarning hunari yalqovlikdir.

Qaratqich-aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1.Ot, olmosh bilan: Ko'zning oltin barglari suv yuzida suzar edi. Uning qalbi qiynoqda qoldi.

2.Otlashgan so'zlar bilan: Yaxshining sharofati, yomonning kasofati. Olmoqning bermog'i bor.

3. Ibora bilan: Betga aytganning zahri yo'q.

4.Ajralmas birikma bilan: qish faslining zavqi ham bo'lakcha bo'ladi.

Qaratqich aniqlovchi -ning qo'shimchasisiz ham qo'llanadi: Jamoamiz a'zolari yangi yilni munosib kutib olishdi.

Izohlovchi:

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u predmet yoki shaxsni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar ko'pincha ot orqali ifodalanishi bilan aniqlovchining boshqa turlaridan farqlanadi.

Izohlovchi izohlagan bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish turdosh va atoqli ot bilan ifodalansa, odatda, atoqli ot izohlanmish, turdosh ot esa izohlovchi bo'ladi: Traktorchi Salim er haydayapti.

Izohlovchi va izohlanmish umumiy va konkret ma'noni bildiruvchi otlardan iborat bo'lsa, konkret ma'noli so'z izohlovchi, umumiy ma'noli so'z - ot esa izohlanmish bo'ladi, yozuvda ularning orasiga chiziqcha qo'yiladi: mexanik - haydovchi, sinovchi-uchuvchi kabi.

Kitob, gazeta, jurnal, korxon, jamoa, tashkilot, muassasalarning nomlari izohlovchi bo'lib keladi va qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi. «O'zbekiston» jamoasi, «Umid» romani, «Yosh kuch» jurnali kabi. Bunday izohlovchilar kishi nomlari bilan ifodalansa, qo'shtirnoq ichiga olinmay, odatda, nomidagi, nomli so'zlari bilan qo'shib yoziladi: Mannon Uyg'ur nomidagi san'at bilim yurtida o'qiyman.

O'xshatish ma'noli izohlovchi bilan izohlanmish orasiga chiziqcha qo'yiladi: Ona-Vatan, ona-yurt kabi.

Aniqlovchi

20-jadval

Ma'nosi	1.2. M a'noga ko'ra	Ifodalanis hi	Misollar
Predmetning turli belgi-larini, bir predmetning ikkinchi predmetga qarashli ekanligini bildiradi.	Sifatlovchi-aniqllovchi	Sifat bilan Sifatdosh bilan Son bilan Olmosh bilan Sifatlashgan ot bilan	Uning ziyrak ko'zlarida xorg'inlik bor edi. (S.An) Aytilgan so'z – otilgan o'q. Uchta yangi roman sotib oldim. Shabada ana shu ajoyib gullarning g'unchalarini yozmoqda. Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi ko'zning ziynati. (U)
	qaratuvchi aniqlovchi	Ot bilan Olmosh bilan Otlashgan sifat, sifatdosh va boshqa so'zlar bilan.	Paxtakorlarning shuhrati butun viloyatga yoyildi. Sening ishing hammaga ma'qul bo'ldi. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l! O'qiganning tili uzun. Ikka-lasining gapi bir erdan chiqdi.
	Izohlovchi aniqlovchi	Unvon, mashg'ulot, kasb, amal, qarindoshlik, jins, laqab, tahallusni bildiruvchi so'zlar bilan	Akademik A.N.Kononov mash-hur tilshunos olimdir. Buxgalter Karimov bilan talaba Nabijon birga kelishdi. Karima hola qiz bolalarga kashta tikishni o'rgatdi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.. Aniqllovchining nechta turi bor va ular qanday ifodalanadi?
- 2.. Sifatlovchi-aniqllovchi va qaratqich-aniqllovchi nimasi bilan o'zaro farqlanadi?
- 3.. Izohlovchining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

2 - masala To'ldiruvchi va uning turlari.

Darsning maqsadi: to'ldiruvchining ma'no-vazifasi, ifodalanishi va turlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish.

2 - masala bayoni:

Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1.Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qaerni? so'roqlariga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot va olmosh bilan: Do'stingdan pulingni qizg'anma. Sizni unutmayman, Sherzod aka.
2. Otlashgan so'zlar bilan: Ayrilganni ayiq er, bo'linganni bo'ri er. Ettinchini ham e'tibordan chetda qoldirmang.
3. Ibora bilan: U o'z g'ururi, obro'siga birovning oz-moz til tegizishini ko'tarmas edi. Oddiygina starshina-yu, burnini ko'targanini qarang.
4. Ajralmas birikma bilan: qish faslini kutadi keng dalalar, maydonlar. Uch dugonasini Toshkentga olib ketishdi.

Vositasiz to'ldiruvchi belgili (tushum kelishigi qo'shimchasi bilan), belgisiz (tushum kelishigi qo'shimchasisiz) qo'llanadi. M.: Bu yil ikki tonna paxta terdim. Ko'p gapirma, ko'p kitob o'qi.

Vositali to'ldiruvchi.

Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

Vositali to'ldiruvchi kelishik qo'shimchali yoki ko'makchili bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot va olmosh bilan: Yovdan qochgan, yovga do'st, elni suygan elga do'st. Siz bilan ketaman.
2. Otlashgan so'zlar bilan: qo'rqqanga qo'sh ko'rinar. Madaminbek qizillar bilan sulh tuzish uchun qo'qonga keldi.
3. Ibora bilan: Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi.
4. Ajralmas birikma bilan: Bu xona to'rt kishiga kamlik qiladi.

To'ldiruvchining belgili va belgisiz qo'llanishi

To'ldiruvchining belgili va belgisiz qo'llanishi deganda ularning qo'shimchali va qo'shimchasisiz kelishi nazarda tutiladi. Lekin bu to'ldiruvchining barcha ko'rinishlariga xos emas. O'zbek tilida odatda vositasiz to'ldiruvchi belgili, belgisiz qo'llanadi. Masalan: Dadamga bir yashik oziq-ovqat yubordik. Otabekka yuborilgan oziq-ovqatni egasiga topshirdilaringmi? Vositasiz to'ldiruvchining bunday ikki xil qo'llanilishi bejiz bo'lmay, mazmun va grammatik holatga asoslanadi: vositasiz to'ldiruvchi tinglovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan predmetni ifodalaganda, tushum kelishigi affiksi qatnashadi. Shu turdagi predmet umuman ifodalanganda, tushum kelishigi affiksi qatnashmaydi. «O'yinchoqni olib keldi» (avvaldan mo'ljallangan, kutilgan, tinglovchiga ma'lum bo'lgan o'yinchoq) «O'yinchoq keltirdi» (umuman qandaydir «o'yinchoq»).

Vositasiz to'ldiruvchilar quyidagi holatlarda belgili qo'llanadi: 1) Vositasiz to'ldiruvchi atoqli ot yoki kishilik olmoshi bilan ifodalanganda: U ko'pni ko'rgan, katta davralarda bo'lgan. O. qurbonovni darhol tanidi. Meni olib keting o'z uyimga. 2) Vositasiz to'ldiruvchi ko'rsatish olmoshi yo payt, o'rin bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan aniqlovchiga ega bo'lganda. Kechagi eshittirishni ko'rdingizmi? qishloqdagi tengdoshlarimni juda-juda sog'indim. 3) To'ldiruvchi bilan to'ldirilmish orasida so'z yo so'zlar bo'lganda. qiyoslang: U baxtsizlik keltirdi- Baxtsizlikni u keltirdi. 4) Otlashgan vositasiz to'ldiruvchilar ham odatda belgili qo'llanadi: Ayrilganni ayiq er, bo'linganni bo'ri er. 5) Sifatdosh vositasiz to'ldiruvchining aniqlovchisi bo'lib kelganda: Yuborgan kitobingizni oldim. 6) Vositasiz to'ldiruvchi egalik affiksini olganda (ayniqsa, 3-shaxsda) Uning so'zlarini hech kim eshitmadi. 7) Vositasiz to'ldiruvchi fikr markazidagi predmetni ifodalaganda: Mana shu o'g'limni yaxshi ko'raman-da. 8) Vositasiz to'ldiruvchi payt ma'nosidagi so'z bilan ifodalanganda: Bugun erta turib tongni ko'rdim. Yozni o'ynab utkazsang, qishni yig'lab o'tkazasan.

To'ldiruvchi 21-jadval

Ma'nosi	Turlari	Ko'rsatkichlari	Ifodalanishi	Misollar
Harakat o'z ustiga olgan, harakat yo'nalgan, harakatga biror yo'l bilan bog'langan predmetni bildiradi.	Vositasiz to'ldiruvchi.	-ni	Otdan	Moskvani sen bilmaysan, qonxo'r yov (H.O)
			Sifatdan	Yaxshidan ot qo-lar, yomondan dod.
			1.3.1.1.1.1.1. 1.3.1.1.1.1.1. Otdan	Beshni o'nga qo'sh-sak, o'n besh.
			Olmoshdan	O'zingni er bil-sang, o'zgani sher bil. (Maqol)

Vositali to'ldiruvchi	1)vositali kelishik-lar (o'rin-payt, chiq-ish va jo'-nalish kelishikla-ri) keli-shikli birikma; 2)ko'makchilar ko'makchili bi-rikma	Harakat nomidan	Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq. (Maqol)
		Sifatdosh dan	Bilmaganini so'-rab o'rgangan ol-im. (Maqol)
		Ravishda n	Ko'pdan quyvon qoch-ib qutulmas.
		Bir necha so'zdan	Dasturxon boshida Yodgor undan qamoqdan qanday qutulganini va qanday qilib askar bo'lganini so'radi. (S.Ahm)

Hol va uning turlari.

Hol gapning ma'noviy mundarijasi va sintaktik tuzilishida faol qatnashuvchi gap bo'lagidir. Biroq u gapning bosh bo'laklari singari doimiy a'zosi, grammatik markazi emas. Uning gapda qatnashishi so'zlovchining fikri, maqsadiga bog'liqdir. Demak, u gapda qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Uning sintaktik mavqei ega va kesimdan past turadi. To'g'ri, hol shaklidagi so'zning o'zidan tashkil topgan gaplar ham bor. Biroq u muayyan vaziyatlardagina yuz beradi (to'liqsiz gaplarda yoki bir bosh bo'lakli gaplarda). Binobarin, hol ikkinchi darajali gap bo'lagidir. Harakat - holatning bajarilish o'rni, payti, sababi, tarzi, maqsadi va shu kabilarni ko'rsatib, boshqa bo'lakka tobe bo'lgan ikkinchi darajali bo'lak hol deyiladi. Hollar aksariyat fe'l-kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib, ularni biror jihatdan izohlab keladi. Masalan: Safarov bilan Samandarov qotib-qotib kulishdi. (Kesimga bog'lanib, harakatning qay tarzda bajarilishini ko'rsatgan). Ravon o'qishni dadamdan o'rgandim. (To'ldiruvchiga bog'langan). Hol ravish, ravishdosh, vositali kelishik formalaridagi yoki ko'makchili otlar, harakat nomi, sifat, shuningdek, ravish xarakteriga ega bo'lgan ajralmas birikmalar bilan ifodalanadi. Hol ko'pincha ravish bilan ifodalanadi. Ravish gapda yakka holda yoki o'ziga tobe so'zlar bilan birgalikda hol funktsiyasini bajaradi. Bu uning asosiy sintaktik vazifasidir. Masalan: Muncha asta yurasan? Ot va harakat nomi esa holat, makon, sifat, sabab, maqsad kabi munosabatlarni anglatgandagina hol vazifasida keladi. Ular ba'zan o'ziga tobe bo'laklar bilan birga (yoyiq holda) yaxlit bir bo'lak - hol bo'lib kelishi mumkin: Ulug'bek baland ruh va tetik qadam bilan jo'nadi. Ifodalangan ma'nosiga ko'ra hollar quyidagi turlarga ajratiladi: ravish holi, miqdor-daraja holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, shart holi, to'siqsizlik holi.

Ravish holi. Harakatning qay tarzda, qanday vaziyatda sodir bo'lishini bildiradigan hol ravish holi deyiladi. Ravish holi quyidagicha ifodalanadi: 1. Holat ravishi bilan: Oppoq bulutlar asta-sekin qoraya boshladi. Ravishdosh bilan: Samandar yiqila-yiqila oldinga intildi. 3. Sifat bilan. Ular ko'zlari bilan iliq, samimiy salomlashishdi. 4. Ko'makchili yoki ko'makchisiz mavhum otlar va harakat nomi bilan : U Sultonovni o'ylab ich-ichidan achindi. 5. Ravishdosh formasidagi «bo'lmoq» yordamchisi bilan birikkan sonlar bilan: Biz hollarni olti turga bo'lib o'rganamiz. 6. Ekan yordamchisi, holda so'zi bilan birikkan sifatdosh bilan: Bo'taboy hamon o'ylangan holda xatni bukar ekan «uf» tortdi. 7. Taqlidiy so'zlar bilan: Anorxon piq-piq yig'ladi. 8. Ravish xarakteridagi frazeologik birikmalar bilan: Ular... topshirilgan vazifani qo'l uchida bajarib yurdilar.

Miqdor-daraja holi: Miqdor-daraja holi ish-harakat, holat, vaqt kabilarning qay darajada ekanligini miqdor jihatdan chegaralab, darajalab ko'rsatadi. Miqdor - daraja holi quyidagicha ifodalanadi: 1. Miqdor ravishlari va miqdor-daraja ma'nosiga ega bo'lgan sifatlar bilan: Kun tamom yorishib ketdi. 2. Marta, bor, dafa, barobar, hissa, foiz kabi so'zlar olib kelgan son va olmoshlar bilan: Nigora dugonasi qancha qistamasin, Anvar bilan uchrashuvga biron marta chiqmadi. 3. Ko'ra, qarab, yarasha, sari, sayin

kabi soʻzlar olib kelgan ot va sifatdoshlar bilan: Xayr, risqimizga yarasha qolar. 4.Son va vaqt bildiruvchi soʻzlar birikmasi bilan: Poezd uch kecha-yu uch kunduz yoʻl yurdi.

Oʻrin holi: Ish-harakat yoki holatning sodir boʻlishidagi oʻrin maʼnosini bildiruvchi hollar oʻrin holi deb ataladi. Oʻrin hollari ish-harakatning biror jihatdan oʻringa munosabatini koʻrsatadi va qaerda? qaerdan? qaerga? qaergacha? singari soʻroqlarga javob boʻladi.

Oʻrin hollari maʼnolariga koʻra uchta asosiy gruppaga boʻlinadi: 1. Harakatning yuz berish, bajarilish oʻrnini bildiruvchi hollar. 2.Harakatning boshlanish, chiqish oʻrnini koʻrsatuvchi hollar. 3.Harakatning oxirgi nuqtasini koʻrsatuvchi hollar.

Ish-harakatning bajarilish oʻrnini bildiruvchi hollar harakatning maʼlum bir nuqtada, doirada yuz berganligini anglatadi va quyidagicha ifodalanadi.1) Oʻrin-payt kelishigidagi oʻrin-joy nomlari bilan: Mirzachoʻlda birinchi bahor boshlandi. 2) Oʻrin maʼnosidagi olmoshlar: Bunda bulbul kitob oʻqiydi, bunda qurtlar ipak toʻqiydi. 3) Oʻrin angatuvchi ot koʻmakchilar bilan: Yigit eshikdan odim narida otning boshini silab turar edi.

Harakatning chiqish nuqtasini koʻrsatuvchi hollar chiqish kelishigi qoʻshimchasi bilan shakllanib, harakatning manbaini, qaerdan boshlanganligini anglatadi, qaerdan? soʻrogʻiga javob boʻladi. Moskvadan keldim, - deb kulib qoʻydi Mirzaev.

Harakatning yoʻnalishi va oxirgi chegarasini koʻrsatuvchi hollar joʻnalish kelishigi bilan shakllanadi, qaerga? soʻrogʻiga javob boʻladi. Siddiqjon Bekobodga joʻnab ketdi.

Payt holi. Ish-harakatining bajarilish paytini bildiruvchi hollar payt holi deyiladi. Ish-harakat paytini bevosita ifodalash payt ravishlariga va vaqtni anglatuvchi otlarga xosdir: yozda, hozir, ertalab, tongda kabi.

Payt holi qachon? qaysi vaqtda? qachondan beri? qachondan boshlab? qachongacha? qay vaqtga qadar? singari soʻroqlarga javob boʻladi. Payt holi asosan quyidagicha ifodalanadi:

1. Payt ravishlari bilan: Kontsert juda kech tamom boʻldi.

2. Otlashib, oʻrin-payt kelishigida shakllangan sifat, harakat nomi, mavhum ot bilan: qaytishda ular ancha qiynalishdi.

3. Payt maʼnosini anglatuvchi soʻzlar bilan: Men koʻrgan paytda u kichkina edi.

4. Sifat, son va vaqtni anglatuvchi soʻzlardan tashkil topgan birikmalar bilan: Issiq oylarda gʻoʻzani tunda sugʻoradilar.

Harakatning bajarilish jarayoniga, vaqtga munosabatiga koʻra payt holi quyidagicha boʻladi:

A) harakatning boshlanish paytini koʻrsatuvchi hollar: Ertadan boshlab qoʻshma gaplarni oʻrganishga kirishamiz.

B) harakatning tugash paytini bildiruvchi hollar: Yigʻim-terim 20 noyabrga qadar davom etadi.

Sabab holi. Ish harakatning bajarilish sababini bildiruvchi hollar sabab holi deyiladi. Sabab holi nima sababdan?, nima sababli?, nima uchun?, qanday munosabat bilan?, nimaga?, nima natijasida? kabi soʻroqlarga javob boʻladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravishdosh bilan: Sevgilisining qamchilanishiga chiday olmay maydonga otildi.

2. Frazologik birikma bilan: Shomil doʻstining astoydil ishlashga bel bogʻlaganidan xursand boʻldi.

3. Ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlarning koʻmakchilar bilan birikib kelishi bilan: Yodgor extiyot yuzasidan juda past ovoz bilan kuylar edi..

Maqsad holi. Ish-harakatni bajarishdan maqsadni bildiruvchi hollar maqsad holi deyiladi. Maqsad holi nima maqsadda? nimaga?, nima uchun? qanday maqsad bilan? singari soʻroqlarga javob boʻladi va quyidagicha ifodalanadi:

1.Ravish bilan: Solovyov asirlar bilan gaplashar ekan, atayin vahimali gaplarni aytardi.

2.Ravishdosh bilan: Nay eshitgani keldik.

3.Harakat nomi bilan: Bizni chipta kovushni oʻrishga yuborishdi.

Toʻsiqsizlik holi. Maʼlum bir harakatning bajarilishida toʻsiq, zidlik boʻlishiga qaramay, shu harakatning bajarilishini anglatadigan hol toʻsiqsizlik holi deyiladi.

Toʻsiqsizlik holi nimaga qaramasdan?, nimaga qaramay?, nima demay? singari soʻroqlarga javob boʻladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Turib koʻmakchisi bilan shakllangan ravishdosh oborot bilan: Mening borolmasligimni bila turib taklifnoma olib keldingmi?

2. da, ham yuklamasini olib kelgan shart fe'li bilan: Bilib tursangiz ham yana so'raysiz?

3. demay ko'makchisini olib kelgan so'zlar bilan: qish demay, yoz demay, bo'ron demay, yil o'n ikki oy qo'ying orqasidan yuramiz.

Shart holi. Shart holi harakat ifodalaydigan bo'lakka bog'lanib, shu bo'lak orqali anglashilgan harakatning sodir bo'lishidagi shartni ko'rsatadi va fe'lining shart mayli formasi bilan ifodalanadi, Hokim bo'lakka - sa affiksi yordamida bog'lanadi: O'qisang dono bo'lasan. Shart holi ba'zan payt ma'nosi bilan bog'lanadi: U qishloqqa borsa, Ochil buvani albatta ko'radi.

Hollar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab tiplarga ajratiladi.

Sintetik formadagi bir so'z bilan ifodalangan va bir sodda tushuncha anglatadigan hol sodda hol deyiladi. Masalan: Ko'p bilgan oz so'zlar.

Analitik formadagi so'z bilan, shuningdek, turli oborotlar (o'ramlar), yoyiq birikmalar bilan ifodalangan hollar murakkab hollar deyiladi. Masalan: Halqimiz uzoq vaqtlardan buyon mustaqillikni orzu qilib keladi. Sizni olib ketgani keldik.

Hol

21-jadval

<i>1.3.1.1.1.1.1.3.</i> <i>urlari va ma'nosi</i>	Ifodalanishi	Misollar
Ravish (tarz) holi. Harakatning qanday bo'lishini bildiradi.	Holat ravishi, olmosh, ravishdosh, sifat, taqlidiy so'z va ko'makchili konstruktsiyalar bilan	Yangi ariqqa suv ochish marosimi tantanali o'tkazildi. Kul rang osmon sekin-sekin qizara boshladi. Ta'til oylari bilinmay o'tib ketdi. Karim ma'ruzani diqqat bilan eshitdi.
O'rin holi. Harakatning bajarilish o'rnini, bo'lish, chiqish, boshla-nish, borish o'rinlarini bildiradi.	O'rin ravishlari, o'rinni bildiruvchi otlar bilan	Tevarak – atrofda chumchuqlar chirqillashadi. Kechqurun Botirni Moskvaga kuzatishdi.
Payt holi. Harakatning bo'lishidagi umuman vaqt, boshlanish va eng keyingi vaqtlarni bildiradi.	Payt ravishi va payt ma'nosini ifodalovchi otlar bilan	Yaxshi niyatli kishilarning istaklari hamma vaqt ro'yobga chiqadi. Bir necha kundan so'ng Botir chigit ekilgan maydonga keldi.
Sabab holi. Harakatning bo'lishidagi sabab ma'nosini bildiradi.	Chiqish kelishigi-dagi so'z bilan, uchun ko'makchisi qo'-shilgan birikma bilan, ravishdosh va ravishdosh obo-rot bilan	Karima sevinganidan qichqirib yubordi. Bobolarimiz savodsizligi uchun yangiliklardan habarsiz qolgan. Havoning buzilishi sababli sayohat qoldirildi.
Maqsad holi. Harakatning bo'lishidagi maqsadni bildiradi.	Jo'nalish kelishigi-dagi so'z bilan, - gani shaklidagi so'z bilan.	Olimpiada g'oliblarini qarshi olgani to'plandik. O'quvchilar Arslonbobga ekskursiyaga borishdi. Biz institutni muvaffaqiyatli bitirish uchun harakat qilmoqdamiz.
Miqdor-daraja holi. Harakatning uzoq davom etishi va aksi; bajarilish darajasini bildiradi.	Miqdor-daraja ravishlari, ko'makchili birikmalar bilan	Ko'p bilgan oz so'zlar. Bu qissani uch marta o'qib chiqdim. Botirga o'lim bir mata keladi, qo'rqqo ming marta. (Maqol)

Shart holi. Harakatning bajarilish shartini bildiradi.	Shart maylidagi fe'l bilan, ravishdosh oborot bilan, ko'makchili konstruktsiya bilan	Halima majlisga ulgursa keladi. Nurmatjon kimyogarlik nima ekanini yaxshi biladi: «kimyogar istasa g'ishtni, toshni tilla qiladi». (A.q.)
To'siqsizlik holi. Harakatning bajarilishiga to'siq bo'lgan shartni bildiradi.	- sa ham - -ga qaramay kabi shakllar bilan	Boboqul charchasa ham piyoda yuraverdi. Bobomurod bir parcha non topsa ham mehmonsiz emaydi. Mehmonlar kuchli yomg'irga qaramay etib kelishdi.

Muhokama uchun savollar

3.1.1. Hol gapda qanday vazifalarni bajaradi?

3.1.2. Holning qanday ma'no turlari bor?

3.1.3. Hol va to'ldiruvchi qanday hollarda bir xil grammatik shaklda bo'ladi?

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar:

1-topshiriq

1. Aniqlovchi va to'ldiruvchining gapdagi o'rnini bayon qiling.
2. Bir bosh bo'lakli gaplar bilan to'liqsiz gap va so'z-gaplarni o'zaro tuzilish va ma'nosiga ko'ra qiyosiy tavsiflang.

2-topshiriq

1. Grammatik asos haqida ma'lumot bering.
2. quyidagi matndan yoyiq va yig'iq gaplarni toping.
Hamma ketib qoldi. Odamlarning ko'z oldiga toshlarni Farhoddek qulatgan Rustamjonning paxlavon qiyofasi kelardi. Haydar-montyor. Anvar zveno boshlig'i

GLOSSARIY

To'ldiruvchi. Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1.Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi: 1. Ot va olmosh bilan: Do'stingdan pulingni qizg'anma. Sizni unutmayman, Sherzod aka.

Vositali to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

Hol gapning ma'noviy mundarijasi va sintaktik tuzilishida faol qatnashuvchi gap bo'lagidir. Biroq u gapning bosh bo'laklari singari doimiy a'zosi, grammatik markazi emas. Uning gapda qatnashishi so'zlovchining fikri, maqsadiga bog'liqdir.

6-MAVZU. Gapning uyushiq bo'laklari; uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarni ishlatilishi.

REJA:

Uyushiq bo'laklarning semantik-sintaktik xususiyatlari.

Darsning maqsadi: talabalarda uyushiq bo'laklar to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI :

1. Uyushiq bo'laklarning ta'rifini aytib beradi.

2. Uyushiq bo'laklarni izohlaydi.
3. Uyushiq bo'laklarni topib beradi.
4. Uyushiq bo'lakli gapning qo'shma emas, sodda gap ekanligini asoslab beradi.

2-masala bayoni:

O'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bog'langan, bir xil so'roqqa javob bo'lgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi so'zlar tizmasi gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Masalan : U tez va ravon o'qidi. Magazindan qalam, daftar, chizg'ich oldim. Uyushiq bo'laklar o'zaro tenglashish, boshqa gap bo'laklari bilan esa tobelanish asosida bog'lanadi. Bog'imizda turli mevali daraxtlar: bodomlar, shaftolilar va o'riklar gulladi.

Gap bo'laklarining barchasi uyushib kela oladi . Eganing uyushib kelishi: O'tmishda halkimiz orasidan Beruniy va Navoiy, Ulug'bek va Boburlar etishib chiqqan. Kesimning uyushib kelishi: U urnidan turdi, ammo gapirmadi. To'ldiruvchining uyushib kelishi: Men uning jasorati va mardligi, chidam va sadoqatiga qoyil qoldim. Aniqlovchining uyushib kelishi: Ijodiy ish go'zal, juda ham og'ir va hayron kolarli darajada xursand kiluvchi mehnatdir. Izohlovchining uyushib kelishi: O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Izzat Sulton – o'zbek adabiyotshunoslarining otaxoni.

Holning uyushib kelishi: Adolat qo'rqib, qaltirab, jaxl ustida yonib, tez-tez gapirardi.

Uyushiq bo'laklarning Har biri son, egalik kesimlik affikslari, ko'makchilar bilan kelishi mumkin. Bunda ularning har biri ta'kidlanadi: Menga ham, senga ham, ukangga ham etadi .

Son, egalik. kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar uyushiq bo'laklarning oxirgisida kelib, ularning hammasi uchun umumiy bo'ladi: Hayotning mazmuni kishining mehnati, akl zakovoti, yurish-turishi, jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Uyushiq bo'laklar yig'iq va yoyiq holda bo'ladi: bir gap bo'lagining o'zi uyushib kelsa, yig'iq, bo'lar o'ziga oid so'zlar bilan kengaytib kelsa. yoyiq bo'ladi. Gulistonda kursdoshlarim: Ali, Ibrohim, Rahimjonlarni ko'rdim. Go'zal qizlar, mard yigitlar dalalarda baxt topdilar.

Uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi so'zlar bilan qo'llanishi mumkin. Umumlashtiruvchi so'z jins tushunchasidan keng tushunchani ifodalovchi so'z bo'lib, uyushiq bo'laklar tushunchasi o'sha keng tushunchaning ichiga kiradigan tushunchalardan iborat bo'ladi. Umumlashtiruvchi bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ham ifodalanadi: Hamma keldi: qo'chqor, Sodiq va boshqalar. Sho'x yigitlar, erka qizlar quvnashar, qahqahlashar. Gapda ketma-ket kelgan sifatlovchilar uyushib kelgan bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin: Sifatlovchilar predmetni bir tomonidan aniqlab, uning turli yoki bir belgisini bildirsa va o'zaro teng holatlarda bo'lsa, uyushib keladi.

Sifatlovchilar predmetni turli tomondan, ya'ni rang, shakl, material, vaqt, hajm, tus kabi belgi-xususiyatlar tomonidan aniqlasa, uyushmagan bo'ladi. Uyushmagan sifatlovchilar o'z sifatlanmishi bilan murakkab so'z birikmasi hosil qiladi: Bahodir ota oppoq uzun soqolini salobat bilan silardi.

Uyushiq bo'laklar

23-jadval

Biriktiruv chivositalar	Uyushiq bo'laklarning ko'rinishlari	Misollar
Ohang Teng bog'lovchilar A) biriktiruvchi B) zidlovchi V) ayiruvchi	Ega	Olma o'rik, shaftolilar gulladi. Akam va opam dalada ishlaydi.
	Kesim	Karim yozdi, o'qidi, tayyorlandi. Gulnora o'qidi, lekin yozmadi. Yoshlar dam ashula aytishadi, dam raqsga tushishadi.
	Ham ega, ham kesim	Salim, Hakim va Olimlar ta'tilda ham ishladilar, ham dam oldilar.

	To'ldiruvchi	O'qituvchimiz qalam, daftar va kitoblarni tarqatdi. Bo'ridan, echkiemardan qo'rqardi. (S.Ahm)
	Aniqllovchi	Bog'imizda oq, qizil, pushti gullar chamanday ochilib yotibdi.
	Hol	Suyima tez va ravon o'qidi. Tomlardan, ivigan devorlardan bug' ko'tarila boshladi. (S.Axm.)

Tayanch iboralar: Bosh bo'laklar uyushuvi ikkinchi darajali bo'laklar, uyushuvi bog'lovchilar,

umumlashtiruvchi so'z, tinish velgilari.

Uyushuq bo'laklar haqida ma'lumot.

Gap bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi orqali birikkan gap bo'laklari gapning uyushuq bo'laklari deyiladi.

Masalan: Tobora ko'tarilayotgan quyosh o'rik, olma, shaftoli va giloslarning shohlariga o'zining ertalabki sel-sel yog'dusini sepmoqda. (P.T.)

Yoki: Sherga soldim tuprog'u yulduz,

Mehru vafo, do'st yor suratin.

(T. Sodiqova.)

Mazkur misollarning birinchisida o'rik, olma, shaftoli, gilolar, nimalar? So'rog'iga javob bo'lib, uyushib kelgan bo'lsa, keyingisida tuprog, yulduz, mehr, vafo, do'st, yor so'zlari qaratqich aniqllovchi vazifasida kelib, nimaning? So'rog'iga javob bo'ladi hamda bir xil sintaktik vazifa bajarib kelyapti. Har bir gap bo'lagi uyushib kelishi mumkin.

Masalan:

Egalarning uyushib kelishi.

Gulos, To'ti, Qumri, Oyxon, Erkinlar,

Navro'z kuni devorlarga qararlar.

(Cho'lpon)

2. Kesimning uyushib kelishi

Haqiqat bukilar, lekin sinmas. (maqol)

3. To'ldiruvchining uyushib kelishi

a) vositasiz to'ldiruvchi: Botir filosofiyani, fan axillarini va siyosiy arboblarning obrazlari tasvirlangan badiiy asarlarni sevadi. (S.N.)

b) vositali to'ldiruvchi: Navoiy tarixda mashhur shaxslarning xayotlari, fikrlari, maqsadlari va ularga doir afsonalar haqida asar yozishni Jomiyga taklif etadi. (O.)

4. Aniqllovchining uyushib kelishi.

a) Sifatlovchi: maktabimiz bog'ida oq, qizil, sariq, safsar gullar ochildi.

b) Qaratuvchi: Oq o'rik, shotut, shaftoli, g'aynflining sap-sariq yaproqlari hovli betini ko'mib yotibdi.

5. Hollarning uyushib kelishi.

Ariq suvi bir hilda, jimgina, sharpasiz va shabodasiz oqmoqda. (I.R.)

Uyushuq bo'laklarning har biri boshqa bo'laklar bilan kelib, `yiq holda bo'lishi ham mumkin. Masalan: Yo'lning har tomonida bir-biriga tutash bog'chalar, kichik-kichik ekin maydonlari, mevazorlar, chamanlar bor edi. (O.)

Gapning uyushuq bo'laklari quyidagi xususiyatlari bilan harakterlanadi:

Uyushuq bo'lak komponentlari o'zaro teng a'loqada bo'ladi.

Ular gapda bir xil sintaktik vazifalarni bajaradi.

Ular umumiy xisoblangan bo'lak bilan bir xil munosabatda bo'ladi.

Teng bog'lovchilar yordami bilan bog'lanadi yoki bog'lanishi mumkin.

Sanash intonatsiyasi orqali talaffuz qilinadi.

Odatda bir xil so'z turkumi bilan ifodalanadi, Grammatik shakillari ham bir xil bo'ladi.

Uyushuq bo'laklarda son, egalik, kelishik affikslari va ko'makchilar, odatda, uyushuvchi so'zlarning oxirisiga qo'shilib, hammasi uchun umumiy bo'ladi.

Masalan:

Ariqcha bo'yidagi atirgul, qizilgul, naparmon gullar ochilib yotibdi. (I.R.) Mana bu xashamatli binolar va tsexlarimiz zabardast ishchilarimizning qo'li bilan yaratilgan. (Gaz) Xirot har kuni dardi, nash'asi mashaqqati bilan yashaydi. (O.)

Son, egalik affikslari va ko'makchilar ba'zan uyushuq bo'laklarining har biriga qo'shilib kelishi ham mumkin. Bunda har biri alohida ta'kidlanadi.

Masalan: Tog'lar, adrlar, uzoq-yaqindagi daraxtlar qurum boskanday qopqora tus oladi. (A.K.)

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagi uchun, qudrati uchun, shon-sharifi uchun har bir fuqaro fidokorlik ko'rsatishi zarur. (Gaz).

Elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak!

(I.A.Karimov)

Uyushuq bo'laklarida affikslargina emas, so'zlar ham umumlashtirishdi, bunday so'z har bir uyushuvchi so'z bilan takrorlanmay, uyushuq bo'lak oxirida keladi.

Masalan: Paxta dalalarida kim ko'p, kim oldin, kim toza terishga musoboqa uynaydi. (G.G.) To'pa hola Anorxonning ham onasi, ham otasi, ham singlisi, ham maslaxatchisi edi. (I.R.) Bu gaplarda terishga, edi so'zlari uyushuq bo'lak oxirida kelyapti.

2. Uyuushgan va uyushmagan aniqlovchilar.

Odatda aniqlovchilar uyushgan va uyushmagan bo'ladi. Uyushgan aniqlovchilar – uyushgan sifatlovchilar predmetni bir tomondan aniqlansa va o'zaro teng holatda bo'lsa, uyushib keladi. Bunda ularning har biri to'g'ridan-to'g'ri sifatlanishiga bog'lanadi.

Masalan: U sodda, uyatchan, kamtarin kamtarin yigit edi. (O.) Bu gapda uyushgan sifatlovchi-sodda, uyatchan, kamtarin o'zaro oxang yordamida birikib, predmet-yigitning belgisini, ya'ni xususiyatini aniqlab kelyapti.

Yoki:

Bahorda qum-qum libos kiyib olgan bog'lar endi sariq, qizish va ko'kimtir barg'lar ichida tovlanadi. (S.Z.) Bu Misoldagi sariq, qizg'ish va ko'kimtir so'zlari o'zaro teng xolatda predmet (barg) ni bir tomondan ya'ni bir tomondan ya'ni rang jihatdan aniqlab kelan.

Uyushgan sifatlovchilar bir predmetning turli belgilarini hamda bir turdagi belgilarini bildiradi, har ikkisi ham predmet bir tomondan aniqlanadi.

Masalan: Bu er kichkina, toza, serdaraxt, shiringiha manzil edi. (O.)Kechqurun kutubxonada u o'tirgan stolning usti qizil, yashil, ko'k, pushti, sariq jildli jurnallarga to'lib ketdi. (A.K.) Quyuq, bahaybat, badjahl bulutlardan yirik yomg'ir tomchilari savalab turadi. (O.)

Uyushmagan sifatlovchilar

Ba'zan bir qancha sifatlovchilar bir predmetni aniqlab kelsa ham, uyushgan sinalmaydi. Masalan: Bog'da katta bir tup yong'oq va har xil meva daraxtlari bor edi. (P.T.)

Bu misolda katta va bir tup so'zlari yong'oq so'ziga nisbatan aniqlovchidir. Lekin ular uyushgan emas. Chunki katta aniqlovchisi yong'oqning hajmini, bir tup esa miqdorini aniqlab kelayotir.

Uyushgan sifatlovchilar uyushgan sifatlovchilardan sanash intonatsiyasining yo'qligi bilan ham farqlanadi.

Masalan: Kichkina qora uyga yig'ilgan etti-sakkiz kelin uyning chetida qator-qator o'tirar edilar. (B.Kerb.)

Soy tomondan yoqimli mayin shaboda esa boshladi.

Yuqoridagi misolda kichkina so'zi hajmi, qora so'zi esa rang-tusni bi'ldirib uyushmagan sifatlovchi hosil qilgan. Keyingi misolda yoqimli so'zi bilan mayin sifatlovchi har xil belgini bildirgani uchun uyushmagan sifatlovchi hisoblanadi.

3. Uyushuq bo'laklarda bog'lovchilar

Gap bo'laklarining uyushib kelishda bog'lovchilarning roli katta. Ularning harakteriga ko'ra, uyushib kelgan bo'laklar ham ma'nolarni ifodalaydi.

Bu quyidagicha:

1. Va, hamda bog'lovchilari uyushuq bo'laklarni biriktiruv yo'li bilan o'zaro bog'laydilar.

Masalan: Yigit tor va qorong'I yo'ldan dalaning keng va yorug' maydoniga chiqdi. Katta xovuzlardagi suvlarda ko'lankalar hamda shu'lalar jim-jim o'ynashdi. (O.)

Uyushuq bo'laklar ko'p bo'lganda, biriktiruvchi bog'lovchi oxirgi juft orasida kelib, sanalishning tugalishini ko'rsatadi.

Masalan: Bozor ichkari xovlidan dasturxon, non va mayiz olib chiqdi. (S.A.)

Bilan aslida ko'makchi bo'lib, ayrim paytlarda biriktiruvchi bog'lovchi vazifasini ham bajaradi. Masalan: Umarjon Qurbon ota bilan Sodiqjonni sozandalar yalla qilayotgan davradan topdi. (A.K.)

Shuningdek, - u (-yu); -da yuklamalari ham biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida keladi.

Masalan: Chaqmoq qilichi ufqqacha yarqirab cho'zildi-yu, so'ndi. (S.N.) Jannatxon Namanganga ketish oldida o'ziga tanish bo'lgan tepaga chiqdi-da, o'ziga qarashli boqqa nazar tashladi. (Gaz). Biriktiruvchi bog'lovchilardan va, bilan yordamida bog'langan uyushuq bo'laklar juft-juft bo'lib kelishi mumkin.

Masalan: Zulfiya bilan Komiljon ham, Anorhon bilan Ernazar aka ham selning oqibati tog'risida o'ylar edilar. (I.R.) Erta sahardan beri ish boshida yurgan Oyqiz va Olimjon, ayniqsa Suvonqul bilan Bekbuta ko'k piyoz sepilgan oshni zo'r ishtaxa bilan edilar. (Sh.P.)

2. Biroq, lekin, ammo bog'lovchilari uyushgan bo'laklarni bir-biriga zid qo'yish yo'li bilan bog'laydi:

Masalan: Komiljon Saodatxonning ko'zlari muloyimgina qaradi, lekin javob bermadi. Boboqul ota uni kimgadir o'xshatdi, ammo tanimadi. (S.Anorboev.) Qiz Saidiydan o'z ishiga doir ko'p ma'lumotlar olishga umidvor, biroq so'ramaydi. (A.K.)

Zidlovchi bog'lovchi vazifasida ba'zan -u; -yu; yuklamalari ham keladi. Masalan: Nazira hola mehmonlar bilan so'rashdi-yu, gapirmadi. Zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan ko'proq kesim uyushib keladi.

3. dam ..., dam ..., goh ..., goh ..., ba'zan ..., ba'zan ..., bir ..., bir ..., yohud ..., yohud ..., yoki ..., yoki ..., yo ..., yo ...; bog'lovchilari uyushgan bo'laklarni ayirish yo'li bilan bog'laydi.

Ayiruvchi bog'lovchilardan bir guruh (goh ..., goh ..., ba'zan ..., ba'zan ..., bir ..., bir...) uyushgan bo'laklardan anglashilgan ma'noning bajarilish – bajarilmasligida galma-gallikni ko'rsatadi.

Masalan: Chapda, goh o'ngda quloqlarni teshuvchi chinqiriq tovushlar bilan chigirtkalar chirillashadi. (M.I.)

Kechki shabada dam musaffo suv zidini, dam atrofdagi gullarning ajoyib xidlarini, dam yoqimli suv changini olib kelardi. (P.K.) Beklar ba'zan podshoga, ba'zan Navoiyga tikilib jim o'tirishardi. (O.) To'tiqiz bir Dilshodga, bir xolisga, bir onasiga qarab qoyardi. (M.I.)

Ayiruvchi bog'lovchilarning ikkinchi bir guruxi (yoxud..., yoxud ..., yoki ..., yoki ..., yo ..., yo ...) uyushuq bo'laklarning birini ikkinchisidan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Masalan: Gulnorning o'ylab qo'rgan oxirgi chorasi yo o'lim, yoki Yodgor bilan birga qochib ketish edi. (S.A.)

4. Uyushuq bo'laklarda vergulni ishlatilishi.

1. Uyushuq bo'laklarda sanash intonatsiyasi bilan birikkanda, yozuvda biri ikkinchisidan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Oydin osuda bir tun edi. (O.Yo.) Tus-to'polon ichida bir-birlarini yoqotib qo'ymaslik uchun O'rinboy, Sergey, Matluba, Mishalar qo'l ushlab olishdi. (T.Po'lat.)

2. Uyushuq bo'laklar zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan birikkanda ham, shu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: Munavvar seskandi, lekin shu zahoti o'zini qo'lga oldi. (S.Anarboev) Ketma-ket chaqaloqning yo'g'on, leki bog'iq inga-ingasi eshitildi. (S.Z.)

3. Uyushuq bo'laklar takrorlanuvchi bog'lovchilar yordami bilan birikkanda, ular orasida vergul qo'yiladi.

Masalan: Tog'lar goh chap tomoningda, goh o'ng tomoningda paydo bo'lib qolardi. (U.U.)

4.Uyushuq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z

Uyushuq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z uyushuq bo'laklarni umumlashtiradi. Jamlaydi.

Umumlashtiruvchi so'z vazifasida ko'pincha belgilash olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari va jamlovchi otlar qo'llanadi.

Umumlashtiruvchi soʻz uyushuq boʻlaklar uchun berilgan soʻroqqa javob boʻladi va uyushuq boʻlaklar bilan bir xil sintaktik vazifa bajaradi.

Masalan: Hamma narsa: uylar, devorlar, daraxtlar, qorongʻulikka jimgina choʻkdi. (O.)

Osmonda, daraxtlarda, toshlarda, boʻgʻotlarda – hamma erda chumchuqlar chirqillashadi. (M.Ismoiliy.)

Umumlashtiruvchi soʻz baʻzan birikma holida qoʻllanishi ham mumkin.

Masalan: Olma, oʻrik, shaftoli, qovun, tarvuz, xandalak, bordring – bularning hammasi yozning ziynatidir.

5. Uyushuq boʻlaklarda nuqta va tirening ishlatilishi.

Umumlashtiruvchi soʻz uyushuq boʻlaklardan oldin kelsa ikki nuqta (:), Umumlashtiruvchi soʻz uyushuq boʻlaklardan keyin kelsa, undan oldin kelsa tire (-) qoʻyiladi.

Masalan: Hamma: yoshlar, keksalar, ayollar qatnashdilar. Mehri hola non, mayiz, yongʻoq-eguliklar olib chiqdi.

Yoki: Tong pallasida qaryalar, xotin-xalachlar, yoshlar-qishloq ahli choyxona atrofiga toʻplandilar.

Baʻzi vaqtlarda umumlashtiruvchi soʻz bilan uyushuq boʻlaklar orasida kirish soʻz ham keladi.

Masalan: Institut talabalari: jumladan, Sanobar Qodirova, Nazira Julomova, Rafiq Usmonovlar sport musobaqalarida birinchilikni oldilar.

Muhokama uchun savollar

1. Uyushuq boʻlaklarning taʼrifi
2. qaysi gap boʻlaklari uyushadi?
3. Uyushish uchun nimalar zarur?
4. Uyushuq boʻlaklar qanday bogʻlanadi?
5. Uyushuq kesimlar qoʻshma gap hosil qilishi mumkinmi?

GLOSSARIY

Gapning uyushuq boʻlaklari. Oʻzaro teng bogʻlovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bogʻlangan, bir xil soʻroqqa javob boʻlgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi soʻzlar tizmasi gapning uyushuq boʻlaklari deyiladi.

7-MAVZU: Gapning ajratilgan boʻlaklari, ajratilgan boʻlaklarning turlari.

REJA:

1. Ajratilgan boʻlaklar.
2. Ajratilgan boʻlak turlari.
3. Gap boʻlaklarining ajratilish sabablari.
4. Ajratilgan aniqlovchi va oddiy aniqlovchining farqlari.

1-masala bayoni:

Oʻzlari taalluqli boʻlgan gap boʻlaklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda maʼlum mustaqillikka ega boʻlgan boʻlaklar ajratilgan boʻlaklar deyiladi. Ajratilgan boʻlaklar fikrni odatdagiga qaraganda kuchli, ifodali, taʼsirli qilib berish uchun qoʻllanadi. Ajratilgan boʻlak mazmunni kuchaytirish, yanada aniqroq, yorqinroq qilib, grammatik jihatdan maʼlum mustaqil holga qoʻyish uchun maxsus intonatsiya. Pauzalar bilan ajratiladi. Masalan: Onam, mehribonim, keldi gapidagi «mehribonim» boʻlagini tahlil qilib koʻraylik. «mehribonim» boʻlagi «onam» boʻlagining aniqlovchisidir. Bu aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keltirilib, ikki tomondan maxsus pauza va intonatsiya bilan ajratildi. Natijada shunday oʻzgarishlar sodir boʻldi:

1. Bu boʻlakning mazmun-mohiyati avvalgiga nisbatan kuchaydi: uning mazmuni taʼkidlandi, unga diqqat kuchaydi.

2. Natijada bu boʻlak (mehribon ona) holatidagiga nisbatan ayrimlik, nisbiy mustaqillikka ega boʻldi. Bu uni kesimga yaqinlashtirdi, tasdiqni bildirish darajasiga yaqinlashtirdi. Demak, bu aniqlovchi predikativlik elementiga ega boʻldi.

Aniqlovchini ajratish fikrni ifodali, taʼsirli qilib berishga xizmat qildi.

O'zbek tilida bosh bo'laklar ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham ajratiladi. Bu bilan tinglovchining diqqati ana shu bo'laklar ma'nosiga jalb qilinadi. Binobarin, gap bo'laklarining ajratilishi bejiz bo'lmay, so'zlovchining kommunikativ maqsadlari bilan bog'liqdir.

Bosh bo'laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog'liq. Ajratilgan bosh bo'laklar o'zidan oldin kelgan ega yoki kesimni izohlaydi.

Ajratilgan ega: Keyinchalik biz, aka-uka ikkimiz, texnikaga berildik .

Ajratilgan kesim: Mening tug'ilgan yilim – shu – bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi inversiya, izohlash, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

Aniqllovchilarning ajratilishi: Hech erinmay kuch to'kibdi ko'kan-devkor,
O'ylamapti shuncha piyoz kimga darkor.

Nargizning ovozigacha boshqa gullarning, qizlarning, ovozlari kelib qo'shildi. Izohlovchilarning ajratilishi invereiya hodisasi bilan bog'liq:

Kasb, xunar, amal unvon kabilarni ifodalovchi izohlovchilar o'z izohlanmishidan keyin keltiriladi. Obid Sodiqov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, atoqli olimdir.

To'ldiruvchilarning ajratilishi izohlash va uning yoyiq holda kelishi bilan bog'liq: Bektemirga, sobiq sodda cho'ponga, komandirning fikri g'oyat yoqdi. Pul topishning turli yo'llariga kirish bilan, san'atkorni xor qiluvchi bunday yo'l bilan teatrning obro'sini aslo tiklab bo'lmaydi.

Hollarning ajratilishida ham izohlash va ularning yoyiq holda kelishi muhim rol o'ynaydi. Ertasi kechqurun, soat ettilarda, kutilmaganda Gulomjon kirib keldi. Navoiy, bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda, boshni kamtar engil qimirlatish bilan halqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

Ravishdosh bilan ifodalangan hollar o'zlariga oid so'zlari bilan kengayib kelib ajratiladi. Oyqiz, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, hurmat bilan xalqqa ta'zim qildi.

Ajratilgan bo'laklar 23-jadval

Ajratilgan bo'laklarning turlari	1.3.2. Asosiy xususiyatlari	1.3.3. Misollar
Ajratilgan izohlovchi	Izohlanmishdan keyin uning ma'no-sini konkretlashtirishga, shunga qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladi.	Orqada tikka turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlarning orasiga oldi. To'xtagin, qiz, bu men – Omon-jon. (H.O) Xuddi shunday, sen bilan menga o'xshagan odamlar, ya'ni mehnat kishilari, istiqbol to'g'risida o'ylamay yashay olmaydi
Ajratilgan qaratuvchi	Bu bo'lak har doim otdan bo'ladi, har ikkalasi qaratqich kelishigida bo'ladi.	Hammamiz bir onaning, ya'ni haqiqatning bolalarimiz. O'sha otga mana bu bolaning, Hudoyberdining ishqi tushib qolgan ekan.
Ajratilgan sifatlovchi	Sifatlovchi gapning oxirida, sifatlan-mishdan keyin keladi.	Sakrab tushib shunda tuyadan, karvonboshi-berahm, nodon(Z.D.) Mushtumzo'r lapanglar- mug'ambir, pismi. (O.) Batrak eding, yupun-yalang oyoq. (O.) Kamzul kiydim, tirinka. Bir qiz tug'ildi, ninni.(G'.G')
Ajratilgan to'ldiruvchi	Olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchi-ning (shuningdek, ot bilan ifodalangan to'ldiruvchining	Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, qo'msayman birovni- allakimni. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish! Motam! (O)

	ham) ma'nosini oydinlashtiradi.	
Ajratilgan hollar	Ma'nosi umumiy, aniq bo'lmagan hol-larning ma'nosini nisbatan oydinlashtiradi.	Kechalari, ishdan bo'shagan paytlarda, ular hangomalashib o'tirar edilar. Boshqa bir joyda-hovlining ichida alla-kimning qichqirgani eshitilar edi. Yillar mana shu xilda, osoyishta o'tar edi. (A.q.)

Muhokama uchun savollar

- Ajratilgan bo'lak deb nimaga aytiladi ?
- 3.2.1. Ajratilgan bo'laklar qanday xususiyatlari bilan xarakterlanadi ?
- 3.3.1. Gap bo'laklarining ajratilish sabablarini ko'rsating.
- 3.4.1. qaysi gap bo'laklari ajratiladi ?

1.Ajratilgan izoh bo'lakli gaplar haqida.

Sodda gaplar tarkibida ba'zan ajratilgan bo'laklar ham qatnashish mumkin. Gapning ajratilgan bo'laklari o'zlari aloqador bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi va ular boshqa bo'laklardan maxsus pauza bilan ajratilib, logik urg'u oladi.

Masalan:

1. Biz dam olish kuni ertalab shahardan tashqarida, biz suv bo'yiga chiqdik (O.Yo)
2. Konvert ichidagi adresga, tanish va qadrli xusni xatga tikilgan xayolga cho'mdi.
3. Axir uning, Voxidjonning ham o'ziga yarasha obro'si, yigitlik izzat-nafsi borku! (O.Yo) Bu har uchala misolda ajratilgan xol (birinchi gap), ajratilgan to'ldiruvchi (ikkinchi gap), ajratilgan aniqlovchi (uchinchi gap) ifodalangan. Bazan ajratilgan bo'laklar oborot formasida bo'lishi ham mumkin.

Masalan:

Musoaffo osmondagi yulduzlar singari, bexisob elektr lampochkalari kechani kunduzdek yoritib turibdi. ("Ishonch" gaz.) yoki:

Nargiz Gullar bog'ining hayotbaxsh tongini yaratib, pokiza sevgi haqida kuylaydi. Birinchi gapda ko'makchili konstruksiya formasidagi oborot (musaffo osmondagi yulduzlar singari), ikkinchi gapda ravishdosh oborot (gullar bog'ining hayotbaxsh tongini yangratib) kesimdan anglashilgan ish harakatning qanday holatda bajarilganligini ta'kidlab, aloxida intonasiya yordamida ajratilyapti. Ko'rinadiki ajratilgan bo'laklar, oddiy tgap bo'lagi formasida kelgani kabi turli oborot formasida ham bo'lishi mumkin.

AJRATILGAN BO'LAKLAR 3 XIL BO'LADI:

1. Ajratilgan to'ldiruvchi.
2. Ajratilgan aniqlovchi.
3. Ajratilgan xol.

AJRATILGAN TO'LDIRUVCHILAR

Ajratilgan to'ldiruvchilar ikki xil:

1. Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan to'ldiruvchi.
2. Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan to'ldiruvchilar Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan to'ldiruvchi kesim yonida kelmaydi. To'ldiruvchilarning ajratilishida qaraganda, ustiga, tashqari, ilgari, bilan birga va shu kabi ko'makchi vazifasida kelgan so'zlar ishtirok etadi. Qaysi ko'makchi yoki ko'makchi vazifasidagi so'z bilan kelishiga qarab ajratilgan to'ldiruvchilar quyidagi ma'nolarni ifoda qiladi.

Masalan:

Tashqari ko'makchisi bir predmetni boshqasidan ajratib ko'rsatsa, qaraganda, ko'makchilar predmetlarni qiyos qilishda yordam beradi, bilan, ustiga, ko'makchilar esa ma'noga ikkinchi ma'noning qo'shilishi ko'rsatdi.

Masalan:

1. Usta amaki o'ymakorlikdan bo'lak, boshqa ustaxonalar uchun qog'ozga naqsh va gullar ham chizib beradi. (S.A)

2. Qamishkapaliklar odamlarni nomlari bilan atashdan ko'ra xususiyatlari bilan ta'kidlashni afzal ko'radi. (P.T)

3. Men o'qishimni davom ettirish bilan birga, kechki smenada ishlab ham turibman.

ODDIY GAP BO'LAGI FORMASIDAGI TO'LDIRUVCHILAR

Bu xil to'ldiruvchilar o'zidan oldingi to'ldiruvchining ma'nosini izohlaydi, unga aniqlab kiritadi, boshqa turdagi ajratilgan bo'laklar kabi, uziga xos intonasiyaga ega bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchilar ham, vositali to'ldiruvchilar ham ajratiladi.

AJRATILGAN VOSITASIZ TO'LDIRUVCHILAR

1. Endi ular faqat birgina saylni-dushman ustidan g'alaba qilingan kun tantanasini umid qiladilar.

2. Qaynotangni, Zunnunxo'jani, oldin ham ko'rganmiding?

AJRATILGAN VOSITALI TO'LDIRUVCHILAR

1. U oilasi bilan-xotini, chaqaloq qizi, o'n besh yoshli singlisi bilan, Oltiariqqa ko'chib bordi. (E.V)

2. Bektemirga, sobiq sodda cho'ponga, komandiring g'oyat e'qdi.

Ajratilgan to'ldiruvchi bilan ajratilmish to'ldiruvchi bir xil grammatik shaklda bo'lib, bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Bu jixatdan uyushiq bo'laklarga o'xshaydi. Biroq bularda intonasiyada o'ziga xos pauza bo'ladi. Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan to'ldiruvchilar o'zlari izohlab kelayotgan to'ldiruvchilar bilan, ya'ni, shu jumladan, masalan, kabi, yordamchi so'zlar orqali bog'lanishi ham mumkin. Masalan: Jahon kitobxonalari qirg'iz yozuvchisi, ya'ni Chingiz Aymatovni yaxshi biladi, yoki: Bu xabar ko'plarni, shu jumladan, Maxkamni ham, juda quvontirdi. (P.K)

AJRATILGAN SIFATLOVCHI predmetning belgisini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ajratiladi. Ajratilgan sifatlovchilar sifatlanmishdan keyin kelsa ajratilgan sanaladi.

Masalan:

Ma'lum bo'lishicha u, ya'ni universitet domlasi dosent Obidov, bir necha yillardan beri biologik metodi ustida ish olib bormoqda ekan. (O.Ė) Ajratilgan aniqlovchilar, ya'ni sifatlovchi odatda birikma yoki uyushgan xolda keladi.

Masalan:

Qo'chqarov-do'ng peshona, qirra burun, ko'krakdor, polvontaxlit yigitcha-kichkina tuman gazetasiga ko'z tikib o'tirardi. Bunda predmetning belgisini bo'rttirib berish uchun sifatlanmishdan keyin keltirilgan. Ayrim paytda yakka kelgan sifatlovchilar ham ajratilishi mumkin.

Masalan:

Saxarlab mardikorlar, yalang oyoq . . . bozorga, ishga, chopdilar.

AJRATILGAN QARATUVCHI.

Bunda qaratuvchi o'zidan oldin kelgan boshqa bir qaratuvchini izohlash, konkretlashtirish yo'li bilan ajratiladi.

Masalan:

Bu dugonamning, Xalimaning, ro'moli. Yoki: O'sha otga mana bu bolaning, Xudoyberdining, ishki tushib qolgan. (M.A)

AJRATILGAN IZOHLOVCHILAR.

Izohlovchilar ko'pincha ajratilgan bo'ladi. Bunda ular izohlanmishdan keyin kelib, maxsus intonasiya bilan talaffuz qilinadi.

Masalan:

Dadang-bizning qadrdon do'stimiz-hamisha qalbimizda yashaydi. Izohlovchi o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelsa, uning ajratilganligi tez payqaladi. Masalan: Denisov-dehqonlar orasida ko'p yurgan sobiq irrigator sodda, odamshinavanda lekin talabchan, haqiqatchi edi. (O)

AJRATILGAN XOLLAR.

Ajratilgan xol o'z formalariga ko'ra ikki xil.

1. Oborot formasidagi ajratilgan xol.

2. Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan xol.

Ko'makchi konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan xol.

Ko'makchili konstruksiyasi formasidagi xol kesimdan uzoqda kelib, o'ziga oid so'zlar bilan kengayib, boshqa gap bo'laklardan ajralishi mumkin. Bunda konstruksiya kabi, bo'yicha, tufayli, yarasha, xolda, muvofiq kabi ko'makchi so'zlar bilan shakllanadi.

Masalan:

1.Navoiy bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda, boshini kamtar, yengil qimirlatishi bilan xalqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

2.To'ppon, ishda to'rt kishining ishini qilgani kabi, ovqatda ham to'rt kishining ovqatini yegan edi.

Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan bo'laklardagi kabi, ma'lum darajada predikativlik mavjud. Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan xol quyidagi ma'noni ifodalaydi.

1.Turli xolatni

Masalan:

1.Nor xola xursandlik bilan yuragi to'ygan xolda, bog'ni aylanib keldi.

2.O'ktam allanechuk bo'shashgan holda otliq qizning orqasidan ancha vaqt o'ychan qarab qoldi.

2.O'xshatishni,

Masalan:

1.Buloqning suvi, podshox zamondagi mazlumlarning ko'zlaridan oqqan yosh kabi tinmay to'lib toshdi. (SH.R)

2.Farxodning qoyalarni o'pirgan afsonaviy teshasi kabi, shoir fikri toshlarni yaxlid kesib, misralarga boylab, qalab ketdi.

ODDIY GAP BO'LAGI FORMASIDAGI AJRATILGAN XOLLAR.

Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan xollar o'zidan oldin kelgan xolning so'rog'i va vazifasiga teng bo'ladi. Ajratishning bu turi tilimizda keng qo'llanadi. Ayniqsa, ajratilgan payt va o'rin xollari juda ko'p ishlatiladi.

AJRATILGAN O'RIN XOLI.

Masalan:

1.Nariroqda, garb tomonda, Lena tog'lari yuksaldi. (O.T)

2.Ayvon oldida, otxonaning lang ochiq eshigi yonida, otlar qarsillatib yem yeb turardi.

AJRATILGAN PAYT XOLI

Masalan:

1.Bugun, darsdan keyin, maktabda ota-onalar yig'ilishi chaqirilgan edi.

2.Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Siddiqjonga hamrox bo'lib qoldi.

AJRATILGAN BO'LAKLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi.

1.Ajratilgan bo'laklar odatda vergul bilan ajratiladi.

Ajratilgan bo'lak gapning boshida kelsa, undan so'ng, oxirida kelsa undan oldin, gapning ichida kelsa, har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi.

Misollar:

1.Ko'm-ko'k barglarga burkangan daraxtlarni tebratib, salqin shabada esadi.

2.“Dunyoning ishlari ko'p qiziq-da”, dedi Zebixon, o'ziga-o'zi gapirganday. (S.Z)

3.Jangchilar, nima haqida gap kelayotganligini bilmay, qiziqish va xayrat bilan qarashardi.

3.Ajratilgan bo'lakning sostai keng bo'lsa yoki uning ichida vergul bo'lsa, bunday ajratilgan bo'laklar tire (-) bilan ajratiladi.

Masalan:

1.Axir u mana shu o'tirganlar -erkaklar, ayollar va besh yosh bolalar uchun-frontda kon to'kmaganmi?! (SH.R)

2.Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatiga -Roziyani avvaliday go'zal, shod ko'rish niyatiga-Sattor bir laxzada yetdi. (P.K)

3.Ajratilgan bo'lak izohlanmishning ma'nosini ochib bersa (ular o'rtasida ya'ni so'zini ishlatish mumkin bo'lsa), bunday ajratilgan bo'lak ham tire (-) bilan ajratiladi. Bunday xolatda ajratilgan bo'lak

bilan keyingi gap bo'laklari orasiga hech qanday belgi qo'yilmaydi. Chunki ular o'rtasida ajratuvchi pauza yo'q. Ular umumiy intonasiyaga ega bo'ladi.

Masalan:

1. Bambur Nargizning vatani-Gullar bog'ini bilardi. (SH.R)
2. Biri aks etadi gullarda,
Biri olim-ëqimli, xushfe'l. (X.P)

Muhokama uchun savollar:

1. Ajratilgan sifatlovchi.
2. Ajratilgan qaratuvchi.
3. Ajratilgan izohlovchi.

MUSTAQIL ISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

Umumlashtiruvchi so'z ishtirok etgan uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi haqida ma'lumot bering.

Ajratilgan qaratuvchilar ishtirok etgan 2 ta gap tuzing.

Yoyiq undalmalar va uyushiq undalmalar ishtirok etgan 4 ta gap tuzing.

GLOSSARIY

Ajratilgan bo'laklar. O'zlari taalluqli bo'lgan gap bo'laklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi.

Undalma. Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi.

Kirish bo'laklar so'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi: Albatta, buyuk kashfiyotlar osonlikcha tug'ilmaydi. Yolqin akang bundan ham kattaroq bir unvonni ko'zlayapti, chamasi.

Kiritma gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir. Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadilar.

Kirish so'z va kirish birikma. So'zlovchining o'zi bayon qilayotgan fikriga bo'lgan turli munosabatini bildiruvchi so'z yoki so'z birikmasi kirish so'z yoki kirish birikma deyiladi.

8-MAVZU. Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Undalmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari.
2. Kiritmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari.
3. Undalmaning egaga o'xshash va farqli tomonlari

1-MASALA : Undalmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari .

Darsning maqsadi: Talabalarda undalma to'g'risida keng va aniq tushuncha hosil qilish.

1 – masala bayoni

Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi.

Undalma, garchi gapning tarkibiy qismi bo'lsa ham, gap bo'laklari bilan bevosita grammatik aloqaga kirishmaydi, gap bo'laklariga ajratishning bosh mezoni bo'lgan tobelanish talabiga javob bermaydi. Biroq bu undalmaning gap bo'laklariga hech qanday aloqasi yo'q, degani emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, gap tarkibida tobe aloqa bilan birgalikda, tobe bo'lmagan, grammatik aloqa hisoblanmaydigan aloqa ham mavjud bo'ladi. Bunday aloqa tilshunoslikda introduktiv aloqa deb nomlanadi. Demak, gap tarkibidagi sintaktik aloqani uchga bo'lish mumkin.

Subordinativ aloqa (tobelanish).

Koordinativ aloqa (tenglanish).

Introduktiv aloqa (mazmuniy bog'lanish).

Ko'rinadiki, undalma gap bo'laklari bilan mazmuniy bog'lanishga egadir. Undalma bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi. Lekin undalma undash intonatsiyasi, pauza bilan ajratilishiga ko'ra hamda kesim bilan bog'lanmasligi bilan egadan farq qiladi.

Undalma leksik-semantik jihatdan quyidagilarni ifoda qiladi.

Konkret ism-familiyani: Men ham o'shanda sizni ovora qilgan edim-ku, Roziya!

Kasb-hunar, mashg'ulotni: Er-suv endi, dehqon, seniki, quyosh ungan zamon seniki.

Mansab-amalni ifoda qiladi: To'qay masalasini jiddiy o'ylashimiz kerak, rais!

Unvonni: O'rtoq mayor, dushman tanklari!

Qarindoshlik, yaqinlikni: Behuda yonma, uka, bir aql top.

Holat-xususiyatni: Bilamiz. qahramon, sizni hamma hurmat qiladi.

Sub'ektiv bahoni: Bilasanmi, jonginam, endi bir umrga birga bo'lamiz.

Ba'zan undalma aniqlovchilari uyushgan bo'lishi ham mumkin: Ey, vujudi qayg'u-alamdan iborat bo'lgan, peshonasiga azaldan sevgi yozib qo'yilgan yigit, sen bizga ravshanlik keltirding. Uyushish undalmaning o'ziga ham taalluqli bo'lishi mumkin: Hasan, Aziz, Ibrohim, yuklarni darhol tushiringlar.

Undalma gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin: Bunda tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1. Undalma gap boshida kelganda, undalmadan so'ng vergul qo'yiladi: Yigit va qizlar, fan asoslarini chuqurroq egallangizlar.

2. Undalma gap orasida kelganda, ularning ikki tomonidan vergul qo'yiladi. Bunda tinglovchiga tegishli fikr aytilib, keyin unga murojaat qilinadi, keyin fikr yana davom ettiriladi: Siz baxtlisiz, Olimjon aka, ko'nglingizga nima kelsa, ayta olasiz.

3. Undalma gap oxirida kelganda undan oldin vergul keladi: qachon ovqatingiz pishadi, ona.

Gap boshida kelgan undalmanda undash, chaqirish intonatsiyasi kuchli, qolganlarida kuchsiz bo'ladi.

Ayrim hollarda undalma kuchli his-hayajonni ifodalab, kuchli intonatsiya bilan aytiladi va shunga ko'ra undalmadan sung undov belgisi qo'yiladi: G'ofurjon! Unutma meni, bolangni o'ldirgan, xotiningni hazon qilgan boyning, butun boylarning jazosini ber !

Muhokama uchun savollar

4.1.1. Undalma deb nimaga aytiladi ?

4.2.1. Undalmaning ma'no va vazifalarini ko'rsatib bering.

4.3.1. Undalma qanday ma'nolarini ifodalaydi ?

2-masala: Kirishlarning semantik–sintaktik xususiyatlari .

Darsning maqsadi: Talabalarda kirishlarning ma'no-vazifalari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish.

2- masala bayoni.

Kirish bo'laklar so'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi: Albatta, buyuk kashfiyotlar osonlikcha tug'ilmaydi. Yolqin akang bundan ham kattaroq bir unvonni ko'zlayapti, chamasi.

Kirish vazifasida so'z turkumidan ajralib chiqib, faqat kirish vazifasida ishlatiladigan so'zlar (morfologiyada ular modal so'zlar deb yuritiladi Masalan: shekilli, albatta, demak, xullas, modomiki, darvoqe kabilar), ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan, kirish vazifasida ham, gap bo'lagi vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar (qisqasi, rost, ortidan, oxiri kabilar) keladi.

Kirishlar tuzilishga ko'ra 3 xil: kirish so'zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar.

Kirish so'zlar bir so'zdan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra kirish so'zlar quyidagi tiplarga bo'linadi:

A) Ot tipidagi kirish so'zlar: chamasi, taajjub, modomiki, odatda, oxiri, nazarimda, baxtimizga, so'ziga ko'ra kabilar.

B) Olmosh tipidagi kirish so'zlar: Menimcha, seningcha, uningcha kabilar.

V) Sifat tipidagi kirish so'zlar: to'g'ri, durust, qisqasi, tabiiy kabilar.

G) Son tipidagi kirish so'zlar: birinchidan, ikkinchidan kabilar.

D) Ravish tipidagi kirish so'zlar: dastlab, oxir, nihoyat, umuman, asosan, aksincha kabilar.

E) Fe'l tipidagi kirish so'zlar: kechirasiz, bundan chiqadiki, anglashiladiki, deymen kabilar.

KIRISH BIRIKMALAR. Bular birikma holiday kirishlardir. Ular semantik tabiatiga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi.

A) qaratuvchili kirish birikmalar: uning fikricha, buning ustiga, sening nazaringda, kabilar.

B)Sifatlovchili kirish birikmalar: bir tomondan, shu jumladan kabilar.

V)To'ldiruvchili kirish birikmalar: Menga desa qisqasini aytsam, to'g'risini aytganda, kabilar.

G) Holli kirish birikmalar: qisqacha aytganda, boshqacha aytganda, ochiq gapirganda kabilar.

D) Aniqlovchili va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning so'ziga qaraganda, sening gapingga qaraganda kabilar.

E) Aniqlovchi va holli kirish birikmalar: uning ochiq aytishicha, uning ochiq gapirishicha kabilar.

J) Aniqlovchi, hol va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning ochiq gapirishiga qaraganda.

KIRISH GAPLAR. Bular gap shaklida bo'lishi bilan xarakterlanadi. Yolg'iz yurishga, to'g'risini aytсам, qo'rqaman. Ibrohimov, qurbon ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmidan xabardor qildi.

Kirishlar quyidagilarni ifodalaydi:

1. So'zlovchining aytilayotgan fikrga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi: Bular quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

A) ishonch yo tasdiqni: albatta, shubhasiz, so'zsiz, haqiqatan, darhaqiqat, muqarrar kabilar. Darhaqiqat, bugungi sayr umrbod esda qoladigan bo'ldi.

B) Gumonni: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan: Mehmonlar biz tomonga kelishyapti, shekilli.

V) Mamnunlikni: baxtimizga, hayriyat, shukur: Hayriyat, bugun havo ochiq bo'lar ekan.

G) Afsus-achinishni: afsus, essiz, nahotki, baxtga qarshi, ajabki: Eh, attang, shuncha mehnat qilsang-u, mehnating ko'kka sovurilsa.

D) Orzu-umidni: koshki, shoyad, koshkiydi: Koshki, akasi Yo'lchi bo'lsa edi .

2. Aytilayotgan fikrning kimga qarashli ekanini ifodalaydi: bizningcha, fikrimcha, nazarimda kabilar: Domlamizning gapiga qaraganda, bu yil yozma imtihonlarda voz kechiladi.

3. Aytilayotgan fikrning tartibini ifodalaydi. Birinchidan, ikkinchidan, avvalo, nihoyat, ohiri kabilar. Nihoyat, go'zal kunlarning birida uchrashishdi.

4. Aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi: Demak, xullas, ko'rinadiki, shunday qilib, binobarin, zotan, bir so'z bilan aytganda kabilar. Xullas, qo'shiq yana avjga chiqdi.

5. Aytilayotgan fikrning odatda ro'y beruvchi hodisa ekanligini ifodalaydi: odatda, odat buyicha, odatga ko'ra. Odatda, kichik kattaga salom beradi.

Kirishlar gap boshida, o'rtasida, oxirida keladi. Bu ularning ma'no funksiyasiga bog'liq. Darhaqiqat, demak, xullas modomiki, baxtimizga, o'g'ri, zotan kabilar ko'proq gap boshida; shekilli, deyman kabilar ko'proq gap oxirida; ko'pchiligi esa gap o'rtasida keladi.

Ba'zan kirishlar birdan ortiq kelishi ham mumkin: Shunday qilib, Mahmud, sening fikringcha, halifaning Xorazm shohga alohida iltifot qilishi zamirida biror g'araz yo'qmi?- savol berdi Beruniy.

Kirishlar gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Gap o'rtasida kelsa, har ikki tomonidan vergul qo'yiladi.

Ma'nosi	Tuzilishiga ko'ra	Ifoda materialiga ko'ra	Ma'no jihatdan turlari
Gapning ayrim bo'lakla-ri yoki mazmuniga so'zlovchining turlicha munosabatini ifodalaydi	Sodda: albatta, ehtimol, menimcha, avvalo Birikmali: to'g'risini aytganda, bir so'z bilan, shu jumladan, uning fikricha, mening nazarimda. Gap: O'zingizdan o'tar gap yo'q; men sizga aytsam,	Otdan: aftidan, nazarida, odatda, baxtimizga	Modal ma'nolarni ifodalaydi (ishonch, gumon, shubha, taxmin): albatta, haqiqatan, chamasi, so'zsiz, ehtimol, shubhasiz
		Sifatdan: to'g'ri, to'rrirog'i, durust, tuzuk, tabiiy, rost, shubhasiz, so'zsiz	His-hayajonni ifodalay-di. (Shodlik, orzu-umid, achinish, taajjub): kosh-ki, shoyad, ishqilib, ajab-ki, taajjubki, nahotki
		Olmoshdan: menimcha, seningcha, sizningcha, bundan tashqari	Fikrni ifodalash, shakl-lantirish usulini ko'rsa-tadi: umuman olganda, to'g'-risi, gapning lo'ndasi, boshqacha aytganda, ochiq-chasiga, qo'pol qilib aytganda, aynan, to'g'rirog'i, qisqasi
		Sondan: birinchidan, ikkinchidan...	Gaplarning ichki bog'lani-shini ko'rsatadi: demak, xulosa, shunday qilib, anglashiladiki.

	O'rmonjon aytmoqchi.	Ravishdan: umuman, haqiqatan, asosan, zotan, aksincha, taxminimcha.	Fikrning manbaini ko'r-satadi: menimcha, fikrim-cha, aytish- laricha, eshiti-shimcha, nazarimda, uning gapiga qaraganda.
		Fe'ldan: aytaylik, ko'rasizki, ishonasizmi, kechirasiz, o'ylaymanki, bilasizmi.	Fikrning tartibini ko'r-satadi: avvalo, ikkin-chidan, birinchidan, oxiri

Muhokama uchun savollar

.1.1.Kirishlar qanday ma'no vazifalarni ifodalaydi ?

.2.1.Kirishlarning ifodalanishi.

5.3.1.Kirishlar va modal so'zlarning uzviy aloqadorligi.

6- MASALA . Kiritmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari .

Darsning maqsadi: Kiritmalarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish.

6-masala bayoni:

Kiritma gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir. Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadilar. Kiritmalar ohang jihatdan mustaqillikka ega bo'ladi. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydi, sintaktik vazifa bajarmaydi, gap bo'lagi yoki qo'shma gapning biror komponenti hisoblanmaydi. Kiritmalar tushunilishi qiyin yoki notanish so'zlar ma'nosini, ayrim leksik birliklarning etimologiyasini izohlash, so'zlovchining sub'ektiv, emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi: Boshidagi qalampir nusxa qora do'ppisi ham (na chust nusxaga o'xshaydi, na marg'ilon nusxaga) yangi. «Iqbol» ko'rik tanlovda Nargiza Muhammedova (filologiya fakultetidan– 1-o'rin), Nilufar Ahmedova (pedagogika fakultetidan - 2-o'rin) va Mamlakat Pochchaeva (Chet tili fakultetidan -3-o'rin)lar g'olib chiqishdi.

Kiritmalar tuzilishiga ko'ra uch tipga bo'linadi: kiritma so'zlar, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

1) kiritma so'zlar ayrim mustaqil so'z shaklida bo'ladi. Saida Sultonova snayper(mergan) bo'lib jang qildi.

2) Kiritma birikmalar so'z birikmasi shaklida bo'ladi: U (safardan qaytgan kishi) ... juda mayda odatiy voqealarni ham qoldirmay so'zlar edi.

3) Kiritma gaplar gap shaklida bo'ladi: O'rmondan (u erda yirtqich hayvonlar bor edi) bo'kirgan va uligan ovozlari eshitildi.

Kiritmalar kirishlardan farq qilib gap boshida kelmasligi bilan xarakterlanadi. Ular ko'pincha gap ichida, ba'zan gap oxirida keladi. Kiritmalar gaplarning barcha tiplari tarkibida kelishi mumkin. Ba'zan bir gap (ko'proq murakkablashgan gaplar) tarkibida bir necha bo'lishi ham mumkin: Mehmonxonaga joylashib, soqol-mo'ylovlarini olib (ochil sho'x xarakterlar bilan yuzini siladi) keyin agitator sifatida (u ko'kragini kerdi) salobat bilan kirib bordi.

Muhokama uchun savollar

6.1.1.Kiritma deb nimaga aytiladi?

6.2.1.Kiritmalar qanday ma'no-vazifalarni bajaradi?

6.4.1. Kiritmalar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?.

6.5.1. Kirish va kiritmalarning ikki xil hodisa ekanligi.

M.Xamroyev ma'ruzasida:

Undalma va ularda tinish belgilar.

Kirish so'z va kirish birikma.

Kirish gap va unda tinish belgilarning ishlatilishi.

Mavzuga doir muamollar

1.Undalmani gap bilan grammatik bog'lanmasligini izohlang.

Kirish so'z nima uchun gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi?

Kirish gap asosiy fikrni iroda etuvchi gapdan qaysi jixati bilan farq qiladi, misollar asosida tushintiring.

4. Undalma, kirish so'z va kirish xamda kirish gaplarni qo'llanadigan tinish belgilar xususida to'xtalning.

Tayanch so'zlar:Undalma, kirish so'z, kirish gap, qo'llanish o'rni, bog'lanish, vazifa.

Undalmalar. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsini bildirgan so'z yoki so'z birikmasi undalma deyiladi.Undalma aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanib, gapning umumiy mazmunini to'ldiradi, gapning kimga qarashli ekanini ko'rsatib beradi. Bu jixatdan undalma egaga o'xshaydi, ammo u gapning kesmi bilan grammatik jixatdan bog'lanmasligi, o'ziga xos intonasiyasiga ekanligi bilan farq qiladi.

Masalan: Kamtarlik qilma, Yigitali, buni o'zingning xalol mexnating bilan olding (S.K.).

Undalma asosan dialog gaplarda qo'llanadi va aksariyat ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Shunigdek, monologda, avtor nutqida, murojaat, shior,buyruq, chaqiriq, e'lonlarda ishlatiladi.

Masalan: Nazir aka, bu yil yangi terim mashinalari yoshlarga xam tegadimi? (Z.U.)

Undalma gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'laklari bilan moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo u gapning ayrim bo'laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri xisoblanadi. Shuning uchun xam u ayrim gap bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Ma'lum bir gapdan undalmaning chiqarilishi yoki xatto o'rnini o'zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, muallifning aytmoqchi bo'lgan fikri anglashilmay qoladi. Undalmaning ajratilgan izohlovchiga yaqin bo'lgan turida grammatik aloqaga kirishish xususiyati aniq ko'rinadi,chunki undalma ma'lum bir bo'lakning ma'nosini izohlaydi . Masalan: Bosh turmishim turi, ko'nglimning shuuri. Bularning hammasi sen, Vatanim, onam. (X.O.)Misolidagi Vatanim-onam undalmasi sen olmoshining ma'nosini izohlaydi, aniqlashtiradi. Vatanim-onam undalmasi butun gap mazmuni bilan xam aloqadordir. Bu xil undalmaning asosiy vazifasi undalma bo'lsa xam, unda izohlash xususiyati xam bor. Bunday undalmalarning ajratilgan izohlardan farqi quydagicha :

Undalma chaqirish intonasiyasi bilan talafuz qilinadi. Ajratilgan izohlar esa ajratilgan, sust intonasiya bilan aytiladi. Undalma ko'pincha butun bir gapga qaratilgan,izohlar esa biror bo'lakni izohlaydi, to'ldiradi. Undalma bosh kelishikda bo'ladi, izohlar esa ma'lum kelishik affikslari vositasida ifodalanadi. Shunigdek, undalmalar nominativ (atov) gaplarga shaklan o'xshash bo'ladi. Biroq ulardan farqli tomonlari mavjud: 1. Nominativ gaplar ma'lum bir xis-xayajon, maqsad ifodalangan gapdir. Shuning uchun xam u gap intonasiyasi bilan talaffuz etiladi. Undalma tugal bir maqsad yoki tugal bir xis-xayajonni ifodalamaydi, intonasiyada xam tugallik bo'lmaydi. 2. Nominativ gaplar asosan boshlanish o'rnida qo'llanadi. Undalmalar esa gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin.

Masalan: Nominativ gap:

Kuz. Izg'irin shabada xushtak chalib turibdi. (I.T).

Erta tong.Quyosh xali o'zining zarrin nurlarini sochganicha yo'q.

Undalma.

Bobo, to'qayda arslon bo'ladimi?

Topshiriqni o'z vaqtida bajarganigiz uchun raxmat,azamatlar!

Undalmalar ko'pincha shaxs otlari, qarindoshlik, xunar-kasbni anglatuvchi so'zlarorqali ifodalanadi. Tarkibida undalma bo'lgan gaplarda, odatda ega tushiriladi.

Masalan :

Xamid, badiy o'qish to'gaaragiga qatnashasanmi ?

Onajon, bu ishda endi orqaga qaytib bo'lmaydi.

Usta bormisiz? Anchadan beri ko'rinmaysiz?

Ba'zan undalmalar - u(-yu), -ov, -ey kabilar bilan qo'llanadi.

Masalan :

1. Ey rais, bu kitoblarni avval o'qib ko'ring, undan keyin mag'zini tushinasiz.

Saodat-u, tez-tez kelaqol.

Zulfiya-yu, qayerdasiz?

Undalma ba'zan aniqlovchi, izohlovchi so'zlar olib, birikma xolida bo'ladi.

Masalan:

Sizni istab keldim, ulug' sardorim!

Bu yoshlar, Tojiboy aka bizning baxtimiz uchun kurashuvchilardir.

Undalmalar ba'zan uyushib kelishi mumkin.

Masalan:

Xurmatli onaxonlar, otaxonlar, biz sizlarning mexnatingiz bilan faxrlanamiz.

Undalma gap boshida kelganda undosh, chaqiriq intonasiyasi ega bo'lib, pauza bilan ajratiladi.

Masalan:

Usta A'zim, paxta ishida qulosimizni rosa keraylik.

O'rtoq Nishonov, ota-onalarni chaqirishni unitmang!

Saodat, mana bu etyuddagi peyzaj juda ajoyib ekanmi?

Undosh ma'nosini kuchaytirish uchun ba'zan undalma takrorlanib qo'llaniladi.

Masalan: Bolam, jon bolam, o'zingni extiyot qil... Xo'pmi, jon bolam ! Tushundingmi-a !

Undalmani kuchli ifodalash uchun undalma oldindan e, xoy, obbo, ox kabi undovlar xam qo'llaniladi.

Masalan: Ex, bolam. Dadangning ishi ko'payib ketdi. Ba'zan undovlar undalma vazifasida qo'llash mumkin. Masalan: Dada-chi, dada, bugun bog'chada poyezdg'poyezd o'ynadik. Undalmalr nutq qaratilgan ob'yektni ifodalaydi. Ob'yekt esa uch xil bo'lishi mumkin.

Shaxs

Shaxs bo'lmagn jonli predmet

Jonsiz predmet.

Undalmalar shaxsni ifodalaganda, kishining nomi, familyasi, taxallusi, qarindoshligi, yoshi, jinsi, kasbi, unvoni va boshqa xususyatlarini ko'rsatish mumkin.

Masalan :

1. Sobir Umarovich, sizni tabriklayman.

Qani, dakang xo'roz, zakazingni qila ber.

Xech qayerga borma, Musa tog'a, xech qayerga.

Xammamizga xam ruxsat eting, o'rtoq leytenant .

2. Undalma jonli predmet bo'lishi mumkin. Bunday undalmalar xayvon, parranda, xashorat nomlari bo'lib, ko'pincha, masal, matal, ertak, xamda she'ryatda qo'llanishi mumkin.

Masalan :

Xoy tulkivoy, qayoqqa ketyapsan?

ayiq polvon, o'rmonga birga bormaymizmi?

Undalma jonsiz predmet bo'lishi mumkin. Bu asosan she'ryatda qo'llanadi.

Masalan :

1. Seni unitolmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!

2. Shamol, yuzlarini silab o't.

Undalmada gapning boshida kelsa, yozuvda undalmadan so'ng vergul qo'yiladi.

Masalan: Unsin, bu oila qalay, ketasanmi yo bu yerda turasanmi? Agar gap boshida kelgan undalma xayajon bilan aytilsa, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi. Gapning davomi bosh xarf bilan boshlanadi.

Masalan: Kechir meni! Nodon, ko'zi ko'r, toshmexr dadangni kechir, qizim!

Undalma gap ichida kelsa, uning xar ikki tomonidan vergul qo'yiladi.

Masalan: So'zla, ko'zgujon, xaqiqatni et bayon!

3. Undalma gapning oxirida kelsa undan oldin vergul qo'yiladi.

Masalan: Shunday demaysizmi, azizim !

Undalmani kuchli ifodalash uchun undalmaning oldidan undovlar qo'yiladi, undov bilan undalmaning orasiga vergul qo'yiladi.

Masalan: Xoy, Jamila, nega bular radioni gapirtira oladi-yu, sen bilmaysan?

Kirish so'z va kirish birikma.

So'zlovchining o'zi bayon qilayotgan fikriga bo'lgan turli munosabatini bildiruvchi so'z yoki so'z birikmasi kirish so'z yoki kirish birikma deyiladi.

Masalan: Darvoqe, Anvarga ko'p mexnatim singan. Kirish so'z shodlik, gumon, ishonch, umid, taajub, fikrini kimga qarashli ekanligi, uning oldingi fikri bilan bog'liqligi, shubxa, eslatish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Kirish so'z ko'pincha modal so'zlar bilan, kirish birikma esa so'z birikmasi orqali ifodalanadi. Masalan:

Umuman, ezgu ishning cheki yo'q.

Axmadning aytishicha, ertaga yugurish musobaqasi o'tkaziladi.

Kirish so'z butun gapga, qo'shma gaplarda esa odatda uning bir qismiga aloqador bo'ladi.

Masalan: 1. Darxaqiqat, Pugachyov o'sha yetakchiga juda o'xshar ekan.

Nazir o'qishni bitirsa, albatta, men uni tabriklayman.

Birinchi gapda kirish so'z butun bir gapga aloqador, ikkinchi gapda esa gapning so'ngi qismi(men uni tabriklayman)ga aloqador. Bunday sharoitlarda kirish so'z gapning o'zi aloqador bo'lgan bo'lagidan oldin yoki keyin keladi.

Kirish bo'lak ayrim gap bo'laklariga talluqli.

A)gapning kesmiga.

Masalan: Siz bu gaplardan bexabarsiz-da,albatta.

B) gapning egasi.

Masalan: Og'a,extimol, siz xam eqmoqchidirsiz?- deb so'radi.

V)gapning aniqlovchisiga.

Masalan : Bu, shubxasiz, bizning yutug'imiz -deb gap boshladi Samandarov.(A.Q.)

Kirish bo'lak bir gap tarkibidan ortiq bo'lishi mumkin. Bunday xolat kirish bo'lakning bir gapning bir kesmiga (yoki biron bo'lagiga) qarashli bo'lgan o'rinlarda bo'ladi.

Masalan:

Demak, Vatan mamnun bo'lgan o'g'ildan mexribon yana xam mamnun, albatta! (M.B)

Aftidan, qari deysan, shekili.(X.K)

Xolbuki, razvedka, ayniqsa, bu razvedka extiyot shart.(U)

Kirish so'z va kirish birikma.

So'zlovchining aytilayotgan fikriga bo'lgan munosabatini ifodalaydi: albatta, extimol,balki, shubxasiz, xaqiqat, darxaqiqat, baxtimizga, afsus, esiz va boshqalar.

Bular turli ma'nolarni anglatdi:

1.Ishonch yoki tasdiqni (albatta, shubxasi, so'zsiz, xaqiqat kabilar)masalan:

Ko'prik, shubxasizshu yerga yaqin joyda.

Darxaqiqat, bu ishda sobiq bo'lishi kerak.

Gumonni(balki,extimol,aftidan,shekili)kabilar.

Masalan:

Extimol,bu vazifani uddalaymiz.

Balki, jarlik tomon borishimiz kerak.

Shodlikni (baxtimizga, tolemizga kabi)masalan: Baxtimizga, bugun xavo uncha sovuq bo'lmadi.

Afsus va taajubni.(afsus, attang, esiz, esizgina, baxtga qarshi)kabi. Masalan : 1. Baxtga qarshi, kecha bulutli kun bo'ldi. 2. Attang biroz kechikibmiz.

2. Bayon qilingan fikrni kimga qarashli ekanligini ifodalaydi(menimcha, sizningcha aytishlaricha,...so'ziga qaraganda,... so'ziga ko'ra,... yozishicha kabi)masalan: Akmal akaning aytishicha, bu yil saraton juda issiq boshlanadi.

3.Bayon qilingan fikrning tartibini ifodalaydi (avvalo, oxiri, nixoyat, birinchidan,ikkinchidan) masalan:1. Birinchidan, bugun Mingbuloq tumanida xalima opaning yubley kechalari, ikkinchidan, ertaga viloyat yozuvchilarning konfrensiyasi ochiladi.

2. Nixoyat, cho'lga suv keldi.

Aytilgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi. (demak, xullas, xulosa qilib, aytganda, shunday qilib, binobarin, ko'rinadiki, anglashiladiki kabilar).

Masalan: 1. Binobarin, xayotda inson ensikorpedyasi. 2. Shunday qilib, tarxiy shartnomaga qo'l qo'yildi.

Kirish so'z va kirish birikmalarida vergulning ishlatilishi.

Kirish so'z va kirish birikma gap boshida kelsa, unda keyin, gap o'rtasida kelsa, xar ikki tomondan, gap oxirida kelsa kirish so'z va kirish birikmadan oldin yozuvda vergul qo'yiladi. Masalan: 1. Demak, xato qilibsana, bo'tam, senda sinchkovlik yetishmas ekan. (X.T).

Tamom bo'ldi, nazarimda ichim yonib, burnimdan tutin chiqayotganga o'xshaydi.

Xullaskalom, sabrni qanoatni unutadi.(O)

Kirish gap. Nutqda so'zlovchi biron xodisa to'g'risida yo'l-yo'lakay izoh beradi. Asosiy fikr ichida yo'l-yo'lakay fikrini anglatuvchi gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap o'zi kiritilgan gapning biron bo'lagiga aloqador bo'ladi. Masalan: 1. Men Umaralini(u bilan ikki yil avval tanishgan edim) kecha dalada uchratib qoldim. 2. Biz, sinf raxbarimiz aytdi, ertaga ekskursiyaga boramiz.

Kirish gapda qavs va tinish belgilarni ishlatilishi.

Kirish gap odatda qavs olinadi. Masalan: O' ktam temirko'l Nortoy polvonga (mushti bilan g'isht ushutar edi)qichqirdi.

Kirish gap ba'zan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Shunday qilib, Asal va Samad,- o'g'lining ismi shunday ekan - bizning yo'l uchastkamizda qolibdi.(CH.A)

9-mavzu: Bir bosh bo'lakli gaplar. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar

REJA

1.Egasi topiladigan gap.

2.Egasi topilmaydigan gap.

3.Nominativ gap.

4.Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

5.To'liq va to'liqsiz gaplar.

Mavzuga oid muammoli savollar:

1. XX asrning oxirida gapning hokim bo'lagi, bosh bo'laklarning mavqei masalasida keskin o'zgarish yuzaga keldi. Fikrning ifodalanishi uchun kesimning asosiy rol o'ynashini isbotlab beruvchi qarashlar yuzaga keldi. Siz bu qarashlarning qaysisiga qo'shilasiz? Nima uchun?

2. Atov gapning bosh bo'lagi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishi ma'lum. Shundan kelib chiqib, an'anaviy grammatikada atov gaplar kesimsiz gaplar qatoriga kiritiladi. Hozirgi grammatikada esa u kesimli gap hisoblanadi: bosh kelishikdagi kesim deyiladi. qaysi fikr to'g'ri deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

Asosiy masala – bir bosh bo'lakli gap haqida tushuncha.

Darsning maqsadi: Bir bosh bo'lakli gaplarning asosiy logik-grammatik xususiyatlari to'g'risida malumot berish va ularni mustahkamlash.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

Sodda gaplarning grammatik asosini aytib beradi.

Bir bosh bo'lakli gapning fikr (hukm) ifodalovchi mustaqil birlik ekanligini izohlab beradi.

Bir bosh bo'lakli gapning ikki bosh bo'lakli gapdan farqini ko'rsatib beradi.

Bir bosh bo'lakli gapning to'liqsiz gap emasligini izohlab beradi.

Bir bosh bo'lakli gapning so'z-gaplardan farqlarini aytib beradi.

Bir bosh bo'lakli gaplarda predikativlikning ifodalanishini asoslab beradi.

Bir bosh bo'lakli gap bosh bo'lagining kesimlik xususiyatlarini ochib beradi.

1-asosiy masalaning bayoni.

Malumki, biz tashqi olam tasirida tug'ilgan o'y-fikr, his-tuyg'u, istak-niyatlarimizni asosan, gaplar orqali ifodalaymiz va suhbatdosh-tinglovchiga etkazamiz. Biz bunda maqsadimiz,sharoit-vaziyat, bilim va malakalarimizga bog'liq holda gaplarning turli tiplaridan foydalanamiz. Ana shunday gaplardan biri

bir sostavli deb ham yuritiladigan bir bosh bo'lakli gapdir. Bir bosh bo'lakli gap sodda gapning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra bir turidir. Ma'lumki, bu jihatdan sodda gaplar ikkiga bo'linib, uning boshqa bir turi ikki bosh bo'lakli gap deyiladi. Bunday gaplarda fikr ikki bosh bo'lak, ya'ni ega va kesimning qo'shilishidan hosil bo'lgan gap orqali ifodalanadi. Masalan: Bahor keldi Olam anvoyi gullar bezagan ko'm-ko'k libosga burkandi.

Bir bosh bo'lakli gapda esa fikr shaklan ega yoki kesimni eslatuvchi bitta bosh bo'lak bilan ifodalanadi. Biroq bu bunday gaplarda ega yoki kesimning «tushib qolganligi»ni yoki etishmasligini bildirmaydi (U to'liqsiz gap emas). Ikki bosh bo'lakli gap ham fikrning to'liq ifodasidir. Bir bosh bo'lakli gap ham ikki bosh bo'lakli gap singari odatdagi, normal hodisadir. Boshqacha aytganda, ikki bosh bo'lakli gap ham, bir bosh bo'lakli gap ham fikrning sodda gap shaklidagi grammatik jihatdan to'liq shakllangan mustaqil yashash formasidir. Ular o'rtasidagi farq bosh bo'laklarning miqdorida, xolos. Bir bosh bo'lakli gapda bir-biriga nisbat berib o'rganiladigan ikki bosh bo'lak bo'lmaydi. Shuning uchun bu erdagi bosh bo'lakni kesim yoki ega deb tushunilmaydi. Biroq u o'z logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra yo kesim sostavini, yo ega sostavini eslatib turadi. Jumladan: Bahor. Erta tong. Oydin kecha kabilar egani yoki ega sostavini eslatadi. Bu suvni ichib bo'lmaydi. Avval o'yla, keyin so'yla. Ketsang-ketaver kabi gaplar esa kesim yoki kesim sostavidan iboratdir.

Xullas, bir bosh bo'lakli gaplar ikki sostavli gapning kesimi yoki egasi tushib qolgan qismi emas. Ular fikrning bir bosh bo'lak orqali ifodalangan mustaqil bir ko'rinishidir. Shuning uchun to'liqsiz gaplarni bir bosh bo'lakli gap deb bo'lmaydi, chunki to'liqsiz gaplarda bo'laklar sharoit talabiga ko'ra haqiqatan tushirilgan bo'ladi. Hozir qaysi fasl haqida gapirayotgan edik? – Bahor. Buni: Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k qurshovidagi Bahor bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Birinchi holdagi Bahor to'liqsiz gapdir, u aslida to'ldiruvchining qisqargan shaklda ifodalangan (aslida Bahor haqida), kesim avvalgi so'roqdan anglashilib turgani uchun tushirib qoldirilgan. Keyingi holdagi Bahor esa fikrning shu shakldagi normal ifodasidir. U sharoit tufayli kesimidan ajratilib ifodalanilayotgani yo'q. U fikrning shunday holatdagi ifodasidir. Gapga xos tugallangan intonatsiya bu so'zga gaplik sifatini baxsh etadi. Bular aksariyat predmetning nomini bildiruvchi so'zlardan tashkil topgani uchun atov gap yoki nominativ gap deb yuritiladi.

Bir so'zning fikr ifodalovchi birlikka aylanishi so'z-gaplarga ham xosdir. Biroq shundan kelib chikib, ularni bir bosh bo'lakli gap deb bo'lmaydi. Chunki so'z-gap deb ataladigan Ha. Yo'q. Mayli. Barakallo. Xayr. Bas. kabi sintaktik hodisalarni bo'laklarga ajratib bo'lmaydi. Ularni sintaktik tabiatiga ko'ra malum gap bo'lagi deb hisoblash grammatik qonun-qoidalarga to'g'ri kelmaydi. Bunday so'zlar yaxlit holda gap hisoblanib, bir so'zdan iborat bo'lganligi uchun so'z-gap deb yuritiladi va sodda gaplarning yana bir alohida turini tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan bir bosh bo'lakli gap bosh bo'lagining sintaktik maqomini aniqlab berish ehtiyoji tug'iladi. Bu o'rinda bir bosh bo'lakli gaplarda bir-biriga nisbatan belgilanadigan ikki bosh bo'lak yo'q, shuning uchun bir bosh bo'lakli gap bosh bo'lagini ega yoki kesim deb bo'lmaydi, biroq shu bilan birga, ularni ana shu bosh bo'laklarni eslatib turadi deyish bilan ham ish bitmaydi. Har qalay, bunday fikr-talqin masalaga oydinlik kiritmaydi. Bu erda bir bosh bo'lakli gap bilan predikativlik va predikativlikning asosiy ifodalanmishi bo'lgan kesim munosabatlarining aniqlanishi bilan masala ijobiy hal etiladiganga o'xshaydi.

Malumki, gap hammadan burun obektiv borliqni ifodalaydi. Bu-ularning obektiv manosi, mazmuni. Biroq gap orqali obektiv borliq konkret holda emas, umumlashtirilgan holda, kishining jamiyat hayotida tug'ilgan ijtimoiy ongi nuqtai nazaridan ifodalanadi. Bu shundan iboratki, gapning mazmunida obektiv borliqdan tashqari kishining o'sha borliqqa munosabati ham ifodalanadi. Bu munosabat modallik deb yuritiladi. Biroq obektiv modallik gap mazmunidagi asosiy narsadir. Unga qo'shiladigan modal mano grammatik abstraktsiya xarakterida bo'lib, gapda kommunikativ funktsiya tufayli yuzaga keladi. Chunki gap faqat aloqa jarayonida tuziladi. Aloqa jarayonida gap tuzish degan so'z – nimaningdir belgi- xususiyatini tasdiqlash yoki inkor qilish, nimaningdir mavjud yoki mavjud emasligini tasdiqlash (keng manoda : iltimos, buyruq ham nimaningdir mavjud emasligidan kelib chiqqan tasdiq) demakdir. Tasdiqlash yoki inkor qilish esa predikativlik hodisasi bo'lib, modallik ana shu predikativlikning bir elementidir.

Modallik grammatik zamon va shaxs shakllari bilan qoʻshilib predikativlikni tashkil qiladi. Masalan, Endi yozganingni izohlab ber deyilganida anglashiladigan malum shaxs va harakat uning obektiv (material) mazmuni boʻlsa, oʻsha shaxsning harakatini tasdiqlaydigan soʻzlovchining aniq ishonchi, undash manosi (modallik), harakatning nutq soʻzlanib turgan paytdan oldin yuz berganligi manosi (oʻtgan zamon), harakatning boshqaruvchisi II shaxs ekanligi manosi birgalikda gapning predikativligini tashkil qiladi.

Demak, predikativlik gap manosini ifodalaydi. U gapning grammatik manosidir.

Predikativlik, odatda, bitta soʻzning shaxs-son formasini bilan ifodalanishi mumkin boʻlgani uchun gap bitta soʻzdan (yoki soʻz formasidan) iborat boʻla oladi. Masalan: Eshitdim.-Oʻqituvchiman.

Gapning predikativlikka ega boʻlishining oʻzi bu birlikning oʻziga xos fonetik shakllanishini ham taqozo qiladi: predikativlik mavjud boʻlgan joyda, albatta, intonatsion shakllanish boʻladi. Chunki intonatsiya gapning tashqi formasidir. U gapning boshlanish va tugash chegaralarini koʻrsatadi. Kishilarning oʻzaro aloqa qilishlari gap orqali amalga oshirilgani uchun intonatsiya ham predikativlik kabi kommunikativ funktsiya bajaruvchi vosita boʻlib, u gapning uchinchi muhim belgisidir.

Shunday qilib, gap-obektiv borliqning kishining unga boʻlgan munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik va intonatsion butunlikdan iborat boʻlgan alohida inʼikos shaklidir.

Koʻrinib turibdiki, ushbu tavsif-nazariy malumot Endi yozganingni izohlab ber. Eshitdim. Oʻqituvchiman gaplari misolida isbotlab berildi. Bu gaplar esa bir bosh boʻlakli gaplardir. Ayni gaplarni sen endi yozganingni izohlab ber, men eshitdim. Men oʻqituvchiman tarzida shakllantirish mumkin. Shaklda oʻzgarish boʻlgan boʻlsa-da, mazmunda oʻzgarish yuz bergani yoʻq. Biz nima qildik? Biz bir bosh boʻlakli gapni ikki bosh boʻlakli gapga aylantirdik. Demak, biz mazkur gaplarga yana bitta bosh boʻlak qoʻshdik. Bu bosh boʻlak, malumki, ega deyiladi. Demak, biz yuqorida keltirgan bir bosh boʻlakli gaplar ikki bosh boʻlakli gaplarning kesimi mavqeidagi bosh boʻlakka egadir. Bundan boshqacha boʻlishi ham mumkin emas. Chunki gapning mohiyatini belgilovchi grammatik mano-predikativlik va intonatsion tugallik kesim orqali voqelanadi. Shu manoda yuqorida keltirilgan bir bosh boʻlakli gaplarning bosh boʻlagini bemaʼlol kesim deyish mumkin. Bu nafaqat bosh boʻlagi fel bilan ifodalangan bir bosh boʻlakli gaplarga, balki Bahor. Koʻm-koʻk dala! tipidagi atov gaplarga ham taalluqlidir. Chunki mazkur soʻzlar intonatsiya va sintaktik qurshov tufayli atalmishlarining nutq soʻzlanib turgan paytda mavjudligi toʻgʻrisidagi hukmni ham bildiradi. Bu esa faqat kesimga xos xususiyatdir. Demak, Bahor. Koʻm-koʻk dala tipidagi bir bosh boʻlakli gaplar kesimsiz ega gaplar emas, balki aslida kesimning oʻzidir.

Bir bosh boʻlakli gaplar mano- vazifasiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: a) shaxsi aniq gap; b) shaxsi noaniq gap; v) shaxsi umumlashgan gap; g) shaxssiz gap; d) atov gap.

Bir bosh boʻlakli gaplar 26-jadval

№	Ma'no turlari	Misollar
1	Shaxsi aniq (ma'lum)gaplar	- Keldingmi, o'g'lim! - Maktabda o'qituvchiman. - Yordamlashaymi?
2	Shaxsi noma'lum (noaniq) gaplar.	qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim, bulbulimdan ayirdilar. Yaxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar.
3	Shaxsi umumlashgan gaplar	Nimani eksang, shuni o'rasan. Etti o'lchab, bir kes! Bugungi ishni ertaga qo'yma!
4	Shaxssiz (shaxsi topilmas) gaplar	Odamning ichidagini bilib bo'lmas ekan. Tartib- qoidalarga rioya qilinsin!
5	Atov (nominativ) gaplar	Oy. Nozik jimjitlik. qahraton qish. Hamma yoq qor bilan qoplangan. Kuz. Paxtalar chamanday ochilgan. Ana talabalarimizning eng kuchlisi. Uni hamma hurmat qiladi.

2.1-asosiy masala – bir bosh bo'lakli gapning turlari: 1) shaxsi aniq gap.

Darsning maqsadi: Shaxsi aniq gaplarning grammatik xususiyatlarini ochib berish.

IDENTIV O'QUV MAQSADLARI:

2.1.1. Shaxsi aniq gapning tarifini aytib beradi.

2.1.2. Shaxsi aniq gapning grammatik xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

2.1.3. Shaxsi aniq gapni topib beradi.

2.1.4. Shaxsi aniq gaplarning kesimini tahlil qiladi.

2.1. – asosiy masala bayoni .

Kesimi harakatni bajaruvchi shaxs-egani aniq ko'rsatib turadigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi. Masalan: Borsam, yo'q ekansan. Yaxshi uxladigizmi? Kiring, o'tiring. Bunday gaplarning bosh bo'lagi asosan quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

I, II shaxs manosini ifodalovchi shaxsli fellar bilan. Masalan: Gektariga 40 sentnerdan hosil yigishtirib oldik. Borasan, nima uchun bormas ekansan ?

I, II shaxs tuslovchi qo'shimchalarni olgan otlar, fe'ldan boshqa so'zlar bilan: Masalan: Xo'jalik suvchisiman. Uch bolaning otasiman. Erkakmisan?

3. I – II shaxsdagi buyruq –istak maylidagi fellar bilan :

Yur dalaga! Birga ketaylik. Bor. yo'qol, Dada, bir o'ynab kelay.

Bir kelib keting qishlog'imizga.

Bir bosh bo'lakli gaplar bilan ikki bosh bo'lakli gaplar chog'ishtirilsa, shu narsa ham aniq bo'ladi, birinchi tipdagi gaplarda eganing yo'qligi fikr materialiga ta'sir etmaydi, u grammatik jihatdan shu konsturiksiyada zarur element sanalmaydi.

Bazan mazmun va grammatik xususiyatlariga ko'ra egasi ifodalanmaydigan gaplarda ham eganing qo'llanishini ko'ramiz. Bu grammatik holat bilan emas, poetik, stilistik xususiyatlar bilan bog'liq.

Shaxsi aniq gaplarning kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turganligi uchun egani qo'llab ularni ikki bosh bo'lakli gapga aylantirish mumkin. Biroq shaxsi aniq gaplarning shunday turlari ham borki, ular deyarli hamma vaqt bir bosh bo'lakli bo'lib, odatda egasiz kullanadi: bunday gaplarni ikki bosh bo'lakli gapga aylantirib bo'lmaydi. Anglashiladiki, shaxsi aniq gaplarning egasi umuman qo'llanilmaydigan (ega olib, ikki sostavli gapga aylanmaydigan) ko'rinishlari ham bor. Bunday bir bosh bo'lakli gaplar-topishmoqlarda uchraydi. Chunki topishmoqlarning talabiga ko'ra topilishi lozim bo'lgan predmet aytilmaydi. Demak, bu topilishi lozim bo'lgan predmet ega vazifasida kelishi lozim bo'lganda yuz beradi. Masalan, Kunduzi erga qaraydi, kechasi osmonga qaraydi. Bu gapning egasi zanjir(u) bo'lsa ham, lekin u qo'llanilmaydi (topiladigan narsa zanjirning o'zi). 2. Vaqtingni yo'qotding-baxtingni yo'qotding, tipidagi makollarda uchraydi. Bu erda "sen"ni qo'llab bo'lmaydi: umumiylik ma'nolari yo'qoladi. Tuya ko'rdingmi? -Yo'q tipidagi gaplarda ham egani qo'llab bo'lmaydi. Bular ham shu tipdadir.

Kesim «ketsak-ketdik» formasidagi fe'ldan bo'lgan gaplarda uchraydi. Bu fe'l kesim odatda birinchi, ikkinchi shaxs formasida keladi. qani, yursak-yurdik. Yozsang-yoz kabi.

Mang (maqol) kabi gaplarda uchraydi. Ma, mang so'zlari shaxs bildiradigan fe'llar bo'lgan, keyinchalik kesim kabi qo'llanib ketgan.

Demak, bunday o'rinlarda grammatik shaxs aniq bo'lsa-da (shunga ko'ra, u shaxsi aniq gaplardir), lekin malum sabablarga ko'ra ega qo'llanmaydi.

2– asosiy masala:Shaxsi noaniq gap.

Darsning maqsadi: shaxsi noaniq gaplarning logik-grammatik xususiyatlarini tushuntirib berish.

2.2 – asosiy masalaning bayoni .

Kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Masalan: Jo'jani kuzda sanaydilar. Uni institutga qabul qilishdi. Bu tipdagi gaplarning kesimi 3-shaxs shaklidagi aniq fe'llardan bo'ladi (kesimning 3 shaxs formasida bo'lishi bu turdagi bir bosh bo'lakli gaplar uchun tipik hodisadir). Biroq shunga qaramay, bajaruvchi shaxs-kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi aniq bo'lmaydi. Demak, bunda grammatik shaxs aniq bo'lsa-da, u konkret shaxsni anglatmaydi: u so'zlovchi ham emas, tinglovchi ham emas, umuman o'zga, boshqa shaxslar, o'zgalar, kimlarligi nomalum. Ular gapning harakatni bajaruvchisi to'g'risida bundan ortiq

malumot bera olmaydi, ular bir bosh bo'lakli gapning ayni shunga-harakatning bajaruvchisini aniq ifodalash zarur bo'lmagan holatlarga moslashgan, shunday ehtiyojdan tug'ilgan turlaridir. Masalan: Dalada ish qizg'in: bir tomonda ariq-zovurlarni tozalayaptilar, bir tomonda ko'chat ekyaptilar, bir tomonda daraxtlarni oqlayaptilar.

Shaxsi noaniq gapning bosh bo'lagi, asosan, quyidagi fe'llar bilan ifodalanadi:

1. Uchinchi shaxsning ko'pligi formasidagi fe'l bo'ladi: Muxbirlarni bu yoqqa kirgizmaydilar. Test savollarini uch oy oldin e'lon qiladilar.

Birgalik nisbatidagi fe'llar bilan ifodalanadi: Salimjonni institutga qabul qilishdi. Eshnazarovni 21-maktabda uchratish mumkin deyishdi. Shu o'rinda takidlab o'tish lozimki, shaxsi noaniq gaplarning katta guruhining kesimi aytmoq, demoq, malumot bermoq, xabar bermoq, e'lon qilmoq kabi fe'llar bilan ifodalanib, asosiy fikr boshqa shaxs yoki shaxslarga taalluqli bo'ladi, shuning uchun ham bu xil gaplarni yarim o'zlashgan ko'chirma gaplar deb atash mumkin. Masalan: Otam sayohatga ketgan deyishyapti. Uni Karim nonvoy deyishardi.

Yarim o'zlashgan ko'chirma gap tamoman muallif gapiga singdirib yuborilishi ham mumkin: Direktorning soat o'nlarda bo'lishini aytishdi.

2. Shaxsi noaniq gapning kesimi ba'zan 3-shaxsning birlik formasidagi fe'l bilan ifodalanadi: Hozir paxtani mashina bilan teradi. Xey, senga gapirayapti.

Ko'rinadiki, shaxsi noaniq gaplarda bajaruvchi shaxs aniq bo'lmaydi va uni ko'rsatish talab ham qilinmaydi, odatda, bajaruvchi sifatida nomalum bir qancha shaxslar tushuniladi. Chunki bu xil gaplarda bajaruvchi shaxs emas, balki ish-harakatning o'zi birinchi o'rinda turadi, asosiy diqqat shunga qaratilgan bo'ladi.

Darsning maqsadi: talabalarga shaxsi umumlashgan gapning logik-grammatik xususiyatlarini ochib berish.

2.3 – asosiy masala bayoni.

Umumshaxsga, hammaqaratilgan ish-harakatni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Masalan: Bir yoqadan bosh chiqarib ishlaylik. Avlodlarga ozod va obod Vatan qoldiraylik. Etti o'lchab bir kes. Suyanmang, xavfli.

Bunday gaplarning kesimi shaxsni aniq ko'rsatib tursa ham, bu shaxs mazmunan umumlashgan bo'ladi, chunki undan anglashilgan ish-harakat ko'pchilikka, barcha shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun bu tip gaplarda barcha shaxslarga xos va taalluqli bo'lgan hayotiy xulosalar, uzoq asrlik tajribalar, umumiy qoidalar, umumlashgan mulohazalar, umumga qaratilgan chaqiriqlar, chorlovlar ifodalangan bo'ladi. Bu jihatdan, ayniqsa, maqollar xarakterlidir. Masalan: Bir kun burun sochsang, bir hafta burun o'rasan. Dehqon bo'lsang, shudgor qil. Avval o'yla, keyin so'yla. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. Misollardan ko'rinib turibdiki, bunday gaplarning kesimi har xil shakldagi fe'llar bilan ifodalangan, lekin ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

Fe'lning ikkinchi shaxs birlik shaklidagi buyruq mayli shakli: Bugungi ishni ertaga qo'yma. Do'sting uchun zahar yut.

Aniqlik mayli shakli .

a) o'tgan zamon shakli –Tuya ko'rdingmi – Yo'q.

b) hozirgi -kelasi zamon shakli : Bersang-olasan, eksang-o'rasan.

v) kelasi zamon shakli: Xom bo'lsang pisharsan, bu shashtingdan tusharsan.

Shart-istak mayli shakli : qalavini topsang, qor yonar.

2.4- asosiy masala. Shaxssiz gaplar.

Darsning maqsadi: Talabalarda shaxssiz gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari to'g'risida tushuncha hosil qilish.

2.4 - asosiy masalaning bayoni:

Kesimdan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini topib bo'lmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxssiz gaplar deyiladi. Shaxssiz gaplar bir bosh bo'lakli gapning egasini topib bo'lmaydigan turidir. Bunda eganing yo'qligi shaxsi aniq gaplardagi egasiz qo'llanishdan, shuningdek, to'liqsiz gaplardagi egasiz qo'llanishdan tubdan farq qiladi. Shaxsi aniq gaplarning kesimidan harakatning bajaruvchisi, yani ega aniq bilinib tursa va uni bemalol tiklash mumkin bo'lsa, to'liqsiz gaplarda tushirib qoldirilgan egani qullash mumkin bo'lsa, shaxssiz gapda umuman ega va ega tushunchasi bo'lmaydi, faraz ham

qilinmaydi. qiyoslaylik: – Sen sayohatga borasanmi? – Boraman – to’liqsiz gap-ega «men» tushirib qoldirilgan. Bu suvni ichib bo’lmaydi-shaxssiz gap- grammatik jihatdan ham, mazmunan ham shaxsni qo’shib bo’lmaydi.

Shaxssiz gapning Bizga bugun borishimizga to’g’ri keladi, kabi tipida kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi – logik subekt anglashilib tursa ham, lekin o’sha subektni bildiradigan so’z (grammatik ega) bunday gapda qatnasha olmaydi: kesim bu so’z bilan,umuman boshqa element bilan ham,predikativ munosabatga kirisha olmaydi, grammatik xususiyat bunga yo’l qo’ymaydi, Masalan: Daryoning u yuziga o’tishga to’g’ri keladi. Majlisda Navro’z bayramini qanday qilib o’tkazish to’g’risida gapirildi.

Misollardan ko’rinib turibdiki, shaxssiz gaplarda eganing bo’lmasligi va topilmasligi normal nutq hodisasidir,bunday gaplarga egani kiritish logik-grammatik jihatdan tilga ziddir,shaxsi topilmas gaplarda so’zlovchi uchun harakatni bajaruvchi butunlay etibordan chetda bo’ladi,diqqat ish-harakatga,uning bajarilishiga yoki bajarilmasligiga, harakatni bajarish mumkin yoki mumkin emasligiga,noilojlikdan kelib chiqqan yoki aksinchaligiga, majburiyigi yoki o’rinsizligiga qaratiladi. Shunga ko’ra bunday gaplarda eganing ifodalanishiga butunlay zaruriyat bo’lmaydi. Ular shunday tuziladiki,shaxsi aniq, shaxsi noaniq yoki shaxsi umumlashgan gaplardan farqlangan holda, bunday gaplarning egasini tiklab ham bo’lmaydi. Ularning shaxssiz yoki shaxsi topilmas gap deyilishi ham ana shu bilan izohlanadi. Shu manoda shaxsi topilmas gaplar bir bosh bo’lakli gaplarning o’ziga xos bir turi, fikrning mustaqil bir yashash formasidir.

Shaxssiz gaplarning kesimlari, asosan, quyidagi morfologik shakllar orqali ifodalanadi:

1. Majhul nisbatdagi felning 3-shaxs buyruq – istak mayli shakli bilan: Bu erga nos tuflanmasin, chekilmasin. Yig’lanmasin, nega yig’lanadi. (A.qahhor).

2. Yo’q so’zi bilan birga kelgan egalik qo’shimchali majhul nisbatdagi sifatdosh shakli bilan: Ish qog’ozlarini yangi o’zbek lotin alifbosida yozishga haligacha kirishilgani yo’q.

3. Ayrim oddiy darajadagi yoki aniq nisbatdagi fe’llar bilan. Bunday fe’llar o’zining grammatik egasi bilan birikib ketib,mazmunan bir umumiy tushunchani, hukmni ifodalaydi. Shuning uchun ulardagi grammatik egani alohida ajratib olinmaydi, birikma asosidagi mazmuni bo’laklarga bo’lib tasavvur qilib bo’lmaydi. Shuning uchun bunday shakliy ikki bosh bo’lakli gaplar ham shaxssiz gaplar hisoblanadi: Masalan: Tong otdi. Kun botdi. qorong’u tushdi. Kech kirdi. Chaqmoq chaqdi. Hozir qorong’u tushib qoladi. Kech bo’lib qolgan. Uyqusi keldi. Joni chiqdi. Achchig’i keldi. Boshi aylandi. Yig’lagisi keldi. Joni kirdi. Uni sovuq urdi.

4. Kerak, lozim, darkor, zarur, mumkin so’zlarining harakat nomi bilan birga kelishi bilan: Do’stning aybini yuziga aytish kerak. Gazeta bilan qaerda tanishish mumkin. Bu holatda harakat nomi egalik qo’shimchasini olsa,gap ikki bosh bo’lakli hisoblanadi.

5. To’g’ri kelmoq so’zining tushangan shakli bilan: To’xtashga to’g’ri keladi, qo’limda ratsiya bor. Odatda to’g’ri kelmoq felidan oldin jo’nalish kelishigi shaklidagi harakat nomi keladi. Bu harakat nomi mazmun talabi bilan egalik qo’shimchasini olish mumkin. Masalan: Chiqishingga to’g’ri keladi.

6. bo’lmoq bog’lamasining ravishdosh,shart feli,ot,olmoshlar bilan birikkan tushangan shakli bilan.Masalan: Ilmni mashaqqatsiz egallab bo’lmaydi.Oyni etak bilan yopib bo’lmas. G’ofur aka, sizga nima bo’ldi? Bu olmani esa bo’ladi.

7. Ayrim ravish, ot, undov, so’zlar bilan.

Masalan: Senga yaxshi-ya ! Aytishga oson! Aytishga uyat !

Darsning maqsadi : Atov gapning logik-grammatik tabiatini yoritish.

2.5.4.Atov gaplarning intonatsiya bilan bog’liqligini izohlab beradi.

2.5 – asosiy masala bayoni.

Predmet, voqea-hodisaning mavjudligi to’g’risidagi hukmni bildiruvchi bir bosh bo’lakli gap atov gap deyiladi. Masalan: O’rtada katta stol. Stolning ustida guldor choynak. Bahor. Hamma yoq ko’m-ko’k libosga burkangan.

Biror narsaning nomini aytish, borar voqea-hodisani atash bilan gap hosil bo’lmaydi. Gap uchun predikativlik va gapga xos tugallangan intonatsiya shart. Atov gapda predikativlik maxsus yo’l bilan ifodalanadi: unda gapga xos intonatsiya bo’ladi. Aslida so’z,so’z birikmalari bo’lgan nominativ birliklar gapga xos intonatsiya bilan aytiladi.Natijada mazkur so’z va birikmalar narsa-hodisalarning atamasigina

bo'lib qolmay, balki shu narsa-hodisalarning nutq so'zlanib turgan momentda mavjudligini ham tasdiqlaydi, shu haqda hukmni ham bildiradi: Masalan: qirq beshinchi yil. May oyi. G'alaba bayrami ! Amudaryo! Amudaryo deganlari shu ekan-da!

Demak, biror narsa-hodisaning atamasi tugallangan intonatsiya tufayli predikatsiya bildirgandagina, ana shu atalayotgan narsa –hodisalarning mavjudligini tasdiqlash sifatiga ham ega bo'lgandagina gap sanaladi. Boshqa hollarda gap sanalmaydi. Binobarin:

Turli asarlarning nomlari, sarlavhalar, viveska va boshqalar – faqat atash bildiradigan so'z birikmalari nominativ, atov gap sanalmaydi. «Sirdaryo haqiqati», «Yoshlar telekanali», «Yozuvchi», «Gazmol», «Sirdaryo viloyati hokimligi» kabilar.

Gapga mazmunan o'xshash bo'lgan ushbu kabi sintaktik hodisalar ham atov gap bo'la olmaydi. qovun. U bir pishgan osh. Ona ! Bu so'zda olam-olam mano bor. Bular logik urg'u olayotgan so'zlardir. So'zlovchi ular asosida yotgan narsalarga ma'noviy-mantiqiy urg'u berayapti, e'tiborni shu narsalarga jalb qilyapti.

Menga kitob, Yozda kanikul. tipidagi gaplar esa hukm ifodalasa-da, atov gap emas, ular biror sabab bilan kesimi tushirib qoldirilgan to'liqsiz gaplardir.

Atov gap bosh bo'lagi substantiv xarakterda bo'lib, predikativlik ifoda qiladi. Buning uchun u zamon kategoriyasi bilan bog'lanib, tugallangan intonatsiya bilan aytiladi: Ko'm-ko'k dala. Sayohatchilar miriqib dam olishyapti. Bunda atov gap alohida intonatsiya bilan aytilib, predmetning hozirgi zamonda mavjudligi tasdiqlanyapti.

Nominativ gaplar ko'proq badiiy asarlarda yoki matbuot-televideniya voqea-hodisalarni bevosita, to'g'ridan-to'g'ri berishda, tabiat hodisalarini, turli voqealarni tasvirlashda ishlatadi. Ular nutqning ixcham, ifodali formalaridan biridir.

Atov gaplarning bosh bo'lagi asosan ot va otlashib kelgan so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan: Tong. Navro'z tongi. Erta ko'klam. Ko'm-ko'k dalalar. Chet elga sayohatga borish. Bu gap hammaga moydek yoqib tushdi.

Atov gaplar logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi:

Mavjudlikni tasdiqlash xarakteridagi atov gaplar. Kech kuz. Tashqarida izillar yomg'ir.

Ham mavjudlikni tasdiqlash, ham ko'rsatish xarakteridagi atov gaplar. Ana samolyot ! Uchishini qara. Mana bizning qishloq. Butun tuman uni biladi. Mana mening bedam. Bu tipdagi atov gaplarda emotsionallik avvalgisiga qaraganda kuchli bo'ladi.

Ayon bo'ladiki, atov gaplar narsa-hodisalarning nutq so'zlanib turgan paytda mavjudligini tasdiqlovchi, tugallangan intonatsiya bilan aytiladigan bir bosh bo'lakli gaplardir. Ular asosan bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Shuning uchun ular shaklan egaga o'xshasalar-da, ega emas, balki eganing vazifasini ham o'z zimmasiga olgan kesimdir.

Muhokama uchun savollar

Atov gaplar qaysi tomonlari bilan tavsiflanadi?

Atov gaplarda predikativlik qanday ifodalanadi?

Atov gapning bosh bo'lagi qaysi va qanday so'zlar bilan ifodalanadi ?

Atov gaplarning hosil bo'lishida intonatsiyaning roli.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. quyidagi gapni tuzilishiga ko'ra tahlil qiling. Uning betinim harakat qilayotgan epchil qo'llariga qaray-qaray, Sattorovning ko'zlari tinib ketdi.

2. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra quyidagi gaplarni tahlil qiling.

- Dada, aytgan ishlaringizni qilib bo'ldik.

- Barakalla.

- Endi kanalga cho'milishga borsak bo'ladimi?

- Mayli.

3. Ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarning turli ko'rinishlarini umumlashtirib ramziy ifodalang.

Tayanch iboralar. Ikki tarkibli va bir tarkibli gap, egasi topilmaydigan gap, egasi topiladigan gap, nominativ gap, to'liq gap va to'liqsiz gap, so'z gap.

Ikki tarkibli va bir tarkibli gaplar haqida tushincha.

Gap xosil qilish uchun zarur bo'lgan minimal shakl gapning struktura asosini tashkil qiladi.

Gapning grammatik asosi uning bosh bo'laklaridir. Masalan. Kuz keldi. Bolalar mashqulotlarga muntazam qatnashyaptilar kabilar. Bu misollarda ega va kesim (kuz keldi, bolalar qatnashyaptilar) mavjud. Demak, gapning struktura asosi ega va kesimdan hamda yo ega yoki kesimdan iborat bo'ladi. Masalan. Baxor. Ko'm-ko'k dala. Soy bo'ylab ketdi. Bu yo'ldan shaharga boriladi. Bu misollarda yo ega mavjud (bahor) yoki kesim mavjud (ketdik, boriladi) kabi. Bu turdagi gaplarda ega sostavi va kesim sostavi mavjud bo'ladi. Egagacha bo'lgan so'zlar egsha sostavini, kesimgacha bo'lgan so'zlar kesim sostavini tashkil etadi. Masalan: bizning guruxda a'lochi o'quvchilar ko'p, gapida egagacha bo'lgan so'zlar (bizning guruxda a'lochi) ega sostavini tashkil etigan bo'lsa, biz ertaga ekskursiyaga boramiz gapida kesimgacha bo'lgan so'zlar (erataga ekskursiyaga) kesim sostavini tashkil qilgan.

Sodda gaplar struktura asosining tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

Ikki tarkibli gaplar

Bir tarkibli gaplar

Ikki tarkibli gapning struktura asosini bosh bo'laklarining har ikkisi, ya'ni ega va kesim tashkil etadi. Masalan: Mehnat insonga baxt keltiradi. Otam meni ham o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'ldi.

Bir tarkibli gaplarning asosini ega yoki kesim sostavi tashkil etadi. Egadan yoki ega sostavidan tashkil topgan gaplarda kesim, yoki kesim sostavidan tashkil topgan gaplarda esa ega qatnashmaydi. Bunday bo'lakka extiyoj ham bo'lmaydi. Bir sostavli gaplarda predikativlik bir bo'lakda ifodalanadi. Masalan: Boshqa gapdan gaplashaylik. Bahor. Hamma tomonidan atir gullarning xidi anqiydi.

Bir tarkibli gaplar bosh bo'laklarning qaysi biridan tashkil topishiga, ko'ra ikki katta guruxga bo'linadi.

Egasiz gaplar

Kesimsiz gaplar

Egasiz gaplar faqat kesim sostavidan iborat bo'ladi. Bularda harakatni bajaruvchi shaxsni-egani topib bo'lmaydi yoki uni kesimdan anglab olish mumkin bo'ladi.

Shunga ko'ra egasiz gaplar ikki xil:

Egasi topiladigan gap

Egasi topilmaydigan gap

Kesimsiz bir sostavli gaplar nominativ gaplarni birlashtiradi.

Egasi topiladigan gap.

Bir tarkibli gaplarning bu tipida ega bo'lmaydi, lekin uni gapning kesimidan anglab olish mumkin. Bunda diqqat bajaruvchi shaxsga emas, balki harakatga qaratilgan bo'ladi. Bunday bir tarkibli gaplarning bosh bo'lagi, asosan fe'l bilan ifodalanadi. Egasi topiladigan gaplarda shaxs tasavvuri turlicha bo'ladi. Mana shu jixatdan, bu gap tiplarni:

shaxsi aniq

shaxsi noaniq

shaxsi umumlashgan gaplarga ajratish mumkin.

Shaxsi aniq gap.

Kesim fe'l bilan ifodalanib, xarakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib tursa, bunday bir sostavli gaplarni shaxsi aniq gap deyiladi.

Shaxsi aniq gapning kesmi quydagicha ifodalanadi:

Aniqlik maylidagi fe'l bilan. Masalan: Sermanzara dalalarni tomosha qilib yuraman. (O) Yoppasiga xush kelibsizlar. (YA)

Buyruq mayli shaklidagi fe'l bilan. Masalan: Endi o'zingizning ishingiz haqida gaplashib olaylik. (Tuyg'un)

Shart-istak maylidagi fe'l bilan. Masalan: Birodarlar, shu ishni birgalikda bajarsak.

Shaxsi aniq gapning kesmi ba'zan ot kesim bo'lishi xam mumkin.

Shaxsi aniq gaplar badiy adabiyotda, ayniqsa, dialog formasidagi nutqda ko'p qo'llanadi.

Shaxsi noaniq gap.

Kesim fe'l bilan ifodalanib, shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir sostavli gap shaxsi noaniq gap deyiladi.

Shaxsi noaniq gapning bosh bo'lagi uchinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Lekin bajaruvchi shaxs noaniq bo'ladi.

Shaxsi noaniq gapning kesmi quydagicha ifodalanadi.

1. Aniqlik mayli formalari bilan. Masalan: Yoshlik xotirasini yozilmagan oq varoq deyiladi. (Shuxrat). Bu yigitni muncha qiynashadi.

2. Buyruq istak maylining 3-shaxs formasi bilan. Masalan: Sen borib xabar ber, yana bizni qidirib yurishmasin.

3. Shart istak maylining 3-shaxs formasi bilan: Kitob yog'ochmidiki, uni tasha bilan chopsa (X.G)

Bu gaplarning hammasida ham bosh bo'lak 3-shaxs formasidagi fe'l bilan ifodalangan. Lekin ularda harakatni bajaruvchi shaxs noma'lum. Bunday konstruksiyali gaplarda diqqat harakatga qaratilgan. Bularda ega tushirilgan deb bo'lmaydi.

Shaxsi noaniq gaplar shaxsi aniq gaplarga qaraganda kam qo'llaniladi. Bu tip gaplar ilmiy adabiyotlarda qo'llanilmaydi.

Shaxsi umumlashgan gap.

Kesim fe'l bilan ifodalaniib, mazmunan umumga qaratilgan bir sostavli gaplar shaxsi umumlashgan gap deyiladi.

So'zlovchi bu tip gaplarni qo'llash bilan o'z xabariga nasixat, xikmatli so'z xarakterini beradi, ibora qilinayotgan xarakterning tipikligini ta'kidlaydi. Bunda umumga qaratilgan xayotiy xulosalar, uzoq asrlik xayotiy tajribalar, umumiy qoidalar, mehnat yakunlari, umumlashgan muloxazalar ifoda qilinadi.

Shaxsi umumlashgan gaplarning kesmi ko'pincha buyruq maylining 2-shaxs formasi bilan ifodalanadi.

Maqollar ko'proq shaxsi umumlashgan gap shaklida bo'ladi:

Salobatli bo'lma, sabotli bo'l. Yetti o'lchab bir kes. Bugungi ishni ertaga qoldirma, kabilar. Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo'lagi ba'zan birinchi shaxsning ko'plik formasida bo'lishi xam mumkin. Masalan: Tinchlik uchun kurashaylik!

Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo'lagi - kesim quydagicha ifodalanadi:

Aniq maylidagi fe'l formalari bilan: Xayajondan nima deyishga so'z xam topolmay qolar ekansan.

Buyruq-istak mayli formalari bilan: Burinni ayasang, seni talaydi.

Shaxsi umumlashgan gaplarda xarakter hamмага qaratilgan. Unda zamon xam umumiy bo'ladi. Bu jixatdan bunday gaplarda shaxs va zamon tushinchasini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun xam shaxsi umumlashgan gaplarning shaxsini xam, zamonini xam o'zgartirib bo'lmaydi. Agar o'zgartirilsa, gap tipi xam o'zgaradi. Shaxsi umumlashgan gaplarda undalma, kirish so'z, kirish gaplar, modal so'zlar ishtirok etmaydi.

3. Egasi topilmaydigan gap

Kesim orqali xarakterni bajaruvchi shaxsni- egani topish mumkin bo'lmagan bir sostavli gap egasi topilmaydigan gap deyiladi. Bunday gaplarda xarakterni bajaruvchi shaxs-ega umuman qatnashmaydi. Uni kiritib xam bo'lmaydi, gapning kesmi orqali aniqlab xam bo'lmaydi.

Egasi topilmaydigan gapning kesimi ko'pincha sostavli bo'ladi. U fe'lning 3-shaxs formasi bilan ifodalanadi. Egasi topilmas gaplarning kesmi quydagicha aniqlanadi.

Ravishdosh xamda bo'ladi-bo'lmaydi bilan. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Egasi topilmaydigan gaplarning kesmi ravishdosh hamda "Bo'lmas ekan" shaklida ifodalanishi xam mumkin. Sizdan xech narsani sir tutib bo'lmas ekan. Egasi topilmaydigan gapning kesmi ba'zan shart maylidagi fe'l bilan xamda bo'ladi- bo'lmaydi shaklda. Bir epini qilsa bo'ladi. Bug'doydan go'ja osh qaynatsa bo'ladi. Egasi topilmaydigan gapning bu tipida xarakterning bajarilishiga yo'l qo'yilishi yoki yo'l qo'yilmasligi ifoda qilinyapti.

Harakat nomi hamda kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin so'zlarning biri bilan: Bu ishlarning barchasini bajarish mumkin.

Ba'zan xarakter nomi o'rnida belgi oti kelishi mumkin. Buning uchun birinchi galda dalillik kerak. (O)

Egasi topilmaydigan gapning bu tipida ish-xarakter yoki xolatini bajarish majburiy yoki zaruriyligini, majburiy yoki zaruri emasligini ifoda qilinyapti.

Majhul nisbatning affiksini olgan fe'l bilan.

To'rt-besh kundan keyin terimga tushiladi. (S.Z.)

Egasi topilmaydigan gaplarning bu tipida kishi istagi, irodasiga bog'li bo'lmagan xarakter yoki xolat ifoda qilinyapdi.

“To'g'ri” so'zi hamda *kelmoq* fe'lining tushlangan formasi bilan. Rejani yana qaytadan ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Egasi topilmaydigan gapning bu turida noilojlikdan kelib chiqqan zaruriyatning bajarilishi yoki bajarmasligiga ifoda qilinyapdi.

5. Nominativ gap

Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanib, predmet yoki voqea- xodisalarning mavjudligini tasdiqlovchi bir sostavli gap nominativ gap deyiladi.

Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi predikativlik intonasiya orqali ifoda qilinadi. Intonasiya bunday gaplarda birinchi darajali rol o'ynaydi.

Oddiy so'z intonatsiya tufayli gapga aylanadi. Nominativ gap yakka xolda qo'llanilmaydi, undan keyin boshqa bir tipdagi gap keladi.

Nominativ gaplar quydagilarni ifoda qiladi.

1. Tasviriyligni ifoda qiladi: Martning oxiri. Kunduz soat uch chamasi. Yangi shaxar ko'chalari. Ilk baxor shamollari e'qimli esadi. Jo'raxonning uyi. Yorug'. Ozoda. Birinchi xona. Bir chetida pianino. Xonaga kichik koridorlardan kiriladi.

Ko'rsatishni ifoda qiladi. Mana, Kratoy. U jamiki boylarga o't bilan suvday.

Baxolashni ifoda qiladi. Bunga turli ekspressiv ottenka (shodlanish, afsuslanish, taajublanish kabilari)ni ifoda etuvchi gaplar kiradi.

“Voy bechora!” dedi Gulsunbibi birdan. (O) Nominativ gap bosh kelishikdagi ot, otlashgan so'z, olmosh, son kabi so'zlar bilan ifodalanadi.

A) ot bilan : Qish. Xamma e'qni qor qoplagan.

B) otlashgan so'z bilan : Mana beshinchilar. Xammaning diqqat-e'tibori maydonga kirib kelgan voleybolchilarga qaratildi.

V) olmosh bilan : Ana u! Yurak urishlar bilan zoriqib, zoriqib kutganim Saodat ! (G'.G')

Nominativ gap quydagi semantika xususiyatlarga ega.

Konkret predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

Mana qip-qizil gullar. Bulardan atir xidi anqiydi.

2. Turli abstrakt predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

Ingilzlarning ko'rsatgan marxamati. Mana ko'ring . (YA)

3. Turli onomastik- topomastik xarakterdagi predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Cheksiz Qoraqum. Eski xarob bir qo'rg'on. Vaq saxardan oshgan. (YA)

Kishilik olmoshlari orqali ifodalangan shaxslarning mavjudligini tasdiqlaydi. Mana men ! Xozir qarasang menga o'xshaganlar. (O)

O'rin-joyning mavjudligini tasdiqlaydi. Zindon. Kishanlaangan maxbuslar uyquda.

Turli tabiat xodisalarini mavjudligini aniqlaydi. Kuchli yomg'ir. Tezda ariqlarga suvlar tosha boshladi.

Nominativ gap yig'iq gap yoki yoyiq bo'lishi mumkin.

Maslan: Yig'iq : Kuz. Atrofda ish qizg'in.

Yoyiq : Qum-qum dala. Orqadan otliq askarlar kelib qoldi.

Bo'laklarga ajirilmaydigan gaplar.

Sodda gaplar bo'laklarga ajirilmaydigan gaplarga ko'ra ikkiga bo'linadi.

1. Bo'laklarga ajirilmaydigan gaplar.

Bo'laklarga ajirilmaydigan gaplar.

Yuqorida ko'rib o'tilgan gaplarning barchasi bo'laklarga ajirilmaydigan gaplardir. Masalan :

Ish boshlandi.

Mashg'ulot qiziqarli o'tdi.

Darsdan so'ng oyimga yordamlashyapman.

Nutqimizda sodda gaplarning yana shunday turi xam uchraydiki, ular ega va kesim sostaviga ajirilmaydi. Shuning uchun xam bunday gaplar bo'laklarga ajirilmaydigan gaplar deb yuritiladi.

Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar bir so'z bilan yoki bo'laklarga ajiralmaydigan xamda boshqa so'zlar bilan kengaymaydigan so'z birikmasi bilan ifodalanib, tasdiq, inkor, so'roq, xis-xayajon kabilarni ifoda qiladi. Bular xamma vaqt kontekst bilan bog'liq bo'lib, o'zi ishtirok etgan dialog va monologdagi mustaqil gaplar sostaviga kiradi.

Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar turli mazmunini ifoda qiladi. Ularning xarakteri quydagilar:

Tasdiq yoki inkorni ifodalaydi.

-Xa... - deb javob berdi Yo'lchi . (O)Dodxox (kulib)- bularni ozod qiling demoqchisiz-da-a?

Muqumiy- shunday, janob dodxox.(S.Abd)

Suroqni ifodalaydi. Bular so'roq intonasiyasiga ega bo'ladi. Bu vazifada rosdanmi, naxotki, rostmi, shundaymi, bo'libdimi, rost bilan-a kabi so'zlar keladi. Masalan: Salim(xovliqib)- rostdanmi?(U)- Rostmi? - dedi yelkasini ushladi chol.(O)

Rasm-odat va tabrikni ifodalaydi. Bunday vazifada salom, xayr, tasanno, ofarin, qulluq, qoyil, raxmat, balli, xayr kabi so'zlar keladi. Masalan: Ashurboy: Qulluq, salomat bo'ling. Barakalla, oppoq qizim. (O)

Xis-xayajonni ifodalaydi. Bu vazifada emosional undovlar keladi. Masalan: - Ux... badanim yonib borardi.(O) Voy- deb o'zimni yerga tashladim.(O) Ox, ox, ox, otangizga raxmat, kamol toping do'stim.

Buyruqni ifodalaydi. Bunday vazifada asosan, buyruq, xitob ifoda qiluvchi so'zlar keladi. Misol: Muqimiy-Bas, janob dodxox (S. Abd), jim! - mushtini ko'tardi Ermat.

Undalma shaklida bo'lib, chaqirish, achinish, ta'na, gina, g'azab, kabilarni ifodalaydi. Bunday gaplar voqativ gaplar deyiladi. Misollar: - San-sang nima ? Ablax! (O)—Sohiba . - Oyijon, oyijonginam... (Tuyg'un)Gulnora ! deb qichqirdi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar quydagi xususyatlar bilan bir sostavli gaplardan ajirilib turadi.

1. Bir tarkibli gaplarning ko'pchiligi uchun fikriy to'liqlik, semantiq mustaqillik xos. Bulaklarga ajiralmaydigan gaplar uchun bunday xususiyat xos emas. Ularning mazmuni kontekst, situasiya bilan bog'liq bo'ladi.

Bir sostavli gaplarning bo'lagi mustaqil so'zlar bilan ifodalanadi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplarning ko'pchiligi mustaqil bo'lmagan so'z turkumlari (yuklama modal so'zlar, undov) bilan ifodalanadi.

Bir sostavli gaplar ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayib kela oladi. Bo'laklarga ajiralmaydigan esa bu xususyatga ega emas.

Bir tarkibli gaplarning ko'pchiligi xabar intonasiyasi bilan aytiladi. Bularda intonasiya yetakchi rol o'ynamaydi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplarda esa intonasiya yetakchi rol o'ynaydi.

Bir tarkibli gap qo'shma gap kompanetlari bo'lib kela oladi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar esa qo'shma gap kompaneti bo'lib kela olmaydi.

Bir tarkibli gaplar asosan monolog nutq uchun xos bo'lsa, bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar esa dialog nutqga xosdir.

To'liqsiz gaplarga uxshab ketishi bir sostavli gaplarga nisbatan bo'laklarga ajiralmaydigan gaplarda kuchli bo'ladi.

ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLAR
1-AMALIY MASHG`ULOT. Sintaksis haqida umumiy ma'lumot. (2 soat)

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Amaliy mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzusi, maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi..
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1.Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganilgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. (1-ilova) 2.Uyda bajarilgan mashqlarning to'g'ri ishlanganligini tekshirish; (2-ilova) 3.Test beradi (3-ilova)	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 2. Mashqlarni o`qiydi, javob beradi. 3Test yechadi
4-bosqich Yakuniy bosqich(5 daqiqa)	1.Talabalarni rag'batlantirish, baholarni e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasash.	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi.

1-ilova

- So`zlarning teng va tobe bog`lanishlari haqida gapiring.
- Qanday birikma otli birikma hisoblanadi .
- Qanday birikma fe`ll birikma hisoblanadi
- So`z birikmasi va so`z haqida gapiring
- So`z birikmasi va ibora qanday farqlanadi.
- So`z birikmasi va gap qanday farqlanadi.
- So`z birikmasiga misollar keltiring.

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qat'iy nazoratga olinadi.)

310-mashq. Matnni o'qib, gaplarni aniqlang. Har bir gapni so'z birikmalariga ajrating.

1. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal. (g'.g'.) 2. Ketma-ket kelayotgan quruvchilar, texniklar, tuproq qazuvchilar, montajchilar uchun birinchi navbatda makon kerak. (j.abd.) 3. Husayn boyqaro navoiyning uyida uch kun o'tirdi. (m.osim) 4. Tonggi salqin o'rnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi. (j.abd.) 5. Farmonov bu juvonnini dashtda bir-ikki marta ko'rgandi. (o.yo.) 6. Vazira sherzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi.(p.q.) 7. Ertasiga ergash kuni bo'yi ro'zg'or ishlari bilan ovora bo'ldi. (as.m.) 8. Namozboy bu gal ishni sal boshqacharoq tashkil etgan. (x.t.)

311-mashq. O'qing. Gaplar tarkibidagi frazeologik birikmalarini aniqlang, so'z birikmalaridan farqini tushuntiring.

1. Qosh qorayib qolgan. Pastqam tepaliklar qurshagan Jarqoq dengizdagi charog'on kemaday uzoq-uzoqlardan ko'rinib turibdi. (I. R.) 2. A'zamning hafsalasi pir bo'lib, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, battar ter bosdi. (SH.) 3. Ishga sho'ng'ib ketganidan qulog'iga gap ham kirmaydi. (S. Nazar.) 4. Bu yashnab turg'an gul qanchadan-qancha kishilarning bahridilini ochardi. (S. Ahm.) 5. U shunday ostin-ustin bir vaqtda bir o'q bilan ikki quyonni urmoqchi bo'ldi. (P. T.)

312-mashq. O'qing. So'z birikmalarini aniqlang. Faqat yordamchi so'zlar vositasida tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirib, turini ayting.

1. U hamisha oldinga, kamolot sari intildi. Xo'sh, kamolotning o'zi nima? Kamolot ulkan mehnat va insonga nisbatan chuqur mehr-muhabbatdir. Kamolot kishining o'z iste'dodini yuksaltirishi va bilimini boyitishidir. Eng muhimi shuki, kishi o'zi orttirgan bilimni boshqalar bilan o'rtoqlashmog'i lozim. (L. Batb.) 2. Karimjon bilan ikkalamizga ayvonga joy qilib berishdi. Mayin shamol daraxt yaproqlari bilan so'zlashayotgan kabi, uzoqdan soy shivirlaydi. Qo'rg'onning orqasida bulbul xonish qiladi. Gullarning yoqimli ishi dimoqqa uradi. Uyuqum o'chib, notanish yerlarning sehirli tungi manzarasini tomosha qilib yotdim. (S. Yunusov.)

313- mashq. O'qing. Affikslar yordamida, yordamchi so'zlar vositasida, shuningdek, intonatsiya orqali tuzilgan so'z birikmalaridan ikkitadan ko'chirib, birikma hosil qilishda ishtirok etgan vositalar tagiga chizing.

1. Iroda insonning qudrati, sevishi va sevilishi, nafrati va quvonchi, vafosi va ishonchi demakdir. (J.Abd.) 2. Navoiy kekxa do'stiga Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si bilan sandal daraxti po'stlog'ining shirasidan tayyorlangan qimmatbaho dori hadya etdi. (L. Batb.) 3. Turli millatdan tashkil topayotgan bu ulkan oila Qizilqumda haqiqiy do'stlik qasrini o'rnatmoqda edi. (J. Abd.) 4. Davlat ishlarida siz kabi olijanob zotlar qancha ko'p bo'lsa, yurtimiz shunchalik tez ravnaq topgusidir. (L. Batb.) 5. Tepa qo'rg'onida yangragan karnay-surnay ovozlari butun kengliklar sari parvoz qildi. (J. Abd.) 6. Kulgi bir nafas tinmasa ham, vaqt juda sekin o'tmoqda edi. (O. Yo.)

314-mashq. O'qing, tenglashish va ergashish yo'li bilan bog'langan so'z qo'shilmalarini aniqlab, ular orasidagi farqni tushuntiring. 1. Teng bog'lanish yo'li bilan tuzilgan so'z qo'shilmalarini ko'chirib, bog'lovchi vositalar tagiga chizing. 2. Ergashish yo'li bilan tuzilgan so'z qo'shilmalarini ko'chirib, hokim va tobe so'zlarni belgilang.

1. Pastliklarda g'uj-g'uj pista daraxtlari, azamat toshlar orasida sinkaga solingandek ko'k suv goh ko'rinadi, goh ko'rinmaydi. Soyning narigi tomonida yalang'och tog'lar yuksala-yuksala vodiy yo'lini to'sib yotibdi. Uning qizil cho'qqilariga oftob tushib turibdi. O'ngirlarda saratondan yashirinib qolgan qor uyumlari ko'rinadi. (S. Ahm.) 2. Qishloqlardan, yaqin-uzoq dalalardan paxtalar, qovun-tarvuzlar, xashak-pichanlar, don-dun, o'tin-yog'ochlar, makkapoya, g'o'zapoya, beda va boshqa narsalar yuklangan aravalar shaharga paydarpay kelib turadi. Katta yo'llar bo'yidagi daraxtlar, uylar, devorlargina emas, otulov yurmaydigan jin ko'chalardagi, hatto ko'cha yuzidan yiroq hovli-maydonlardagi daraxtlar, uylar, devorlar ham xuddi osmondan tuproq yoqqandek ikki enli chang ostida so'rrayib yotadi. (M. Ism.)

4-ilova

1) So'z birikmasini toping.

A) tashrif buyurmoq V) ko'ngli keng S) gullar ochildi D) shoirlar, bastakorlar va rassomlar Ye) so'z birikmasi berilmagan.

2) Quyidagi atamalarning qaysi biri sintaksisga tegishli?

A) orttirma nisbat V) modal so'z

S) taqlid so'z D) bosh so'z

E) bog'lovchi.

3) **ot+fe'l** shaklidagi birikmalarda so'zlarni o'zaro bog'lovchi vositalar ko'rsatilgan javobni toping.

A) kelishiklar V) tartib va intonatsiya (ohang) S) ko'makchilar

D) kelishik va ko'makchilar

E) kelishiklar, ko'makchilar, tartib va intonatsiya.

4) SHoshmasdan bajarmoq, to'g'riga yurmoq kabi birikmalardagi so'zlar o'zaro qanday yo'l bilan bog'langan?

A) moslashuv usuli bilan

V) ko'makchili boshqaruv usuli bilan S) bitishuv usuli bilan D) teng bog'lanish orqali

E) kelishikli boshqaruv usuli bilan

Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar) xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

3, 4, 13, 16, 17, 19, 27, 28, 29, 30, 31, 32, www.ziyonet.uz

2 - AMALIY MASHG'ULOT. So'z birikmasi. (2 soat)

Dars bosqichlari va vaqti	O'qituvchi	Talaba
1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1. Amaliy mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzusi, maqsadi, rejasini e'lon qiladi.	Eshitadi, yozadi, javob beradi.
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Aqliy hujum asosida ma'ruzada o'rganilgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi. 2. Uyda bajarilgan mashqlarning to'g'ri ishlanganligini tekshirish; 3. Test topshirig'i beradi	1. Savol-topshiriqlarga javob beradi 2. Eshitadi, yozadi, Mashqlarni o'qiydi javob beradi, 3. Testni yechishadi
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1. Talabalarni rag'batlantiradi baholarni e'lon qiladi, uyga vazifa beradi, mashg'ulotga yakun yasaydi	1. Eshitadi, yozadi, bilib oladi.

1-ilova

- Ergash (tobe) so'z bilan bosh (hokim) birikish usullarini ayting.

- Boshqaruv usuli va uning turlarini ayting.

- Moslashuv usuli haqida gapiring.

- Bitishuv usulini misollar bilan izohlang.

2-ilova Mualliflar R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamroyevlarning "Ona tilidan" mashqlar to'plami kitobidan quyidagi mashqlar bajariladi

315-mashq. O'qing. Har bir gapda nechta birikma borligini va ular qanday munosabatga kirishganligini ayting. Moslashuv yo'li bilan birikkan so'z birikmalarini ko'chiring.

1. Traktorchilarning ovqatlanishi va dam olishi uchun Anorxonning taklifi bilan kolxoz duradgorlari ko'chma shiypon yasab bergan edilar. (*I. R.*) 2. Jo'ra quyoshning issiq nurlari sochilib turgan mana bu osmonni sevadi, oq oltinlar yetishtirgan mana bu yerni sevadi, laziz mevalar, soya-salqinlar bergan bog'larni sevadi. (*N. Biryukov.*) 3. E, o'rtoq Odinaev, har bir komandir o'zining jangchilarini o'z farzandidek yaxshi bilishga, esida saqlab qolishga majbur. (*F. Niyoziy.*) 4. Navoiy sharafiga tantanali qabul marosimlari o'tkazildi, ziyofatlar berildi. (*L. Batb.*) 5. CHol o'rnidan turib yana gullar orasiga kirib ketdi. (*S. Ahm.*) 6. Siz qozoq xalqining sevgi, salomin, Do'stlik haqidagi shirin kalomin, Qardoshlik tuyg'usin ola keldingiz, Qalbimizga sevinch sola keldingiz. (*U.*)

316-mashq. O'qing. Boshqaruv munosabatidagi birikmalarni ko'chirib, boshqaruvchi (hokim) va boshqariluvchi (tobe) so'zlarni aniqlang, ular qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Butun yurtda qizg'in ish borardi. Navoiy savdogarlar va sayyohlar uchun hamma yo'llarda rabot va karvonsaroylar qurdirish, ko'proq madrasa, maktab va shifoxonalar barpo etish, ariqlar qazdirib, qaqrab yotgan yerlarga suv chiqarish; o'tmishning qimmatbaho yodgorliklarini vayrongarchilikdan asrab qolish, olim va shoirlarni qo'llab-quvvatlashga intilardi. Bularning hammasi muttasil nazorat qilib turishni, sabot-matonat bilan mehnat qilib, katta mablag'lar sarflashni talab etardi. (*L. Batb.*)

317-mashq. Bitishuv yo'li bilan tuzilgan so'z birikmalarini topib ko'chiring, ularning ifodalanishi va boshqa birikmalardan farqini ayting.

1. Serfayz bahor darakhchisi bo'lgan bu havo Saodatning diliga quyildi, ruhi yana ham tetik tortib ketdi. (*I. R.*) 2. Maktabning katta zalida sozandalar saf tortib muzika chalmoqda. Yoshlar birin-ketin raqsga tushmoqda. (*I. R.*) 3. Saodatning yuragi sof sevgiga to'la edi. U yoshligidan qishlog'i, onasi, jajji singlisini sevardi. Mevazor bog'ni, uning har bir tup o'rigi, olmasi, gilosu olchasini, gulini, qushlarini, quyoshi, oyi, yulduzlari va oqin suvlarini chin qalbdan yaxshi ko'rardi. Keyin bu qalbga Bahodirning iliq nafasi, otashin muhabbati qo'shildi. (*I. R.*) 4. Ular shovillab oqayotgan daryo bo'yida jimgina turishardi. O'ynoqi ko'klam yeli bu qo'shaloq baxtiyor yoshlarning boshiga xushbo'y is taratib turgan olma gullarini yog'dirardi. (*K. Moiseeva.*)

3-ilova

1. Moslashuvli birikmalarda so'z o'zgartuvchi qo'shimchalardan qaysilari faol qatnashadi?

A) *shaxs-son qo'shimchasi* V) *egalik qo'shimchasi* S) *kelishik qo'shimchasi*

D) *A va V* Ye) *A, V va S*

2. Egri tayoqning butog'i burunni yirtar. Ushbu maqolda so'zlarning o'zaro aloqasi qanday yo'l bilan amalga oshgan?

A) *gapda so'zlar teng va tobe bog'langan* V) *boshqaruv va moslashuv yo'li bilan* S) *faqat boshqaruv yo'li bilan* D) *bitishuv va boshqaruv yo'li bilan* Ye) *moslashuv, bitishuv va boshqaruv yo'li bilan*

3. Sanjar bilan SHerzod bog' tomon yurdilar. Ushbu gapdagi bog' tomon yurdilar birikmasi o'zaro qanday yo'l bilan bog'langan?

A) *ko'makchili boshqaruv yo'li bilan* V) *moslashuv yo'li bilan* S) *kelishikli boshqaruv yo'li bilan* D) *teng bog'lanish yo'li bilan* Ye) *bitishuv yo'li bilan*

4. So'z birikmalarida ergash so'z ravish yoki sifatlar bilan ifodalansa, ular bosh so'zga asosan qanday yo'l bilan birikadi?

A) *moslashuv yo'li bilan* V) *bitishuv yo'li bilan* S) *boshqaruv yo'li bilan*

D) *bitishuv yoki boshqaruv yo'li bilan*

E) *moslashuv yoki boshqaruv yo'li bilan*

5. Boshqaruvli bog'lanishda qaysi kelishiklar so'zlarni o'zaro bog'laydi?

A) *qaratqich, tushum va jo'nalish*

V) *tushum, jo'nalish va o'rin-payt* S) *jo'nalish, tushum, o'rin-payt va chiqish* D) *qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish*

E) *barcha kelishik.*

6) Bosh so'z ravishdosh bilan ifodalangan fe'lli birikmani toping.

A) *gulni sevmoq* V) *senda ko'p*

S) *xurmat bilan yondashgan*

D) *idish-tovoqlarni arta-arta*

E) *a'lochilarning har biri*

7) Bitishuv munosabatidagi birikmalarni aniqlang.

A) *ko'klam quyoshi, bahor tongi*

V) *maftunkor chehralar, tezda kelmoq* S) *o'lkamiz chiroyi, ko'l suvi* D) *xat yozdi, quduq qazdi, so'z sehri* Ye) *A va V*

8) Quyidagilarning qaysi biri qaratqichli birikma?

A) *oltin soat* V) *yurtimiz yoshlari*

S) *uzum yedi* D) *peshin chog'i*

E) *yog'och ko'prik.*

9) Kelishikli boshqaruv qatnashgan gapni aniqlang.

A) *Mol topguncha aql top.*

V) *Ko'ringan tog'ning yirog'i yo'q.*

S) *Xalqim uchun, Vatan uchun kurashdim.* D) *Ot birdan sapchidi.*

E) *O'quvchilarning tashabbusi bilan ish boshlandi.*

10) **Sifat+ot** shaklidagi birikuvlarda quyidagi vositalarning qaysi biridan deyarli foydalanilmaydi?

1) kelishik qo'shimchalaridan;

2) ko'makchilardan; 3) ohangdan;

4) so'z tartibidan.

A) 1, 2 V) 2, 3 S) 3, 4

D) 2, 4 E) 1, 3.

Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

3, 4, 13, 16,17, 19, 27,28, 29, 30,31,32, www.ziyonet.uz

3- AMALIY MASHG'ULOT . Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida . (2 soat)

1-ilova

- Gap va unung asosiy belgilari haqida gapiring.

- Gapning ifoda maqsadiga kora tularini ayting.

-Darak gaplar haqida gapiring.

- So`roq gaplar haqida gapiring.

- Buyruq gaplar ishtirokida gaplar tuzing.

- Gaplarning his-hayajon ifodalashiga ko`ra turlari ayting.

2-ilova

3.Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qat'iy nazoratga olinadi.)

321-mashq. O'qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang, farqini ayting.

1. Birov yon bag'irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqab ketdi. (S. *Ahm.*)

2. Olamni quyosh, insonni ilm yoritadi. Bilmaslik ayb emas, o'qimaslik — ayb. (*SH.*)

3. Kombinatta borganmisan o'zing? Qirq ming odam ishlaydi. (S. *Ahm.*) 4. Dunyoda el va yorga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? (S. *Ahm.*) 5. Bu — bizning chinakam balog'at yoshimizning birinchi kuni! Qanday tantanali jimlik! O'sib yotgan o't-

o'lanlar go'yo qizil alanga berib yonayotganday, oyoq ostida tutab yotganday tuyuldi. Biz faqat dashtdagina bayram nashidasini sezdik. (*K. Abukov.*)

322-mashq. O'qing. So'roq gaplarni topib, turlarga ajrating: sof so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, so'roq-buyruq gaplar. Avval so'roq olmoshlari, so'ngra so'roq yuklamalari, undan so'ng so'roq ohangi orqali ifoda qilingan so'roq gaplarni ko'chiring, so'roq ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilib o'tiribdi? (T.Malik) 2. Seni ham qo'rboshi yigitlari qidirdilar? (A.Qod.) 3. Bu ahvolda suvga tushgan bo'lka nonga o'xshab cho'kib o'tirganingdan ruhi ranjmaydimi? (S.Ahm.) 4. O'sha lim-lim daryoni ayyuhannos solgan bilan orqaga qayirib bo'larkanmi? (O'.Usm.) 5. Mayli, tanasi boshqa dard bilmas, deganlaridek, uning dardu hasratlarini bilmaganlar nimalar demaydi? (O.Yo.) 6. Urush qurbonlariga yodgorlik o'rnatishdan savob ish bormi? (O.Yo.) 7. – Men seni ket deyapmanmi? Yaxshi odam bo'lsang, o'zingga foyda! Yoshing yigirma beshdan oshdi. (P.Q.) 8. U chiqadigan vagondan keyingisining qarshisidagi gazeta-jurnal sotish do'konchasi yonida G'ulom aka turardi. Mohidilni kutyaptimikin? Xuddi shu bugun, shu soatda kelishini qayoqdan bildiykin u? (J.Abd.) 9. O'z nomi bilan qora bo'lgan bu qora qishloqda odamlar xoru zorligi buloqday qaynab yotmayaptimi? Otabuvalari bu yerni shuning uchun ham Qorabuloq deb atab ketishmaganmikan? (M.Ism.) 10. Axir ko'krak ostida gup-gup urib turgan yurakning o'zi hamma sirini bildirib turgandan keyin uni til bilan ifoda etishga hojat qoldimi? (J.Abd.) 11. Dam o'tmay suv ichgani tushaversa, ish unumli bo'larmidi? (J.Abd.)

23-mashq. O'qing. Buyruq gaplarni ko'chirib, ma'no munosabati va tinish belgilarini izohlang.

1. Darveshali, ... har ishga bel bog'lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o'zingiz uchun bir mezon deb biling. (*O.*) 2. Navoiy, qilichni ko'tarmasdan, ...keskin turda so'zladi: "Qilichlarni qinga joylangiz, shu lahzada taslim bo'lingiz!" (*O.*) 3 Murodovani siz kutib oling, shunday kutib olingki, bu yog'i mahkam bo'lsin. (*I. R.*) 4. Priborlarni o'z joningdan ham avaylab saqla. (*A. CHakovskiy.*) 5. Kartani sizga qoldiraman. Belgilarni o'z kartangizga o'tkazib oling. Keyin sizdan olaman. Hozir esa, keling, soatlarimizni bir-biriga to'g'rilab olaylik. (*A. CHakovskiy.*) 6. O'zingni tut, Saodat, kishilarni shubhaga solma, sen ularning hammasiga bir ko'z bilan qaraydigan kishisan. (*I. R.*) 7. Bir qop somon suvga tashlansin, Qaerda charx ursa aylanib, Quvur shunda to'sa boshlansin. (*S. Nazar.*)

324-mashq. O'qing. Undov gaplarni topib, ularni turlarga ajrating: darak-undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar.

1. Doimo olg'a qarab intilish, hamma vaqt yangilik qidirish, yutuqlardan mag'rurlanmaslik, muvaffaqiyatsizliklar ko'ndalang bo'lganida ham tushkunlikka berilmaslik, shuhrat ketidan quvmaslik mening oliy maslagim bo'lsin! (*J. Abd.*)

2. Inson qalbiga yo'l topish — juda mushkul, ayni mahalda katta san'at! Orzu-havaslariga to'la, nozik hissiyotlar bilan yashovchi, qaynoq ehtirosli qalbni asray bilish, ehtiyot qilish — fazilat! Inson atrofidagi hamma narsani ana shu qalb ko'zi bilan ko'radi! Ana shu qalb shishaday chil-chil sinsa, nohaq toptalsa, iztirob o'tida qovurilsa, uni o'nglash qiyin bo'ladi! (*S. Abd.*) 3. O'z qo'lim bilan achchiqqina palov qilaman. Qani, yemasdan ketib ko'r-chi! (*O.*) 4. Hoy, o'roq-ketmonning asl egalari! Yer-suvning sohibkorlari! Ko'zlaringizni ochinglar! Yer-suv, hukumat, jamiki boylik sizlarniki! Boy va eshonlarga noningizni tuya qildirib kelganingiz yetar! O'g'il-qizlaringizni o'qiting! (*N. S.*) 5. Tabiat oshiqdari va turistlar! Qo'nib o'tgan joyingizni aslo iflos qila ko'rmang. O'zingizdan keyin keladigan kishilar haqida ham qayg'uring! Kishining madaniyati uning tabiatga bo'lgan munosabati bilan belgilanishini unutmang! (*A. Kolbintsev.*)

3-ilova

4.Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarining uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

Test topshiriqlari

1. Kutilmagan xabar eshitishi natijasida taajjub bildirib, aynan gapni yoki uning biror bo'lagini takrorlash natijasida qanday gap hosil bo'ladi?

A) darak gap V) so'roq gap S) buyruq gap D) hishayajon gap Ye) so'roqbuyruq gap

2) Yashamoq - mehnat qilmoq; Soʻzligim - boyligim. Ushbu sintaktik birliklar qanday nomlanadi va ular oʻzaro qanday boʻlangan?

A) teng boʻlanishli birikma V) bitishuv yoʻli bilan boʻlangan birikma S) teng boʻlanishli gap D) tobe boʻlanishli gap E) bir xil soʻroqqa javob boʻluvchi uyushiq boʻlaklar

3) Maslahat mazmunini bildirgan buyruq gapni toping.

A) Maktabga bor ertalab. V) Opa, shu ertak kitobini menga bering. S) Oʻflim sof-salomat kelsin. D) Yaxshisi, bugun kutubxonaga bor. E) Bu sirni birovga ayta koʻrma.

4) Nutq qanday til birliklaridan tashkil topadi?

A) nutq tovushlaridan V) soʻzlardan
S) soʻz birikmalaridan D) gaplardan
E) A, V va S javoblar.

5) Ritorik soʻroq gapni toping.

A) Farmon bibining uylari shumi? V) Siz qaerdan, mehmon? S) SHunday goʻzal vatan bormi dunyoda? D) Sen mening gapimga quloq solgin. E) Xoʻsh?

6) Buyruq gapning oxang yordami bilan soʻroq gapga oʻtgan qaysi qatorda?

A) Ismingiz? V) Opang seni juda yaxshi koʻrsa kerak-a? S) Yoʻl boʻlsin? D) Se-ning ukang bultur maktabni bitirgan? E) Siz qanday kitoblar oldingiz?

7) Muomala vositasining eng kichik birligi nima?

A) soʻz V) qoʻshma soʻz S) ibora

D) soʻz birikmasi E) gap.

8) Faqat soʻroq ohangi yordami bilan hosil boʻlgan soʻroq gapni belgilang. A) Oʻtkir Hoshimov asarlarini oʻqiganmisiz? V) Siz-chi? S) Yaxshi qoʻshiqni kim yoqtirmaydi? D) Soat besh boʻldi. Soat besh boʻldi? E) Oʻquvchilarni qanaqa kitoblar bilan xursand qilmoqchisiz?

9) Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik soʻroq gapni toping.

A) Oʻzingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga? V) Farzandni kim sevmaydi? S) Siz Salimovning oʻfli emasmisiz? D) Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanini kim bilmaydi?

E) Odamning hayoti turilishidan boshlanishini kim bilmaydi?

10) Soʻroq yuklamasi yordamida hosil boʻlgan soʻroq gapni belgilang.

A) Kimda qanday taklif bor? V) Oltinsoyga yaqinda keldinglar, shekilli? S) Nahotki bir tomchi qaygʻuni bir daryo sevinch yuvib ketolmaydi? D) Qishlozimiz yoqmay qoldimi? E) Pulni ham berdingiz?

Mashgʻulotni yakunlash. Oʻqituvchi mashgʻulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga maʼlum qiladi, ularni ragʻbatlantiradi va toʻplagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashgʻulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida oʻz mulohazalarini bayon qiladi.

4- AMALIY MASHGʻULOT. Gap boʻlaklari haqida umumiy maʼlumot. (2 soat)

Dars bosqichlari va vaqti	Oʻqituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (5 daqiqa)	1.Amaliy mashg'ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzusi, maqsadi, rejasini eʼlon qiladi.	Eshitadi, yozadi, javob beradi..
2-bosqich Bilimlarni aktuallashtirish va mustahkamlash (70 daqiqa)	1.Aqliy hujum asosida maʼruzada oʻrganilgan nazariy bilimlarini savol – javob orqali aniqlaydi (1-ilova) 2.Uyda bajarilgan mashqlarning toʻgʻri ishlanganligini tekshiradi.(2-ilova) 3. Mustaqil ishlarni tekshiradi. (3-ilova) 4.Test tekshiruvu (4-ilova)	1.Muhokama uchun savol-topshiriqlarda ishtirok etadi 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Misollarni oʻqiydi, javob beradi. 4Test yechadi
4-bosqich	1.Talabalarni ragʻbatlantirish, baholarni	Eshitadi, yozadi, bilib

Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	e'lon qilish, uyga vazifa berish, mashg'ulotga yakun yasaydi	oladi.
-------------------------------	--	--------

1-ilova

- Gap bo`lagi deb nimaga aytiladi.
- Gap bo`laklari tuzilishiga ko`ra necha xil bo`ladi.
- Ega va uning ifodalanishi haqida gapiring.
- Ot bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.
- Olmosh bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.
- Harakat nomi bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.
- Ibora bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qat'iy nazoratga olinadi.)

330-mashq. O'qing. Gaplarning ega va kesimini topib, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir. (*Maqol.*) 2. Ishlagan yerni yashnatar. (*Maqol.*) 3. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz do'stini. (*Maqol.*) 4. U kunduzi ustaga qarashar, damni bosar, cho'g'da toblangan temirlarni sandonga qo'yib, og'ir bosqon bilan usta xohlagan shakllarga keltirib berar, qozon-tovoq, choydush va qumg'onlarni tuzatar, qozon qaynatar, xullas, bir amallab kun o'tkazar edi. (*O. Yo.*) 5. Oqsoy vodiysi bo'ylab pastga tomon yurishning ham gashti bor. (*A. Kolbintsev.*) 6. Bu shovqinlarga Bashorat ko'pdan ko'nikib ketgan. (*S. Ahm.*) 7. Bu yer to'xtash va dam olish uchun juda qulay. (*A. Qolbintsev.*)

331-mashq. Ko'chiring. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing; kesimning tuzilish jihatdan turlarini izohlang.

1. Ana shu saksovullar, ana shu barxanlaru, qo'y-qo'zilar mening odamligimni tanitdi. (*M. Salom.*)
2. Bu yer xuddi qal'aning devoriday tik. (*H. G'.*) 3. Fонарь ko'targan to'rt qiz ichkari kirishdi. (*S. Ahm.*)
4. Endi ishimiz — besh. Endi sen bilan biz g'olib chiqdik. (*Yu. Semyonov.*) 5. Ikki yuzga yaqin kursantlar o'rtasida eng yoshi men bilan Oqil edi. (*N. S.*) 6. Bu odamdan juda katta jasoratni, bardoshni, chidamni talab qiladi. (*O. SHarafiddinov*) 7. Adolatsizlnk gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq — ulug' baxt! (*SH.*) 8. Kitob o'qimaydigan boshliq — sho'rimiz, u na san'atning, na adabiyotning, na ilmning qadriga yetadi. (*Mirm.*)

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

4-ilova Test topshiriqlari

1 Jumla tarkibidagi so'zlar qanday holatda gap bo'lagi bo'lib kela oladi?

A) gap tarkibida o'zaro faqat tobe bo'langan so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi V) gap tarkibida faqat o'zaro teng bo'langan so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi S) gapda qo'llangan har qanday so'z gap bo'lagi vazifasida kela oladi D) gapda qo'llangan barcha mustaqil so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi E) gapda grammatik shaklga ega bo'lgan mustaqil so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi.

2 Valining keksa onasi uzundan-uzoq duo o'qidi. Ushbu gapdagi egani toping.

A) Valining keksa onasi V) keksa onasi S) onasi D) duo E) uzundan-uzoq.

3 Vatan erur tomirdagi qon. Ushbu gapning kesimini aniqlang.

A) erur V) vatan erur S) qon erur D) qon E) tomirdagi qon.

4 Bozlovchi ishtirok etgan bo'lak gapda qaysi bo'lak bo'lib kelayotganligini aniqlang. Shunday yashaginki, ketar cho'ringda... (Shuhrat)

A) ega V) kesim S) hol D) aniqlovchi E) bu gapda bozlovchi ishtirok etmagan.

5 “Endi falabamiz yaqin, do’stim!” gapining kesimi qaysi so’z turkumi bilan ifodalangan?

A) ot V) sifat S) fe’l D) ravish

E) Bu bir bosh bo’lakli gap bo’lib, unda kesim ishtirok etmagan.

6 Ishlamay yegan o’rimay o’lar. (maqol) Eganing ifodalanishi to’xtir ko’rsatilgan qatorni toping.

A) sifatdosh bilan ifodalangan V) fe’l bilan ifodalangan S) birikma bilan ifodalangan D) otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan E) ega ifodalanmagan.

7 Yurtimiz uzra mustaqillik quyoshi charaqlayversin! Ushbu gapda qo’llangan bosh kelishikdagi so’zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

A) ega, kesim V) to’ldiruvchi, hol

S) aniqlovchi, ega D) hol, ega

E) to’ldiruvchi, ega

8 Kesimi o’zlik nisbatdagi fe’l bilan ifodalangan gapni toping.

A) Kamchiliklar ro’y-rost ochib tashlandi. V) Ayvon yonidagi o’choqqa o’t qalangan. S) Atayin ho’l sochiq bilan artindi. D) Doklad uchun Ziyodaxonga so’z berildi. E) Jo’nashga tayyorgarlik ko’rilmoqda edi.

9 Quyidagi gapda ega qaysi so’z turkumi bilan ifodalangan? Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmozin tishlar.

A) Ot bilan V) Fe’l bilan S) Otlashgan sifat bilan D) Otlashgan sifatdosh bilan Ye) Ibora bilan.

10 Birlashgan daryo bo’lur, tarqalgan irmoq bo’lur. Ega qaysi so’z turkumi bilan ifodalangan?

A) Ot V) Sifat S) Fe’l D) Sifatdosh E) Otlashgan sifatdosh

Mashg’ulotni yakunlash. O’qituvchi mashg’ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag’batlantiradi va to’plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg’ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar) xususida o’z mulohazalarini bayon qiladi.

1-ilova

- Gap bo’lagi deb nimaga aytiladi.

- Gap bo’laklari tuzilishiga ko’ra necha xil bo’ladi.

- Ega va uning ifodalanishi haqida gapiring.

- Ot bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.

- Olmosh bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.

- Harakat nomi bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.

- Ibora bilan ifodalangan ega ishtirokida gaplar tuzing.

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to’liq va mukammal bo’lishi o’qituvchi va talabalar tomonidan qat’iy nazoratga olinadi.)

330-mashq. O’qing. Gaplarning ega va kesimini topib, qaysi so’z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ko’z qo’rqoq, qo’l botir. (Maqol.) 2. Ishlagan yerni yashnatar. (Maqol.) 3. Aqlli o’zini ayblar, aqlsiz do’stini. (Maqol.) 4. U kunduzi ustaga qarashar, damni bosar, cho’g’da toblangan temirlarni sandonga qo’yib, og’ir bosqon bilan usta xohlagan shakllarga keltirib berar, qozon-tovoq, choydosh va qumg’onlarni tuzatar, qozon qaynatar, xullas, bir amallab kun o’tkazar edi. (O. Yo.) 5. Oqsoy vodiysi bo’ylab pastga tomon yurishning ham gashti bor. (A. Kolbintsev.) 6. Bu shovqinlarga Bashorat ko’pdan ko’nikib ketgan. (S. Ahm.) 7. Bu yer to’xtash va dam olish uchun juda qulay. (A. Qolbintsev.)

331-mashq. Ko’chiring. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to’g’ri chiziq chizing; kesimning tuzilish jihatdan turlarini izohlang.

1. Ana shu saksovullar, ana shu barxanlaru, qo’y-qo’zilar mening odamligimni tanitdi. (M. Salom.)
2. Bu yer xuddi qal’aning devoriday tik. (H. G’) 3. Fonar’ ko’targan to’rt qiz ichkari kirishdi. (S. Ahm.)

4. Endi ishimiz — besh. Endi sen bilan biz g'olib chiqdik. (Yu. Semyonov.) 5. Ikki yuzga yaqin kursantlar o'rtasida eng yoshi men bilan Oqil edi. (N. S.) 6. Bu odamdan juda katta jasoratni, bardoshni, chidamni talab qiladi. (O.SHarafiddinov) 7. Adolatsizlnk gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq — ulug' baxt! (SH.) 8. Kitob o'qimaydigan boshliq — sho'rimiz, u na san'atning, na adabiyotning, na ilmning qadriga yetadi. (Mirm.)

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

4-ilova

Test topshiriqlari

1) Jumla tarkibidagi so'zlar qanday holatda gap bo'lagi bo'lib kela oladi?

A) gap tarkibida o'zaro faqat tobe bo'langan so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi V) gap tarkibida faqat o'zaro teng bo'langan so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi S) gapda qo'llangan har qanday so'z gap bo'lagi vazifasida kela oladi D) gapda qo'llangan barcha mustaqil so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi E) gapda grammatik shaklga ega bo'lgan mustaqil so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi.

2) Valining keksa onasi uzundan-uzoq duo o'qidi. Ushbu gapdagi egani toping.

A) Valining keksa onasi V) keksa onasi S) onasi D) duo E) uzundan-uzoq.

3) Vatan erur tomirdagi qon. Ushbu gapning kesimini aniqlang.

A) erur V) vatan erur S) qon erur D) qon E) tomirdagi qon.

4) Bo'lovchi ishtirok etgan bo'lak gapda qaysi bo'lak bo'lib kelayotganligini aniqlang. SHunday yashaginki, ketar cho'ringda... (SHuhrat)

A) ega V) kesim S) hol D) aniqlovchi E) bu gapda bo'lovchi ishtirok etmagan.

5) "Endi falabamiz yaqin, do'stim!" gapining kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

A) ot V) sifat S) fe'l D) ravish

E) Bu bir bosh bo'lakli gap bo'lib, unda kesim ishtirok etmagan.

6) Ishlamay yegan o'rimay o'lar. (maqol) Eganing ifodalanishi to'zri ko'rsatilgan qatorni toping.

A) sifatdosh bilan ifodalangan V) fe'l bilan ifodalangan S) birikma bilan ifodalangan D) otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan E) ega ifodalangan.

7) Yurtimiz uzra mustaqillik quyoshi charaqlayversin! Ushbu gapda qo'llangan bosh kelishikdagi so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

A) ega, kesim V) to'ldiruvchi, hol

S) aniqlovchi, ega D) hol, ega

E) to'ldiruvchi, ega

8) Kesimi o'zlik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gapni toping.

A) Kamchiliklar ro'y-rost ochib tashlandi. V) Ayvon yonidagi o'choqqa o't qalangan. S) Atayin ho'l sochiq bilan artindi. D) Doklad uchun Ziyodaxonga so'z berildi. E) Jo'nashga tayyorgarlik ko'rilmoqda edi.

9) Quyidagi gapda ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmozin tishlar.

A) Ot bilan V) Fe'l bilan S) Otlashgan sifat bilan D) Otlashgan sifatdosh bilan Ye) Ibora bilan.

10) Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur. Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

A) Ot V) Sifat S) Fe'l D) Sifatdosh E) Otlashgan sifatdosh

Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O'zbek tili. 2004, O'AJBNT» markazi.

5- AMALIY MASHG'ULOT: Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. 2 soat

1-ilova

- Ikkinchi darajali bo'laklarni ayting.
- To'ldiruvchi, uning turlarini ayting .
- Vositsiz to'ldiruvchi haqida gapiring.
- Vositali to'ldiruvchi haqida gapiring.
- To'ldiruvchi va uning turlariga visollar keltiring

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qat'iy nazoratga olinadi.)

336-mashq. O'qing. To'ldiruvchilarni topib, turi va qanday ifodalanganini ayting. To'ldiruvchini o'zi bog'lanib kelgan (boshqarayotgan) so'z bilai birikma tarzida ko'chiring.

1. Men chollarning gapiga beixtiyor berilaman. Dam bobomga, dam uning o'rtog'iga tikilaman. Ular allaqanday xonlar, beklar, qo'rg'onlar, urushlar to'g'risida so'zlashadi. Allakimlar qandaydir katta darvozalarni berkitib qo'ygan, kimlardir shaharga suv bermagan, bog'dorlar qaylargadir qochib ketgani uchun bog'larda mevalar pishib, sasib-chirib ketgan. Bu gaplar menga ertakdan ham qiziq tuyuladi. Nihoyat chollar jim bo'lishadi, go'yo yoshliklarini sog'inganday, boshlarini quyi solishadi. (O.)

2. Sen yana yashnab ketasan, seni bo'stonga aylantirayotgan xalqing hech kam bo'lmaydi. Sen davr suradigan zamon keldi. SHu zamonni, mustaqil hayot zaminini qurayotganlarga men chin yurakdan zafar, omad tilayman. Nasib etsa oz bo'lsa ham ularga qo'limdan kelganicha yordam beraman. (O'.U.)

337-mashq. O'qing. Avval vositasiz, so'ngra vositali to'ldiruvchilarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring, farqini tushuntiring.

1. SHu kichkina oppoq qo'lchalar Vatan burchini oqlar, albatta! (Mirm.) 2. Naqqoshga yasatig'liq bir ot in'om qilinadi, qolgan mehmonlarga esa qimmatbaho sarpolar kiygizildi. (L. Bat'.) 3. Erkni, qirni, daryolarni, cho'lni qo'msab qoldi dil. (SH. Rustaveli.) 4. Munavvar balanddan olingan tuproqni yerning chuqurroq yeriga to'kkach, ... bir kosa qatiq keltirib, mehmon oldiga qo'ydi. (S. Nazar.) 5. Uzoq-uzoq elatlarga, ellarga, Janub yoqda turfa-turfa gullarga, Mushtoq bo'lgan qancha-qancha dillarga Bizdan salom eltadilar turnalar. (H. G'.)

338-mashq. O'qing. Kelishik affikslari va ko'makchili so'zlar bilan kelgan to'ldiruvchilarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Otang, albatta, keladi, onang seni qidirib yuribdi, bugun-erta kelib qoladi, deb bolalar qalbida umid chirog'ini so'ndirmay yurgan hamshiralari, murabbiyalarni ko'rganda odam uchun faxrlanmay bo'ladimi! (H. Tojiboev.) 2. Gulnoz to'rtagina uzum g'ujumini piyolaga solib ezdi va choy qoshiqda buvi labiga tutdi. (H. G'.) 3. Urush haqida ham, tinchlik, arzonchilik haqida ham hech narsa demadi. (H. Nu'mon, A. SHorahmedov.) 4. "Aziz otamizning fikrini, yo'lini himoya qilmoq uchun, — dedi Sultonmurod bo'g'iq va hazin ovoz bilan, — qilichingizni mahkam tuting, bahodir!" (O.) 5. "O'zbekning o'z xalqiga qilgan xizmati uning paxtachilik rivojiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi", — deya o'z so'zini dabdaba bilan tugalladi Xalilov. (I. R.) 6. Men tinchlik haqida qo'shiq aytaman, Bulbul gul ishqida kuylaganiday. (U.)

339-mashq. O'qing. To'ldiruvchilarni topib, ifodalanishini ayting, birikma hoida qo'llangan to'ldiruvchilarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Qiz bolaning bunchalik mard bo'lishini men endi ko'rishim. (P. Q.) 2. Na Mansurov Zebinisodan gina qildi, na Zebinisodan undan. (F. Niyoziy.) 4. To'g'onlar, kotlovanlar uchun, suvni tez oqizish zarur bo'lgan joylar uchun beton kerak. (J. Abd.) 4. Qanday qilib eshiklardan o'tganini, zinalardan chiqqanini bilmadi. (SH.) 5. Saltanat shularning barini kattalardan eshitgan edi. (O'.Usm.) 6. Men buvimlarni tez-tez ko'rishni, biznikiga kelishlarini, yo ularnikiga borishni yaxshi ko'rardim. (O'.Umarbekov.)

340-mashq. O'qing. Ajratilgan to'ldiruvchilarni topib, ular qaysi so'zni izohlayotganini tushuntiring.

1. Mashhur terimchi Xosiyatoyini — gavdasi ham, ko'zlari ham kichkinagina, lekin zuvalasi pishiq, harakatlari yengil, chaqqon yosh ayolni — hurmat bilan to'rga o'tqazishdi. (O.) 2. Bola taqlidchi bo'ladi, u sizga, o'z otasiga, taqlid qilishga harakat qiladi. (S. Z.) 3. Biz uchun, suvi kul rang dengiz farzandlari uchun, bu — bir jonli afsona. (Yu. Smuul.) 4. Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas! (O'. U.) 5. Aksari dilgir bo'lgan chog'larida u o'zining eng asl do'stlari — kitoblariga murojaat qilardi. (L. Batb.)

3-ilova

4. Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

4-ilova

Test topshiriqlari

1 Vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Gap bilan shoshma, ish bilan shosh. V) CHinnigul yer ostidan sekin yigitga qaradi. S) Keldi ochilur chozing, o'zliging namoyon qil. D) Sevgi pulga sotilmas, ko'ngil pulga topilmas.

E) Odamning yuzi oftobdan issiq.

2 Biz tong qoronxisida Rishtonga yetdik. Mazkur gap qaysi qatorda to'g'ri tahlil qilingan?

A) Biz – ega, yetdik – kesim, tong – belgisiz qaratqich aniqlovchi, qoronxisida – hol, Rishtonga – hol. V) Biz – ega, yetdik – kesim, tong – aniqlovchi, qorongisida – to'ldiruvchi, Rishtonga – hol. S) Biz – ega, yetdik kesim, tong qoronxisida – hol, Rishtonga – to'ldiruvchi. D) Biz – ega, Rishtonga yetdik – kesim, tong – aniqlovchi, qoronxisida – to'ldiruvchi.

E) Biz – ega, yetdik – kesim, tong qoronxisida – hol, Rishtonga hol

3 Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar. Ushbu maqoldagi gap bo'laklari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, kesim

V) to'ldiruvchi, aniqlovchi, kesim

S) to'ldiruvchi, ega, hol, kesim

D) to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol

E) to'ldiruvchi, ega, kesim

4 O'rin-payt kelishigi shaklidagi so'zning to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?

A) Yozda qilingan mehnat o'z natijasini berdi. V) Birlashma idorasi uch qavatli binoda edi.

S) Katta chinni kosada suv olib chiqdi. D) Nemis do'stlarimizni Buxoroda uchratdik. Ye) Ohangni chuqur sukutda tingladilar.

5 CHiqish kelishigi shaklidagi so'zning to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda berilgan?

A) Anvar bolalikdan otlarni sevgan. V) Fulomjon uyidan erta chiqib ketgan ekan. S) Sultonovning gapini chin yurakdan qarshiladi. D) Men Farzonaning bir chekka qishlovidanman. E) U ham muhabbat zavqidan bahramand bo'ldi.

6 CHakmonining ikki yonini xurjunga o'xshatib yelkasiga tashladi-da, shoshmasdan orqaga qaytdi. Gapdagi shoshmasdan holning qaysi turiga mansub?

A) o'rin holi V) payt holi

S) sabab holi D) maqsad holi

E) vaziyat (ravish) holi.

7 Quyidagilarning qaysi biri qaratqichli birikma hisoblanadi?

A) oltin soat V) yigit husni S) uzum yedi D) peshin chozi E) yozoch ko'prik.

8) Birovga choh qazima, o'zing tushasan. Ushbu maqol qanday gap bo'laklaridan tashkil topgan?

A) hol, kesim: aniqlovchi kesim V) to'ldiruvchi, hol, kesim; aniqlovchi, kesim S) to'ldiruvchi, to'ldiruvchi, kesim; ega, kesim D) ega, kesim; ega, kesim E) to'ldiruvchi kesim; ega, kesim

9) Gap bo'laklari odatdagicha joylashgan gapni belgilang.

A) Menga bu yo'llar tanish. V) Bu yo'llar menga tanish. S) Tanish menga bu yo'llar. D) Tanish bu yo'llar menga. E) Menga tanish bu yo'llar.

10) Bu xabarni eshitgan Xayribibning tarvuzi qo'ltiridan tushdi. Jumlada nechta gap bo'lagi bor?

A) 4 ta V) 3 ta S) 7 ta D) 6 ta Ye) 5 ta

341-mashq. O'qing. Aniqlovchilarni topib, so'rog'i, ifodalanishi va qaysi so'z bilan bog'lanib kelganini ayting.

Alisher rastalardan ildam o'tib bordi. Bozor chekkasidagi qo'l yozma kitoblar taxlab qo'yilgan kichik do'konchalar uning e'tiborini jalb qildi. Bu sovuq va nim qorong'i do'konchalarda inson aqlining xazinalari o'yma gulli charm muqovalarga o'ralib taxlanib yotardi. Kitob do'konlari yoniga muqovasoz ustalarning do'koni joylashgan. Alisher to'xtab, mashhur muqovasoz ustaning gul solish oldidan charmni tarang qilib tortib, iylashini uzoq tomosha qildi. Ayniqsa, ana shu rastalarda Alisher o'zining hirotlik ekanini yaqqol his etdi. Eski qo'l yozmalarining hidini huzur qilib iskarkan, u ketishga shoshilmasdi. (*L. Batʼ.*)

342-mashq. O'qing, aniqlovchilarni topib, turini, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting. Sifatlovchilarni sifatlanmishlar bilan birga ko'chiring, sifatlovchi tagiga to'lqinli chnziq chizing.

1. CHoy ustida shiringina oilaviy suhbat boshlanib ketdi. (*J. Ikromiy.*) 2. Yangi klub. Katta zalda o'tgan kuni bo'ldi bal. (*Q. H.*) 3. Ming bir xil davo bor totli qimizda. (*Mirm.*) 4. CHang-to'zon bilan qoplangan osmonda mayda-mayda yulduzlar g'ira-shira miltirardi. (*N. Biryukov.*) 5. Boychechaklarning xushbo'y, sezilar-sezilmas hidini nayning yoqimli hidi bilan uchirib keldi. (*I. R.*) 6. Bir qarashdayoq uning zehnli, udli-shudli ekanligini bilib oldim. (*SH. Siddiqiy.*) 7. Uning na mol-davlatga, na shon-shavkatga ishtiyoqi bor. (*K. Moiseeva.*) 8. Qizning onasi muallima, otasi xizmatchi edi. (*I. R.*)

343-mashq. Ajratilgan qaratqich aniqlovchisini topib, qaysi so'zni izohlayotganini ayting; ularni qaralmish bilan birga ko'chiring.

1. Biz, ana shu sinalgan kuchning vakillari, do'stligimizning tarixiy izlaridan kelib, uning veteranlari, yangi avlodlari bilan tanishdik. (*As.M.*) 2. O'rik gulini eslatuvchi laylak qor girdobidan qutulmoqchi bo'lgandek yelayotgan suvoriyning — Farg'ona yigitining — bor diqqati ilon izidek o'rmalagan yo'lda. (*S. Azimov.*) 3. Aftidan, mayorning fyurerga yaqinligi haqidagi ovozarlar bu yerdagilarnpng — hospitaldagilarning ham qulog'iga yetgan ko'rinardi. (*A. CHakovskiy.*) 4. Lekin har ikkovi ham bir narsani — Gavharning endigi taqdirini o'ylar edilar. (*O'H.*)

344- mashq. O'qing. Izohlovchilarni topib, ularning ma'no xususiyatlarini ayting.

I. Hali juda yoshlik chog'imda Ismoil boboning to'y bazmida toshkentlik mashhur To'ychi hofiz, beshariqlik Hazratqul qori, qo'qonlik mashhur hofiz va askiyachi Erka qori, marg'ilonlik mashhur Yusufjon qiziq, Samarqand sozandalarining' sardori mashhur sozanda-xonanda ustoz Hoji Abdulazizlarning dutor, childirma hamda tanburlari, yalla, askiyalari, ichak uzdi qiziqchiliklari avjiga chiqib, to'y bazmining fayziga fayz qo'shilgandi. (*N. Safarov.*)

II. 1. Mahallada Isroil va Muslim degrez, Odil Varshav, Hayitboy oqsoqol, Ahmad kaltadum, birinchi grammofon olib kelgan Abdulla forumlar bilan ulfatchilik qilardi. (*Mirm.*) 2. Raqqosa qiz tovlanib xil-xil, Qushdek uchar sahnada yengil. (*O. Xoldor.*) 3. Master Fyodor Kuznetsov bilan bosh murabbiy Omonov bir-birlariga qarab, ko'z urishtirib olishdi. (*Iboxon.*) 4. Nafisa opa ilgari bolalar bog'chasida murabbiya bo'lib ishlardi. (*Mirm.*)

3- ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

4-ilova Test topshiriqlari

1) O'xshatish ma'nosini bildirgan izohlovchi qaysi qatorda bor?

A) Vatan-ona so'zi naqadar laziz. V) Ko'l ichida sazan baliqlar suzib yurardi. S) Toshmat chol musobaqada yutib chiqdi. D) Yo'lchi o'z do'sti Qoratoy temirchi bilan hangomalashib o'tirar edi. E) Ahmad tajang shu gapdan keyin qaytib kelmadi.

2) Tong shabadasi zirzir esmoqda. Gapda holning qaysi turi bor?

A) miqdor holi V) vaziyat (ravish) holi S) maqsad holi D) payt holi E) sabab holi.

3) Sifatdosh shaklidagi so'z qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan?

A) Anorxon – o'z Vatanini chin yurakdan sevgan, o'z ishiga ko'ngil qo'ygan qiz. V) Maqtanganning uyini, kerilganning to'yini ko'r. S) Narigi yoqdagi go'zal favvoralar qurilishi endi boshlangan.

D) Vijdoning buyurganini bajar.

E) SHu xabarni kecha keltirgan ekan.

4) Qaysi gapda ot bilan ifodalangan sifatlovchianiqlovchi bor?

A) Oltin kuzni sevaman jondan. V) Ulkan shaharning eng go'zal, eng serdaraxt joylaridan biri – shu. S) Muhayyo bu sodda, be'ubor bolaga havaslanib qaradi. D) Oq, qizil, pushti rang gullar quyosh nurida rang-barang tovlanadi.

E) Bu ovoz unga tanish tuyuldi.

5) Qaysi gapda qaratqich-aniqlovchi otlashgan sifat bilan ifodalangan?

A) Ishlaganning yuzi yoru. V) Kayfiyatsiz kishining ishi o'ngidan kelmaydi. S) Har kimning qadrini davr ko'rsatadi. D) Yaxshining ehsoniga baxilning boshi o'zgir.

6) Majoziy ma'no kasb etgan sifatlovchi aniqlovchini toping.

A) Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi... V) Qolgan ishga qor yozar. S) Haqiqiy do'st topsang, unga xiyonat qilma. D) Bir shirin so'z odamga asal bo'lib tuyular. Bir achchiq so'z olamga zahar bo'lib quyular. E) Kumush choyshab yopib dalalar, qor qo'ynida uxlab yotadi.

7) Qaysi qatorda qaratqich-aniqlovchi mavjud?

A) Ota bo'lib boshimni siladi xalqim. V) Yurting osmoni pokiza bo'lsin, bolam. S) Goh dilingda porlaydi quyosh. D) Sen o'tqazib ketgan nihol o'sib bo'yingday bo'ldi. E) Payzambarimiz demishlarki, poklik imondandur!

8) Eru xotinning urushi – doka ro'molning qurishi. Bu maqol qanday gap bo'laklaridan tuzilgan?

A) aniqlovchi, aniqlovchi, ega, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim. V) ega, kesim, aniqlovchi, kesim S) to'ldiruvchi, ega, aniqlovchi, kesim D) aniqlovchi, ega, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim E) ega, kesim, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim.

9) Hollarning mazmundagi farqlariga ko'ra ma'no turlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A) fonetikada V) leksikologiyada

S) uslubshunoslikda D) morfologiyada E) sintaksisda.

10) Qaysi gapda qaratqichaniqlovchi belgisiz qo'llangan?

Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

3. Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qat'iy nazoratga olinadi.)

346- mashq. O'qing. Hollarni topib, so'rog'i, ifodalanishi va ma'no munosabatini ayting.

O'shanda ertasiga u dadasining o'rtog'iga konni ko'rsatadigan bo'ldi. Quyoshli kuz ertasi juda chiroyli edi. Yo'l bo'yidagi qayrag'ochlarning shapaloqdek-shapaloqdek qizg'ish barglari oyoq ostida shitirlaydi, ko'lmak suvlar jimirlaydi. Tog' shabadasi SHodasoyning sovuq shovqinini daralarga taratmoqda, uzoqda qorli cho'qqilar quyoshga o'chakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yonbag'irlarda saf tortgan archalar qorayib ko'rinadi. So'qmoq yo'l qadam sayin yuqoriga o'rlab boradi, pastda eski SHodasoy qishlog'i sarg'ish daraxtlarga burkanib yotibdi, sal berida unga tutashib ketgan kon shaharchasining tunuka tomlari. Konchilar smenadan chiqqandan keyin uyga qaytadigan yo'lni zap manzarali joylardan solishibdi-da! Kela-kelguncha hordig'i ham chiqib ketsa kerak. (As.M.)

317- mashq. O'qing. Avval kelishik affikslari, so'ngra ko'makchilar bilan ifodalangan hollarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Ertasiga kechqurun klubda umumiy yig'ilish bo'ldi. (*I. R.*) 2. Ular uyga kirganda Yagona bilan Ojiza oshxonada ovqat pishirishayotgan edi. (*I. R.*) O'ngirdan billurdek tiniq, ichsang tishingni sirqirاتب yuboradigan suv jildirab oqib chiqadi. (*S. An.*) 4. Anorxon traktorchilarning o'zlari bilan gaplashish uchun dalaga jo'nadi. (*I. R.*) 5. Turdimat yuk mashinasida bir necha kishi bilan Labgardonga jo'nadi. Adirdan soyga tushayotgan sel suvi qattiq hayqirardi. (*I. R.*) 6. Bu ariyani ham u katta hayajon va yoshlik g'ururi bilan kuylardi. (*S. Azimov.*) 7. Yer yuzida, tog'larda, saholarda, okeanlarda minglab do'stlarim bo'ladi, men ular bilan istagan vaqtimda gaplasha olaman. (*As. M.*)

348-mashq. O'qing, birikma bilan ifodalangan hollar ishtirok etgan gaplarni ko'chirib, hollarning tagiga chizing.

CHimyonda dam olish uchun deyarli yil bo'yi sharoit qulay. Tog' yon bag'irlarida hali qor ketmagan, tog' etaklari esa xilma-xil ko'katlar bilan qoplangan, bahor paytida u yer ayniqsa go'zal bo'ladi. O'to'lanlar orasida oq va sariq boychechaklar, alvon lolaqizg'aldoqlar ochilib yotadi. CHimyon yozda ham ajoyib istirohat o'chog'idir. Tekislikda jazirama issiq bo'lgan bir paytda u yerda havo mo'tadil keladi, kechalari bo'lsa juda salqin havo turadi. Tez-tez yomg'ir yog'ib o'tadi. Kuz paytida tabiat alvon va oltin bo'yoqlarga burkanadi. Qechasi osmon gumbazida yulduzlar charaqlab turadi. CHimyon qishda ham gavjum bo'ladi. Bu yerga dam olish kunlari qorli tog' yon bag'irlarida chang'i va chanalarda uchish uchun, qor havosidan to'yib nafas olish va hordiq chiqarish uchun minglab kishilar keladi. (*A. Qolbintsev.*)

349- mashq. O'qing. Ravish hollarini topib, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring, ifodalanishini tushuntiring.

1. Oftob yerdagi qorlarni qanddek eritib oqizdi. (*Mirm.*) 2. Jomiy asta-asta tetiklanib, yana ikki qadrdon do'st samimiy suhbat qurdilar. (*L. Baty.*) 3. Tevarak-atrofnı haybatli tog' halqa kabi o'rab olgan. (*A. Po'lat.*) 4. Tog' cho'qqilari yonida, tevarak-atrofdagi qorda va moviy osmon tagida oq qayinlar naqadar go'zal va tantanali qad ko'targan. (*A. Kolbintsev.*) 5. Askarlardan biri shoshilmasdan, istar-istamas javob qildi. (*S. B.*) 6. Biz boboning hayoti to'g'risidagi hikoyalarini zo'r qiziqish bilan tingladik. (*A. Po'lat.*) 4. Yo'l yana toshloq yon bag'ridan buralib-buralib ko'tarilib boradi. (*A. Kolbintsev*)

350-mashq. O'qing, sifatlovchi aniqlovchi va ravish hollarini topib, ular orasidagi farqni izohlang. Sifatlovchili birikmalarni chap tomonga, ravish holini o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan o'ng tomonga yozing, sifatlovchi va holning tagiga chizing.

Gap	Sifatlovchili birikmalar	Ravish holli birikmalar

1. Bahorda bu tog'lar yam-yashil o'tlar va gullar bilan bezanadi, yozda bo'lsa qovjirab, qandaydir ko'rimsiz manzara hosil qiladi. Lekin bu yerning yoz paytida ham o'ziga xos fayzi bor. Ufqqacha cho'zilib ketgan salobatli tog'lar osmon gumbazi tagida go'yo qotib qolgan dengiz to'lqinlariga o'xshab ketadi. (*A. Kolbintsev.*) 2. Rais cho'ponning zavq-shavq bilan aytayotgan qo'shig'idan mamnun bo'lib, otni qo'shiq ohangiga yo'rttirib, qamchisini beixtiyor o'ynab borardi. Qirning eng cho'qqi joyiga chiqqanimizda, pastda qolgan "Villis" mashinasi, oldinda esa o'sha qirning narigi pastlik joyida yoyilib yurgan qo'ylarga tikilib, qo'shiq aytayotgan Rajab boboning gavdasi va uning qo'lidagi tayog'i yaqqol ko'rindi. (*A. Po'lat.*)

351- mashq. O'qing, o'rin holini topib, so'rog'ini va qanday ifodalanganini ayting, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring.

1. Toshkentdan ellik kilometr yurilgach, chorraha keladi, ko'prikdan o'tib chapga qarab yursangiz, Oqtoshga, o'ngga burilsangiz, G'azalkentga borasiz. (*A. Kolbintsev.*) 2. Quyosh tog' cho'qqilari orqasidan bosh ko'tarib, tig'ini bizga to'g'riladi. Eng yirik, mo'l hosilli rayondan o'tib ketayotganimizda, quyosh yuqorilab, o'zining saxiy nurlarini bepoyon paxta dalalariga, qir-yaylovlarga sochdi. Xalk mehnati bilan qazilgan shifobaxsh SHohimardon kanali ancha orqada qolib ketdi. (*A. Po'lat.*) 3. Jannat xola endi cho'ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. (*S.Ahm.*) 4. Yo'l har qancha qiyin bo'lmasin, siz ajoyib manzaralarni ko'rasiz, ba'zan yo'l suv yoqasigacha tushib keladi,

ba'zan o'rmonzor orasiga sho'ng'iydi. Bu ikki soy qo'shilgan joyda bir-biridan go'zal qoyali ikkita dara ikki tomonga qarab ketadi. Ana shu yerda qalin daraxtlar bor. Bu yerda qayin bilan zarang, terak bilan archa yonma-yon o'sadi. (A. Kolbintsev.)

352- mashq. O'qing. Hollarni aniqlab, turini ayting. Payt holini o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, holning tagiga chizing va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Arpasoyda ertalab va kechqurun, ayniqsa, go'zal manzarani ko'rasiz. SHuning uchun ham Toshkentdan va respublikaning ko'pgina shahar va qishloqlaridan dam olish kunlari bu yerga ko'plab kishilar kelib istirohat qiladilar. (A. Kolbintsev.) 2. Bu hikmatli so'z doim yengishga, orqaga qaytmaslikka undardi. (A. Po'lat.) 3. Ko'klamda adirlar rang-barang o'tlar va gullar gilamiga burkanadi, yozda esa oltin bug'doyzorlar bilan qoplanadi. (A. Kolbintsev.) 4. Oqshomdagina ko'chalarda, bog' va maydonlarda odam to'liqini siyraklandi. (O.) 5. Inson qalbi ham bir vaqtlarda ko'rolmaslik, manmanlik, shuhratparastlik tuyg'ulari bo'lganini unutadi. (N. Biryukov.) 6. Ekskursantlar XV asrda Samarqand yaqinida Ulug'bek tomonidan qurilgan mashhur observatoriyaning qoldiqlarini ko'zdan kechiradilar...

(A. Kolbintsev.) 7. Ko'kda turna qator bo'lib tizilib ketgan yulduzlar ahyon-ahyonda pastga uchib tushar edi. (A. Po'lat.)

353- mashq. O'qing. Sabab va maqsad hollarini topib, ularning so'rog'i, qanday ifodalangani va bir-biridan farqini tushuntiring; ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga alohida-alohida ko'chiring.

1. Men vrachman, odamlarni o'ldirish uchun emas, ularni o'limdan saqlash uchun yashayman. (As. M.) 3. Sultonmurod do'stini tabassum bilan tinglab, Hirotning bahorda toza husn bilan yashnagan ajoyib-manzaralariga suqlanib qarar, shodlikdan, hislarning sho'xligidan ko'ksi to'lib-toshardi. (O.) 4. Do'stining she'rlarida unga avvaldan belgili bo'lgan ba'zi umumiy nuqsonlarni yedirib ketish uchun ko'proq zavq va ruh bilan o'qishga tirishdi. (O.) 5. Kechga tomon hordiq chiqarish maqsadida daryo bo'yiga otlangan edim, markaz tomondan ketma-ket uzilgan o'q ovozi eshitildi. (Murod as-Sibo'iy.) 6. Ularning mardligini, xushchaqchagligini yoqtirganidan yigitlarga biror kori hol bo'lmasin deb bezovtalanardi. (J. Koup.)

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to'g'riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o'rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

4-ilova Test topshiriqlari

1 Osmon tiniq, qalin qor bilan qoplangan dalalar ustida yulduzlarning oltin zo'zalari yorqin chaqnaydi. Mazkur gapdagi sifatlovchi-aniqlovchilar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A) tiniq, qalin, dalalar V) qalin, qoplangan, yorqin S) qalin, oltin, yorqin D) tiniq, dalalar, oltin E) qalin, qoplangan, oltin.

2 Gapning ma'lum bir bo'lagiga alohida e'tibor berib, uning boshqa bo'laklardan ovoz kuchi ajratilishi...

A) undalma deyiladi V) ajratilgan bo'lak deyiladi S) so'z ur'usi deyiladi D) ma'no ur'usi deyiladi E) kirish so'z deyiladi.

3 Vaziyat holini toping.

A) Don daryosi jimgina oqib turar edi. V) Anvar daryo yoqasiga baliq ovlagani ketdi. S) Qamishzor orasidan bir to'p o'rdak ko'tarildi. D) Manzura opa bilan ko'rishish uchun o'rindan turdi. E) Vaziyat holi ishtirok etgan gap yo'q.

Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

6-7 - AMALIY MASHG'ULOT: Gapning uyushiq bo'laklari Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. 4 soat

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba

1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Davlat bosqichi) (5 minut)	1.Tashkiliy qism.	1.Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)	1.Savol-javob asosida talabalar bilimni aniqlash va mustahkamlash 2.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimni tekshirish va mustahkamlash. 3.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlash va baholash. 4.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimni baholash va mustahkamlash 5.Mustaqil ish asosida talabalar bilimni tekshirish va baholash. 6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	1) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar; 2) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 2- ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar; 3) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 3- ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar; 4) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 4- ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar; 5) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» avzusi yuzasidan 5- ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar; 6) talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 6- ilovada berilgan test savollariga javob beradilar
3-bosqich. YAKuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)	8.Mashg'ulotni yakunlash.	Mashg'ulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi..

1-ilova .Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

1. Uyushiq bo'lak deb nimaga aytiladi?
2. Uyushiq bo'lakli gap deb qanday gaplarga aytamiz?
3. Gapning qaysi bo'loklari uyushib kelishi mumkin?
4. Egasi uyushgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.
5. Kesimi ushgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.

2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimni tekshirish va mustahkamlash.

365-mashq. O'qing. Kesimi uyushgan gaplarni ko'chiring, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing, kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aytng.

1. Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushsuhbat edi. (S. Kalmikov.) 2. Quruvchilar uchun... shaharcha qurildi; oziq-ovqat palatkalari, baraklar, oshxonalar, choy-xonalar, qizilburchaklar, kutubxonalar, ambulatoriyalar, kasalxonalar, omborlar, magazinlar barpo qilindi. (N. Biryukov.) 3. Kun salqin va izg'irin. (S. B.) 4. Hammaning dilida bir-biridan yaxshi, tez, toza, ko'p paxta terish tuyg'usi. (A. Muhiddin.) 5. Ko'l harakatsiz, shu'lador, kimsasiz. (CH. Ayt.) 6. "Komiljon

bilan Tatyani chaqiringlar!” — dedi u qabulxonadagi xodimasiga. (I. R.) 7. To'tixon xatni ko'zlariga surtar, o'par, hidlar edi. (S. Ahm.) 8. Ochiqqan, toliqqan o'tliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi. (L. Bat.) 9. Naimshoh... SHakar bahodirni izzat-hurmat bilan kutib oldi va mehmonxonaga boshlab kirdi. (S. Ulug'zoda.)

366-mashq. O'qing, to'ldiruvchisi uyushib kelgan gaplarni topib, uyushiq to'ldiruvchilarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring, to'ldiruvchining turini ustiga yozib qo'ying.

1. O'tgan yili Madaminxo'ja xirmonida yoqilgan umid chirog'i qalbiga na surur berdi va na nur! (M.I.) 2. U erda Saodatni yaxshi kutib oladilar, yuvib-taraydilar, kiyintiradilar. (S. Z.) 3. Qo'biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo'l yoqalab kelgan ko'm-ko'k yavshon va sap-sariq chalovlarning sekin-sekin tebranib gul changlarini to'kayotgani haqida kuylardi. (CH. Ayt.) 4. Beso'naqayroq yuzli, qora ko'zli bu yigit aqlli ko'rinardi. (V. Karpov.) 5. O'razqulga ko'rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlar uchun, va`dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. (CH. Ayt.) 6. Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. (S. Z.) 7. Bularning oralarida shoirlar, g'azalxonlar, sozanda, qiziqchi va raqqosalar bo'lardi. (N. S.)

367-mashq. Uyushiq aniqlovchilarni topib, aniqlanmish bilan birga ko'chiring; so'rog'i, turi va qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ey, tim qora sochli, ko'zlaridan nur yog'ilib turuvchi murabbiya! Qadamlaringga hasanot! (Fodil as-Siboiy.) 2. YOmon, yaxshi ish yo'q, hamma ish yaxshi! Bizda halol mehnat odamning naqshi! (U.) 3. Katta, dehqonga foydali, o'z ko'ngliga yoqadigan ish qilmoqchi edi u. (S. Nurov.) 4. Qancha-qancha to'qnashuvlar, yangi tashvishlar, quvonch, ikkilanish, muvaffaqiyatlar, mag'lubiyatlar va kurashlar kutadi bizni. (J. Abd.) 5. Bo'm-bo'sh, jimjit ko'chalardan yolg'iz ketdim. (O. YO.) 6. Zebo va barno bu qizning jasorati odamlar nazarida chindan ham hayron qolarli edi. (S. Ulug'zoda.) 7. Tashqari gullarga ko'milgan, sadarayhonlar, qashqargul va atirgullarning hidi havoda anqirdi. (O.) 8. Yo'lchi uchun Petrov... butun hayoti va kurashi bilan muallim bo'ldi. (O.)

368-mashq. O'qing. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchilarni aniqlang, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Uning mehnatda chiniqqan qoramtir yuzida, jonli, tiyrak yirik ko'zlarida bolalarcha ma'sumlik jilvalanardi. (O.) 2. YUrtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko'rmoq orzusida bo'lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko'p narsa umid qilar edi. (O.) 3. Hozir Mirzacho'lga borgan har bir kishi u erdagi yangi, obod shaharlarni, ko'p qavatli muhtasham binolarni, hashamatli uy-joylarni, har ikki tomoni ko'm-ko'k daraxtzorlar bilan qoplangan keng va tekis asfalt yo'llarni ko'radi. (A. Po'lat.) 4. Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo'rg'a qorabayir otini ko'ndalang qilishdi. (O.) 5. CHol katta zarang tovoqda lim to'la tariq olib chiqib, toza supurilgan keng sahnga sochdi. (O.)

369-mashq. O'qing. Uyushgan hollarni aniqlab, o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring; tagiga chizib, ustiga turini yozib qo'ying.

1. Korolyov mayorni... dov yurakligi, sof dil va rostgo'yiligi uchun yaxshi ko'rardi. (A. CHakovskiy.) 2. YOng'in tutuni barra o'tlar ustida, endi nish urib chiqqan ekinlar ustida, daraxtlari kurtak chiqqan bog'lar ustida, ko'pirib-hayqirib oqayotgan bo'tana soylar ustida suzib yurardi. (S. B.) 3. Bo'g'iq shovqin suv orqali aniq o'tib, dahshatli va dabdabali eshitilar edi. (J. Vern.) 4. Lekin hozir qahramonlar minglab, o'n minglab chiqyapti. (A. CHakovskiy.) 5. YAna qo'rquvdan va tanholikdan yuragim o'ynay boshladi. (Samim ash-SHarif.) 6. Dengizday chayqalib, daryoday toshib, Ko'hna qirg'oqlardan ko'pirib toshib, SHarqirab, yarqirab, barq urib, serzavq Qalbinga to'ldirib hayajon va shavq Hayot chaqiradi meni yoniga! (U.)

370-mashq. O'qing. Umumlashtiruvchi so'z qatnashgan uyushiq bo'lakli gaplarni topib, qanday bo'lak uyushganligini ayting.

1. Traktorlarning tarillashi, tog`-tog` xarsang tosh, tuproq uyumlarining qulashi, vahimali gumburlashlar — bularning hammasi haqiqiy jang maydonini eslatardi. (J. Abd.) 2. Bu erda hamma narsa: qizil daraxtdan ishlangan panel ham, ko'rkam va qulay mebellar ham, billur qandil va qimmatbaho matodan tikilgan darparda, polga to'shalgan mayin turk gilami kishida taassurot qoldirishga mo'ljallangan. (V. Egorov.) 3. Uning yurish-turishi, kafedra oldida so'zlash usullariga taqlid qiluvchilar ham ko'p. (J. Abd.) 4. Ziyofatga Hirotning eng ilg'or kishilari: olimlar, shoirlar, hofizlar,

mashshoqlar, xattotlar, teri ishlaydigan va kimxob to'qiydigan mashhur hunarmand ustalar, muqovasozlar va egarsozlar to'planishgan edi. (L. Bat.) 5. Men hamma narsani: charchoqni ham, yor-do'stlarimni ham, kolleksiyalarimni ham unutdim. (J. Vern.) 6. SHu daqiqalarda uning fikru xayolini uch narsa band qilgan edi: farzandlarining bemorligi, Olim mo-jarosi, Norzoda bilan munosabati. (F. Niyoziy.) 7. U minglarcha yilgi madaniyatni, asrlarning fikr boyligini qamragan shoir edi. (O.)

371-mashq. O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni aniqlab, qanday bo'lak uyushganini, ularning o'zaro bog'lanishini ayting. Tegishli tinish belgilarini qo'ygan holda ko'chirib, uyushiq bo'laklar tagiga chizing.

1. Bu kengashda har kim o'z fikrini mulohazasini ko'ngliga tugib yurgan dardini bamaylixotir hech kimning fikri bilan hisoblashmasdan xavotir olmasdan tap tortmasdan aytdi istagan taklifini qildi. (A. Q.)

2. Nozimjon yoshligidan mehnatkash, sezgir, erga va molga mehr qo'yib o'sdi. (S. Nurov.) 3. Stol atrofida majlis hay'ati kotib bola rayijrokom vakili va zavod direktori Hikmat Hatamov o'tirishibdi. (O.YO.) 4. Uchastka uchun ham grafik plan ish sifati odamlarga to'g'ri maosh taqsimlash uchun ham kollektiv o'rtasidagi ahillikka g'ubor qo'nmasligi uchun ham turish-turmush emishlar kishilarnng ruhi-ra'yini ko'tarish uchun ham birinchi galda u javobgar! (J. Abd.) 5. Suv er elektr bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash'a bag'ishlovchi kuchlar edi. (O.)

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlanadi va baholanadi.

Namuna: Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. (Saida Zunnunovadan olingan.) Mazkur gapda vositasiz to'ldiruvchi uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklar o'zaro ohang yordamida bog'langan. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar har bo'lakka alohida tarzda qo'shilgan.Uyushiq bo'laklar ko'rgisi kelib ketdi – fe'l kesimga bog'lanib kelgan.

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimni baholash va mustahkamlash

№	Savollar mazmuni	Talaba javobi	To'g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Kesimi uyushib kelgan gapni aniqlang.			Bog'lovchilar va ohang
2	Ega uyushib kelgan gapni toping.			Birni kessang, o'nni ek.
3	To'ldiruvchi uyushib kelgan gapni belgilang.			Ko'hna qirg'oqlardan ko'pirib toshib, SHarqirab, yarqirab, barq urib, serzavq chaqiradi meni yoniga!
4	Uyushiq bo'laklar orasiga odatda qaysi tinish belgisi qo'yiladi?			Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushsuhbat edi.
5	SHaxsi umumlashgan gapni toping			Siz sog'ayib keting.
6	Tarkibida undalma mavjud bo'lgan gapni belgilang.			Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping			Ochiqqan, toliqqan otiqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.

Blitsni tekshirish

№	Savollar mazmuni	Talabani javobi	To'g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Kesimi uyushib kelgan gapni aniqlang.		9	Bog'lovchilar va ohang

2	Ega uyushib kelgan gapni toping.		5	Birni kessang, o'nni ek.
3	To'ldiruvchi uyushib kelgan gapni belgilang.		7	Ko'hna qirg'oqlardan ko'pirib toshib, SHarqirab, yarqirab, barq urib, serzavq Qalbimga to'ldirib hayajon.
4	Uyushiq bo'laklar orasiga odatda qaysi tinish belgisi qo'yiladi?		1	Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushsuhbat edi.
5	SHaxsi umumlashgan gapni toping		8	Siz sog'ayib keting.
6	Tarkibida undalma mavjud bo'lgan gapni belgilang.		3	Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping		10	Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.

5-ilova. Mustaqil ish asosida talabalar bilimni tekshirish va baholash.

Talabalar 1-2-3-4-5-6-variantlarga bo'linadi va har bir variant vakillari ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi uyushib kelgan gaplar asosida michsollar yozib undagi uyushiq bo'laklarni to'liq tahlil qiladir. Masalan:

Namuna: Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. (Saida Zunnunovadan olingan.) Mazkur gapda vositasiz to'ldiruvchi uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklar o'zaro ohang yordamida bog'langan. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar har bo'lakka alohida tarzda qo'shilgan. Uyushiq bo'laklar ko'rgisi kelib ketdi – fe'l kesimga bog'lanib kelgan singari

6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash

1. Lekin bu musiqa jimjitlikni buzmas, balki uni quyultirardi. Ushbu gapda zidlov bog'lovchisi qanday bo'laklarni bog'lagan?

A) gap tarkibidagi sodda gaplarni B) uyushiq bo'laklarni C) turli gap bo'laklarini D) bog'lovchi vazifasini bajarmagan

2. Qaysi qatordagi gapda uyushiq bo'laklar mavjud emas?

A) Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. B) Xalqqa qaradi-yu, lekin gapirmadi. C) Til bilan dil bir bo'lishi kerak D) Men asta-sekin bu xonadonning past-balandini yaxshi o'rganib oldim.

3. O'zbek tilida gapning uyushgan bo'laklarini bog'lash vazifasida nisbatan kam qo'llanadigan bog'lovchilarni aniqlang.

A) biriktiruv bog'lovchilari B) zidlov bog'lovchilar C) ayiruv bog'lovchilari D) A, B

4. Uyushgan egalar shaxsni anglatga, kesim qanday shaklda bo'ladi?

A) Kesim ko'plik shaklda qo'llanadi. B) Kesim birlikda qo'llanadi. C) Kesim fe'l bilan ifodalansa, ko'plikda, sifat, ravish, son bilan ifodalansa, birlikda qo'llanadi. D) Kesim birlikda ham, ko'plikda ham qo'llanishi mumkin.

5. Bosh bo'laklar uyushib kelgan gapni toping.

A) Saida kitob bilan, she'r bilan dardlashardi. B) Quyosh, havo – tanga davo. C) Havo salqin, toza. D) O'rmonlar, bog'lar uni quvontirdi, to'lqinlantirdi.

7-ilova. Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

8- AMALIY MASHG'ULOT : Gapning ajratilgan bo'laklari, Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ajratilgan bo'laklarning turlari. Bir bosh bo'lakli gaplar. 2 soat

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba

1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (5 minut)	1.Tashkiliy qism.	1.Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)	1.Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash 2.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash. 3.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash. 4.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash 5.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash. 6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash	1)talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 1-ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar; 2)talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 2-ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar; 3)talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 3-ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munozarada ishtirok etadilar; 4)talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 4-ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar; 5)talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 5-ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar; 6)talabalar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi yuzasidan 6-ilovada berilgan test savollariga javob beradilar
3-bosqich. YAKuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)	8.Mavzuni yakunlash.	Mashg'ulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi..

1-ilova :

1. Gapning ajratilgan bo'laklari deb nimaga aytiladi?
2. Uyushiq bo'lakli gaplardan qanday farq qiladi?
3. Gapning qaysi bo'loklari ajratilishi mumkin?
4. Egasi ajratilgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.
5. Kesimi ajratilgan gapni misollar yordamida tushuntirib bering.

2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.

343-mashq. Ajratilgan qaratqich aniqlovchisini topib, qaysi so'zni izohlayotganini ayting; ularni qaralmish bilan birga ko'chiring.

1. Biz, ana shu sinalgan kuchning vakillari, do'stligimizning tarixiy izlaridan kelib, uning veteranlari, yangi avlodlari bilan tanishdik. (As.M.) 2. O'rik gulini eslatuvchi laylak qor girdobidan qutulmoqchi bo'lgandek elayotgan suvoriyning — Farg'ona yigitining — bor diqqati ilon izidek o'rmalagan yo'lda. (S. Azimov.) 3. Aftidan, mayorning fyurerga yaqinligi haqidagi ovozlar bu erdagilarnpng — gospitaldagilarning ham qulog'iga etgan ko'rinardi. (A. CHakovskiy.) 4. Lekin har ikkovi ham bir narsani — Gavharning endigi taqdirini o'ylar edilar. (O'.H.)

358-mashq. Ajratilgan hollarni topib, holning qaysi turi ajratilganini tushuntiring.

1. Tepalikda, quyuq daraxtlar ostida, gilamchalarda to'p-to'p o'tirib, katta sopol laganlarga uyum-uyum suzilgan palovni zo'r ishtaha bilan bir-biriga qiziqib oshayotgan... oshxo'rlar orasidan o'tib, pastga tusharkan, O'ktamning yuragi birdan "shig'" etib ketdi. (O.) 2. Temur Malik otdan tushib, ikki-uch navkari bilan yuqoriga – qorovulxonaga ko'tarildi. (Mirm.) 3. Ana, jadvallarning yonida, burchakdagi javonda, Mirzo Ulug'bekning olti jildlik tarixiy asarlari yonida uning — Ali Qushchining ham kitoblari turibdi! (O. YO.) 4. Lekin xuddi shu payt, oldinda borayotgan shahzoda handaqqa yaqinlashib qolganida, o'ng qo'ldagi tepalikda bir guruh suvoriylar paydo bo'ldi. (O. YO.) 5.

Pastlikdan, Qichqiriq tomondan, esayotgan salqin shamol eshigimiz oldidagi azim tup o'rikning tilla rang barglarini chitir-chitir uzib uchiradi. (H. G`.)

359-mashq. Ko'chiring. Ravishdosh o'ram shaklida ajratilgan hollarning tagiga chizib, ma'no munosabatini ayting.

1. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog'iga chuqur tomir yoydirmog'imiz va undan mo'l hosil olmog'imiz kerak. (O.) 2. YOshlar avtobusdan tushishlari bilan, xuddi otasidan suyunchi olgani chopgan bolalarday, yugurganlaricha Kallaquladi tepaligiga chiqib olishdi. (J. Abd.) 3. Tong saharda cho'l parrandalarning betinim qo'shiqlari sizni uyg'otib yuboradi. Ko'zingizni ochib qarasangiz, tevarak-atrofingizda shudring tushgan gullar va maysalarni ko'rasiz. (A. Kolbintsev.) 4. Xalq, kuchli el bilan chayqalgan dengiz kabi, birdan qo'zg'aldi. (O.) 5. Mashinamiz turli-tuman ranglarga g'arq bo'lib, cho'g'day tovlanardiki, ehtimol u o'nlab kilometr naridan ko'zga tashlanib turgan bo'lsa kerak. (CH. Ayt.) 6. Yigit, Alida uning ortidan qarab turganini sezsa-da, jo'rttaga orqasiga qaramay ketaverdi. (J. Koup.)

361- mashq. O'qing. Gaplarni gap bo'laklari jihatidan tahlil qiling.

1. Bu xalq jahonga ne-ne mashhur olimlar, me'morlar, ustalar va mutafakkirlarni etishtirib bermagan, axir! (K. Moiseeva. 2. Kishining kuchi—uning ongi, dunyoqarashi, tushunchasi, ishonchi, ruhi, yashashga qobiliyati, niyati va intilishida, xullas, uning irodasida. (I. R.) 3. Ko'l bo'yida erta saharda ayniqsa manzara go'zal bo'ladi. Ilk quyosh nurlari tog'larning dovonlaridan mo'ralab moviy osmon ostida tovlanib turgan ko'l suviga yuzini yuvadi. Ko'l bo'yida kechqurun o'tirib orom olish naqadar yoqimli. (A. Kolbintsev.) 4. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin. (O.)

362- mashq. O'qing. Gap bo'laklari normal holatda kelgan va gap bo'laklarining normativ tartibi o'zgargan gaplarni aniqlab, inversiyaga uchragan gaplarni ko'chiring, ulardagi gap bo'laklarining tartibi qanday o'zgarganligini tushuntiring.

1. Palovga sabzini nechog'liq tekis va mayin to'g'ralsa, osh shuncha shirin bo'ladi. (O.) 2. Ishqilib umid uchqunlari o'chmay, uzoqdan bo'lsa ham yilt-yilt ko'zga tashlanib turganidan mamnun u. (J. Abd.) 3. Turistlar dastlabki besh kun davomida Samarqandda bo'lib, uning me'morchilik yodgorliklari va diqqatga sazovor boshqa joylarini tomosha qiladilar, shaharliklarning sevib dam oladigan joylariga boradilar. (A. Kolbintsev.) 4. Hatto ayrim jihatdan Komiljondan ham ustunrok tomonlari bor edi uning. (J. Abd.) 5. Institutga kirib olish esa hayotida eng katta mukofot hisoblanardi unga. (J. Abd.) 6. Bu kiyimida u qandaydir juda kamtar, ayni mahalda burungisidan ham jozibali bo'lib ko'rindi menga. (O. YO.) 7. Haqiqat shunday bir narsaki, u suvga tushsa cho'kmaydi, o'tga tushsa yonmaydi. (I. R.) 8. Mohidilxon biz bilan bayram qiladi bugun. (J. Abd.) 9. Mard kurashda, do'st tashvishda, dono g'azabda sinalar. (Mirm.) 10. YUzlaridan sharbat tomizib YOtar bunda do'ndiq handalak. (Mirm.)

364-mashq. O'qing, gapning qaysi bo'lagi uyushib kelganini aniqlang. Uyushiq egali to'rtta gapni ko'chirib, uyushiq bo'laklar tagiga chizing va ular qanday ifodalanganini tushuntiring.

1. Olmalar, anoru anjirlar, shaftoli, behilar, gilolar g'aynolilar, noklar kamolga etdi. (H. G`.) 2. Hamma o'z qarindosh-urug`, oshna-og`ayni va yaqinlari bilan ko'rishmoqda yoki xayrlashmoqda. (M. Muhamedov.) 3. Qanchadan-qancha ajoyib yigitlar, qizlar jasorat ko'rsatishyapti! (H. G`.) 4. Erining xotirasi, bolalarining tarbiyasi, tinimsiz mehnati, yurt g'amidan boshqa tashvishi yo'q u muhtaramaning! (H. G`.) 5. Bo'rilarining etni jimirlashtiradigan ulishi, to'ng'izlarning ko'ksov yo'talidek yoqimsiz tovushi, echkemarlarining sovuq boqishi, ilon po'stlarining ojiz yiltirashi, cho'l burgutlarining viqorli boqishi bu ikki yo'lovchining yuragiga vahm sololmasdi. (S. Ahm.) 6. Muzaffar navkarlarga, ularning changga belangan, toliqqan, ammo kuchli otlariga tikilib, sukut qildi. (L. Bat.) 7. Mevazorlar gulda-chechakda, Tol, chinorlar tugal kurtakda. (O.)

372-mashq. O'qing. Gapning ajratilgan va uyushiq bo'laklarini aniqlang, ular orasidagi farqni ayting.

1. Yigirma kun deganda Nizomjon qorayib, ozib qirdan qaytib keldi. (S.Ahm.) 2. “Og`aynilar, — dedi Yo`ldoshboy xaloyiqqa o`g`irilib, — bu erda hurriyat, ozodlik to`g`risida gapirildi...” (H. Nu`mon, A. SHorahmedov.) 3. YOzilayotgan risolalar, qanchadan-qancha ilmiy tadqiqotlar chetga surib qo`yildi. (J. Abd.) 4. Janob professor, men kim, kapitan Nemo, bugun, 1868 yilning yigirma birinchi martida, Janubiy qutbga... etdim va er sharining ana shu qismiga egalik qila boshladim. (J. Vern.) 5. ...Osib qo`yilgan inqilobiy shiorlar kishilarni yangi hayotga — baxtiyor, ozod hayotga, da`vat qilardi. (J.Ikromiy.) 6. G`alabamiz uchun bu imkoniyatdan qay darajada foydalana bilish bizlarga, harbiylarga, bog`liq. (YU. Semyonov.) 7. Lutfinisa inqillab, harsillab qizini olib jo`nashga kirishdi. (O.) 8. Bundan bir oy oldin, olmazor bog`lar nafis pushti rang gulga burkangan iliq bahor kunlaridan birida, ikki otliq qishloqdan chiqib, toqqa qarab yo`l oldi. (O. YO.)

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlanadi va baholanadi.

Namuna: Janob professor, men kim, kapitan Nemo, bugun, 1868 yilning yigirma birinchi martida, Janubiy qutbga... etdim va er sharining ana shu qismiga egalik qila boshladim.

Gapda ega hamda payt hollari ajratilgan bo`lak hisoblanadi.(Men, kapitan Nemo; bugun, 1968 yilning 21 marti)

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimni baholash va mustahkamlash

№	Savollar mazmuni	Talabani ng javobi	To`g` ri javob	Javoblar mazmuni
1	Kesimi ajratilgan gapni aniqlang.			Bog`lovchilar va ohang
2	Ega ajratilgan gapni toping.			Birni kessang, o`nni ek.
3	To`ldiruvchisi ajratilgan gapni belgilang.			Dengizday chayqalib, tebranib chaqiradi meni yoniga!
4	Ajratilgan bo`laklar orasiga odatda qaysi tinish belgisi qo`yiladi?			Sabohat afsuslandi, pushaymon bo`ldi.
5	SHaxsi umumlashgan gapni toping			hol
6	Tarkibida undalma mavjud bo`lgan gapni belgilang.			Birdan qizini, Nodirani ko`rgisi kelib ketdi.
7	Xol ajratilgan gapni toping			Ochiqqan, qorni och otliqlarga o`tgan-ketganlar hayron bo`lib qarashardi.
8	Kanal bo`yidagi soya-salqin choyxonada, avtobus bekatida, A`zamjon uchrab qoldi. Ushbu misolda gapning qaysi bo`lagi ajratilgan?			Bolalar, bolalar!Tezroq xonadan chiqinglar.
9	Uyushiq bo`laklarni bog`lovchi grammatik vositalarni ko`rsating.			Vergul
10	Aniqlovchi ajratilgan gapni belgilang			Anvar, qo`shnimiz magazin qurdi.

Blitsni tekshirish

№	Savollar mazmuni	Talabani ng javobi	To`g` ri javob	Javoblar mazmuni

1	Kesimi ajratilgan gapni aniqlang.		9	Bog`lovchilar va ohang
2	Ega ajratilgan gapni toping.		5	Birni kessang, o`nni ek.
3	To`ldiruvchisi ajratilgan gapni belgilang.		7	Dengizday chayqalib, tebranib chaqiradi meni yoniga!
4	Ajratilgan bo`laklar orasiga odatda qaysi tinish belgisi qo`yiladi?		1	Sabohat afsuslandi, pushaymon bo`ldi.
5	SHaxsi umumlashgan gapni toping		8	hol
6	Tarkibida undalma mavjud bo`lgan gapni belgilang.		3	Birdan qizini, Nodirani ko`rgisi kelib ketdi.
7	Xol ajratilgan gapni toping		10	Ochiqqan, qorni och otliqlarga o`tgan-ketganlar hayron bo`lib qarashardi.
8	Kanal bo`yidagi soya-salqin choyxonada, avtobus bekatida, A`zamjon uchrab qoldi. Ushbu misolda gapning qaysi bo`lagi ajratilgan?		6	Bolalar, bolalar!Tezroq xonadan chiqinglar.
9	Uyushiq bo`laklarni bog`lovchi grammatik vositalarni ko`rsating.		4	Vergul
10	Aniqlovchi ajratilgan gapni belgilang		2	Anvar, qo`shnimiz magazin qurdi.

5-ilova. Mustaqil ish asosida talabalar bilimni tekshirish va baholash.

Talabalar 1-2-3-4-5-6-variantlarga bo`linadi va har bir variant vakillari ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi ajratilgan gaplar asosida mihcsollar yozib undagi ajratilgan bo`laklarni to`liq tahlil qiladir. Masalan:

Namuna: Birdan uyini, qizini, Nodirani ko`rgisi kelib ketdi. (Saida Zunnunovadan olingan.) Mazkur gapda vositasiz to`ldiruvchi ajratilgan. Ajratilgan bo`laklar o`zaro ohang yordamida bog`langan, ular vergul bilan ajratilgan singari

6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash

1. Ajratilgan bo`laklar uyushiq bo`laklardan qaysi xususiyatlariga ko`ra farqlanadi?

A) bir xil grammatik shaklda bo`lishi bilan B) bir xil so`roqqa javob bo`lishi bilan C) bir predmetning ikki xil nomi bo`lishi bilan D) A, B

2. Ajratilgan izoh bo`lak berilmagan qatorni aniqlang.

A) Oshpaz opa, ellik-ellik besh yoshlarga borib qolgan ayol, yopilgan nonlarni dasta-dasta qilib o`rarkan, kulib javob berdi. B) yozda, ta`til kunlarida bir necha badiiy asarlar o`qidik. C) Bu xabar ko`plarni, shu-jumladan, meni ham, ajablantirdi. D) Bulbullarning, sa`valarning sayrashi bizlarga zavq berardi.

3. U oilasi bilan – xotini, chaqaloq qizi, o`n besh yoshli o`g`li bilan – Oltiariqqa ko`chib bordi. Bu gapda qaysi bo`lak ajratilgan?

A) aniqlovchi B) to`ldiruvchi C) ega D) kesim

4. Ertasi ertalab qishloq chetida, maktab yonidagi sayhonlikda, ko`p odam yig`ildi. Ushbu gapni qanday izohlaysiz?

A) uyushiq bo`lakli gap B) undalmali sodda gap C) qo`shma gap
D) ajratilgan o`rin holli gap.

5. Ajratilgan izoh bo`lakli gapni toping.

A) Bektemir ko`zlarini ochganda, yomg`ir tez va shiddat bilan yog`moqda edi. B) Afsuski, yer yuzida

urushsiz yashab bo'lmayapti. C) Sa'va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar. D) Qobiljon Umaraliev, tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishini yo'lga qo'yib yubordi.

6. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni belgilang.

A) Biz, turli tilga xos adabiyot vakillari, shu til tufayli bir-birimizni yaxshi bilamiz. B) Tejamkorlikni donolikning qizi, qanoatning singlisi va erkinlikning onasi deb hisoblash mumkin. C) Yozda, ta'til kunlarida, bir necha badiiy asarlarni o'qidim. D) A, C

7. ...Kanal bo'yidagi soya-salqin choyxonada, avtobus bekatida, A'zamjon uchrab qoldi. Ushbu misolda gapning qaysi bo'laki ajratilgan A) to'ldiruvchi B) aniqlovchi C) hol D) ega

8. Hovli etagida – darvozaxonaning shundoqqina ro'parasida – garaj. Ushbu gapda qaysi gap bo'laki ajratilgan?

A) ega B) aniqlovchi C) kesim D) hol

9. Jarda, anhorni to'latib oqqan suv yo'lida, tegirmonning chirillashi ham bahor nash'asiga yana bir go'zallik qo'shganday. Ushbu misolda gapning qaysi bo'laki ajratilgan?

A) to'ldiruvchi B) hol C) aniqlovchi D) ega

10. Sunbula xola, xursandlik hislari bilan to'lgan holda, bog'ni aylanib keldi. Mazkur gapda qaysi gap bo'laki ajratilgan?

A) to'ldiruvchi B) ajratilgan hol C) ega D) ajratilgan kesim

7-ilova. Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar) xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

1-ilova .Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

1. Qanday birliklarga gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar deb nimaga aytiladi?
2. Kirish so'z deb qanday birliklarga aytamiz?
3. Kirish birikmani misollar asosida tushuntiring.
4. Kirish gap deb qanday gaplarga aytamiz?
5. Undalma deb nimaga aytiladi?.
6. Undalmalarni misollar yordamida tushuntirib bering.
7. Undalma predmet bilan ifodalangan gaplarni misollar yordamida asoslab bering.
8. Undalmaning gapning turli o'rinlarda kelish sababini misollar yordamida tushuntirib bering.
9. Undalmalarda tinish belgilarining qo'yilishini misollar asosida tushuntirib bering.
10. Undalma bilan kirish so'zning farqini misollar orqali tushuntiring.

2-ilova. Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash.

373-mashq. O'qing. Undalmalarni topib, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini, o'rmini va intonatsiyasiga ko'ra qo'yilgan tinish belgilarini tushuntiring.

1. "U uyga choy so'rasha, Yo'lchi akangga kelib shipshit, Gulnor qizim!"—deb to'y bekasi Lutfiniso ketdi. (O.) 2. Gapir, Qo'zivoy, gapir, bo'taloq, so'z seniki! (H. G'.) 3. Qani, Sinchalakxon qizim, mana buni kiyib oling-chi! (A. Q.) 4. Kuylangiz, xonim qizlar, chevar qizlar, Boshlarda ipak ro'mol hilpillasin! Kuylangiz, asl qizlar, dongdor qizlar, Ko'kraklarda YUlduzlar yaltillasin. (Mirm.) 5. Dadangni hurmat qil, puchuq. (H. G'.) 6. Oy yuzli, shakar so'zli, olamda tanho go'zal, ayting-chi, siz chindan ham shu uyning bekasi bo'lasizmi? (H. G'.) 7. Xadicha! Sarvi! Qumri! Erkinoy! Saodat! Uylaringizga boringlar. Ertalab "Baxt uyi"da uchrashamiz. (H. G'.) 8. Do'ppilar qutluq, askar bola!— Qulluq, opoq buva. (H. G'.) 9. Suyukli qiz, qora ko'z Navro'z, Badaxshonning nozli kaptari, Sen haqingda yuritaman so'z... (Mirm.)

374-mashq. O'qing. Undalmalarni aniqlang. Undalmaning egaga o'xshash va farqli tomonlarini tushuntiring. Undalmalarni egaga aylantirgan holda gaplarni qayta tuzib ko'ring.

— N a m u n a: Hali ham terdirganingiz yo'kmi, ota?. (M.Ism.) — Otam hali ham terdirgani yo'qmi?

1. Ummatali, seni o'rtoq Oxunboboev tabriklab telegramma yuboribdilar. Ma, ol, o'qi! (S. Ahm.) 2. Lekin shuni ham inobatga olingki, mayor, Turkistonda siz boshqa familiya bilan yurasiz. (S. Kalmikov.) 3. Jiyan, aqling bo'lsa, kishining bir tiyinig xiyonat qilma. (O.) 4. – Hoy, tentakkinalarim, tog'angni bevoshtlik qilib qiynamanglar. (S.Ahm.) 5. Kampir, achchiqqina xo'rda qilib ber, mehmon bolani bezgak ushlab qolibdi. (S. Ahm.) 6. Dunyo turguncha turing, malikam, Baxtingiz daryoday mavjlsin, bekam. (S. Nazar.) 7. Sira tashvish tortmagaysiz, oyi, men tinchman. (O.) 8. Hashamsiz purviqor qoyamsiz, Tiz cho'kmas, gard yuqmas g'oyamsiz, kift tutgan ming pillapoyamsiz, Ey baland cho'qqilar, qoyalar. (Z.O.)

375-mashq. O'qing, tegishli tinish belgilarini qo'yib, undalmali gaplarni ko'chiring. Undalmalarning tagiga chizing va ularning uyushiq bo'laklardan farqini ayting.

1. O'lmas o'z muallimangni tanqid qilishing yaxshi emas. Senga bu ish yarashmaydi. (SH.) 2. "Tug'ilgan kuningizga odamning jonidek aziz bir narsa keltiraman azizim", — dedi kunlardan birida Mahmudjon xotiniga. (H. Tojiboev.) 3. SHu narsa yodingizda bo'lsin Meliboy millatidan qat'i nazar, ishchi bilan dehqon hamisha og'ayni. (S. Kalmikov.) 4. Bahoroy Salima Naima Halima YUringlar, menga qarashib yuboringlar. (H. G`.) 5. Sizni ilgariroq saylasak bo'larkan Ashirali aka. (H. G`.)

376-mashq. O'qing. Kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplarni toping, tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Qo'qqisdan shamol yoshroq ko'ringan qizning zotan har ikkovi ham yosh qizlar edi, shlyapasiga chatilgan uzun yashil to'rni ochib yubordi, qizning sutga chayilganday oppoq yuzi, oltin tusli sochi, tiniq moviy ko'zlari ko'rinib ketdi. (F. Kuper.) 2. Oltinshoh ko'rfazi. Ma murlar ular orasida Amerika ofitserlari ham ko'rinadi hammollar, taksichilar, gadoylar har biri o'z maqsadi yo'lida teploxodni kutishga hozirlik ko'rar. (S. Azimov.) 3. Dars tayyorlashdan charchab universitetga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgandim.daryochaga cho'milgani ketayotgan edim. (K. Abukov.) 4. "Otamning taxti shak-shubhasiz meniki, bu jihatdan ko'nglim to'q". — der edi valiahd to'ra. (S. Ulug'zoda.) 5. Aftidan bu ishga... hokimlar ham engil-elpi qarayotgan ko'rinadilar. (S. Ulug'zoda.) 6. Sahroyi bir odamning fahmicha uni nomard deyishdan ko'ra sharmandalik yo'q edi. (S. Ulug'zoda.) 7. Manzilga etgach Nasibalar shaharning chekkasida bir hovlida turar edilar Nasiba meni qo'yarda-qo'ymay ichkariga boshlab kirdi. (O.YO.)

377-mashq. O'qing. Kiritma gaplarni topib, uning o'zi kiritilgan gapning qaysi bo'lagiga aloqador ekanini, ajratilgan bo'laklardan farqini ayting.

1. Keng, uzun, paxtasi chiqib yotgan to'nimning (bu dadamning eski jomakor to'ni) barini belimga bog'lab olgan bo'lsam-da, loyga belangan orqa etagi tovonimga shalp-shalp urardi. (N. S.) 2. Sovuq kunlarning birida, oktyabrning oxirida (Polshada esa qish erta tushadi) bizlarni baraklardan haydab chiqishdi. (D. Kyusak.) 3. Qizil duxobaga o'ralgan daftarchaning jildiga (Qalandar buni keyin, madrasaga qaytgach ko'rdi) zar bilan shu satrlar bitilgan edi. (O.YO.) 4. Biroq ikkovi ham — ular davlat sekretari Meysner bilan prezident Gindenburgning o'g'li Oskar edi — hech kim tanimaydigan bu irqchining aft-basharasi qanaqaligini ham bilishmasdi. (A. CHakovskiy.) 5. Ustozi professor Danilovich o'z shogirdining qobiliyatli yigit ekanligini maqtar, u bilan faxrlanardi ham. (Kim biladi deysiz, balki bu gaplarni Hoshimning o'zi tarqatgandnr.) (J. Abd.) 6. YOzda qishloqqqa borganlarida kamina...(u mahalda men o'n uch – o'n to'rt yashar bola edim) ularga pochtachilik qilardim... (O.YO.)

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimi aniqlanadi va baholanadi.

Namuna: Kampir, achchiqqina xo'rda qilib ber, mehmon bolani bezgak ushlab qolibdi. (Said Ahmaddan olingan)Mazkur gapda Kampir so'zi undalma hisoblanadi. Undalma bu o'rinda shaxsga qaratilgan. Gap boshidap kelganligi bois undalmadan keyin vergul qo'yilgan.

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash

№	Savolllar mazmuni	Tala baning javobi	To'g'ri javob	Javoblar mazmuni
---	-------------------	--------------------	---------------	------------------

1	Gap bo'lagi sanalmaydigan birliklar berilgan qatorni toping.		3	Ehtimol, siz boshlab berarsi.
2	Undalma predmet orqali ifodalangan gapni toping.			Birni kessang, o'nni ek.
3	Kirish so'zi mavjud gapni toping.		5.	Siz, bolam, o'zingizdan kattalarning gapiga quloq tutishni o'rganing.
4	Kirish birikmali gapni aniqlang.			Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushshuhbat edi.
5	Undalma gapning o'rtasida kelgan gapni toping.		2	So'yla, ko'zgujon, haqiqatni et bayon.
6	Tarkibida undalma mavjud bo'lgan gapni belgilang.			Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping			Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.

Blitsni tekshirish

№	Savoldlar mazmuni	Talabani ning javobi	To' g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Kesimi uyushib kelgan gapni aniqlang.		9	Bog'lovchilar va ohang
2	Ega uyushib kelgan gapni toping.		5	Birni kessang, o'nni ek.
3	To'ldiruvchi uyushib kelgan gapni belgilang.		7	Dengizday chayqalib, daryoday toshib, Ko'hna qirg'oqlardan ko'pirib toshib, SHarqirab, yarqirab, barq urib, serzavq Qalbinga to'ldirib hayajon va shavq Hayot chaqiradi meni yoniga!
4	Uyushiq bo'laklar orasiga odatda qaysi tinish belgisi qo'yiladi?		1	Andrash Sabo xushmuomala, sertakalluf, yoqimtoy, xushshuhbat edi.
5	SHaxsi umumlashgan gapni toping		8	Siz sog'ayib keting.
6	Tarkibida undalma mavjud bo'lgan gapni belgilang.		3	Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping		10	Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.

5-ilova..Mustaqil ish asosida talabalar bilimni tekshirish va baholash.

Talabalar 1-2-3-4-5-6-variantlarga bo'linadi va har bir variant vakillari ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi uyushib kelgan gaplar asosida misollar yozib undagi uyushiq bo'laklar va undalmalarni to'liq tahlil qiladir. Masalan:

Namuna: Birdan uyini, qizini, shiyponini ko'rgisi kelib ketdi. (Saida Zunnunovadan olingan.) Mazkur gapda vositasiz to'ldiruvchi uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklar o'zaro ohang yordamida bog'langan. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar har bo'lakka alohida tarzda qo'shilgan. Uyushiq bo'laklar ko'rgisi kelib ketdi – fe'l kesimga bog'lanib kelgan singari

6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash

1. Aytishlaricha, ona qalbi juda sezgir bo'lar ekan. Gap tarkibidagi aytishlaricha so'zi qanday vazifada kelgan?

A) bosh gap B) ergash gap C) undalma D) kirish so'z

2. Aytishlaricha, bu yil qish iliq kelar emish. Ushbu gapdagi kirish so'z qanday ma'noni anglatadi?

A) tasdiqni B) bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini C) inkorni D) oldingi fikr bilan keyingi fikrning bog'liqligini

3. Demak, maktabni bitirib, o'qishga kirmoqchisan? Ushbu gapdagi kirish so'z qaysi ma'noni bildiradi?

A) ishonch va tasdiq B) fikrning kimga qarashli ekanligini C) fikrning tartibi D) fikrga yakun yasash.

4. Qaysi qatorda kirish gap qo'llangan?

A) Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlarimizda intilish yo'q. B) Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi. C) Gapning po'skallasini aytganda, kiyim-kechak masalasida ham yordam berishadi. D) Ibrohim, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmi bilan bahramand qilmoqchi.

5. Menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, nazarimda, eshitishimcha kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.

A) his-hayajonni ifodalaydi B) fikrni shakllantirishga xizmat qiladi C) fikrning tartibini ko'rsatadi D) fikr manbaini ko'rsatadi

6. Qaysi gapda undalma mavjud emas?

A) - Qulluq, qulluq, G'afurjon. B) Samarqand, Samarqand! degani shu ekan-da! C) - Hoy! Sizni kutib turibmiz. D) - Hoy, soqoling to'kilgur, - dedi xotin,- bu qanday qiliq?

7. Kirish gapni aniqlang.

A) Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek? B) Afsus, ming bor afsuski, bu bir xayolgina, xolos. C) O'qish, o'rganish, hormay zo'r ishtiyoq bilan ishlash, shubhasiz, g'alabalarga yetkazadi. D) Bu voqeadan Qodirni ham (sen uni taniysan) xabardor qildim.

9- AMALIY MASHG'ULOT : Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot. 2 soat

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (5 minut)	1.Tashkiliy qism.	1.Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)	1.Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash 2.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash. 3.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.	1)talabalar « Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 1- ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar; 2)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 2- ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar; 3)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 3- ilovada berilgan namuna asosida o'z

	<p>4.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>5.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p>	<p>mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;</p> <p>4)talabalar «Bir bosh bo`lakli va ikki bosh bo`lakli gaplar, ularning turlari.» mavzusi yuzasidan 4- ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar;</p> <p>5)talabalar «Bir bosh bo`lakli va ikki bosh bo`lakli gaplar, ularning turlari» avzusi yuzasidan 5- ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar;</p> <p>6)talabalar «Bir bosh bo`lakli va ikki bosh bo`lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 6- ilovada berilgan test savollariga javob beradilar</p>
<p>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)</p>	<p>8.Mashg`ulotni yakunlash.</p>	<p>Mashg`ulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi..</p>

1-ilova .Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

- 1.Gaplar tuzilishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
- 2.Bir bosh bo`lakli gap deb qanday gaplarga aytamiz?
- 3.Ikki bosh bo`lakli gap deb qanday gaplarga aytamiz?
- 4.Shaxsi ma`lum gaplarni misollar asosida tushuntiring..
- 5.Shaxsi noma`lum naplarni misollar yordamida izohlabbering.

2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash:

326- mashq. O`qing. Gaplarning tuzilish jihatidan turini ayting, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. O`rtoqlar, biz farzandlarimizning tarbiyasiga qancha e`tibor bersak, ular shuncha odobli, aqlli va mohir bo`lib chiqadi. (*A. Mirahmedov.*) 2. Bizda har kim o`z taqdirini o`zi hal qilishi kerak, birovgva qaram bo`lish, kimgadir bo`ysunish degan eskilik sarqitlari allaqachon barham egan. (*J. Abd.*) 3.

Uning betinim harakat qilayotgan epchil qo`llariga qaray-qaray Sattorovning ko`zlari tinib ketdi. (*S. Nazar.*) 4. Sen institutga tayyorgarlik ko`rsan, men esa dugonalarim bilan kolxozga ishga chiqaman. (*K. Abukov.*) 5. U biram chiroyli kularkanki, beg`ubor qalbi, samimiyligi xuddi shu kulgisida aks etib turgandek edi. (*S. Ahm.*) 6. Dengiz dovuli bilan mashhur, sahro — bo`roni bilan! (*J. Abd.*) 7. Haqiqiy turmush halol mehnatda ekan. (*M. Salom.*)

327-mashq. O`qing. Sodda gaplarni topib, tarkibiga ko`ra turini ayting. Bir bosh bo`lakli va ikki bosh bo`lakli gaplardan ikkitadan ko`chirib, farqini tushuntiring.

1. Vatan o`g`limizni o`z xizmatiga loyiq topibdi. Borsin. Hunar o`rganadi, mehnatda pishadi, tengdoshlari oldida yuzi yorug` bo`ladi. (*H. G`.*) 2. Kelmaydi. Mototsiklini patillatib Suluvingizning oldiga ketdi. (*S. Ahm.*) 3. Men o`g`limning Vatan oldidagi burchi yozilgan bir enlik qog`ozni qayta-qayta o`qib, eshik oldida bir necha daqiqa turib qoldim. (*H. G`.*) 4. Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to`da-to`da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o`z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to`g`ri keldi. (*L. Bat.*) 5. Birinchi bo`lib motorga o`t berish bilan boshqalarni ham jadal ishga chorlaydi. (*J. Abd.*) 6. Daraxtzor hovlidagi skameykalardan birida Malika uch-to`rt xotin bilan suhbatlashib o`tirardi. (*H. G`.*) 7. Malikaning so`zlarini zaldagilar qarsaklar bilan kutib olishdi. (*H. G`.*)

328- mashq. O'qing. Yig'iq va yoyiq ikki bosh bo'lakli gaplarni aniqlang. YOyiq ikki bosh bo'lakli sodda gaplarni yig'iq gaplarga aylantirib ko'chiring.

1. Komiljon yangi ferma binosi ichidan chiqarilgan quvur oldida qazilayotgan ariqning narigi yuziga o'tib to'xtadi. (*I. R.*) 2. Haydar — montyor, Anorxon —zveno boshlig'i. (*I. R.*) 3. Axir, Vatanim bepoyon, keng-ku. Mirzacho'lda bilagimni shimarib men ishlamasam, kim ishlaydi!? (*B. Daminov.*) 4. Kechasi. Vaqt allamahol bo'lib qolgan... Erta-indin imtihonlar boshlanadi. Qecha-kunduz berilib kitob o'qiyman. (*SH. Siddiqov.*) 5. Tog` yo'li boshlandi. Pastak adirlar oralab ketgan kaftdek yo'l ilon izi bo'lib malla rang qirlar orasida yo'qolib ketardi. (*S. Ahm.*) 6. Hamma jimib qoldi. Odamlarning ko'z oldiga toshlarni Farhoddek qulatgan Rustamjonning pahlavon qiyofasi kelardi. (*S. Ahm.*)

329- mashq. O'qing. Yoyiq sodda gaplardagi ega va kesim tarkibini ayting.

Dastlabki kunlar yo'l uncha mashaqqatli bo'lmadi. CHO'l o'tlari endi qovjirab kelayotgan bo'lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko'm-ko'k o'tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho'l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o'xshab uyulib qolgan qumtepalardan oshib yoki chetlab o'tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyur, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o'pkalarini yondirardi. (*M.Osim*)

o'rnini va intonatsiyasiga ko'ra qo'yilgan tinish belgilarini tushuntiring.

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlanadi va baholanadi:

Namuna: Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. (*L. Bat.*) Bir bosh bo'lakli gap. SHaxsi topilmas gap. Gapning egasini, bajaruvchisini kesimiga qarab aniqlashning imkoni yo'q.

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimni baholash va mustahkamlash

№	Savollar mazmuni	Tala baning javobi	To' g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Sodda yig'iqgapni toping.			Birni kessang, o'nni ek.
2	SHaxsi umumlashgan garni toping.			Dars tugadi.
3	Bir bosh bo'lakli gaplarda asosan qaysi bosh bo'lak ishtirok etadi?			So'roqgap
4	SHaxsi ma'lum gapni belgilang.			Bog'lovchilar , ohang.
5	Atov gapni toping			SHaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, atov gaplar.
6	SHaxsi topilmas gapni belgilang.			Ertaga sizni ko'rgani kelaman.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping? Gapi ifoda maqsadiga ko'ra qanday gapligini belgilang.			Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.
8	Bir bosh bo'lakli gaplar nomi sanalgan qatorni toping.			Xonada chekilmasin.

9	Uyushiq bo'laklarni bog'lovchi grammatik vositalarni ko'rsating.			Kesim.
10	Aniqlovchi uyushib kelgan gapni belgilang			Kuz. Daraxtlar barglarini to'kib bo'lgan.

Blitsni tekshirish

№	Savoldlar mazmuni	Talabani ng javobi	To'g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Sodda yig'iqgapni toping.		2	Birni kessang, o'nni ek.
2	SHaxsi umumlashgan garni toping.		1	Dars tugadi.
3	Bir bosh bo'lakli gaplarda asosan qaysi bosh bo'lak ishtirok etadi?		7	So'roqgap
4	SHaxsi ma'lum gapni belgilang.		9	Bog'lovchilar , ohang.
5	Atov gapni toping		8	SHaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, atov gaplar.
6	SHaxsi topilmas gapni belgilang.		4	Ertaga sizni ko'rgani kelaman.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping? Gapi ifoda maqsadiga ko'ra qanday gapligini belgilang.		10	Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.
8	Bir bosh bo'lakli gaplar nomi sanalgan qatorni toping.		6	Xonada chekilmasin.
9	Uyushiq bo'laklarni bog'lovchi grammatik vositalarni ko'rsating.		3	Kesim.
10	Aniqlovchi uyushib kelgan gapni belgilang		5	Kuz. Daraxtlar barglarini to'kib bo'lgan.

5-ilova..Mustaqil ish asosida talabalar bilimni tekshirish va baholash.

Talabalar 1-2-3-variantlarga bo'linadi va har bir variant vakillari bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlariga misollar yozib ularni to'liq tahlil qiladir. Masalan:

Namuna: Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. (L. Bat.) Bir bosh bo'lakli gap. SHaxsi topilmas gap. Gapning egasini, bajaruvchisini kesimiga qarab aniqlashning imkoni yo'q.

6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash

- Yomon urug'dan yaxshi hosil kutma. Ushbu gap grammatik asosiga ko'ra qanday gap?
A) shaxsi ma'lum gap B) shaxsi topilmas gap C) shaxsi umumlashgan gap D) shaxsi noma'lum gap
- Ikki bosh bo'lakli gap qaysi qatorida?
A) Kulmoq hamisha umrni uzaytiradi. B) Har kuni sport bilan shug'ullaning. C) Paxtakorlik kasbini ulug'layapmiz. D) Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi.
- Shaxsi topilmas gapni toping.
A) Xalqimizning baxt-u saodati yo'lida xizmat qilishga tayyorman. B) Do'stini yomonlagandan qoch. C) Kiyimni bo'yga qarab bichadilar. D) Yaxshilikning qadriga yetish kerak.

4. Shaxsi noma'lum gapni toping.
 A) She'rda aql bovar qilmas sehr bor. B) Sharqda savdogarlarga alohida hurmat bilan qaraganlar. C) Go'zallikka boshqa yaxshi fazilatni qo'shishga intiling. D) Yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi.
5. Shaxsi ma'lum gaplarda egani anglatib turuvchi grammatik shakl asosan qaysi?
 A) fe'ldagi shaxs-son qo'shimchasi B) 1-, 2-shaxsni ko'rsatuvchi olmoshlar C) egalik qo'shimchasi D) kesimga berilgan so'roq
6. Navro'zingiz muborak! Mustaqil qo'llanuvchi bunday gaplar qanday gap?
 A) atov gap B) shaxsi ma'lum gap C) bir bosh bo'lakli gap D) to'liqsiz gap
7. Shaxsi umumlashgan gapni aniqlang.
 A) Aruz vaznining ohangini yurak urishiga o'xshataman. B) Birovning izidan gapirma, yuziga gapir. C) Zo'r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin. D) Farzandni gulga, onani bo'stonga o'xshatadilar.
8. Shaxsi topilmas gapni belgilang.
 A) Kiyimni bo'yga qarab bichadilar. B) Umr bo'yi bilimni boyitib borish lozim. C) Xalqimning baxt-u saodati yo'lida xizmat qilishga tayyorman. D) Do'stini yomonlagandan qoch.
9. Atov gapni toping.
 A) Haqiqatni yashirib bo'lmaydi. B) Ko'p yig'lasang, ko'zdan ajraysan. C) Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar. D) Bahor. Tog'lar, qirlar yashnab ko'rinadi.
10. So'z-gap qaysi qatorda bor?
 A) Hayot kitobiga hech qachon yakun yasab bo'lmaydi. B) - Bu gap esingdan chiqmasin. Xo'p, taqsir. C) - Ertaga teatrga borasizmi? -Yo'q, borolmayman. D) Avlod uchun otadan ham ulug'roq kishi bormi? - Bor.

7-ilova.Mashg'ulotni yakunlash. O'qituvchi mashg'ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma'lum qiladi, ularni rag'batlantiradi va to'plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg'ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

10- AMALIY MASHG'ULOT: Bir bosh bo'lakli gaplar To'liq va to'liqsiz gaplar. 2 soat

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da'vat bosqichi) (5 minut)	1.Tashkiliy qism.	1.Auditoriyaning sanitariya holati, davomat, mavzu, uyga berilgan topshiriqlar aniqlanadi, guruh jurnali rasmiylashtiriladi;
2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (70 minut)	1.Savol-javob asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash 2.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash. 3.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimini aniqlash va baholash.	1)talabalar « Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 1- ilovada berilgan savollarga javob beradilar, munozarada ishtirok etadilar; 2)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 2- ilovada berilgan mashqlarni bajaradilar, bir-birlarining javoblarini to'ldiradilar; 3)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning

	<p>4.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimini baholash va mustahkamlash</p> <p>5.Mustaqil ish asosida talabalar bilimini tekshirish va baholash.</p> <p>6. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash</p>	<p>turlari» mavzusi yuzasidan 3- ilovada berilgan namuna asosida o'z mustaqil ishlarini himoya qiladilar, munosarada ishtirok etadilar;</p> <p>4)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari.» mavzusi yuzasidan 4- ilovada berilgan blits savollariga javob beradilar;</p> <p>5)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» avzusi yuzasidan 5- ilovada berilgan mustaqil ishni amalga oshiradilar;</p> <p>6)talabalar «Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar, ularning turlari» mavzusi yuzasidan 6- ilovada berilgan test savollariga javob beradilar</p>
<p>3-bosqich. YAkuniy (Fikrlash bosqichi) (5 minut)</p>	<p>8.Mashg`ulotni yakunlash.</p>	<p>Mashg`ulot 7-ilovaga asosan yakunlanadi..</p>

1-ilova .Talabalar bilimi quyidagi savollar asosida aniqlanib va mustahkamlanib baholanadi:

- 1.Gaplar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 2.Bir bosh bo'lakli gap deb qanday gaplarga aytamiz?
- 3.Ikki bosh bo'lakli gap deb qanday gaplarga aytamiz?
- 4.Shaxsi ma'lum gaplarni misollar asosida tushuntiring..
- 5.Shaxsi noma'lum namlarni misollar yordamida izohlabbering.
- 6.Shaxsi umumlashgan gaplarni misollar bilan ifodalang.
- 7.Ikki boshbo'lakli gaplarning turlarini tushuntirib beting.
- 8.Sodda va qo'shma gaplarni izohlang.
9. Yig'iq va yoyiq gaplar xususida fikr yuriting.
- 10.Atov gap ded qanday gaplarga aytiladi?
11. To'liqsiz gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?
- 12.So'z gaplarni misollar orqali tushuntirib bering.

2-ilova.Mavzuga oid mashqlar orqali talabalar bilimini tekshirish va mustahkamlash:

326- mashq. O'qing. Gaplarning tuzilish jihatidan turini ayting, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. O'rtoqlar, biz farzandlarimizning tarbiyasiga qancha e'tibor bersak, ular shuncha odobli, aqlli va mohir bo'lib chiqadi. (*A. Mirahmedov.*)
2. Bizda har kim o'z taqdirini o'zi hal qilishi kerak, birovga qaram bo'lish, kimgadir bo'ysunish degan eskilik sarqitlari allaqachon barham ekan. (*J. Abd.*)
3. Uning betinim harakat qilayotgan epchil qo'llariga qaray-qaray Sattorovning ko'zlari tinib ketdi. (*S. Nazar.*)
4. Sen institutga tayyorgarlik ko'rasan, men esa dugonalarim bilan kolxozga ishga chiqaman. (*K. Abukov.*)
5. U biram chiroyli kularkanki, beg`ubor qalbi, samimiyligi xuddi shu kulgisida aks etib turgandek edi. (*S. Ahm.*)
6. Dengiz dovuli bilan mashhur, sahro — bo'roni bilan! (*J. Abd.*)
7. Haqiqiy turmush halol mehnatda ekan. (*M. Salom.*)

327-mashq. O'qing. Sodda gaplarni topib, tarkibiga ko'ra turini ayting. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplardan ikkitadan ko'chirib, farqini tushuntiring.

1. Vatan o'g'limizni o'z xizmatiga loyiq topibdi. Borsin. Hunar o'rganadi, mehnatda pishadi, tengdoshlari oldida yuzi yorug' bo'ladi. (*H. G`.*)
2. Kelmaydi. Mototsiklini patillatib Suluvingizning

oldiga ketdi. (*S. Ahm.*) 3. Men o'g'limning Vatan oldidagi burchi yozilgan bir enlik qog'ozni qayta-qayta o'qib, eshik oldida bir necha daqiqa turib qoldim. (*H. G`.*) 4. Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. (*L. Bat.*) 5. Birinchi bo'lib motorga o't berish bilan boshqalarni ham jadal ishga chorlaydi. (*J. Abd.*) 6. Daraxtzor hovlidagi skameykalardan birida Malika uch-to'rt xotin bilan suhbatlashib o'tirardi. (*H. G`.*) 7. Malikaning so'zlarini zaldagilar qarsaklar bilan kutib olishdi. (*H. G`.*)

328- mashq. O'qing. Yig'iq va yoyiq ikki bosh bo'lakli gaplarni aniqlang. YOyiq ikki bosh bo'lakli sodda gaplarni yig'iq gaplarga aylantirib ko'chiring.

1. Komiljon yangi ferma binosi ichidan chiqarilgan quvur oldida qazilayotgan ariqning narigi yuziga o'tib to'xtadi. (*I. R.*) 2. Haydar — montyor, Anorxon — zveno boshlig'i. (*I. R.*) 3. Axir, Vatanim bepoyon, keng-ku. Mirzacho'lda bilagimni shmarib men ishlamasam, kim ishlaydi!? (*B. Daminov.*) 4. Kechasi. Vaqt allamahal bo'lib qolgan... Erta-indin imtihonlar boshlanadi. Qecha-kunduz berilib kitob o'qiyman. (*SH. Siddiqov.*) 5. Tog' yo'li boshlandi. Pastak adirlar oralab ketgan kaftdek yo'l ilon izi bo'lib malla rang qirlar orasida yo'qolib ketardi. (*S. Ahm.*) 6. Hamma jimib qoldi. Odamlarning ko'z oldiga toshlarni Farhoddek qulatgan Rustamjonning pahlavon qiyofasi kelardi. (*S. Ahm.*)

329- mashq. O'qing. YOyiq sodda gaplardagi ega va kesim tarkibini ayting.

Dastlabki kunlar yo'l uncha mashaqqatli bo'lmadi. CHO'l o'tlari endi qovjirab kelayotgan bo'lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko'm-ko'k o'tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho'l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o'xshab uyulib qolgan qumtepalardan oshib yoki chetlab o'tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyur, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o'pkalarini yondirardi. (*M.Osim*)

o'rnini va intonatsiyasiga ko'ra qo'yilgan tinish belgilarini tushuntiring.

3-ilova.Uyda bajarilgan mustaqil ishlar asosida talabalar bilimni aniqlanadi va baholanadi:

Namuna: Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. (*L. Bat.*) Bir bosh bo'lakli gap. SHaxsi topilmas gap. Gapning egasini, bajaruvchisini kesimiga qarab aniqlashning imkoni yo'q.

4-ilova.Blits texnologiyasi orqali talabalar bilimni baholash va mustahkamlash

№	Savolllar mazmuni	Tala baning javobi	To'g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Sodda yig'iqgapni toping.			Birni kessang, o'nni ek.
2	SHaxsi umumlashgan garni toping.			Dars tugadi.
3	Bir bosh bo'lakli gaplarda asosan qaysi bosh bo'lak ishtirok etadi?			So'roqgap
4	SHaxsi ma'lum gapni belgilang.			Bog'lovchilar , ohang.
5	Atov gapni toping			SHaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, atov gaplar.
6	SHaxsi topilmas gapni belgilang.			Ertaga sizni ko'rgani kelaman.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping? Gapi ifoda maqsadiga			Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.

	ko'ra qanday gapligini belgilang.			
--	-----------------------------------	--	--	--

Blitsni tekshirish

№	Savollar mazmuni	Talabani ng javobi	To'g'ri javob	Javoblar mazmuni
1	Sodda yig'iqgapni toping.		2	Birni kessang, o'nni ek.
2	SHaxsi umumlashgan garni toping.		1	Dars tugadi.
3	Bir bosh bo'lakli gaplarda asosan qaysi bosh bo'lak ishtirok etadi?		7	So'roqgap
4	SHaxsi ma'lum gapni belgilang.		9	Bog'lovchilar , ohang.
5	Atov gapni toping		8	SHaxsi ma'lum, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan, atov gaplar.
6	SHaxsi topilmas gapni belgilang.		4	Ertaga sizni ko'rgani kelaman.
7	Xol uyushib kelgan gapni toping? Gapi ifoda maqsadiga ko'ra qanday gapligini belgilang.		10	Ochiqqan, toliqqan otliqlarga o'tgan-ketganlar hayron bo'lib qarashardi.

5-ilova..Mustaqil ish asosida talabalar bilimni tekshirish va baholash.

Talabalar 1-2-3-variantlarga bo'linadi va har bir variant vakillari bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlariga misollar yozib ularni to'liq tahlil qiladir. Masalan:

Namuna: Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarni qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. (L. Bat.) Bir bosh bo'lakli gap. SHaxsi topilmas gap. Gapning egasini, bajaruvchisini kesimiga qarab aniqlashning imkoni yo'q.

6-ilova. Test texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash

1. Yomon urug'dan yaxshi hosil kutma. Ushbu gap grammatik asosiga ko'ra qanday gap?
A) shaxsi ma'lum gap B) shaxsi topilmas gap C) shaxsi umumlashgan gap D) shaxsi noma'lum gap
2. Ikki bosh bo'lakli gap qaysi qatorda?
A) Kulmoq hamisha umrni uzaytiradi. B) Har kuni sport bilan shug'ullaning. C) Paxtakorlik kasbini ulug'layapmiz. D) Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi.
3. Shaxsi topilmas gapni toping.
A) Xalqimizning baxt-u saodati yo'lida xizmat qilishga tayyorman. B) Do'stini yomonlagandan qoch. C) Kiyimni bo'yga qarab bichadilar. D) Yaxshilikning qadriga yetish kerak.
4. Shaxsi noma'lum gapni toping.
A) She'rda aql bovar qilmas sehr bor. B) Sharqda savdogarlarga alohida hurmat bilan qaraganlar. C) Go'zallikka boshqa yaxshi fazilatni qo'shishga intiling. D) Yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi.
5. Shaxsi ma'lum gaplarda egani anglatib turuvchi grammatik shakl asosan qaysi?
A) fe'ldagi shaxs-son qo'shimchasi B) 1-, 2-shaxsni ko'rsatuvchi olmoshlar C) egalik qo'shimchasi D) kesimga berilgan so'roq
6. Navro'zingiz muborak! Mustaqil qo'llanuvchi bunday gaplar qanday gap?
A) atov gap B) shaxsi ma'lum gap C) bir bosh bo'lakli gap D) to'liqsiz gap

ME'YORIY HUJJATLAR
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TO'RISIDAGI QONUNI
(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda)
UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:
ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

4-modda. Bilim olish huquqi

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;

barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;

oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

6-modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmuilariga hamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun

majburiydir.

8-modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

II. TA'LIM TIZIMI VA TURLARI

9-modda. Ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta'lim turlari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

Boshlang'ich ta'lim (I—IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (I—IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mo'taxassislar tayyorlashni ta'minladi.

Oliy ma'lumotli mo'taxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mo'taxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

18-modda. Oiladagi ta'lim va mustahil ravishda ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustahil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'hitish va mustahil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

19-modda. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasalarida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mo'taxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varag'i ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning

hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo'yicha ishlash huquqini beradi.

III. TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH

20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

22-modda. Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash; boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish; qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash; davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash; davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; davlat grantlari miqdori va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash; davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash; ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini

belgilash; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

26-modda. Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi
Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mo'taxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar; o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar; ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi. Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

V. YAKUNLOVCHI XULOSALAR

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

31-modda. Ta'limni moliyalash

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro hamkorlik

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. A.KARIMOV

Toshkent sh., 1997 yil 29 avgust, 464-I-son

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida

N I Z O M

(Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Topshiriqqa muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.)

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

I. Umumiy qoidalar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashhulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – talabani fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabani bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun "Yozma ish" yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov)) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mo'taxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

7. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

8. Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

9. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

III. Baholash tartibi va mezonlari

10. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. har bir fan bo'yicha talabani semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda bo'tun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga – 30 ball;

joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

12. Talabani reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

13. Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

v) 55-70 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabani bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:
aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
bilmaslik.

14. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

15. Namunaviy mezonlarga muvofiq mo'taxassislik fanlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta'lim muassasalariga etkaziladi.

16. Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

17. Talabani bilim darajasi bo'yicha bir semestrda quyidagicha aniqlanadi: bu erda:

V– semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

_ –fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

18. Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55 va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan balning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi balni to'plagan talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

19. Talabani bilim darajasi bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o'tkazish muddati

20. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

21. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

22. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

23. Talabani bilim darajasi bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarini har biri bo'yicha saralash ballidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

24. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

25. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

26. Talabani fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabani saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

27. har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

28. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarning fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

29. Talabani reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabani semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yihindisi orqali aniqlanadi.

30. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

31. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

32. Talabalarning nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

33. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

34. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

35. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

36. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi, Davlat soliq qo'mitasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.



Muallif haqida ma'lumot

Amirqulova Zebuniso Mustafokulovna 1977 йил 12 avgustda Termiz shahrida tug`ilgan. Millati o`zbek. Ma'lumoti oliy 1999 yili Termiz Davlat Universiteti Filologiya fakulteti, ona tili va adabiyot bo`limini tamomlagan.

2002 yil 29 avgustdan Termiz davlat universitetining Pedagogika fakultetida ishlab kelmoqda

30dan ortiq ilmiy-uslubiy maqola muallifi.

Hozirgi kunda Termiz Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi o`qituvchisilavozimida faoliyat ko`rsatmoqda.

1-SEMESTR TUGAYDI.

“Ona tili va adabiyot” fanining adabiyot qismi boʻyicha ma`ruza ishlanmalari.

II semestr

1- Mavzu: Gʻafur Gʻulomning bolalar uchun yozilgan sheʼrlarida ilgari surilgan gʻoyalar.Gʻafur Gʻulomning nasriy asarlari oʻzbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.Gʻafur Gʻulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi.

Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir shehrlardagi musiqiylik. Q.Muhammadiy sheʼriyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning oʻrni hamda ahamiyati.

Reja:

1. Gʻafur Gʻulom ijodida bolalar folklori.

2. Yozuvchi hikoyalarida tarbiya va axloq masalasi
3. “Tirilgan murda” asarida mehnatning tarbiyaviy ahamiyati.
4. “Mening o’g’rigina bolam” asarining yaratilish tarixi.

G’afur G’ulom ijodida bolalar folklori. G’afur G’ulom bolalar adabiyotining ravnaqiga katta hissa qo’shgan ijodkorlardan. O’zining mehnat faoliyatini pedagoglikdan boshlagan shir umrining xirigacha qalban yeng jonkuyar pedagoglardan biri bo’lib qoldi. U yosh avlodni, kelajak farzandlarini juda sevardi va bu sevgisini bolalar haqida yozilgan asarlarida yuksak muhabbat va cheksiz mahorat bilan ifodaladi. Uning “Bilib qo’yki, seni Vatan kutadi”, “Charog’larim, qarog’larim”, “Nortojining kurak tishi”, “Yasha deyman o’g’lim” kabi she’rlari bolalar she’riyatining yuksak namunalari xisoblanadi. Shuningdek, «Shum bola» (1934), “Tirilgan murda” (1934), “Yongor”(1935) kabi qissalari bilan ham bolalar adabiyotini boyitdi. Xususan, 4-sinf “O’qish kitobi” darsligida berilgan she’rlari, topishmoqlari o’quvchilar qalbidan o’z o’rnini topgan. Shoirning “Oq terakmi, ko’k terak” she’ri mudom boshlang’ich sinf o’quvchilariga zo’r quvonch ulashib kelmoqda. She’rning mazmuni o’quvchilarning yoshiga, qiziqishiga mos. Shoir so’zlarni mahorat bilan qo’llagan, xatto bolalarga qo’yilgan bo’taloq, qizaloq, toychoq, qo’zichoq kabi laqablar jonli tilga yaqin bo’lgani uchun hech kimni ranjitmaydi, aksincha, she’rning xalqchilligini ta’minlagan. Sodda va ravon misralar bola ongiga oson o’rnashib qoladi, qalbni sho’x o’yinlarga, go’zal tuyg’ularga to’ldiradi. She’r satrlari bolalikning sho’x va beg’ubor olamiga hamohang jaranglaydi:

Keling qo’shiq aytamiz
 Qo’shilishib hammamiz.
 Oq terakmi, ko’k terak,
 Bizdan sizga Kim kerak? Hey!
 Akbar bo’taloq, kerak. Hey!

O’quvchilarda dunyoqarash, mustaqil ijodiy fikrlashni takomillashtirish davr talabi bo’lib turgan bir paytda shoirning “Buni toping, qizlarim” topishmoq she’ri o’quvchilarni ziyrak, topqir va zukko bo’lishga undaydi:

To’ni silliq, tuki yo’q
 Hammasi to’q, puchi yo’q
 Ichi qizil, ko’ki yo’q,
 Uni cho’qolmas chumchuq,
 Bu nima qizim Qunduz?
 Bumi dadajon....(tarvuz)

Topishmoq she’r shu tarzda davom yetadi. Har bir topishmoq o’quvchini teran fikrlashga, o’ylashga, mulohazaga chorlaydi. Bu yesa albatta, bolaning dunyoqarashini, mustaqil ijodiy fikrlashini o’stiradi. Shoir umrining oxirigacha ham bolalar uchun yozishni yeng faxrli ishlardan biri deb bildi, matbuot sohalarda uning bolalarga atalgan asarlari muntazam bosilib turdi.

Yozuvchi hikoyalarida tarbiya va axloq masalasi. G’afur G’ulomning pedagogik qarashlari bugun milliy pedagogikamiz merosimiz tarkibiy qismiga aylandi. Unda bolalar xulqidagi zararli odatlarni bartaraf yetishga oid fikrlar haqida o’tgan asrning 20 – yillaridayoq bong urilgan yedi. Adib ijodiga nazar tashlar yekanmiz, u o’z davrida bolalar orasida zararli odatlarning kuchayib borayotganligidan aziyat chekadi. U zararli odatlarning kelib chiqish sabablarini bolalar yashayotgan muhitning o’zidan izlaydi. Uning fikricha, “maorif tizimi pillapoyalarida o’tirgan mansabdorlarning aybi bilan minglab bolalar umumta’limga jalb yetilmay qolmoqda”.

... Maorifning vakillari
 Qalandarday tentirab,
 Eshiklarni qoqadi –
 Rasmiyat
 Faqat,...
 ... Minglab-minglab Ahmadjon
 Rasmiyatdan ishga o’tish
 Muddatiga boqadi...

Ma'lumki, o'tgan asrning 20-30-yillarida milliy nizolar, urush, qurg'oqchilik tufayli sobiq shurolar davlatida yuz minglab bolalar boqimsiz qolgan yedi. Natijada mamlakatda bolalar qarovsizligi avjiga chiqdi. Maktab, oila nazoratidan chetda qolgan minglab bolalar zararli odatlarni "ko'cha maktabi"dan o'rganib oldilar. Bolalar qonunbuzarligining g'oyat kuchayishi davlat va keng jamoatchilikni tashvishga soldi. Shuning uchun shoir bunday boqimsiz bolalar taqdiridan tashvilanib, "Taklif qilaman" she'rida shunday degan yedi:

Shu yoshgina o'spiringa qarangiz:

"Yosh boshidan kashanda,
qanday orsiz, sharmanda,
bobosiday ko'ksovlanar,
ko'p yesiz!" –deyarsiz...
...Haligacha
Maktab, o'qish unga yot...

Adib o'z asarlarida zararli odatlar inson tanasi uchun hech bir zarurat yemasligini ta'kidlaydi. Jumladan, spirtli ichimliklar, ko'knor, tamaki, nos, nasha, qora dori iste'mol qilish g'oyat zararli ekanligidan yoshlarni ogoh yetadi. Bunday zaruratsiz narsalarni iste'mol qilish, ularga organizmni o'rgatish oxir-oqibatda inson sog'lig'ini izdan chiqarishini ta'kidlaydi. Surinkali zararli odatlarni o'ziga hamroh yetgan kishi kelajakda bunday odatlardan qutilish imkonini topolmay qolishidan ogoh yetadi. Shoir ye'tirof yetadiki, alkogol qonga so'rilar yekan, u oilani, milliy urf-odatlarni buzadi. Inson uning quliga aylangach, u o'z hukmini o'tkaza boshlaydi: kishini or-nomusdan ajratadi, ishida baraka bo'lmaydi:

Alkogol
Bizning qonlarga
Va ro'zg'orlarga...
...urf-odatlarga
uylanib,
ichkuyov,
ya'ni yov
bo'lib
kirmishdir.
Alkogol-
Bizlar qul,
Ruhan tushkun,
Uzvan tutqun,
Rizqimiz jigarxun...

Shoir "Nortojining kurak tishi" she'ri bolalar hayoti va tarbiyasiga juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalaga bag'ishlanadi. "...chollar kabi kemshik", "...oldingi kurak tishida bir hafta burungi ovqat qoldig'i" sasib qulansa hid tarqatib yurgan, og'zi va tishlarini chayish o'rniga «ko'cha-kuylarda chang tuproq kechib» yuruvchi "lunjlari olmaday shishgan" olti yoshli Nortojining kulgili obrazini yaratadi:

Oldingi to'rtta kurak tishining
Sog'i yo'q – hammasi chirik, darz ketgan.
Ba'zisi juda past, ba'zisi baland,
Ba'zisi lab yular-misli tikan.
Nortoji o'zi sho'x, yerinchoq bola-
Yuzini haftada arang yuvadi.
Ko'cha ham kuylarda chang tuproq kechib,
"Olapar", "To'rtko'z"ni doim quvadi.

Nortoji obrazini yaratishda yumordan juda samarali foydalanadi. Favqulotda bolalarning diqqatini jalb yetish, ularda yengil kulgi qo'zg'atish uchun bolalarning tabiatiga mos badiiy usulni o'ylab topadi. Nortoji tabiatidagi ba'zi qusurlarni tanqid qilish uchun shoir uning og'ziga o'rtoqlarini "ekskurtsiya" qildiradi:

Bolalar birma-bir tekshiradilar:
Voybayov...bunisin qarang, o'rtoqlar!
Tishlarda istagan narsa topilar:
Jiydami, o'rikmi, pista po'choqlar,

Natijada Nortoji tish og'rig'iga muhtalo bo'ladi. Shoir poetik va didaktik xulosa chiqarishda yesa bolalar adabiyoti uchun yeng muhim bo'lgan pedagogik talabga amal qiladi, ya'ni Nortoji o'quvchi ko'z o'ngida tuzalgan holda ko'rsatadi. Xuddi ana shu yerda ozodalik, gigiena qoidalariga rioya qilishning muhim ahamiyatini bolalarga singdiradi.

Endi Nortojoyning tishlari durday;
Og'riqni, sasishni bilmaydi, toza,
Har kimki, tishini tozalab tursa,
Joni orom olur, o'zi pokiza.

Shoir she'ring ta'sir kuchini oshirish uchun, chiroyli uxshatishlarni, qochiriq va mubolag'alarni, ta'sirchan obrazlarni topib ishlatadi. Nortoji obrazi tabiiy, beg'ubor, bolalar qalbiga to'g'ri yetib boradigan darajada hayotiy chiqqan.

“Tirilgan murda” asarida mehnatning tarbiyaviy ahamiyati. G'afur G'ulomning “Tirilgan murda” asarida jamiyatga dog' bo'lib tushadigan dangasalik bilan mehnat o'rtasidagi kurash asosida mehnatning tarbiyalovchi qudrati tasvir yetiladi. Muallif ijodiy maqsadini Mamajonning boshidan kechirganlari va uning o'z tomonidan yozilgan kundalik sahifalari vositasida, kulgili tarzda hikoya qiladi. Asar prolog va yepilogdan tashqari, olti fasldan iborat bo'lib, ularda mulla Mamajonning 1925-yildan to 1933-yilgacha o'tgan davrda boshidan kechirganlari yozilgan. Asarda G'.G'ulom o'z qahramoniga “so'z” berib, uning o'ziga xos xarakterini yaratadi.

Ishyoqmaslik va yalqovlikda afsonaviy dangasalarni ham “bir cho'qishda qochiradigan” mulla Mamajonning bugungi kunda mehnatkashlarning ijobiy ta'sirida asta-sekin yalqovlikni tashlab, ilg'or mehnatkashga aylanganligini hayotiy, tipik sharoitda, hajviy va kulgili ifodalarga boy lavhalarda ko'rsatiladi. Mamajon timsoli asta-sekin o'sib, izchil xarakter darajasiga ko'tariladi.

Adibning “Tirilgan murda” asari ikki qismdan iborat. Ikkinchi qismda uning jamoa xo'jaligiga kirishi va qayta tarbiyalanishi, farovon hayotga yerishishi tasvirlanadi.

Yozuvchi Mamajonning yalqovligi va yerinchoqligini chuqurroq ochish uchun, avval uni “Ming bir kecha” ertaklaridagi Abutanbalning yalqovligi bilan taqqoslaydi: “Xo'sh desangiz, Bag'dod degan shaharda Abutanbal degan bir yalqov yigit o'z onasi qoshida yashar yekan. Abutanbal hech qanday ish qilmas yekan. Onasi topib kelgan ovqatni chaynab og'ziga solsa ham yutgani yerinar yekan. Doimo yonboshlab yotar yekan-u, o'midan turishga hafsalasi kelmas yekan. Mabodo qo'ltig'idan ko'tarib, tika turg'izib qo'ysangiz, qadam qo'yishga botinolmas, zo'rlab qadam qo'ydirgan chog'ingizda ham, oyoqlari bir-biroviga chalishib yiqilar yekan...” Mamajon sarguzashtlarining uning o'z tilidan so'zlatilishi bolalarga asar g'oyaviy mazmunini yaxshi tushunishga va ularning qiziquvchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Mamajon shu qadar yalqovki, u otasi yekib ketgan yarim tanobcha yerdagi jo'xorini qayirib olishga va buni pishirib tiriklik o'tkazishga ham yerinadi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: “Qaddimni ko'tarishdan ko'ra chollarning koyishlarini yeshitish osonroq ko'rinar yedi”. Xatto, yurishga ham hafsalasi kelmagan yalqov Mamajon birdaniga ilg'or mehnatkash bo'lib qolmaydi. Davr voqeligi, mehnatning shon-sharaf va qahramonlik ishiga aylanib, yalqovlikning tag-tomiri bilan yemirib tashlanishi Mamajon ongida illatlarni yo'qotib, uning o'zgarib borishida haqqoniy, aniq va hayotbaxsh kuch rolini o'taydi. Mamajonni mehnatga jalb qilishda yaxshi odamlarning ko'rsatgan ijobiy namunalari Sattorqul obrazida mujassamlashtiriladi.

“Sattorqul akam qo'yarda-qo'y may shudgorga olib chiqdi. –Bas yendi, yotaverma. Sal mehnatga ham qayish. Ranging joyiga kelib qolibdi. To'lishibsan. Yur men bilan, -dedi. Erinib uning ketidan keta boshladim. U qo'sh haydadi. Men otboshi yetakladim. Shudgor odamlar bilan to'la yedi: birisi haydayotir, birisi mola bsayotir, boshqalari ketmon chopayotir. Bunday jo'shqin hayot, daladagi qaynoq mehnat sururi Mamajonda asta-sekin mehnatga havas tuyg'usini uyg'ota boshlaydi.

Mamajon yalqovlikdan, qoloqlikdan qutilib, ilg'or ongli mehnatkashga aylanadi. Uning qayta tarbiyalanishida jamoa va yerkin mehnat katta rol o'ynaganligi haqqoniy ravishda tasvirlab berilgan.

Yozuvchi bu obraz orqali mehnatsevarlik g'oyalarini ilgari suradi. Asarning tuzilishi o'ziga xos, qiziqarli, tili ravon va soddadir. Mamajon tushida ko'rgan ayol: "G'unchaday tugilib kelgan qip-qizil lab, havoda uchib yurgan qaldirg'ochning muttasil qanotiday payvasta qora qosh, sochlarining uchi qung'iroq boylanganday jingalak, yuzlari atirgulga o'xshagan tiniq pushti rang" tarzida chizilgan.

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining yaratilish tarixi. Yozuvchi asarlarini yaratida turli tasviriy vositalar, o'xshatilar, so'z o'yinlari va iboralardan foydalanadi. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi yuqoridagi ta'riflarga mos keladi. Hikoyada yozuvchi yosh o'spirin bola tilidan gapiradi, hikoyaning qahramoni ham shu o'spirin bola. Voqea bir kichik oilada, bir kechada bo'lib o'tadi.

Kuz oqshomlarining birida hamma tinch uyquda yedi. Shu payt ularnikiga o'g'ri keldi. U tomдан yurib kelayotgan vaqtda aksa urib yubordi. O'y va xayol og'ushida bedor yotgan kampir o'g'rini sezib qoladi. Ular keyin uzoq vaqt urush haqida hayot haqida suhbatlashib o'tirishadi. Tong yorishay deb qolganda o'g'ri hech kim uni tanib qolishini istamay, hech narsa ham olmay jo'nab qoladi.

"Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan ham bor yekanda dunyoda? Ertaga o'rtoqlaringa toza maqtanadigan bo'ldim-da: "Bizning uyga o'g'ri keldi". G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan?

Bunday fikrlash ham bolalarga xos bo'lgan odat, chunki uyga o'g'ri kirsam hech kim xursand bo'lmaydi. Bu bechora bola yesa shu voqeani do'stlariga aytgisi, bu bilan u o'zlarining unchalik darajada qashshoq yemasligini, uylarida nimadir borligini aytib maqtangisi kelar yedi.

Ana turkiy tilning jilvalari, ana o'zbek atlasidek kamalak bo'yoqlar, ana milliy ohanglar, ana ruhiy yevrilishlar, ana oddiy xalq qalbining manzaralari. Adib qalamining mo'jizasi shu qadar sehgarki, bizning bolalik ruhimizga, qonimizga, suyak-suyagimizga singib ketgan.

Yomonlik, qabihlik ma'nosini anglatuvchi "o'g'ri" so'zi buyuk shoirning mahorati bilan "o'g'rigina" bo'lib, mehrga yo'g'rilib, vaqtincha o'zining asl ma'nosini ham unutib, bedor yotgan kampirga qo'shilib, tom bo'g'otida turgan o'g'riga rahmimiz kelib: chin yurakdan shu qozonginani olib ket, quruq ketma!" deb yalina boshlaymiz. "O'g'rigina bola"dan nafratlanish o'rniga, unga mehrimiz tovlanadi. "O'g'rigina"ga rahmimiz kelib, quruq qaytarmaslik uchun berib yuborishga ro'zg'ordan arzigulik biror buyum qidiramiz.

Bir soatda aytib turib yozdirilgan, tahrir yetilmagan, sayqal ko'rmagan bu asar, agar dunyo hikoyalarining yeng nufuzli antologiyasi tuzilsa, o'sha majmuaning gulto'ji bo'lishiga, shubha yo'q yedi.

Yangi davr, sovet davri o'zbek adabiyotining tug'ilishi va shakllanishida ulushini qo'sha olgan adiblardan biri G'ayratiy Abdurahim Abdulla o'g'lidir. U 1902 yilda Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida dunyoga keldi. Uningotasi o'qimishli, adabiyotga qiziqqan kishi bo'lgan. Onasi yerta qazo yetgan bo'lib, yosh Abdurahim mahalladagi Oyimxon aya qo'lida tarbiya topadi. Uning adabiyotga qiziqishi ham aya aytgan ertaklar orqali paydo bo'ladi. 1912-1915 yillarda u avval yeski maktablarda, so'ng madrasalarda tahsil oladi. Shu yillarda u Navoiy, Muqimiy, Furqat asarlari bilan ilk bor taninishadi. Oktyabr to'ntarshidan so'ng Toshkentdagi (Xadra) «Namuna» nomli maktabning o'qituvchilar tayyorlash kurslarida o'qiydi, so'ng xalq maorifi sohasida ishlaydi. Bo'lg'usi adibuning ilkshe'ri 1921 yilda «Bolalar haftasi» nomi bilan «Qizil Bayroq» gazetasida bosilib chiqadi.

1926 yilga kelib Abdurahim - G'ayratiy Ozarbayjonga borib, Bokudagi bilim yurtida o'qiydi. U yerdqa M. Urubodiy, M. Mushfiq, S. Rusthamiy, J. Jabboriy kabi taniqli adiblar bilan tanishadi va muloqotda bo'ladi. Bokudan qaytgach, Toshkentdagi muzikali drama teatrida adabiy yemakdosh bo'lib xizmat yetadi. 1929-1931 yillarda O'zbekiston Davlat nashriyotida muharrir va bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydi. Uning birinchi she'riy to'plami 1927 yilda «Erk tovushi» nomi bilan nashr yetiladi. 1928 yilda «Yashash taronalari» she'riy to'plami», «Qutilish» nomli hikoyalar to'plami chop yetiladi. She'riy to'plamga kirgan «She'rim», «Shoir», «Tanburchi qizga», «Mening tuyg'ularim» kabi she'rlarida shoirning dunyoqarashi gavdalanadi, shuningdek, uning «Temp» (1932), «Olov tanlar» (1938), «Sevgi» (1939), «Oltin yoshlik» (1940) kabi she'riy to'plamlari hamda «Onamga xat» (1933), «Jinasta» (1935) kabi poemalari yaratildi. G'ayratiy Ulug' Vatanurushi va urushdan keyingi yillarda ham barakali ijod qildi. U Furqat va Hamza kabi ustozlari («Shoirning o'limi», 1957) haqida poemalar yaratdi. «Tepalik mozor» (1956), «Hilola», «Sababi tiriklik» (1958), «Maxsum qochdi» (1960) kabi hajviy hikoyalar ham yaratdi. «Dovdirash» nomli hajviy hikoyalar to'plami nashr yettirdi. «Tanlangan asarlar»i (1958, 1972) chop yetildi. 1972 yilda G'ayratiyga O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi. U 1979 yil 22 yanvarda vafot yetdi.

Biroq, uningijodi hozirgi davr taqozosiga ko'ra tanqidiy o'rganishni talab yetadi. Sabab, oldingi zamonning ko'p hollarda u maddohi ham bo'lib qolganligi hech kimga sir yemas.

Savollar

1. G'afur G'ulom ijodida folklor.
2. Yozuvchi asarlarida tarbiya va axloq masalasini talqini.
3. "Tirilgan murda" asarida ilgari surilgan g'oyani tushintirib bering.
4. "Mening o'g'rigina bolam" asaridagi milliylik.

Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir shehrlardagi musiqiylik.
Q. Muhammadiy she'riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o'rnini hamda ahamiyati.

Reja:

1. Shoirning qisqacha tarjimai holi.
2. «O'quvchiga yesdalik» to'plami.
3. Shoir ijodida a'lo o'qish, a'lo odobga da'vat.
4. Shoir tabiat kuychisi.

1907-yil. Toshkent shahrida dehqon oilasida dunyoga keldi. o'rta Osiyo Davlat universitetining biologiya fakultetini tugatdi,

Dastlabki she'rlari «Sharq haqiqati» gazetasi hamda «Yer yuzi» jurnallarida chop yetildi.

1936—37-yillar. «Sandal va pechka», «O'z-o'zini tanqid» dostonlari yozildi.

1941—44-yillar. Mashhurbaxshilomsboirgakatoblikqildi.

1947-yil. «Sinov» to'plami nashr yetildi.

1948—51-yillar. «Orzu keldi», «Bahor keldi», «Dunyoda yeng kuchli nima?», «Qirq o'g'il va qiz» kitoblari chop yetildi.

1952—1956-yillar. «Bizning do'stlarimiz», «Yangi uy», «Sen tug'ilgan kun», «Mehribon do'stlar», «Qo'ng'izboy bilan sichqonboy», «Tugmacha» to'plamlari nashr qilindi.

1957—1970-yillar. To'rt kitobdan iborat tanlangan asarlari, «Tabiat alifbosi», «Ochil dasturxon» asarlari nashr qilindi.

1970-yil. Respublikada Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

1977-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.

1997-yilda vafot yetadi.

Quddus Muhammadiy 1907-yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. U dastlabki ma'lumotni o'z otasidan oldi.

1925 yilda otasi vafot yetgach, Quddus Muhammadiy avval amakisi qo'lida, so'ngra yesa maktab-internatda tarbiya oladi. Internatda Q. Muhammadiyning birinchi she'ri "Chuvalachi" maydonga keladi.

U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo'jalik texnikumiga o'qishga kiradi. Bu yerda u bolalar uchun. sherlar yoza boshlaydi. Uning «Tong o'yini», «Paranji», «Ahmad va asarlari», «Seleksiya stantsiyasi» nomli she'rlari yuzaga keladi.

Quddus Muhammadiy sofdil, alochi o'quvchi bolalarni samimiy sevadi. «O'quvchiga yesdalik» to'plamida bunday bolalarni maqgaydi.

«Bizning uyda», «A'lochi Sodiq», «Sinov», «Mening orzum», «Yasha, Omon!», «Besh», «Solijonning darsxonasi» va boshqa sherlari a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb yetadi. A'lo o'qish, tinmay mehnat qilish bilangina ilm-fanni egallash mumkin ekanligini shoir bu she'rlari orqali bolalar qulog'iga quyadi.

Quddus Muhammadiy ijodining yana bir muhim qirrasini satirik va yumoristik asarlari bilan bog'liq. «Nomsiz yerkatoylar haqida», «Dum», «Ahmadjonga uyat», «Lapashang», «Ravshanjonning qo'li tilga kirdi» kabi ko'plab she'rlari bolalar xarakteridagi yaramas odatlar ayovsiz tanqid qilinadi.

Shoir ijodiga nazar tashlasak, mehnatga muhabbat mavzui alohida o'rin tutishini aytish mumkin. «Bobomning mehnati», «GES qurilishi», «Mirob», «Bu binoni kim qurgan?», «Etik», «Madraim payvandchi», «Mamajon shofyor» va boshqa yana shu kabi narsa she'rlarida mehnat simfoniyasi jaranglab turadi. Bu yerda shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, mehnat ahlini sevish, ularning bunyodkor ahlini qadrlash birinchi o'rinda tasvirlanadi.

«Etik» she'rining qahramoni Solijon degan bola. U hali kichkintoy bo'lishiga qaramasdan mushohadasi o'tkir, odobli. U o'rdak burunli kavkazcha yetagiga gard yuqtirmayda». Shunga ko'ra olifta bola yekan, deb ham o'ylash mumkin.

Shoir Solijon bilan uning yetigi orasidagi munozaraga diqqatni qaratadi. Etik o'zining chiroyliligini ko'z-ko'z qilmoqchi bo'ladi.

Ko'p chiranma husningga,
Rahmat deb qo'y bir marta
Seni tikkan ustangga.

Solijonning «o'rdak burunli kavkazcha» yetigini «puf-puflab» kiyib yurishi - uning tikilishiga sarf qilingan mehnatni yaxshi bilishidan, ye'zozlashidan. Bolalar tabiatan olam va odam sirlarini bilishga astoydil qiziqadi.

DUM

Bir maktabda gap mish-mish,

Turg'unning dumi bormish.

Xo'sh, bu ajab, qanday dum,

Hech kimda yo'q bu udum?!

Bilsam voqea o'zga,

Ilinmas qo'lga, ko'zga.

„Ikki" degan oti bor,

Na o'zi, na zoti bor.

Turg'unning bilim qarzi,

Sudralishi dum tarzi.

Ro'dapo achchiq ichak,

Ong uyida o'rgimchak.

Dum deya ko'rmang zinhor,

Dum sha'niga nomus-or.

Hayvon, qushlar sezmasin,

Turg'unjondan bezmasin,

Ular dumi foydalik,

Ish berar qoidalik.

Har birin o'ziga xos,

Qaddiga kelishgan mos.

Qushcha uchmoq-qo'nmoqqa,

Molga chivin qo'rmoqqa.

Hasharotga tig'-yarog',

Yilqiga cho'tka-taroq.

Dum borki qaysi jonda,

Ishi bor har maqomda.

Ammo Turg'un dumi-chi,

Na boshi bor, na uchi.

Ey, Turg'unjon, ko'zing och,
Dum — „ikki"ngga qil iloj!

Savollar:

1. Q.Muhammadiy davr kuychisi (««Etik»», «Dum», «o'rdak burunli kavkazcha »)?
2. Q.Muhammadiy ijodida a'lo o'qishga da'vat?
3. Shoirning hajviy asarlari.

Adabiyotlar:

1. I.Ahmedov va b. Bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1993 y.
2. A.Suyumov, M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1994 y.
3. M.Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.
4. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995 y.

2-mavzu: Zafar Diyorning hayoti va ijodi. Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g'oyalar.Zafar Diyorning she'riy asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi. Shukur Sa'dulla hayoti va ijodi. Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyligi.

Reja:

1. Shoirlarning qisqacha tarjimai holi.
2. Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi
3. Zafar Diyor ijodida tabiat manzaralarining ifodalanishi.
4. «Qushcha o'g'risi» she'rida Qosim obrazi.

Butun hayoti va ijodini kichkintoylarga baxshida etgan Zafar Diyor bolalarning kitobxonligini oshirish maqsadida ularga murojaat qilib, shunday degan ekan:

— Ilm o'rganish eng mo'tabar ishdir. Ilm odamning qadrini oshiradi, ilmli kishilar dunyoda eng izzatli, hurmatli bo'ladilar. Ilm dunyoda odamlar uchun eng sevimli, eng shirin ne'matdir. SHunday ekan, siz dunyoda rohatda yashashni istasangiz, hamma meni sevsin desangiz, bor kuchingiz bilan o'qishga, ilm olishga g'ayrat qiling.

Bolalar! O'qing, darsga ixlos qo'yib o'qing, foydali kitoblardan foyda va lazzat olish uchun o'qing. Kishining eng aziz, eng shirin va eng qimmatli vaqti yoshlik davridir. SHunday qimmatli yoshligingizni, aziz umringizni foydasiz ishlarga sarf qilmang, kitob o'qing, faqat kitob o'qing!

Zafar Diyor 1912- yilda Namangan viloyatining CHust tumani, Samsoqtepa qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. 1916-yilda Zafarlar oilasi Toshkent shahriga ko'chib keladi. Zafarning otasi dalada, onasi esa bosmaxonada mehnat qiladilar.

1927- yilda Zafar to'liqsiz o'rta maktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumda ko'proq ilm-fan sirlaridan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Uning dastlabki she'riy mashqlari bilim yurti devoriy gazetasi sahifalarida ko'rina boshlaydi.

Yigirmanchi yillarning oxiri va o'ttizinchi yillarning boshlarida uning yoshlar gazeta va jurnallarida ilk she'rlari chop etila boshladi. Zafar Diyorning birinchi she'ri yosh shoirlarning «Qurilish kuylari» degan to'plamida bosilib chiqdi. Ko'p o'tmay uning birinchi she'rlar to'plami

«Qo'shiqlar» nomi bilan 1933-yilda nashr etildi.

Yosh shoir 1933- yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgach, o'qituvchi bo'lib ishlay boshladi. Bu hol uning maktab va bolalar hayoti bilan yaqindan tanishishida, yosh avlod hayoti haqida yozadigan asarlarining hayotiy va puxta bo'lishida ijobiy o'rin tutadi.

1934-yilda Zafar Diyor Samarqanddan Toshkentga qaytadi va hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida adabiy xodim, keyinroq esa mas'ul kotib bo'lib ishlay boshlaydi. SHu bilan birga, u hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetining til va adabiyot fakultetiga kirib, o'qishni davom ettiradi. O'zbek hamda qardosh xalqlar yozuvchilarining asarlarini qunt bilan o'qiydi, o'rganadi.

O'sha yillari gazetada Zafar Diyor bilan birga ishlagan yozuvchi Hakim Nazir o'z esdaliklarida shunday yozadi: «Men Zafarni o'ylasam uni nuqul shod-hurram bolalar qurshovida, quvnoq chehrasidan nur taralib, sertabassum lablaridan she'r durdonalari yog'ilyotganday ko'raman. CHindan ham, u bolalarga juda yaqin edi. Maktablar va bolalar uylarida, kutubxona va bog'chalarda bot-bot bo'lar, yosh kitobxonlarga yangi-yangi she'rlarini bolalarcha muloyim, sodda, shirali ovoz bilan o'qib berar, ayrim she'rlarini yoddan ifodali o'qir, bolalarga ham she'r o'qitib eshitardi. SHunda u o'zining qaysi she'rlari bolalar ko'rigidan yaxshi o'tganini, qaysi she'rni ko'proq sevib qolganlarini ko'rar, bolalarga yoqtirish uchun qanday she'rlar yozish lozimligini fahmlab olardi. «Biz bolalarga nuqul o'rgatibgina qolmay, ulardan o'rganib ham turishimiz kerak», derdi.

Zafar Diyor 1935-yilda dastlabki mashhur asarlaridan biri bo'lgan «Mashinist» dostonini yaratdi. Dostondagi Ashur obrazi baxtiyor yoshlarning fazilatlarini umumlashtirishga bag'ishlangan.

Maktabda o'qish Ashurni hunarli qilish bilan birga, uning ongi va tushunchasini ham o'stiradi.

U vatanga sadoqatli, har doim olg'a intiluvchi ilg'or yoshlardan biri bo'lib yetishadi.

SHuning uchun doston qahramoni o'z umrini Vatan yo'liga tikishga tayyor turadi:

Sevinaman, hali yoshman, ko'p
yashayman, Bu o'lkaning saodati - baxti
uchun.

Yana o'qib, yana kulib ko'p ishlayman,
SHu ko'plarning biri bo'lib, o'lkam uchun,
Ha! Mamlakat, shunday va'da beray senga:
Butun umrim sening porloq hayotingga!

Asar yoshlarning ilm-fanga, kasb-hunarga, ona-Vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan sug'orilgan.

Zafar Diyorning o'ttizinchi yillar ijodi vatanparvarlik, baynalmilallik va mehnatsevarlik tuyg'ularini aks ettiruvchi asarlarining ko'pligi bilan xarakterlidir. Bu xil asarlar yoshlar xarakterini shakllantirishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

SHoir ijodidagi muhim mavzulardan biri inson va tabiat munosabatidir. Bu jihatdan uning

«Binafsha», «Navbahor», «Qushlar haqida qo'shiq», «Kapalak» singari she'rlari ahamiyatlidir.

Rang-barang gullarni, turli-tuman qushlarni sevgan shoir bolalar ruhiyatini chuqur tahlil etib, ularni ham ona tabiatni sevishga va parvarish qilishga ruhlantiradi. SHoir bolalarda qushlarga muhabbat hissini uyg'ota oladigan quvnoq vazn, o'ynoqi misralar yaratadi. SHu maqsadda so'zlarning xilma-xil takroridan, misralarni esa mayakovskiychasiga tizib, tasvirning ohangdorlik jarangini, kuchini yanada oshiradi:

Hoy qushlar,qushlar,qushlar,
Qanot qoqib kelinglar,
Sa'va,mayna,bulbullar.
Sizga termular
ko'zlar... Bizga ortiq
yoqadi Quvnoq qo'shiq-
kuyingiz!

1.3.1. («Qushlar haqida qo'shiq»)

SHoir bolalarning tabiat hodisalariga, hasharot-u jonivorlarga, ayniqsa, kapalakka qiziqishini, muhabbatini kichkintoylarga xos so'z va ohangda ifodalab, kichkintoyning hayotga diqqat-e'tiborini oshiradi, kapalak obrazi orqali kitobxonda insoniy tuyg'ularni shakllantirishga harakat qiladi:

Uch, ucha ber, ucha ber,
Go'zal bog'cham —
gulshanda. Sira ozor
bermayman,
Sevgim, fikrim ham
sanda. Kapalakjon,
kapalak, Do'st bo'laylik
ikkimiz, To'xta, so'zlayin
andek!

1.3.2. («Kapalak»)

Zafar Diyorning «Binafsha» she'rini yoddan bilmagan o'quvchi bo'lmasa kerak. SHE'r o'zining ravon o'qilishi, qofiyalarning jarangdorligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi:

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog'imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.

SHoirning «Mamlakat», «Kazbek», «Tilsiz o'rtoq», «Madriddan kelgan mehmon» kabi she'r va dostonlari shoir ijodining har taraflama yuksalishidan dalolat beruvchi liro-epik asarlardir.

Zafar Diyor bolalarning xatti-harakatlarini, orzu-intilishlarini yaxshi biladi. SHu jihatdan qaraydigan bo'lsak, uning «Kel, uchaylik shimolga» she'ri g'oyat o'ziga xosdir. Bunda shoir

«Quyosh tushmaydigan» qutbni borib ko'rishni orzu qilgan bolaning lirik obrazini gavdalantiradi. Yosh bolaning murg'ak xayoli shimoliy qutbni borib ko'rishni, undagi hodisalar bilan tanishishni xohlaydi. SHoir lirik qahramonning ulug' maqsadlarga erishish uchun fan va texnika asoslarini amalda egallashi kerakligini chuqur anglaydi. Buni shoir modelcha yasash jarayonida kichik yoshdagi bolalarning ruhiyatiga mos, sodda holda tushuntiradi va ularda katta ishlarga— qahramonlikka havas uyg'otadi:

Yosh bo'lsam ham
mayliga Qanot bog'lab
uchayin.
Muz sahrosi Qutbning
Sirin men ham ochayin.
Hoy, suyukli modelcham,
Tayyormisan safarga?
Fikrim senda hamisha,
Kel, uchaylik SHimolga!

SHu narsa e'tiborliki, she'rda Zafar Diyor bolalarning texnikaga intilishi va qiziqishlarini qizg'in qo'llab-quvvatlaydi, ulardagi oliy his-tuyg'ularni o'stirishga, vatanparvarlik hislarini tarkib toptirishga yordam beradi. Shoir bunday yuksak tuyg'ularni badiiy sodda, ta'sirchan va mazmundor misralar bilan ifodalaydi:

Butun dunyo anglasin:
Bir modelist kepti, —
deb, Yangi avlod

bayrog'in Qutb uzra tikdi,
— deb.

She'r bolalarning kelajakda orzu-umidlariga erishishlariga bo'lgan katta ishonch bilan tugaydi. Bu asar bolalarni ilm va hunarga muhabbat, tinmay olg'a intilishga chaqiriq ruhida tarbiyalashi jihatidan katta ahamiyatga ega.

Zamondoshlarimizning yangi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, mo'l-ko'l hosil olish va qishloqlarni obodonlashtirish ishida olib borayotgan kurashlari «Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa» dostonida ochib berilgan.

Zafar Diyor dostonida sahro-cho'llardagi shamolning vahimasi va uning ayanchli tasvirini chizib, yosh kitobxon diqqatini mehnatga jalb qiladi. Doston ertak shaklida, bolalarbop usulda yozilgan. SHoir sahrolarning «Qashqir kabi uvillovchi», «Boyqush kabi huvlovchi» dahshatli shamollari odam —tabiat dushmani ekanini obrazli misralarda yoritadi. SHundan keyin shoir hayotni go'zal, sahro-cho'llarni obod qilishda suvning qadrini juda yaxshi bilgan keng o'tloqni jonlantirib so'zlatadi va u yerlarda «gul hayot» qurish g'oyasini olg'a suradi. Keng o'tloq yuksak tog'ga murojaat qiladi:

Ne bo'larmish bizning
ham Ko'ksimizdan ketsa
g'am. Bu g'am suvsiz
ketmaydi, Suvsiz yara
bitmaydi...

Men suvingdan kuch
olsam, Tentak yeldan o'ch
olsam. Uzoq yillar
xo'rlangan, Qaqrab toshga
aylangan Ko'ksim bo'lardi
obod,

Boshlanardi gul hayot...
Talabimga yetkur, tog',
Ber suvingdan, jon o'rtoq!

Yuksak tog' ham chorasizlikdan o'z dardini — suvni keng o'tloqqa eltib berolmasligini o'kinch va alam bilan so'zlaydi.

SHoir endi bolalar fikrini boshqa narsaga — dunyoda ongga, qudratga ega bo'lgan inson va uning ta'rifiga buradi. Zafar Diyor insonning kuch-qudratini sodda, mazmunli, shirali, bolalar qalbiga tez yetadigan iboralarda ifodalagan:

Bu mardlik va
mahorat, Bu kuch-
quvvat, jasorat
Insonlarga yo'ldoshdir,
Ularga xos qo'ldoshdir.
Butun borliq — tabiat
(Bu so'zlarim haqiqat.)
Bo'ysunajak insonga
Gul tutajak ul jonga.

SHoir insonning aql-zakovati, kuch-qudrati haqida fikrlar ekan mubolag'aga zo'r beradi, insonni, hatto tabiatni ham o'ziga bo'ysundiruvchi kuch sifatida ta'rif etadi. Albatta, bu fikrlar turg'unlik davrining oqibatidir. Negaki, «Sirdaryoningjilovlanishi» bugungi kunda xalqimizga qimmatga tushmoqda. Bir so'z bilan aytganda, tabiat insonlarning boshboshdoqlik xatti-harakatlari uchun shafqatsiz o'ch olmoqda. Bundan bu asar mutlaqo keraksiz yoki zararli asar ekan, degan xulosaga

kelmaslik zarur. Asar kitobxonlarni mehnatsevarlikka, yaratuvchilikka, tabiat bilan inson munosabatida muhabbat tuyg'ulari bo'lishi lozimligiga undaydi. Bu fikrini ifoda etishda shoir yangi usul — tog' va o'tloqlarni jonlantirish orqali erishadi:

— Hoy, mard o'rtoq, mard
o'rtoq, Qara, qancha keng o'tloq
Suvsizlikdan dili dog',
Uning ohin o'chirib,
CHamanzorga aylantir,
Mangulikka shodlantir.

Dostonda shu tariqa xalqimizning cho'l-biyobonlarni bog'-rog'larga aylantirish orzusi o'zining badiiy ifodasini topgan.

Zafar Diyor dostonning g'oyaviy-badiiy mukammalligi uchun qattiq ijodiy mehnat qilgan. Asarning tuzilishi xalq ertaklariga yaqinligi bilan ahamiyatlidir. SHoir asarning sehri, roman-tik, ya'ni g'oyat ta'sirchan, o'qimishli bo'lishini ta'minlash uchun sodda, ajoyib badiiy-tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalangan. Keng o'tloq, cho'llarning suvga tashnaligi va uning orzusi haqidagi «Bitta to'yib suv ichsak», «Suv ber, menga suv bergin», «Ko'ksimdan so'ng gul tergin»; sahro va uning shamoli to'g'risi-dagi «Eng g'azabli, eng o'chli, xarsangtoshday qotaman, misdek qizib yotaman»; davr kishilarining kuch-qudratiga oid «CHinordek zo'r qomati, Go'ro'g'lidek savlati» kabi tasviriy vositalarga boy misralar fikrimizning isbotidir.

Bu asar yosh kitobxonlarni mehnat va tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashi bilan muhimdir.

Zafar Diyorning ko'pgina asarlari mehnat mavzusiga bag'ishlangan. Ana shunday asarlaridan biri « Kichkina bog'bon haqida doston»dir. Dostonda bolalar va yoshlar dov-daraxtlarni ekish, parvarish qilishga chaqirilib, mehnat zavqi va ahamiyati kuylanadi. Bu g'oya SHotursun obrazi orqali ifodalanadi. Kichik qahramon otasi bilan birlashib mevali daraxtlarni parvarish qilishga,

«Qo'lda kichik ketmon» bilan bog'larni yashnatishga mehr qo'yib, mehnatda o'zini ko'rsatadi.

Zo'r g'ayrat va katta ishtiyoq bilan ishga kirishgan SHotursun-ning o'zi parvarish qilib yurgan bir tup olmasi barvaqt pishib, mo'l-ko'l hosil beradi. Bola bir yili yalqovlikka berilib, olmaga qaramay qo'yadi. SHoirning mahorati shundaki, olma daraxtini jonlantirib, uning so'zlari orqali bolalarga ibrat bo'ladigan fikrni aytadi:

Bu yil esa, SHotursun,
G'ayrating yo'q unchalik,
Berilmassan deb edim
Yalqovlikka bunchalik.
Ahvolimni
so'rmading,
Oqlamading tanamni,
Qurt-qumursqa talaydi,
Ertadan kech mevamni.

Olmaning bunday ayanchli ahvoli, oh-fig'oni SHotursunga qattiq ta'sir qiladi va u o'z xato-kamchiliklarini tezda anglab olmakga parvarishini qayta boshlab yubordi. SHu zaylda shoir o'quvchida SHotursunga nisbatan mehr uyg'otadi, undan o'rnak olishga chaqiradi.

Zafar Diyorning uchinchi to'plami 1939-yilda «SHE'rlar» nomi bilan bosilib chiqdi. Uning bu to'plami mavzu jihatidan bolalarbopligi, qiziqarli mazmun va obrazli ifodalari bilan ajralib turadi. Bu esa Zafar Diyorning ijod sirlarini tobora mukammal egallab borayotganini, bolalar va yoshlar hayotini yaxshi o'rganib, ular uchun puxta, barkamol asarlar yaratish yo'lida tinmay ijodiy mehnat qilayotganini ko'rsatdi.

To'plamdagi «Amudaryo bo'yida» she'rida shoir o'lka chegarachilarining lirik obrazini mahorat bilan chizgan. SHE'rdagi bolalarni chegara soqchilarining hayoti, ularning mas'uliyatli va faxrli burchi bilan tanishtiradi.

«Qutb qo'shig'i» she'rida esa shoir olam yaralgandan buyon hech kim borib ko'rmagan qutbni egallagan bugungi kishilarning jasorat-u kuch-qudratini yusak muhabbat bilan kuylaydi.

Zafar Diyor o'z she'rlarida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat g'oyalarini ilgari suradi. Bolalarni Vatanning munosib farzandlari bo'lib kamol topishga undaydi. Buning uchun ularga bilim manbai bo'lgan kitobni sevib, fan asoslarini chuqur egal-lashlari zarurligini uqtiradi. Bu g'oyani «Kitob, mening do'stimsan» she'rida shunday tasvirlaydi:

Varaqglasam bir
boshdan Quvnab bahrim
ochilur, Oltin harf-
so'zlardan Totli ma'no
sochilur.

SHuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!

Zafar Diyor kitobning mohiyatini bolalar ongiga oson singdirishda jonlantirish vositalaridan ustalik bilan foydalana olgan. SHoir kitobni bola tilidan shunday ta'riflaydi:

Har sahifang men
uchun Bir hikoyat
so'zlaydi,
O'qib, odam bo'lgin, —
deb Yaxshi niyat ko'zlaydi.

Shoir kitobni bolaning eng yaqin, mehribon do'sti, g'amxo'r o'rtog'i deb ko'rsatgach, uni jondildan sevgan bolaning jonli qiyofasini chizadi:

Seni jondan
sevaman, Meni tilga
o'rgatding, Hadya
qilib ilm-fan,
Yorug' yo'llar ko'rsatding.

Shoir kitobning mohiyatini bolalarga yanada chuqurroq anglatishda, uni ta'sirchan qilib gavdalandirishda: «Baxtim kular kitobdan», «Quvnab bahrim ochilur», «Yosh o'ynoqi ko'zlarim shuur olar kitobdan» kabi istioralarni ishlatib, she'ring badiiy ta'sirchanligini oshirgan.

Zafar Diyor ikkinchi jahon urushi yillarida hozirgi «O'zbekiston ovozi» gazetasida adabiy xodim bo'lib ishladi. Ayni chog'da, u tinmay samarali ijod etdi. SHoirning «G'unchalar», «Serquyosh o'lka», «Ona qo'shig'i», «Bizning oila», «Qahramon», «Tankist», «Ulug' bayram», «Qurol bering menga ham», «Qahramonning kelishi», «Biz yashamoq istaymiz», «Qo'riqchilikda» singari jangovar she'rlari shu yillarda yaratilgan.

Zafar Diyor baxtli bolalarning go'zal bog'lardan, chamanzorlardan, rang-barang gullardan, bahordan olgan quvonchini «Bahor keldi», «Orzu», «Qaldirg'och», «Qushlar haqida qo'shiq», «Binafsha» kabi she'rlarida sodda, ravon tilda, ohangdor, yengil qofiyali, o'ynoqi misralarda shoirona talqin etadi va ular qalbida hayotga mehr uyg'otadi.

Zafar Diyor bugungi o'zbek bolalar dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham barakali hissa qo'shdi. U bolalar hayoti haqida «Baxtli yoshlik», «Yosh vatanparvarlar», «Omonat», «Uch og'ayni» kabi qator dramalar ham yozgan.

O'zbek bolalar nasrini rivojlantirishda Zafar Diyor ham o'z hissasini qo'shgan.

Uning
«Jo'natish», «Cho'pon qizi», «Nojo'yaliklar» kabi hikoyalari shular jumlasidandir.

Zafar Diyor bolalar adabiyotining hamma janrlarida qalam tebratdi. U bolalarning turmushi, talab-ehhtiyojlari hamda orzu-tilaklarini, turmushini, ularning ruhiyatini puxta bilganligi uchun bolalarning yoshiga, ong-tushunchasiga moslab, g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta asarlar yaratdi.

SHoir o'zining qo'shiq va she'rlarida hamda boshqa asarlarida yosh kitobxonlarni ulug' yurtimizning behisob boyliklari bilan faxrlanishga, kelgusida yaxshi hayot bunyod etishlari uchun astoydil kurashuvchi, ongli, madaniyatli, vatanparvar kishilar bo'lib yetishish uchun a'lo baholar bilan o'qishga chaqiradi. U yosh avlodni mehnatga muhabbat bilan qarashga, rostgo'y va intizomli bo'lishga undadi, ularda vatanparvarlik, do'stlik tuyg'ularini o'stirishga katta e'tibor berdi. Uning asarlari davr bolalari va yoshlari uchun zavq bag'ishladi, ularni o'qish-o'rganish va kamol topish uchun kurashga ruhlantirdi.

O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga she'r va qo'shiq, doston va ertaklari bilan juda katta hissa qo'shgan Zafar Diyorning asarlarini bolalar hamon sevib o'qiydilar va yuksak qadrlaydilar.

Shukur Sa'dulla ijodida hayotga munosabat .

REJA:

1. Shoirning tarjimai holi.
2. Shukur Sa'dullaning dastlabki she'rlari.
- 3 Adibning dastlabki asarlari .
4. Qissa va pesalarining tarbiyaviy ahamiyati.

Shukur Sa'dulla 1912 yilning yanvarida Jizzax shhrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi, boshlang'ich ma'lumotni ona shahridagi Narimonov nomli maktabda oldi. 1924 yildan Samarqand pedagogika bilim yurtida tahsil ko'rdi. SUngra Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat universitetida o'qidi. 1931-72 yillarda Sh.Sa'dulla O'zbekiston davlat va «Yosh gvardiya» nashriyotlarida muharrir, bo'lim boshlig'i, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir vazifalarida mehnat qildi.

Shukur Sa'dullaning «Hayqiriq», «Uch ayiq», «Ayyor chumchuq», «Yoriltosh», «Ikki sandiq», «Sen nima qilding?», «Shohista», «Shirin kun», «She'rlar», «She'r va ertaklar», «P'esalar», «Dastyor qiz», «Komandirning boshidan kechirganlari», «Kachal polvon», «ism qo'yilmagan xat», «Sening bayraming», «Mening aziz bolalarim» va boshqa kitoblari bosilib chiqdi.

Odatda, boychechak juda yerta ochiladi. U qor yerib-erimasdanoq ko'zga tashlanadi. Buni ko'rgan odamlar «Ha, bahor yaqinlashib qolibdi», deydi. Shoir «Boychechak» asarida xuddi shu fikrni lo'ndaqilib chizib beradi:

Ochildimi boychechak,
Endi har yon gul demak,
Chunki bahorr yelchisi -
Shu mitgi gul — boychechak.

Albatta, boychechak paydo bo'lganidan keyin bahor boshlanadi, yomg'ir ustiga yomg'ir yog'adi. Yomg'ir tabiat husniga husn qo'shadi, odamlar ruhini yengillatadi. Shukur Sa'dulla «Yomg'ir yog'aloq» she'rida bahor yomg'iriga muhabbat bilan munosabatda bo'ladi.

Shoir ijodida yumoristik she'rlar ham bir talay: «Shalabbo» «Anqov», «Injiq», «Ivirsiq», «Bizning oyi» kabi asarlarida shoir dangasa, o'z ustida ko'p ishlaymaydigan, izlanishni yoqtirmaydigan, injiq, ivirsiq bolalar ustidan qattiq kuladi.

Ivirsiqda shoir o'yinqaroq, kun bo'yi koptok o'ynab, uyga berilgan vazifani bajarish, o'z vaqtida uyqudan turish o'rniga qotib uxlab darsdan kech qolgan Siddiq nomli bolaning maktab o'quvchilariga xos bo'lmagan qiliqlarini fosh qiladi:

Daftari ochiq-sochiq,
Qolgan vazifa chala.
Soat yurar:: chiq-chiq-chiq,
Yechilmagan masala.
Yana jaranglab soat,
To'qqizga zang uradi,

«Ivirsiqjon» betoqat -
Endi shoshib turadi.

Shukur Sa'dulla xalq og'eaki ijodini sevgan va undan ijodiy foydalangan shoirlardan biri yedi. U «No'xatpolvon», «Laqma it», «Ayyor it», «Ayyor chumchuq», «Chol bilan bo'ri» kabi o'nlab asarlarini ertaklar asosida yaratdi. Xalq ertaklarini jo'ngina she'rga solib qo'ya qolmadi. Balki unga ijodiy yondashdi. Davrimizga, bolalarning istak-armonlariga moslashtirdi.

Dramaturg Shukur Sa'dullaning «Yoriltosh», «Gulxan», Bizning bog'chamiz», «Dalada bayram», «Vatan ishq» (dramaturg Z.Fatxullin bilan hamkorlikda yozilgan), «Ikki bilaguzuk», «Zubayda», «Afsona yaratgan qiz» p'esalarini tomoshabinlar yaxshi bilishadi.

Savollar:

1. «Boychechak», «Yomg'ir-yog'aloq» asarlarining g'oyasi?
2. «Shohista»da otaga-Vatanga muhabbat?
3. Shoirning quvnoq she'rlari?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.Ahmedov va b. Bolalar adabiyoti. Xrestomatiya. 1993 yil.
2. A.Suyumov, M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. qullanma. 1994 yil.
3. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995 yil.
4. M.Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.

3- Mavzu: Sulton Jo'raning hayoti va ijodi.Hakim Nazirning hayoti va ijodi. Sulton Jo'raning hayoti va ijodi.Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she'rlarida ifodalangan g'oyalar haqida. Sulton Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili. Hakim Nazirning hayoti va ijodi.Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag'ishlangan asarlarining ahamiyati haqida.

REJA:

- 1.Shoirning hayot yo'li
- 2.Shoirning dastlabki she'rlari.
- 3.Ikkinchi jahon urushi davri yaratgan asarlari.
- 4.S.Jo'ra asarlarida ta'lim tarbiyaviy masalalar.

Sulton Jo'ra 1910-yilning 15-yanvarida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag'altom qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ildi. Yetti yoshida ota-onasidan yetim qolgan Sulton har kimlarning yeshigida xizmat qildi. U dastlab boshlang'ich maktabda o'qib, 1924 yilda Buxoroga keldi va pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdi, uni 1930 yilda bitirdi.

Sulton Jo'ra 1931 —1938 yillarda Buxoro pedagogika institutining ishchi fakultetida o'qiydi. 1938—1941 yillarda Andijondagi o'qituvchilar instituti va pedagogika bilim yurtida til va adabiyotdan dars berdi.

1942 yilda Sulton Jo'ra harbiy xizmatga chaqiriladi. U dushmanga qarshi ham qurol, ham qalam bilan jang olib bordi. 1943 yilning 14 noyabrida Belorussiya tuprog'ida nemis-fashist bosqinchilariga qarshi janglarning birida jangchi-shoir qahramonlarcha halok bo'ldi.

Sulton Jo'raning dastlabki she'rlari 1933 yilda Buxoro yosh shoirlarining «She'rlar» to'plamida nashr yetildi. Uning 1939 yilda «Fidokor», 1941 yilda «Moskva» she'riy to'plamlari, 1942 yilda «Iroda» nomli pesasi nashr yetildi. Shoir vafotidan so'ng 1951 yilda rus va o'zbek tillarida «Tanlangan asarlar», tinch qurilish yillari davrida iste'dodli shoirning «Havorang gilam», «Zangori gilam», «Bruno», «Parvoz», «Qaldirg'och», «Tanlangan asarlar» kitoblari bosilib chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida yaratgan asarlarida fashist gazandalarining butun yovuzliklari ochib tashlanadi, ularda yovga qarshi la'nat va nafrat tuyg'ulari davr kishi-larining yuksak vatanparvarlik ruhi bilan hamohang yangradi. «To'pchi Muhammad», «Pulemyotchi ovozi», «Chavandoz», «Uch og'ayni botirlar», «Nayzamiz» (1941), «Qahramon Qo'chqor» (1942), «Jahon seni olqishlar», «Berlin aptekasida» (1943) she'rlari shular jumlasidandir.

Sulton Jo'ra kattalar uchun jo'shqin lirik she'rlar, yirik dostonlar yaratish bilan birga, bolalarga atab ham ajoyib asarlar yezdi.

Shoir-pedagog Sulton Jo'ra bolalar uchun yozgan asarlarida baxtli bolalik, Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat, mehnat ahllariga ye'tiqod tuyg'ularini ifoda-ladi. Ayni choqda, u yaxshi va a'lo baholarda o'qish uchun kurash, rostgo'y va intizomli bo'lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egalash kabi ta'lim-tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin yetdi. Bunday g'oyalar shoirning «Yozgi yomg'irdan so'ng» (1936), «Qizlar», «A'lo» va «Yaxshi» ning maqtovi», «Zangori gilam» (1939), «Lola», «Oy nechta?», «Tinish belgilarining majlisi», «Cho'ntak», «Sirkda» (1940), «Qarzdor», «Qaldirg'och», «Yolg'onchi», «Dengiz tagida» (1941), «Sog'inib» (1942), «Sog'inchli salom», «Salom xat» (1943) kabi asarlarida o'z ifodasini topdi.

U o'z asarlarida bolalar va maktab hayotini, ularning o'qishi, ko'cha va oilada o'zini tutishini haqqoniy aks yettirdi. Shoir yosh kitobxonning diqqatini o'ziga tortuv-chi asarlar ijodkori sifatida tanildi.

Bolalar ilmiy-ommaviy mavzularda yozilgan san'at asarlarini ham sevib o'qiydilar. Sulton Jo'ra bunday mavzuda ham ancha asarlar yozdi. Shunday asarlardan biri «Oy nechta?»dir. Bunda shoir kichkintoylarning orzu-umidlarini xarakterli parcha — ona va bolalarning dialogi orqali ifoda yetadi:

Ona dedi:

Yotinglar endi,

Fakat bitta osmonning oyi!

Katta bo'lgach, aylanaylarim,

Oyning o'zin minib ko'rarsiz.

O'shandachi, oyijon, bizga

Katta toti olib berarsiz.

«Mamatning kechirmishi» she'rida shoir Mamatning ichki-ruhiy kechinmalari, ishyoqmasligi, yalqovligi, to'ngligi orqasida darslardan qoloq bo'lib, iztirob che-kishini ishonarli aks yettirgan. Mana, hamma uxlagan, ammo tanho Mamat uyg'oq. Shoir uning ana shu daqiqalardagi qalb iztirobini, ruhan qiynalayotganligini, notinch ruhiy holatini sodda, ravon tasvirlaydi.

Shoir qoloqlik sabablarini birovdan yemas, balki qahramonining o'zidan qidirtiradi va buni Mamatning o'zini gapirtirish orqali ochadi.

Darsdan qoloqligi orqasida ruhan azob chekib, qiynalib yurgan Mamat o'jarligi, o'zboshimchaligini tan olib, do'stlari yordamida oyoqqa turib, yendilikda astoy-dil o'qishga ahd qiladi:

Bo'ldi... Men bas qildim yalqovlikni

Do'stlarimday olay bilimni.

Achchiq tajribamning o'zi saboq,

Ol darsxonam ishq dilimni!

Bor kuchimni berayki, bu «yomon»

Yondoshmasin menga yertadan.

Nomim Mamat bo'lmay ketsin agar

Va'da qilgan bo'lsam jo'rttaga!

Sulton Jo'ra qissadan hissa chiqarib, a'lo o'qish kat-ta ahamiyatga ega ekanligini bolalar qulog'iga quyadi:

A'lo o'qish o'zi yuksak shuxrat,

Har shuhrating tillarda doston.

She'rda barcha tasviriy vositalar g'oyaviy, badiiy ni-yatni yorokin amalga oshirishga karatilgan. Shoir tabiat lavhalari, go'zal hayotiy tasvirlar vositasida qahramon-ning ichki holatini ochadi va ta'sirchanlikka yerishadi:

Barcha uxlar...

Kumush ariqchanning

Eshitilar shildir-shildiri,

Yaproqlar ham «alla» deb tebratar

Sirtlariga qo'ngan oy nurin.

«Mamatning kechirmishi»da yalqovlikni tashlab, a'lo o'qishga mahkam bel bog'lagan bolaning ijobiy namunasi-da o'z kuchiga ishonish, nuqsonlarga tanqidiy qaray bilish ROYAT katta kuch degan ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik o'git ilgari suriladi.

Ta'lim-tarbiya sohasida yozma nutq san'atini egallash yeng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ba'zi o'quvchi-lar grammatik mashqlar bilan jiddiy shug'ullanmasligi, badiiy adabiyotni kam o'qishi natijasida yozma ishlardan oqsaydilar. Chiroyli yozuv qoidalarini buzib xunuk xat yozishdan tashqari, turli xatolarga yo'l qo'yadilar. Peda-gog-shoir Sulton Jo'ra ta'lim-tarbiya ishidagi bunday nuq-sonlarni tugatishda o'quvchilarga yordam berish maqsadida «Kimning xati chiroyli», «Tinish belgilarining majlisi», «Harflar paradi» she'rlarini yezdi.

«Kimning xati chiroyli»da bolaning sog'lom, baquv-vat bo'lib kamol topishida, yozuvining go'zal bo'lishida partada to'g'ri o'tirish qoidasiga qat'iy rioya qilish katta ahamiyatga ega ekanligini ham uqtirib o'tadi:

O'tirishim to'g'ri, soz,

Qoidaga juda mots.

Ko'kragimni men sira

Ultirganim yo'q tirab!

Chiroyli yoz, yozsang xat!

Chunki bu ham zo'r san'at...

Shoir ijodiy faoliyatida «Tinish belgilarining majlisi» katta ahamiyatga ega. She'rdagi uzbek tilining yeng muhim qoidalari — tinish belgilarining vazifalari bolalarga moe ravishda jonlantirish kabi badiiy tasvir vositasi orqali ifoda yetiladi. Unda har bir tinish belgisi jonlantirilib, qo'llanishiga moe tarzda gapirtiri-ladi va o'ziga xos joyiga qo'yiladi. Bu hol kitobxonda aniq tasavvur hosil qiladi. Bu yesa shoirning pedagogik va badiiy mahoratini yegizak holda namoyish qiladi.

Shoir she'rdagi o'xshatishdan ham ustalik bilan foydalanib, undov belgisini mirzaterakka, nuqtani koptokka; so'roq belgisini o'rokka, ziraq taqqan kuloqqa, ver-gulni kichik to'qmoqqa, ko'shtirnoqni qiziqchilarga, ti-reni gugurtga o'xshatib, shoirona tasvirlaydi. Gapda yesa nuqta «fikrlarning stanssiyasiga», vergul «fikrlarning raz'ezdi»ga o'xshatiladi. Bunday o'xshatishlar tinish bel-gilari qoidasini oson o'zlashtirishga yordam beradi.

So'roq belgisi:

Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?

Yeki o'zim so'rayinmi sizdan savol?

Vergul:

Gar undalma gapda kelsa qok o'rtada,

Uning ikki yonboshida men jo'rttaga,

«Qani yendi undalmaxon, qochib boqchi» —

Deb bo'lurman yubormayin unga soqchi,

Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,

Undan oldin qo'yilarman, tushun o'rtoq!

Qo'shtirnoklar:

Mana rais: — «Vaqt tamom, to'xtangiz!»

Deb qoldiku, mayli, yendi yo'q gapimiz.

Tire:

Birok shartim — soʻz kolmasin oʻlda-joʻlda.

Koʻrinib turibdiki, shoir tinish belgilarining xu-susiyatlarini tasvirlabgina qolmay, unga muvofiq mi-sollarni ham sheʼriy yoʻl bilan koʻrsatgan. Shuning uchun bu sheʼrni koʻrgazmali sheʼr deyish va darslarda ijodiy foydalanish mumkin.

«Yolgʻonchi» dostonida bolalarni rostgoʻy boʻlishga, yaxshi va aʻlo oʻkishga chaqiradi. Doston qahramoni Noʻmon maktabda taʼlim-tarbiya qoidasini buzuvchi, oʻqituvchi va ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qiluvchi bola sifa-tida gavdalanadi. Shoir Noʻmon qoniqarsiz oʻqishiga qaramay, oʻzini tuzatish oʻrniga oʻqituvchiga zarda qili-shi, yolgʻon gapirishi, oʻjarligi, dars tayyorlamasligini va ishyoqmasligini turli hayotiy parchalarda juda isho-narli ochadi. Chunonchi, Noʻmon oʻqituvchi yozib bergan xatni yirtib tashlab, «2» baholarini yashirib, oʻzini aʻlochi qilib koʻrsatib, beodobligini fosh yetadi.

Noʻmon oʻqituvchi va ota-onasi taʼsirida butun kamchiliklarini anglab yetadi, yaxshi oʻqishga vaʼda beradi va vaʼdasining ustidan chiqadi. Doston oʻz kamchiliklarini anglab, oʻkishga astoydil berilgan Noʻmonning ijodiy xatti-harakatini ulugʻlash bilan tamomlanadi.

Oʻzbek bolalar sheʼriyatida «Qaldirgʻoch» yertagi katta oʻrinda turadi. Unda mamlakatimizning tinchliksevar yurt yekani qaldirgʻoch sarguzashti orqali hikoya qilinadi. Qaldirgʻoch Afrikaga uchib boradi, ammo u yerda tinch joy

topa olmaydi. Misrda yesa yetim-esirlar va och-yalangʻoch-larni koʻradi. Soʻng «Dod urushning dastidan!» — deb boshqa tomonga parvoz qiladi.

Shoir chet mamlakatlardagi urushlarni, uning dahshat-li oqibatlarini qaldirgʻoch obrazi orqali ochadi. «Qal-dirgʻoch» chet yillardagi ayanchli hayotni juda jonli, ob-razli tilda bolalarga hikoya qiladi. Ona-diyorimiz tin-chlik makoni yekanini yesa shoir qaldirgʻoch vositasida, ayniqsa, taʼsirli ifodalaydi:

Qirq kunduz-u, qirq kecha
Bulutni kecha-kecha,
Qaldirgʻochim par qanot
Endi baxtiyor qanot.
Bizga kelib yetibdi
Va sayrab shunday depti:
— Eh.. Hur Vatan! Jon Vatan!..
Qishda ham jonajonsan,
Iltuvchi nuring bor,
Bizga issiq oʻrning bor!

Bu yertak bolalarning urushga qarshi nafratini oshi-rishda, Vatanimizning tinchlik tayanchi yekanini yanada chuqurroq tushunishda, uni sevishda katta tarbiyaviy ahami-yatga egadir.

Sulton Joʻraning «Havorang gilam» yertagidagi ijo-biy qahramon Rahimdir. U oʻtmishda ogʻir kulfatlarni boshidan kechiradi.

Rahim zindondan qochib, uyiga kelsa, na xotini, na qizi bor. Uning xaroba uyini shoir:

Uy oʻrnida bir devor!
Atrofi oʻt — tikanzor,

deb tasvirlaydi. Gʻazabda yongan Rahim boylarga qarshi kurashga bel bogʻlaydi. Ertakda shoir asar qahramoni Rahimning hayoti haqida hikoya qilar yekan, uning xarak-teridagi yeng muhim belgini — xalq bilan chambarchasligini koʻrsatadi.

Dostonda yovuzlarga qarshi bir tan, bir jon boʻlib kurashgan xalq ozodlikka chiqadi, zulmkorlarni tag-tubi bilan yoʻq qilib baxtli hayotga yerishadi. Shoir «mozorday jimjit», «Qushlar uchsa qanoti, inson yursa oyogʻi» kuyadigan bepoyon dasht-choʻllarda yendi yangi hayot kaynayotganini tasvirlab, bularning hammasi rahimlarning ijodiy mehnati tufayli yuz berganligini bolalarga hikoya qiladi:

Choʻl oʻrnida bogʻ-boʻston,
Rang-barang bir guliston...
Qoʻngʻiroqday shalola,
Oy kabi nurli dala...

Daryoni qilib qamal,
O'tkazishgan zo'r kanal...
Xullas, go'yo bu — sara
Va ajoyib manzara
O'xshardi bokqan sari
Gilamchaki — zangori!..
Ko'rdi: ko'm-ko'k keng dala,
Unda ishlar bir gala
Son-sanoksiz yer-xotin,
Ekardilar zar-oltin...

Xalq ommasining mehnati tufayli ajoyib shaharlar, cho'l o'rnida bo'stonlar yaratilishini tasvirlash orqali shoir kattalar mehnatiga bolalarning havasini oshiradi.

Sulton Jo'ra bu yertakning maktab yoshidagi bolalar saviyasiga moe, tushunarli bo'lishi uchun ancha kuch sarflagan, bunda u tojik xalq og'zaki poetik ijodidan samara-li foydalangan.

Sulton Jo'ra «Sog'inchli salom» she'rida Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat hyslarini va g'alabaning muqar-rarligini tasvirlaydi. Shoir nemis bosqinchilarining yovuzliklari va vahshiyliklarini, insoniyat boshiga solgan azob-uqubatlarini, jabr-zulmini «guli g'unchalari», «oltin yulduzchalari», «girgitton qizchalari»ga sog'inchli salom yozar yekan, ularga fashistlar vayron qilgan joy-lardagi xalqning og'ir ahvoli, yosh bolalarning ayanchli taqdiri haqida hikoya qilib beradi. Shoir urush va uning dahshatlarini, xalqning azob-uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, boshidan kechirgan bir kampir tilidan so'zlab voqeaning ta'sirchanligini, bolalar ongiga tez, oson yetib borishini ta'minlaydi. Kampirning qalbi dardga to'la. G'am, alam, qasd uning butun vujudini egallab olgan. Uning o'zlaridan fashistlar tomonidan otib o'ldirilgan qizi va nevarasining fojiasigina yemas, umuman dushmanning yovuzligi, rahm-shafqatsizligi ro'y-rost ochib berilgan:

Ko'zim ochsam ne ko'ray:
— Voy! «Qo'rqinchli manzara»
Ko'ragidan qon oqib,
Yerda yotar Varvara...
Fashist jallod nayzasin
Sanchibdi ko'ragidan,
Bolaning hali yoshi
Ketmagan kiprigidan,
Bir tomonda onasi,
Bir tomonda bolasi,
Qon ichida yotibdi.
E — vox., har ikkalasi!..

Urush dahshatlarining kichik bir parchasini yuqori-dagiday tasvirlash bilan shoir bolalarning murg'ak dilida urush olovini yoquvchilarga nisbatan kuchli nafrat tuyg'ularini qo'zg'atadi. Ular qalbida tinchlik, do'stlik, baxtiyorlik haqidagi ulug' maKsad, buyuk orzu hislarini uyg'otadi.

Obod qishloqlarni vayron qilgan, begunoh kishilarning umrini xazon qilgan fashistlardan qasos olishga bel bog'lagan g'azabkor otaning hayqirig'i tubandagi mis-ralarda zo'r mahorat bilan tasvirlangan:

Ana shu Varvaraday
Qancha yosh bolalarni,
Bolalik bo'stonida
Ochilgan lolalarni
Halok yetgan peslardan —

Shu jallod fashistlardan
Jon uchun jon olaman,
Qon uchun qon olaman.
Xullas, fashist yovlarni
Tor-mor yetib batamom
So'ngra, jigarbandlarim,
Yoningizga qaytaman!...

Shoirming «Sog'inchli salom» she'ri bolalarni Vatanga, uni jon-dilidan sevuvchi va mehribon otaga muhabbat, dushmanga la'nat-nafrat ruhida tarbiyalashda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Pedagog-murabbiy va jangchi-shoir Sulton Jo'ra o'zbek bolalar adabiyotining xazinasiga o'zining ana shunday qimmatbaho asarlari bilan munosib hissa qo'shgan.

Savollar:

1. Tinish belgilarining majlisi» asarining g'oyasi?
2. «Badiiy maktublar»?
3. S. Jo'ra dostonlari haqida so'zlang?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Ahmedov va b. Bolalar adabiyoti. Xrestomatiya. 1993 y.
2. Suyumov. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti, Qo'llanma. 1994 y.
3. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti, Darslik. 1995 y.
4. M. Jumaboyev O'zbek va jahon bolalar adabiyoti, Qo'llanma. 1996 y.

Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar

Reja:

1. Adibning tarjimai holi.
2. H. Nazir hikoyalarda bolalar hayotining aks yetishi.
3. H. Nazir asarlarida davr ruhining berilishi.

Zahmatkash adib 1915 yilda Toshkent shahrida maxsido'z-kosib oilasida dunyoga keladi. Maktabda boshlang'ich ta'lim olgandan keyin poyafzal fabrikasiga kirib, kasb egallash bilan birga ishchilar dorilfuninida o'qishni davom ettiradi. 1937-41 yillarda pedinstitutda o'qiydi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshidagi yoki yendigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan bo'ladi. Buni adibning «Bir og'iz so'z», «Rasmi kitobcha», «Davronning qushchasi», «Qaysargina ukam», «Yaxshi ism», «Ikki o'rtoq», «Bulbul», «Qanddon», «Igna», «Bir tupg'o'za» kabi hikoyalar misolida aytish mumkin. Bunday hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masallar yotganini ko'ramiz.

Hakim nazir o'zbek bolalar adabiyotida qissachilik janrining rivojlanishiga ham «So'nmas chaqmoqlar», «Yonar daryo», «Ko'kterak shabadasi», «Suv gadosi», «Kenjatoy», «Tohir va Zuhra qissasi», «Dadamni topib beringlar» kabi asarlari bilan katta hissa qo'shdi.

Adibning «Lochin qanotlari» romani hamda «Chiranma g'oz hunaring oz» dramasi ham bolalarning chevimli asarlariga aylanib qoldi.

Bolalarda orzu-umid, yaxshilik sari intilish kattalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. «Yaxshi ism» huddi shu to'g'rida so'z yuritadi. Shoira yendigina birinchi sinfga qadam qo'ygan. U hali maktab

qonun-qoidasini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun qizcha o'qituvchi Zuhra yulduziga raketa uchirilganligi to'g'risidagi axborotni ro'znomadan o'qib berganida butun sinfni boshiga ko'tarib:

- Topdim! Topdim! Topdim!!! - deya ovozi boricha baqirib yuboradi.

Ayon bo'lishicha kecha Shoiraning onasi unga singilcha tug'ib bergan bo'lib, chaqaloqqa nima deb ism ko'yish janjal bo'lib turgan yekan. Shoirada havas yaxshi, niyat kuchli. Unga raketa va ayniqsa, Zuhra yulduzi yoqib qoladi. Shu onda singilchasiga Zuhra deb ism berish fikri tug'iladi. Bu haqda u bugun sinfga so'zlab beradi. «Yaxshi ism»ning hulosasi ham bolalar orzu qilganidek yakunlanadi. Asarni o'qigan har bir bolaning Shoiraga, u tanlagan ismga, qudratli texnikaga, shirinsuxan muallimiga va otaga bir umr xavasi keladi.

Bolalarga har tomonlama to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, tushuntirish, o'rgatish, ularda ko'nikmalar hosil qilish kattalarga bog'liq. Kichkintoylarning otaxon adibi «Bulbul» hikoyasida bu masalaga katta ztibor beradi. Ona tabiatga, qushlarga mehribonchilik qilish g'oyasi bu asarning asosini tashkil yetadi.

«Bir tup g'o'za» hikoyasida yosh qahramonlarning xalq boyligiga bo'lgan munosabatlari g'oyat hayotiy detallar asosida ifoda yetiladi. Bolalarning uyinqaroqligi tufayli Karimning sigiri bo'shalib bir tup g'o'zani payhon qiladi. Yozuvchi shu voqea tufayli yoshlarning xalq mulkiga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi.

Muallif hikoyada qahramonlar xarakterini individuallashtirishga alohida ye'tibor beradi. Abdusamad cho'rtkesar bola. Goho ba'zi gaplarni shartta aytib yuboradi (sigirni qidirib yurganda Qoraboy akaga qilgan muomalasini yesga oling). Karim soddadil, to'g'ri bola. Shu bilan birga, serhrakatliligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli «Sayrang, qushlar», «Hunardan unar», To'g'ri o'sgan gul bo'lar», «Aql qaerda bo'lar», «O'rinbosarlar», Oltin nay», Bir yarim Karim», Endi adashmaydi», «Barcha bola do'st bo'lsa», «Rahmatga rahmat», «Gazpolvon yertak aytar», «Chang yutar botir», «Do'sting qancha ko'p bo'lsa», «Oftob va odob», «Oltmish olti oltin qo'l», «Yaxshilarga o'xshasam», «Eson va Omon», «Ustozlar izidan», «Bolalarning baxti kulgan», «Bir yuz bir oltin qo'l» kabi o'nlab she'riy to'plamlari; «Apreloy va Mayxon qiz», «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy» kabi ertaklari, p'esalari yuzaga keldi.

Savollar:

1. O'qish, odob haqidagi asarlari?
2. Quvnoq qo'shiqlari to'g'risida so'zlang?
4. «Bir tup g'o'za» haqida nima bilasiz?
5. «Yaxshi-ism»da texkikaga-samoga qiziqish?
6. Adib qissalari?

Foydanalangan adabiyotlar:

- 1.I.Ahmedov va b. Bolalar adabiyoti. Xrestomatiya. 1993 yil.
- 2.A.Suyumov, M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. qullanma. 1994 yil.
- 3.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995 yil.
- 4.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.

4- Mavzu: Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi. Po'lat Mo'min ijodida odob-axloq mavzusi. Po'lat Mo'min – qo'shiqchi shoir. Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi. Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari. Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar.

1- REJA:

1. Adibning tarjimai holi.

2. P. Mo'minning asarlarida davr ruhining berilishi.

3. "Lochin qanotlar" romanining bolalar adabiyotida o'rni.

Po'lat Mo'min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning «Oltin nokli bog'», «Ko'cha-ko'pchilik uchun», «Eh, rosa shirin yekan», «Xolning jiyron volosipedi», - «Ko'ngil istar yaxshilik» degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan.

Shoir she'rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi ochib beriladi. Uning «Oftob chikdi olamga», «Yer chopildi — javob topildi» she'rlari fikrimizning dalilidir. «Oftob chiqdi olamga» asarida u xalq og'zaki ijodidan unumli foydalangan. She'rdagi bolalarning harakati, urinishi, katgalar ishiga ko'maklashishi nihoyatda ta'sirli va shirali ifodalangan.

Po'lat Mo'min haqiqatan ham oftob - bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do'stlari orqali yanada yorqinroq, ta'sirliroq aks yettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga,
Chopib bordim dadamga.
Dadam ko'chat yekardi,
Salom berdim dadamga.

P. Mo'minning «Yer chopildi - javob topildi» asarida mehnatdan zavqlanish tuyg'usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab unga berilgan topshiriq-misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi - yer chopadi. Terlab-pishadi. Natijada ko'ngi yorishadi, fikri oydinlashadi. Uyga berilgan misllarni ham yechadi, yerni ham chopadi.

Barcha savolga
Javob topildi,
Shu bahonada
Yer ham chopildi.

Savollar:

1. O'qish, odob haqidagi asarlari?
2. Quvnoq qo'shiqlari to'g'risida so'zlang?
3. P. Mo'min dostonlari?
4. «Bir tup g'o'za» haqida nima bilasiz?
5. «Yaxshi-ism»da texkikaga-samoga qiziqish?
6. Adib qissalari?

Qudrat Hikmat

(1925-1968)

Iste'dodli bolalar shoiri Qudrat Hikmat qisqa va samarali ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoq, ona-Vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag'ishladi.

Qudrat Hikmat 1925- yilda Toshkent shahrida kambag'al oilada tug'ildi. Bo'lajak shoir Quddus Muhammadiy rahbarlik qilgan adabiyot to'garagida faol ishtirok etdi. Uning bu to'garakka qatnashishi she'riyat sirlarini egallashida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Qudrat Hikmatning ijodiy o'sishida Oybek, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Mirtemir, Quddus Muhammadiylarning murabbiylik roli katta bo'ldi.

Qudrat Hikmat bolalar uchun 1945- yildan boshlab she'rlar yoza boshladi. Uning dastlabki she'rlari bolalar va yoshlar gazetalarida hamda jurnallarida bosilib chiqdi.

Qudrat Hikmat bir qancha vaqt Chirchiq shahar gazetasida ishladi. SHu bilan birga mehnatdan ajralmagan holda hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetida o'qidi. 1957-yildan umrining oxirigacha turli nashriyotlarda muharrir, bo'lim boshlig'i sifatida yosh avlodga kitoblar chop etishda fidoyilik qildi.

Qudrat Hikmatning «Mening Vatanim» (1950), «Baxtli bolalar» (1951 - 1952), «Odobli» (1953), «Do'stlik» (1954), «Rodnoy Uzbekistan» (1955) kabi qator to'plamlari nashr etildi. Keyinchalik «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak» (1963), «Soatjonning soati» (1964),

«Toshbaqalar hujumi» (1965), «Daydi bola», «O'g'lim bilan suhbat» (1970) singari kitoblari bilan o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdi.

SHoir asarlarining mavzu doirasi keng va rang-barang. Turli yoshdagi kitobxonlar Quدرات Hikmat asarlarini sevib o'qiydilar, ulardan estetik zavq oladilar. SHoir o'z asarlarida bolalarni qiziqtirgan, ularning bilgisi, eshitgisi kelgan narsa va voqealarni ixcham, o'ynoqi vazn va qofiyalari pishiq ishlangan misralarda ifodalaydi.

Quدرات Hikmat ijodining yana bir muhim tomoni shundaki, u bolalar tilini yaxshi o'zlashtirgan, o'rgangan. SHuning uchun ham uning she'rlari go'zal va yoqimli, sodda va ravon.

Quدرات Hikmat «Bog'cha» she'rida bolalarni ulkan Vatanning quchog'iga yetaklab kiradi. Vatan degan shu aziz so'zni, uning tom ma'nosini bolalarning soya-salqin, ozoda, orombaxsh bog'chasiga ko'chiradi. SHu yer, kichintoylarning yurgan-turgan joyi ulug' Vatan ekanligini uqtiradi:

O'rtoqjon Turg'un, Men bilan yurgin. Bizning bog'chani Bir borib ko'rgin. Turli o'yinchoq, Arg'imchoq bizda.	Kemamiz suzar Dengizchamizda. Miltig'imning O'qlari olmos, Chegaramizga Dushman yo'lolmas.
---	---

SHoir «Baxtli bolalar» she'rida bolalarni ozod, erkin, baxtiyorligi va ularning ona-Vatanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatlarini g'oyatda ko'tarinki ruh bilan kuylaydi:

Quyosh nuriday Yorug' yo'limiz, Qayga uzatsak, Etar qo'limiz	Gullasin doim Jonajon Vatan! Xalqimiz uchun Fido jon vatan.
---	--

Quدرات Hikmat kichik yoshdagi bolalarni maktabga qiziqtirishni, ularning ilm-fanga nisbatan bo'lgan havasini uyg'otishni o'zining shoirlik vazifasi deb bildi. Masalan, uning «Kitob — do'stim» she'rida boshdan oyoq kitob ta'rifi yotganligini ko'ramiz. SHoirning ta'kidlashicha, kimki kitobga mehr qo'ysa, astoydil o'qisa, aqli, zehni rivojlanishini juda o'ynoqi misralarda yozadi:

Kitob — keng dunyo,
So'zi nur — ziyo.
Qo'ysang mehringni,
Ochar zehningni.

SHoir kitobning mohiyatini chuqurroq ochishga intilib, «Keng dunyo», «So'zi nur —ziyo» kabi istioralarni qo'llaydi.

«Salom, maktab» she'rida shoir maktabning mohiyati va ulug'vorligini bir butunligicha kitobxon ko'z o'ngida gavdalantira olgan. San'atkor jozibali misralar tuzib, bolalar e'tiqodini maktabga tortadi, ularni ilm-fan asoslarini mukammal egallashga undaydi:

Ilm-u fan bog'i.
Hayot bulog'i.
Aziz umrning
Suyangan tog'i.

She’rda maktabdan olgan ilmni xalq uchun, Vatan uchun sarf qilish har bir bolaning muqaddas burchi ekanligi alohida ta’kidlanadi:

Sendan olib dars,
O’sdik har nafas.
Vatan xizmatin —
O’tash bizning qarz.

1952- yilda Quدرات Hikmat hayotida quvonchli voqea yuz berdi. Yana bir kitobi «Baxtiyorlik» nomli she’rlar to’plami nashr etildi. Uning «Odobli», «Baxtli bolalar» kitoblari shoir esa nomini keng kitobxonlar ommasiga tanitdi.

Quدرات Hikmat ijodida «Tinchlik haqida qo’shiq» she’ri alohida ahamiyatga egadir. SHoir tinchlikning mohiyatini butun borligicha she’rga soladi:

Tinchlik juda soz,
To’kin-sochin yoz.
O’q tovushi chiqmas,
Yangrar qo’shiq, soz.

SHoir tinchlik so’zini chuqurroq ochish uchun urushning yomon oqibatlarini yosh kitobxonlar ongiga mos ravishda ko’rsatadi:

Bo’lsa-chi urush,	Na giyoh qolar,
O’t tushar har yon.	Na daryo, ko’llar.
Tinch shirin turmush,	Bu sira bo’lmas,
Bo’ladi vayron...	Xalqlar yo’l qo’ymas,
Go’zal shaharlar,	Tinchlik — obodlik,
Yonib kul bo’lar.	Hech qachon so’nmas.

Quدرات Hikmat halol mehnatni go’zal hayot manbayi, u bilan kishi hurmat topadi deb ifodalaydi. SHuning uchun u o’zining kichik kitobxonlarida yoshligidanoq mehnat ko’nikmalarini tarbiyalashni asosiy vazifa deb biladi. «Buvimning deganlari» she’rida o’z mehnat samarasidan xursand bo’lgan kichikintoylar qiyofasini yaratadi. Muallif o’zining kichkina qahramonidagi intilishni sezib, uni ulug’ ishlarga boshlaydi. Sanobar buvisi bilan pilla qurti tutadi va bu ishdan benihoya xursand bo’ladi:

Sanobarning vaqti chog’,
Barg keltirdi bir quchoq.

Buvi ham Sanobarning ishidan xursand bo’ladi, endi uning katta ishlarni ham uddalay olishiga ishonadi:

Endi senga shu so’zim —
Qurtlar kirdi dahaga,
O’rnak bo’lib hammaga
Dastaga harakat qil,
O’z ishingning ko’zin bil!

SHoir Sanobarning buvisidan o’rgangan ishining katta ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini sodda misralarda chuqur ochishga erishadi:

Bu yil bizlar uch marta
Qurt tutib, mamlakatga —
Topshiramiz pillani,
Pilla emas, tillani.

Bu she'ning har bir misrasi o'ynoqi, tez yodda qoladigan asarlardan biridir. Buning uchun yuqoridagi parchaga, ayniqsa, «Pilla emas, tillani» iborasiga qayta nigoh tashlash kifoya.

SHoir bu she'rida bolalarni mehnatsevarlikka, Vatan va xalq oldidagi burchini muqaddas deb bilishga undaydi:

Qudrat Hikmatning «CHovkar», «Toshbaqalar hujumi», «Qum ostida qovunlar», «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak», «CHirchiq farzandi», «Ko'milgan oltin, vaysaqi xotin va tadbirkor ovchi qissasi» kabi ertak-dostonlarini bolalar huzur qilib o'qiydilar va katta estetik zavq oladilar.

Qudrat Hikmatning «Bobodehqon hangomasi», «Qum ostida qovunlar», «Toshbaqalar hujumi» dostonlarida bolalarning kattalar mehnatiga qiziqishlari, ulardan o'rnak olishga intilishlari yoritiladi.

Oz va mazmunli umr ko'rgan Qudrat Hikmat bolalarga bag'ishlab yigirmadan ziyod kitob yozdi. U tamomila yosh kitobxon ishonchini oqlab, kishilar hurmatini qozondi. Buning evaziga u munosib taqdirlanib, el nazariga tushdi. SHoir o'zi bashorat qilib:

Olmos mening yuragim,
Tolmas mening yuragim.
Kim aytadi elimda,

Qolmas mening yuragim, — deb yozgani kabi bugun u barhayot, oramizda,
mehri ko'z qoramizda.

1.3.3. Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Qudrat Hikmatning qaysi she'rlarida baxtli bolalik haqida so'z boradi?
2. U o'qish, kasb-hunar haqida qanday asarlar yaratdi va ularning o'ziga xosligi nimada?
3. SHoir dostonlarida cho'l-biyobonlarni o'zlashtirish masalasi qanday yoritilgan?

P.Muminning dramatik asarlari ko'rsatilgan javobni toping.

1. *«Kovokvoy bilan Chanoqvoy», «Sukatoy - Konfetvoy»

1.3.3.1. 19. «Kovokvoy bilan Chavoqvoy»

«G'ayrat bilan G'aflat», «Sukatoy- Konfetvoy»

A, B javoblar to'g'ri

1.3.4. P.Muminning "Odob va oftob" nomli kitobi qaysi yili nashr etilgan

*1972 1965

1976

1978

Qudrat Hikmat bir qancha vaqt Chirchiq shahar ro'znomasida ishladi. Shu bilan birga mehnatdan ajralmagan holda Tashkent davlat pedagogika institutida o'qidi. 1957-60 yillarda O'zbekiston badiiy adabiyot nashriyotida muharrirlik qildi. 60 yildan to umrining oxirigacha «Yosh gvardiya» nashriyotida bo'lim boshlig'i sifatida yosh avlodga kitoblar chop yetishdafidoyilik qildi.

Qudrat Hikmat «Mening Vatanim», «Baxtli bolalar», «Obodlik», «Do'stlik», «Rodnoy Uzbekistan» kabi qator to'plamlari nashr yetildi. Keyinchalik «Ilon shoh va uning amaldori ari haqida yertak»,

«Soatjonning soati», «Toshbaqalar hujumi», «Daydi bola», O'g'lim bilan suhbat» singari kitoblari bilan o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdi.

Qudrat Hikmatning «Chovkar», «Toshbaqalar hujumi», «Qum ostidagi qovunlar», Ilonshoh va uning amaldori ari haqida yertak», «Chirchiq farzandi» kabi poema va yertak-dostonlarini bolalar huzur qilib o'qiydilar va katta yestetik zavq oladilar.

Qudrat Hikmat o'zining ilk she'rlaridan biri «Mening Vatanim»da mehribon ona-Vatanning ulug'vorligini ko'tarinki ruh bilan kuylasa, «Bog'cha» she'rida bolalarni shu ulkan Vatanning quchog'iga yetaklab kiradi. Vatan degan aziz so'zni, uning tom ma'nosini bolalarning soya0salqin, ozoda, orombaxsh bog'chasiga ko'chiradi. Shu yer, kichkintoylarning yurgan-turgan joyi ulug' Vatan yekani qitiradi;

O'rtoqjon Turg'un,
Men bilan yurgin.
Bizning bog'chani
Bir borib ko'rgin.
Turli o'yinchoq,
Armimchoq bizda.
Kemamiz so'zlar
Dengizchamizda.
Bog'chada yayrab,
Quv nab o'ynaymiz.
Har kun bir yangi
Qo'shiq kuylaymiz.

Shoir «Baxtli bolalar» she'rida bolalarni ozod, yekin va baxtiyorligi va ularning ona-Vatanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbtlarini zo'r ko'tarinki ruh bilan kuylaydi. Qudrat Hikmat bu she'rda ham o'z uslubiga sodiq, o'laroq misralarni yeng kichik vaznda ifodalaydi:

Quyosh yo'liday
Yorug' yo'limiz.
Qayga uzatsak,
Yetar qo'limiz...

Qudrat Hikmat kichik yoshdagi bolalarni maktabga qiziqtirishni, ularning ilm-fanga nisbatan bo'lgan havasini o'yg'otishni o'zini shoirlik vazifasi deb bildi. Masalan, uning «Kitob - do'stim» she'rini olib ko'raylik. She'rda boshdan-oyoq kitob ta'rifi yotganligini ko'ramz. Shoirning ta'kidlashicha, kimki kitobga mehr qo'ysa, astoyidil o'qisa, aqli-zehni rivojlanishini juda o'ynoqi misralarda yozadi:

Kitob-keng dunyo,
So'zi nur-ziyo

Qo'ysang mehringni
Ochar zehningni

Shoir kitobning mohiyatini chuqurroq ochishga intilib, «Keng dunyo», «So'zi nur-ziyo» kabi istioralarni qo'llab o'z oldiga qo'ygan maqsadiga yerishadi.

«Salom, maktab!» she'rida shoir maktabning mohiyati va ulug'vorligini bir butunligicha kitobxon ko'z o'ngida gavdalantira olgan. San'atkor jozibali misralar tuzib, bolalik ye'tiqodini maktabga tortadi, ularni ilm-fan asoslarini yana mukammalroq egallashga undaydi.

Savollar:

1. Shoirning o'qish, mehnat haqidagi asarlari?
2. «Chirchiq farzandi»ning g'oyasi?
3. «Chovkar» haqida nima bilasiz?

Foydanalangan adabiyotlar:

1. I. Ahmedov va b. Bolalar adabiyoti. Xrestomatiya. 1993 yil.
2. A. Suyumov, M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. qullanma. 1994 yil.
3. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995 yil.
4. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.

5-mavzu: Xudoyberdi To‘xtaboyev hayoti va ijodi. “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiatlari. Farhod Musajon hayoti va ijodi. Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar. Farhod Musajon - dramaturg adib.

Reja:

1. Adiblarning tarjimai holi.
2. Kichik hikoyalarida bola obrazi.
3. Qissa va asarlarida sarguzasht.
4. “Sariq devni minib” asarining syujeti.

Bolalarga kitob yozmoq uchun bolalikka qaytib bormoq kerak,- deb yozadi buyuk adibimiz Said Ahmad, - Boshlagan kitobingga oxirgi nuqta qo‘yguningcha bola bo‘lib yashash zarur. Bolalik orzulari bir nuqtada turmaydi. Har daqiqada o‘zgaradi. Bir kuni militsioner bo‘lging kelsa, ertasiga uchuvchi bo‘lging keladi. Ko‘ngilga tikkan bu niyatlarining sal fursatdan keyin o‘zgaradi-yu, birdan josus tutadigan askar bo‘lging kelib qoladi. Polvon bo‘lib hammani qoyil qoldirgning, masxaraboz bo‘lib tsirkda yuzlab odamlarni kuldirgning, o‘rmonu to‘qaylarda yo‘lbars terisini shilib kelgning, senga ikki qo‘ygan o‘qituvchingni lol qoldirgning keladi.

Afsuslar bo‘lsinki, men mana shunday beg‘ubor bolaligimni yo‘qotganman. Bolaligim davr to‘lqinlarida qirg‘oqlarga urilib o‘tib ketgan. Quloqlarni fosh etish, ularni tug‘ilib o‘sgan yeriga quvish, qishloqlarni kollektivlashtirish, xotin-qizlar boshidan paranjisini tortib olib, o‘t qo‘yish biz bolalarning “siyosiy” vazifamiz bo‘lib qolgandi. Oktyabryat bo‘ldik, pioner bo‘ldik, komsomol bo‘ldik. O‘ylab qaragam, tug‘ilibmizu bolaligimiz ustidan xatlab o‘tib ketibmiz.

O‘sha davr bolalari to‘g‘risida yozilgan hikoyalarni o‘qiganimda go‘yo bizning avlod tug‘ilib, o‘rdakning jo‘jasidek tuxumdan chiqqanu suvga suzib ketavergan. “Tom Soyerning sarguzashtlari” qissasini o‘qiganimda, nega men Tomga o‘xshagan bo‘lmadim, deb o‘zimdan o‘zim so‘rayman. Men Tomning yoshiga yetganimda tepasida teshigi tunuka bankani bo‘ynimga osib bozorlarda, hukumat idoralarida, magazinlarda kapitalizm iskanjasida ingrangan siyosiy maxbuslarga yordam puli yig‘ardim. Qizil alvonga yozilgan “Hamma kolxozga, yakka xo‘jaliklar sho‘ro hukumatining dushmanidir” degan shiorni ko‘tarib qishloqma-qishloq kezardim. Qishloq xonadonlarining devorlariga “Quloqlarga shafqat yo‘q, ularning joyi uzoq Sibiriya” degan yozuvlarning qancha-qanchasini bo‘r bilan yozganmiz, endi o‘ylab qaragam, bolaligim siyosat daryosida oqib ketibdi. Pionerlik, komsomollik bizni “Siyosiy hushyorlikka” o‘rgatib qo‘ygan ekan. Otasini “xalq dushmani” sifatida qamatganlar, ta‘lim bergan o‘qituvchisini fosh qilib, sudda guvog‘lik bergan “Pavlik

Morozovchilar” bizning avlod vakillari edi. Yigirmanchi-o‘ttizinchi yillar go‘yo xotinlar chaqaloq tug‘magan, ovozi do‘rillab qolgan yigitlarni tuqqan edilar.

O‘sha yillarda yaratilgan adabiy kitoblar orasidan bironta bolalarga bag‘ishlangan durustroq asar topolmadim. Birgina G‘afur G‘ulomning “SHum bola”si nursiz kitoblar orasida yarqirab turibdi. Bunga sabab qissada sof bolalik hayoti aks etgan edi. Yer kurrasining u tomonida Tom Soyer, bu tomonida davr siyosatini, partiya chaqiriqlarini tan olmagan “SHum bola” dunyoga kelgan edi. Adabiyotimizda bolalar hayotidan yozilgan hikoyalarni inkor qilmaymiz. Ammo ular partiya chaqiriqlariga javoban yozilgan “qizil” hikoyalar edi.

“Sabr qilsang g‘o‘radin xolvo pishur” deganlaridek elliginichi yillarning oxirlariga kelib bolalarimiz baxtiga Xudoyberdi To‘xtaboev degan iste‘dodli bir yozuvchi adabiyotimiz eshigini ochib kirdi. Bolalar adabiyotiga albatta ana shunday bir yozuvchi keladi, deb intiqlik bilan kutgan edik. Uning birinchi hikoyalaridanoq bolalar olamini yaxshi bilgani, ular psixologiyasini, o‘y-xayollarini, favqulodda ifodalarga boy biyron tilini, qiliqlarini, xullasi simobdek beqaror hayotini sinchkovlik bilan o‘rgangan, o‘zi ham boladek har narsaga qiziqadigan mehnatkash yozuvchi safimizga kelganidan quvondik. Xudoyberdi dimiqib qolgan bolalar adabiyotiga musaffo havo olib kirgandek bo‘ldi. Uning “Sariq devni minib” degan turkum qissalariga

debocha bo'lgan "Sehrlı SHapkacha" qissasi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. U tez kunda bolalarimizning qo'ldan qo'ymay, sevib o'qiydigan kitobi bo'lib qoldi.

Otaxon adib olqishiga muyassar bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboev 1932- yilning 17- dekabrıda Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumaniga qarashli Katta Tagob qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi To'xtaboev ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas qishloqda bo'ladigan hamma sohalarida qo'lidan kelganicha mehnat qildi. Hayot nimadan iborat ekanligini yoshligıdanoq bila boshladi.

Bo'lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarida o'qishni yig'ishtirib qo'yib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi.

Qo'qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan Xudoyberdi To'xtaboev ona qishlog'ida muallimlik qilar ekan, unda ilmga nisbatan cheksiz ishtiyoq uyg'onadi. SHuning uchun ham u o'qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o'qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy, Bobur, G'. G'ulom, Oybek, H. Olimjon, A. Qahhor asarlarini sevib o'qidi, o'rgandi.

Universitetni tugatib, Bog'dod tumanida o'qituvchilik qildi. Maktabda ilmiy bo'lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko'rsatdi. SHE'riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilina boshladi. Bu esa bo'lajak adibni markazga - Toshkentga, ijodiy ish bilan jiddiy shug'ullanishga chorlar edi. SHunday ham bo'ldi. U 1958-yilda Toshkentga ko'chib keldi. «Toshkent haqiqati» gazetasiga ishga kirdi.

X. To'xtaboev bolalikdan to'g'ri so'z, halol, pok va mehnatsevar bo'lib o'sdi. Gazetada ishlar ekan, ba'zi nopok odamlarni ko'rib, ularning qilmishlarini hazm qila olmadi. Bunday kishilarning sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o'rtasida munofıqlarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo'l keldi. 1962- yilda respublikamizning otaxon gazetasi — «O'zbekiston ovozi»ga feletonchi bo'lib ishga o'tdi. Bu yerda 300 dan ziyod feleton yozdi.

«Hadik», «Tilxat», «Ona», «Xarakteristika», «Barvaqt aytilgan azon», «Domlaning uyiga o't ketdi», «Maxsus topshiriq», «Jonginam, shartingni ayt» kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan Xudoyberdi To'xtaboev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning «Birinchi daraxtim», «Qochoqlar», «Qizg'anchiq», «Dadajon, yozmang», «Kelvordim, dada», «Vali bilan Salim», «SHoshqaloq», «Yaxshi-yaxshi» singari o'nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Asarlar ro'yxati

1949-yil. Qo'qon pedagogika bilim yurtini tugatdi.

1955-yil. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatdi.

1955—58-yillar. Farg'ona viloyatining Bog'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, direktor vazifalarida ishladi.

1958-yil. «Toshkent haqiqati», «Sovet O'zbekistonb gazetalarida adabiy xodim, bo'lim mudiri vazifalarida ishlagan. Keyinchalik «Yosh gvardiya» nashriyoti, «Gulxan», «Yosh kuch» jumaHarida rahbar lavozimlarda ishladi.

1961-yil. «Shoshqaloq» to'plami nashr yetildi.

1966-yil. «So'qmoqlan» qissasi bosilib chiqdi.

1967-yil. «Muhabbat» qo'shig'i ye'lon qilindi.

1968-yil. «Sarig' devni minib» romani ye'lon qilindi.

1969-yil- «Jonginam, shartingni ayt» kitobi bosildi.

1973-yil. «Sarig' devning o'limi» qissasi yozildi.

1974-yil. «0monboy bilan Davronboy sarguzashti» qissasi ye'lon qilindi.

1976-yil. «Besh bolali yigitcha» kitobi yozildi.

1981-yil. «Qasoskorning oltinboshi» romani bosildi.

1982-yil. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodifflı unvoni berildi.

dagi odamlar bilan sevinib, quvonib yashaydi. O'zini ularning bag'rida erkin his etadi.

Xudoyberdi To'xtaboevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg'otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan narsa hayot, vaqtli matbuot,

tahririyatlardagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o'qish, o'rganish, o'z ustida ishlash bo'ldi.

Hayotda turli xarakterdagi odamlar ko'p bo'ladi. Birov yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo'yganini o'zi ham sezmay qoladi. Birov o'zini jamoat uchun g'oyat foydali odamman deb o'ylaydi, aslida esa zararkunanda bo'lib chiqadi. Yana birov bilar-bilmas har narsaga aralashaveradi, o'rtaga tushadi, so'z beradi, lekin baribir men haqman, shunday qilishim kerak deb biladi. Ana shunday kishilarga bag'ishlangan «Jonginam, shartingni ayt» qissasi Xudoyberdi To'xtaboevni hajvchi sifatida keng kitobxonlar ommasiga tanishtirdi.

Xudoyberdi To'xtaboev uzoq yillar feletonchi bo'lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o'rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo'layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog'iga botgan, mol-u dunyoga hirs qo'ygan shaxslar haqida talay feletonlar yozdi. «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» nomli asarlari ana shu dalillarni umumlashtirish asosida yuzaga kelgan, desak to'g'ri bo'ladi.

Ma'lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanalar edi. «Kalvak maxsum», «Toshpo'lat tajang», «Tirilgan murda», «SHum bola» dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keyingi yillarda Abdulla Qodiriy va G'afur G'ulomning an'analarini Xudoyberdi To'xtaboev davom ettirib, bu «bo'shliq»ni to'ldirishga harakat qildi.

Xudoyberdi To'xtaboev bolalar uchun asar yozayotgan paytda, albatta, o'z o'quvchisini ko'z oldiga keltirib yozadi. «Olti yoshli bolaga aytayotgan gapingiz o'n to'rt yoshli o'smiringa aytadigan gapingizdan, albatta, farq qilishi kerak» deb ta'kidlaydi.

Yozuvchining bolalar va o'smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o'qimishli, jozibali bo'lishining asosiy sabablaridan biri ham shu. SHuning uchun ham Xudoyberdi To'xtaboevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi, bolalar hayotidan olingan «Sehrli SHapkacha» tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo'ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi.

Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste'dodi ilgari asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq seziladi. «Sariq devni minib» asarini qiziqarli sujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi - bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo'lmish Hoshimjonni qo'yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo'li sarguzashtlarini, o'ziga xos xususiyatini va ruhiy xolatini atroflicha ochib beradi. SHuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo'ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» zukko bolalarning fazilatlarini yaqqol mujassamlashganligini ko'ramiz.

«Sariq devni minib»da o'qish, ilm cho'qqilarini egallash uchun va insonning o'z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonimizda yashashga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-elpi yo'l axtargan va adashgan bolalar — hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi.

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho'xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotidagi ko'p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo'l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro' orttirishi mumkin, deb o'ylaydi. O'z fikrida qat'iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli SHapkachani izlashga tushadi. Uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli SHapkachani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o'zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi. «Ortiqcha» fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib «miyasini qotiradigan» o'qituvchilariga o'qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo'la olish, ko'krak to'la ordenlar bilan shon-shuhratlar, katta obro'ga ega bo'lish mumkinligini ko'rsatib qo'yimoqchi bo'ladi va shu maqsadda sehrli SHapkacha bilan safarga chiqadi. SHunday qilib, uning sarguzashtlari boshlanadi.

Ming afsuski, sehrli SHapkacha bu borada Hoshimjonga ko'mak bera olmaydi. Sehrli SHapkacha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat

xo'jaligida agronom bo'lib ham, shoirlik qilib ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo'g'irchoq teatrida artistlik qilib ham ko'radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo'ladi.

Lekin hamma yerda ilmning, tajribasining yo'qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qaerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda-yu sharmisor bo'ladi. Uning agronomlik va muhandislik «faoliyati» jinoyatga olib keladi, qamalishiga oz qoladi, shoir bo'laman deb rasvo bo'ladi, «ulug' artist» teatrdan quviladi.

Qissada Hoshimjon o'z sayohati davomida qanchadan qancha ajoyibotlarning guvohi bo'lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o'qimay, mehnat qilmay, o'z ustida ishlay juda ko'p narsalarga erishmoqchi bo'ladi, lekin hech narsaga erisha olmaydi. Chunki unga ilmsizligi pand beradi.

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Bolalarga xos o'yinqaroqlik ham, soddalig-u beg'uborlik ham, g'ururlik, to'g'ri so'zlik, shumlik, biroz maqtanchoqlik, hatto o'rnida yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va ruhiy tushkunlikdan yiroqlik Hoshimjon xulq-atvoriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To'xtaboevning «Sariq devning o'limi» sarguzasht romani uch qism («O'rtoq polkovnik», «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani»)dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo'lasiz, sehrlil SHapkacha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda — o'g'ri, muttahaam, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda, Hoshimjon avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki to'qqiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lib yetishishi haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshda sartarosh bo'ladi. «Bilasiz-ku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmagunimcha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman», deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o'qib, uni bitirgandan so'ng militsionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi.

Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor. U Salimjonning boshiga juda ko'p og'ir savdolar solgan, uyiga o't qo'ygan, uning yakka-yu yolg'iz farzandining qo'lga to'pponcha tutqazgan, jinoyatga yetaklagan.

Asar pirovardida butun umri xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug'ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag'lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g'olib chiqadi.

Xudoyberdi To'xtaboev o'z romanida yulg'ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo'lib birlashsa, bu ishni butunlay o'z qo'lga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

«Sariq devni minib» qissasi, «Sariq devning o'limi» romanining eng yaxshi fazilatlaridan biri tilining shiradorligi va o'ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e'tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga, bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning xarakteri uning so'zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni o'qishga, o'rganishga, izlanishga o'rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

«Qasoskorning oltin boshi» romani markazida bosh qahramon — tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. «Qasoskorning oltin boshi» tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham adib Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin o'rni-

o'rni bilan uning hayotiga doir ma'lumotlar berib borgan. Bu ma'lumotlar uning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi.

Namoz faqat jismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskor, qo'rqmas, tadbirkor, ochiqko'ngil qahramon sifatida gavdalantirilgan. Qahramon atrofiga o'zi kabi dovyurak yigitlarni to'plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi, adolatligi, yetimparvarligi uchun xalq Namozni yaxshi ko'radi va Go'ro'g'liga qiyos qiladi: «Go'ro'g'libek Namozboy qiyofasida paydo bo'lgan emish. Afsun o'qisa ko'zdan g'oyib bo'lib qolarmish. Undan o'q o'tmas emish, qilich chopmas emish...» Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi «Qasoskorning oltin boshi» da yaxshi chizib berilgan.

Iste'dodli bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboevning «Sir ochildi», «Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa», «Besh bolali yigitcha»,

«SHirin qovunlar mamlakatida yoki sehrarlar jangi», «Mungli ko'zlar», «Jannati odamlar», «Quyondar saltanati», «Qiz talashgan o'smirlar» va boshqa roman hamda qissalarining yuzaga kelishi o'zbek bolalar adabiyotining yutug'i hisoblanadi.

1.3.5. Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Adib ijodida dov-daraxtlarni ekish, parvarish qilish masalasi qanday yoritilgan?
2. Adib Hoshimjon obrazi orqali bolalarning qanday sifatlarini ochib beradi va qanday yaramas odatlarni kulgi ostiga oladi?
3. X.To'xtaboev ikkinchi jahon urushi davriga bag'ishlangan asarlarida bolalar hayotini qanday tasvirlaydi?
4. Fantastik-sarguzasht janri haqida nima deya olasiz?
5. Adibning fantastik-sarguzasht janrida yaratgan qaysi asarlarini bilasiz?

Farhod Musajon

(1933-2013)

O'zining qisqa hajmli va hayajonli hikoyalari, mazmundor qissalari, kichkintoylarni to'liqlantiradigan pesalari bilan bolalarning quvonchlariga quvonch ulashgan qalamkashlardan biri Farhod Musajon 1933-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1956- yilda ToshDUning sharq fakultetini tamomlaydi. Bir necha yil O'zbekiston radiosida, «O'zbekiston madaniyati» gazetasida, «G'uncha» jurnalida mehnat qiladi. 1966- yildan esa «O'zbekfilm»da muharrir, bosh muharrir vazifalarida ishladi.

F. Musajonning ilk asari 1955- yilda e'lon qilingan. SHundan so'ng «Daradagi qishloqda» (1960), «Turdi, galstuk va men» (1970), «Oftobni quvlab» (1970), «CHin do'stlik» (1976), «CHEvar qiz» (1982), «Buloq suvi» (1982), «Turdi, velosiped va men» (1983), «Glotoq rodnikovoy vodi», «Tekin tomosha» (1989) kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo'ldi.

1977-yilda adib o'zining bolalarga atab yozgan barcha hikoyalarini jamlab, yigirma ikki taboqdan iborat katta kitobini qayta ishlagan va to'ldirilgan holda chop ettirdi. Bu kitobini ham ilgarigisiga o'xshab «Tekin tomosha» deb atadi. Oldingisidan farqli o'laroq, bu kitob uch qismdan iborat: kichkintoylar uchun, o'rtancha yoshdagilar va o'smirlar uchun.

Farhod Musajon ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning aksar hikoyalari quvnoq hazil-mutoyiba hissi bilan sug'orilgan. Adibning barcha hikoyalarida beg'ubor va zavqli bolalik davri ruhiyati saqlangan. SHuning uchun uning hikoyalari oson o'qiladi, oson hazm bo'ladi. Natijada ta'sir kuchi ham ortadi.

Adib ijodining yana bir jihati u o'z personajlarini yomon yoki yaxshi, adabiy atamalar qo'llab aytadigan bo'lsak salbiy yoki ijobiyga ajratmaydi. Ularga baho berar ekan, fe'l-atvori qandayligini tasvirlar ekan hech qachon kuchli iboralarni, «ablah, iblis, yaramas, gazanda» va hokazo haqoratimiz, qattiq-quruq so'zlarni ishlatmaydi. Zero, inson sifatida endi shakllanayotganbolalarga nisbatan bunday o'tkir so'zlarni ishlatish insofdan va adolatdan emasligini tushunadi. U o'z qahramonlarini, qandayligidan qat'i nazar, o'yinqaroqmi, lapashangmi, ayyormi, dangasami, maqtanchoqmi — hammasini birday sevadi va sevib tasvirlaydi. Uning uchun yomon bola umuman yo'q, kamchiligi bo'lishi mumkin, deylik

yolg'ochiroq, xasisroq, xudbinroq, lekin nokas bola yo'q, har qanday bolani ham to'g'ri yo'lga solib yuborish mumkinligiga ishondi va shu muborak maqsad yo'lida ijod qildi.

Farhod Musajonning o'ziga xos uslubi bor. Uning asarlaridan bir parchagina o'qigan odam muallifning kimligini aniqlab olishi mumkin. U aniq, sodda, tushunarli va ixcham yozadi. SHu sababli katta mahorat evaziga yillar davomida paydo bo'ladigan va shakllanadigan badiiy soddalik tufayli uning asarlari o'qimishli chiqadi. Bolalar tili bilan aytsak, hikoyalari «rostakam bo'lgan voqeaga o'xshaydi». Darhaqiqat, adib voqealarni xuddi hayotdagidek ishonarli va qiziqarli qilib so'zlab beradi. Bu juda muhim. Negaki bolalar hikoya voqealariga ishonmasalar asarning ta'sir kuchi yo'qqa chiqadi. Mana shu omil - ishontira olish mahorati F. Musajon ijodining eng muhim xususiyatidir.

Farhod Musajon barcha yoshdagi bolalar uchun yozadi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi, kichik va o'rta hamda katta yoshdagi bolalarga va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarini ham uchratish mumkin.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya bolalar kitobxonligi asosan ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar o'zlari tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanisha boradilar. Ona yurtga, tabiatga muhabbat xislatlari; mehnat qilish va mehnat ahlini hurmat qilish kabi fazilatlar shu yoshdan shakllana boshlaydi. Turmushda qizg'anchiq bo'lmaslik, kasb-hunar egallashga intilish, kattalarni hurmat qilish kabi ijobiy fazilatlar ham shular jumlasiga kiradi. Bolalarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yaxshi o'rgangan Farhod Musajon kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlab «Eng yaxshi chana», «SHodiyona kun», «SHiqildoq»,

«Pahlavonvanimjon», «Sovg'a», «Ajoyib buzoqcha», «Yaxshilik», «To'labber», «Varrak» kabi o'nlab hikoyalar yaratgan.

Adibning «Varrak» asarining mazmuni oddiygina varrak yasash voqeasi asosiga qurilgan.

Asarda kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi.

Ana shunday jozibali asarlaridan yana biri «Eng yaxshi chana»dir. Bu hikoyada qo'li ochiq, saxovatli, bag'ri keng bo'lish, xasis, ziqna bo'lmaslik kabi g'oyalar kichkintoylar ongiga yetkaziladi.

Latifjonga dadasi chana olib beradi. Quvonchdan bolaning boshi ko'kka yetay deydi.

Latifjon boshda ancha qizg'anchiq bo'ladi. SHuning uchun chanada bitta o'zi uchadi. Boshqalarni chanaga yaqin keltirmaydi, unga birovning qo'li tegib ketsa, chanani ko'tarib uyiga chopadi.

Latifjonning dadasi o'g'lidagi bunday qizg'anchilikni payqaydi, lekin unga pand-nasihati qilib o'tirmaydi. Aksincha, quyidagi ibratli hikoyatni keltiradi:

— Bilasanmi, — debdi dadasi o'g'liga, — men bu ajoyib chanani qaerdan oldim? Bunaqasi magazinda sotilmaydi, bu buyurtma bilan qo'lda yasalgan chana. Uning yoshi oltmishda. Ha, oltmish yil burun bu chanani bir og'aynimning dadasi olib bergan ekan. Og'aynim o'sha paytda sendek ekan. CHananing chiroyliligini ko'rib uchishga uning ham ko'zi qiymabdi. Kattaroq bo'lganimda ucharman, hozir bolalar tortib olib eskitib qo'yishadi, deb asrab yuraveribdi. Oradan yillar o'tibdi, bir kuni qarasa bolaligi tugab, chol bo'lib qolibdi. Endi unga chana kerak emas ekan, chunki qariganda uyalmasdan chana uchadimi?! Og'aynim chanani menga sovg'a qilar ekan, beg'ubor bolalik chog'imda maza qilib uchmadim, ishqilib sening o'g'lingga yaxshi xizmat qilsin dedi. SHunaqa, o'g'lim, qizg'anchiq odam zavqdan mahrum bo'ladi!

Latifjon boshda dadasining bu gaplariga tushunolmaydi. Yuragining allaqaeri jiz etgandek bo'ladi. Nihoyat u dadasiga yuzlanib:

— Ertadan boshlab ayamasdan uchaman, — dedi. Adibning «Sovg'a» hikoyasi bolalarni mehnatkash bo'lishga da'vat etadi. Oqiljonning gul ekishi, uni mehr bilan parvarish qilishi kichik kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

«Turdi, galstuk va men» hikoyasi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarning sevimli asarlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinadi.

Hikoyada ozodalik, shahar tozaligi uchun kurashish bosh masala qilib qo'yiladi. Turdi va G'iyos kabilarning shahar tozaligida faol qatnashmaganliklari, dangasaliklari fosh qilinadi.

Xullas, Farhod Musajon o'zining maktabgacha va maktab yoshidagi kichik bolalarga bag'ishlab yozgan hikoyalarda salmoqdor fikrlarni sodda, bolalarbop shaklda aytadi. Adib nasihat qilish yo'lidan bormaydi, aksincha, bolalar hayotida ko'p uchrab turadigan oddiy voqealarni tasvirlaydi va aytmoqchi bo'lgan muhim gaplarni ana shu voqealar mag'ziga singdirib yuboradi.

Farhod Musajonning «Orzuga ayb yo'q», «Bo'sh kelma, Aliqulov», «Buloq suvi» kabi va boshqa qissalari o'zbek bolalar adabiyotida muhim o'rinda turadi.

Farhod Musajon dramaturg sifatida ham yoshlarning mehrini qozongan.

«Xayolparastlar»,

«Oq kabutar», «Sabil qoldi», „O'g'limni qaytarib beringlar» pesalari shular jumlasiga kiradi.

Bular orasida, ayniqsa, «O'g'limni qaytarib beringlar» asari mashhur. Dramaturg uning nomini o'zgartirib «Najot istab» deb qaytadan ishladi. U hozirgi O'zbek Milliy teatrida sahna yuzini ko'rdi. Dushanbeda, va Almatida, Tataristonda qo'yildi.

Pesada, asosan, bola tarbiyasida ota-onaning o'ynaydigan beqiyos katta roli haqida gap boradi. Farhod Musajonning kattalarga bag'ishlab «Bahor nafasi», «Bu ko'zlarga ishonsa bo'ladi»,

«Xotin kishining ra'yi», «Ko'r shofyor», «Zo'raki kashanda», «Nozik masala», «Kalla-pocha», «Himmat», «Bog' ko'cha» kabi kitoblari bosilib chiqqan.

1.3.6. Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Adib ijodining o'ziga xos uslubi haqida nima deya olasiz?
2. F. Musajon maktabgacha va maktab yoshidagi kichik bolalarga bag'ishlangan hikoyalarda qanday g'oyalarni ilgari suradi?
3. Farhod Musajon drama janrida qanday asarlar yaratdi?

1.3.7. X.To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asarining qahramonining nomi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

Xoshimjon

*Omon

Damir

Ahmadjon

X. To'xtaboyev qachon tugilgan.?

*1932

1931

1936

1937

6-mavzu: Miraziz A'zamning hayoti va ijodiy faoliyati. M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini. Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati. Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. T.Adashboyevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati. Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she'rlari badiiyati.

Reja:

1. Miraziz A'zamning hatoyi va ijodi.
2. T.Adashboevning tarjimai holi.

2. Kichkintoylarning sevimli shoiri.
3. Shoir asarlarida –beg’ubor bolalik.
4. Adibning tabiat mavzuidagi she’rlari.

Hozirgi zamon o’zbek bolalar she’riyatida shoir Miraziz A’zamning o’z o’rni bor. Bu, albatta, uning izlanishi, mehnatkashligi, bolalarni va ularning adabiyotini qattiq sevishidan. Ijodkor bolalar o’rtasidagi do’stlik, hamjihatlik, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo’lish, yaxshi o’qish uchun harakat qilish, kurashish kabi masalalarni ko’proq ochib berishga harakat qiladi.

Miraziz A’zam 1936-yilda Toshkent shahrida tug’ildi. Maktabda o’qib yurgan kezlari dayoq she’riyatga qiziqdi. She’riy mashqlarini Quddus Muhammadiy va keyinchalik Quadrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to’garakda sinovdan o’tkazar, ijo’diy izlanish, o’qish va o’rganishni qizg’in davom ettirar edi. Adabiyot va she’riyatga bo’lgan chanqoqlik uni ToshDUga yetakladi. Adabiy mashqlari bolalar va o’quvchilar gazetalarida, «Gulxan», «G’uncha» jurnallarida bosila boshladi.

Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan Miraziz A’zam bir qator gazeta va jurnallarda ishladi. Shoirning bolalar va kattalarga bag’ishlangan «Metallurg», «Aqlli bolalar», «Senga nima bo’ldi?», «G’alati tush», «Er aylanadi», «Erga do’ruq solamiz», «Haqiqatning so’zlari», «Sabot»,

«Tuyg’ular», «Bir cho’ntak yong’oq», «Qirq bolaga qirq savol», «Eng yorug’ yulduzlar», «Sevaian», «Tuyg’ular», «Sabot», «Haqiqatning ko’zlari», «Imon» kabi asarlari bolalar kitob javonlaridan mustahkam o’rin olgan.

Bolalarning jo’shqin shoiri Miraziz A’zam ozod va obod Vatanimiz haqida jo’shib she’rlar, dostonlar yaratgan ijodkor sifatida e’zozlanadi. E’tibor bering, uning bir she’rida yosh qalbning ona yurtimizga bo’lgan faxri, g’ururi, mehri, sadoqati quyidagicha o’ynoqi misralarda o’z ifodasini topgan:

Vataniimz guliston,
 Guliston bo’lsin,
 Kundan kunga yashnasin
 Bo’ston bo’lsin.
 Hayot to’kin,
 farovon, Tinch-omon
 bo’lsin.
 Har vaqt o’ynab-
 kulaylik, Tinch zamon
 bo’lsin.
 Tong-la turib shu vatan
 Ko’rkini ko’rdik.
 Ufqlarga ko’z
 solib Ko’kini
 ko’rdik.
 Keng dalalar
 zangordir, Eh, qanday
 zangor...
 Bu go’zal
 Makonda
 Mangulik bor.

Suyukli bolalar shoiri Vatanimizni qanday sevsan, ardoqlasan, ona –tilimizni ham ana shunday muhabbat bilan sevasan. «Ona tilim» asarida ilgari surgan fikrlari bolalarni ona-tilimizni sevishga, ardoqlashga chaqiradi:

Ona tilim, turkiy tilim,
 Ardoqligim, o’zbek tilim.
 Avaylayman seni doim
 Qoboq ila ko’zdek tilim.

Ona tilim, o'zbek tilim,
Qadim-qadim turkiy tilim.
Menga berding san'at, bilim
Vatanimdek ko'rkli tilim.

Ey, sevikli o'zbek tilim,
Turkiy tilim, ona tilim,
O'zga tilga alishmayman,
O'z onasin almashar kim?

Turkiy tilim, ko'rkli tilim,
O'zbek tilim, ko'zdek tilim.
Ona tilim, dono tilim,
Dunyoda bir dona tilim.

Miraziz A'zam har bir asarida bolajonlar uchun, albatta, bir yangilik, yaxshi gap aytish ishtiyoqi bilan qaynab-toshadi va buning uddasidan chiqadi. Masalan, «Er aylanadi» she'rini olib ko'raylik. Bunday olib qarasangiz, bu bir oddiy gap. Axir necha ming asrdan beri u aylanadi, yana aylanaveradi, bu haqda jozibali she'r bo'lishi mumkin emas, degan tushuncha xayolingizdan o'tadi. Lekin she'rni o'qiydigan bo'lsangiz sizning tasavvuringiz butunlay o'zgaradi. Murg'ak qalb u yoqda tursin biz kattalar ham yerning aylanishi, onlarning o'tishi, shamolning esib turishi bilan o'sib-ulg'ayishimiz, kamol topishimiz, bunyodkorlik ishlarimiz ko'z o'ngimizdan o'tadi. Qilgan yaxshi-yomon ishlarimizni o'ylaymiz. «Er aylanadi» she'rida xuddi shu haqda bahs yuritiladi:

Asta-asta shamol
esadi, Asta-asta yer
aylanadi. Asta-asta
odam o'sadi, Asta-asta
yer aylanadi. Asta-asta
ulg'ayar aql, Asta-asta
yer aylanadi. Asta-asta
yetilar naql, Asta-asta
yer aylanadi...

Kichkintoylar ko'pincha hayot murakkabligidan bexabar bo'ladilar. Ular kattalarning ko'magida, o'zlari tinglagan badiiy asarlari yordamida olam mo'jizalari, turmush bilan tanishib boradilar. Miraziz A'zamning «Bedananing buvisi» she'ri kichik yoshdagi bolalarga juda qo'l keladi. Bu she'r xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida yaratilgan.

Yosh kitobxon she'rda bedanalarning turmush tarzi bilan yaqindan tanishib oladi. Xuddi insonlar kabi ularning ham qavm-qarindoshlari, keksa-yoshlari bo'lishini, kasal-sog' yurishlarini buvi-bedana kechmishlari orqali tushunib yetadilar. Buvi dardga chalinib, og'ir kasal bo'lib qoladi, tomog'idan ovqat o'tmaydi. Hammaning tinchligi, oromi buziladi, har kim qo'lidan kelganicha unga madadkor bo'lishga intiladi. Bu lavha chiroyli va ta'sirli chizilgan:

Bedananing otasi bor ekan, nor ekan,
Onasiga oriyat yor ekan, yor ekan.
Dori-darmon, o't-o'lan keltirib,
keltirib, Qari qushga tutishib, ichirib,
yedirib, Aylanishib boshida turdilar.
Sog'ayishning chorasini ko'rdilar, ko'rdilar...

Va-vaq; va-
vaq Bit-bil-diq.

Va-vaq, va-
vaq, Bit-bil-diq.

Biz har doim bolalar adabiyotida o'y o'ylash, xayol surish, o'zining uchqur xayollari bilan yashash haqida yozilgan asarlarni qizg'in qo'llab-quvvatlaymiz. Miraziz A'zamning ham «Xayol surish» she'rining qahramoni har bir narsani tezroq bilib olgisi, uning poyoniga yetgisi keladi. Lekin u qancha o'ylamasin, xayol surmasin, aqliy tafakkuri hali to'la rivojlanmaganligi sababli ko'p narsalarni tushunmaydi, ojizlik qiladi. Ota o'g'ilni unchalik o'ylamaslikka chaqiradi. Otaning nasihati bilan bola o'zini tinchita olmaydi:

Kun qisqa.
qanday qilib kun chiqadi,
deb o'ylayman,
Tun
cho'zilsa, nega
tun cho'zildi,
deb o'ylayman.
Uni xayol qilaman,
Buni xayol qilaman.
O'ylayman,
baribir
o'ylayman.

Miraziz A'zamning «Biz yengamiz bo'ronlarni» she'ri bugungi hayotimizga juda qiyinchilik, kurashlar bilan yetib kelganligimizni jarangdor misralar bilan chiroyli ifodalab beradi:

Bizni bosdi dovullar, sellar —
Omon chiqdik bo'ronlardan,
Omon yashar botir ellar —
Qo'rqmas vahshiy hayvonlardan,
Qorli, muzli cho'qqilar ham
Qolib ketar poyimizda.
Jasur qo'shiq bizga
hamdam Har bir qo'ngan
joyimizda.

SHoir bu bilan chegaralanib qolmaydi. Hali oldinda qiladigan ishlarimiz, ulug' maqsadlarimiz borligini ta'kidlaydi, bolalarni yuksak axloq-odobli bo'lishga, kattalarning ishlarini davom ettirishga chorlaydi:

Maqsadimiz tog'day ulug' —
CHambarchasdir tutash qo'llar.
Ozodlikning yo'li qutlug' —
Olg'a, do'stlar, og'aynilar!

Miraziz A'zamning «Qirq bolaga qirq savol», «G'alati tush», «Nurhon bilan Burhon», «Ota bilan bola», «Bir cho'ntak yong'oq» (turkum), «Alla», «Bola va ona», «Yo'tal bobo» kabi she'r va qo'shiqlari, «Asror», «Erk qushi», «Ona yurt osmonida», «Antiq» kabi doston, ertak-dostonlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Miraziz A'zamning «Asror» dostonidagi Asror obrazida bolalarga xos jo'shqinlik, shijoat, mehnatsevarlik g'oyalari, haqiqiy o'quvchiga xos fazilatlar yorqin tasvirlanadi. SHoir bu g'oyani ochishda kichkintoylar ongi va dunyoqarashidagi holatlarni to'qnashtirish, ularning narsa va voqealarga bo'lgan munosabatlarini solishtirishdan samarali foydalanadi.

Pilla qurti boqish dostoniga asosiy mavzu qilib olinadi-da, o'quvchi-yoshlarning bu sohaga qiziqishlari, bilimdonliklari mehnat jarayonida ochib beriladi.

Asarda Asrorning oliyjanob fazilatlarini — oqko'ngil, sofdil, qo'li ochiqligi ishonarli tasvirlanadi: tut daraxtini sevishi, tabiatga g'amxo'rliги yosh kitobxonlar uchun didaktik qimmatga ega.

G'ayrat, Nor, Rahim, Ra'no obrazlari orqali qalbi qaynoq, bir-biriga mehribon, jamoa ishi uchun fidoyi yoshlar gavdalantiriladi.

Bolalarning maktabda pilla qurti boqishlari — qo'shimcha soha — qishloq xo'jaligi ishlariga jon-dildan yordam berishlari, fikr-mulohaza yuritishlari, biror ishga qo'l urishsa, dadil harakat qilishlari yosh kitobxonni xursand etadi. CHunonchi, asarning « Pilla qurtlarining lohas bo'lishi» bo'limi o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi:

Pilla qurti boqilayotgan xona haddan ziyod isib ketgach, qurtlar barg yemay qo'yadi. SHu daqiqa bolalarda yuz bergan holat: tushkunlik, xijolatpazlik, qurtlarga achinish hissi tasviri kichik kitobxonni cheksiz hayajonga soladi:

Pillachilar xonasin
Bosgan edi sukunat.
O'quvchilar churq etmas,
Qotib turishar faqat.

SHoir hayotiy lavhalar chizishda davom etadi. So'kichak yengillatilib, xona ma'lum darajada sovitilgach, qurtlar yana asliga qaytadi, bir me'yorda barg yeyishga kirishadi. Bolalar olam-olam quvonchga to'ladilar, shodlanadilar:

Bir-biriga qarashib.
Bolalar jilmaydilar.
Xatar o'tgan bo'lsa ham
Xonadan jilmadilar.

SHoirning «O'lmas qush» ertak-dostonida tasvirlanishicha, CHingizxonning jodugarlik bilan bahodirlarining yostig'ini quritgan go'zal kanizagi Sayxun bo'yida yashayotgan Nahang qassobning ham oromini buzadi. Jang maydonida kanizakni ko'rgan Nahangning qilichi qo'lidan tushadi. Qizning makriga uchib, uni sevib qoladi. Uning xotini qazo qilib, O'lmas va Olmos ismli farzandlari qolgan edi. Dostonda epchil qiz Olmosning akasi O'lmas uchun otasi va o'gay onasidan o'ch olishi ancha qiziqarli va ishonarli tasvirlanadi.

Bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta ulush qo'shayotgan Miraziz A'zam hozir yangi-yangi asarlar ustida ishlamoqda.

1.3.8. Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. «Er aylanadi» she'rining qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
2. SHoir ertak-doston janrida qanday asarlar yaratdi?
3. Miraziz A'zam «Asror» dostonidagi Asror obrazi orqali bolalarning qanday fazilatlarini tasvirlaydi?

Tursunboy Adashboev

(1939- yilda tug'ilgan)

Taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboev 1939-yilda Qirg'izistonning O'sh viloyatiga qarashli Olabug'a tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. U Toshkent davlat dorilfununini hamda Jahon adabiyoti institutini bitirgan. SHoir «Olatog'-lolatog'» kitobida yozganidek, ikki elning farzandidir:

O'zbek, qirg'iz qoni
singgan, Sizga aytsam
to'g'riman.
SHu boisdan ikki
xalqning Erka shoir-
o'gliman.

Tursunboy Adashboev o'zbek va qirg'iz tillarida ijod qiladi.

«Kamolning olmasi» deb nomlangan birinchi kitobi 1967-yilda talabalik chog'idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentdagi «Yosh gvardiya», Bishkek shahridagi «Mektep» nashriyotlarida «Biz sayohatchilar» (1969), «Ala-Toluk bolomun» (1971), «Arslonbob sharsharasi» (1973), «Surnay» (1975), «Nur daryo» (1977), «Guldasta» (1979), «Olatog'-lolatog'» (1982), «Oqbura to'lqinlari» (1985), «Sovg'a» (1987) to'plamlari bosilib chiqdi.

Kichkintoylarga qisqa va lo'nda she'rlar yozish, qissadan hissa chiqarish Tursunboy Adashboev ijodining eng muhim fazilatlaridan biridir. Ijodkorning «Sumalak» sarlavhali she'ri shu jihatdan e'tiborli:

Boychechaklar nish
urib, To turguncha
o'rnidan. Bahor qishni
tarnovga, Osib qo'ydi
burnidan. Yoki
bolalarning cheksiz
xayoloti bilan bog'liq
bo'lgan «Tugma» deb
nomlangan mashqi ziyrak
kuzatuvchanlikning
mahsulidir:

Ro'zvon xola qo'shniga
CHiqqanida elakka.

Kamzulinig
tugmasi, Tushib qoldi
yo'lakka. CHumolilar
to'planib, Majlis qurar
shoshilib:

— Bir, ikki, uch
ko'tardik, Tegirmonning
toshini...

Tursunboy Adashboevning kulgiga boy, hazil-mutoyiba bilan yo'g'rilgan asarlari boshqa xalqlar tillariga ham o'girilgan. Masalan, «Pesnya Jovoronok», «Podarok», «Olti oyoqli xo'tikcha»,

«Olatog' ohanglari» singari bir talay kitoblari rus, latish, qozoq va o'zbek bolalar she'riyati antologiyalaridan munosib o'rin olgan. 1989 — 90- yillarda uning «Arslonbob afsonasi»,

«Sichqonning orzusi», «Uch bo'taloq va sirli qovoq» to'plamlari nashr etildi.

Ijodkor qator uchrashuvlarda, gazeta va mahallalardagi suhbatlarda berilgan savollarga qaytargan javoblarida she'r yozishning sir-sinoatlarini o'ziga xos yo'nalishda ochib berganligini kuzatamiz:

— Nima uchun bolalarga she'r yozasiz?

— Ezib yomg'ir yog'ganidan keyin, yetilgan yerni, zavq-shavq bilan haydagan qo'shchining mehnatini sira kuzatgan-misiz? Kichkintoylarga she'rlar mashq qilar ekanman, ana shu dehqonga o'xshab ter to'kishga harakat qilaman. Demak, har kim qo'lidan kelgan yumushni uddalashi kerak. Qisqasi, bolalarga she'r yozishdan o'zga ish qo'limdan kelmaydi.

— Sizda she'rning tug'ilishi qanday kechadi?

— Asosan, hayotni, bolalarning so'ngsiz olamiga aloqador ikir-chikir, voqea va hodisalarni sinchiklab kuzatishdan tug'iladi. Masalan, oddiy bir tugmani chumolini yo'liga qo'yib, xatti-harakatini kuzatsangiz, taxminan quyidagicha mashq qog'ozda aks etishi mumkin:

CHarchab,
horib Yumushdan
Qaytar edi
Qumursqa.

Tugmani
Olib qo'lga,
Tashladim
Uni yo'lga.

U yon-bu yon
Bo'yladi.
Tog' ekan deb
O'yladi...

— She'rlaringizda manzara yaratish mahoratini kimdan o'rgangansiz?
— Har bir misra ustida ishlash va manzara yaratish san'atini ustoz Quدرات Hikmatdan o'rganganman. Quدرات akaning lampochka haqidagi misralariga e'tibor bering:

To'lqinjonning nok nusxa
Lampochkasi bor edi.
Patronga solish bilan
Uyning ichi yoridi.

Qattiqqo'l ustoz nazaridan o'tgan, endilikda muallifning eng yaxshi mashqlari qatoridan o'rin olgan «Nasibaning olmasi» sarlavhali she'ri shu jihatdan ibratlidir:

Nasibaning olmasi
Tushib ketdi ariqqa.
Tutqich bermay o'ynaydi
Xuddi o'xshab baliqqa.

Sodiqjon ko'rib
qolib, Olmani ushlab
berdi, Rahmat aytib
Nasiba Yarmini tishlab
berdi...

Iqtidorli shoirning o'qimishli she'rlari jamlangan «Uch bo'taloq va sirli qovoq» to'plamidagi asarlarni o'qir ekanmiz, ijodkor quvnoq, yengil kulgi bilan sug'orilgan misralar orqali kichkintoylar dunyosini mahorat bilan ochib berishdek o'z uslubiga sodiq ekanligini ko'ramiz. CHunonchi, «Ahil do'stlar» she'rida Suhrob bilan Jahongir ismli ikki do'st bitta bog'chaga qatnab, hatto muzqaymoqni ham teng bo'lib yeydigan ikki oshna-og'ayniga to'p sovg'a qilingach, ko'ngilxiralik bo'lmasligi uchun ular koptokni ham ikki bo'lakka yorib o'ynaydilar:

Sovg'aga kelgan
to'pni Yotsiramay
olishib, Teng sherikka
bo'lishdi, SHart ikkiga
yorishib...

SHoirning bolaligini xotirlash asnosida yaratgan o'nlab mashqlari ham hayotiy voqealarning hosilasi ekanligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi jahon urushi hamda urushdan keyingi davrda kichik ovulda ro'y bergan hodisalar silsilasi Tursunboy Adashboev she'rlarining o'zagini tashkil etadi.

«Tush bo'lib qolsin mayli...» she'ridagi quyidagi misralar kishini olis bolalikka yetaklaydi:

Dumbul bo'lgan bug'doyning
Qaychilayman poyasin.
— Bu bir qozon qo'g'irmoch
SHodligim nihoyasiz.

Bu — urushdan keyingi,
Pishiqchilik o'lkamda.
Sezmay qopman tarsa-turs
Qamchi tushdi yelkamga.

Jon xavfida
uyg'ondim Ha, qorovul
tufayli.
Xayriyat tushim ekan,
Tush bo'lib qolsin mayli...

Kichkintoylar uchun atalgan she'rlar to'q mag'iz qofiyalar asosiga qurilgan taqdirdagina o'qish uchun o'ng'ay, yodlash uchun oson ko'chadi. Zotan, Zafar Diyor, Quدرات Hikmat she'riyatining umrboqiyliigi ham ana shundadir. Tursunboy Adashboev ham ustozlari izidan borib kutilmagan qofiyalar topadi. Bu muallif qalamga olgan mavzuni o'quvchiga tezroq yetib borishiga xizmat qiladi. SHoirning ijodiy fazilatlaridan yana biri she'rlarining qisqa, lo'ndaligida.

Tursunboy Adashboev jahon bolalar she'riyati vakillarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borayotir.

SHoir kichkintoylarning ulkan adabiyotiga bo'lgan yuksak eotiqodini quyidagi misralarda ro'y-rost bayon etadi:

Bolajonlar, ko'nghlim nayin
Sizlar uchun sozlaganman.
Quدرات Hikmat aytgandayin
Har maqomda yozmaganman...

Tursunboy Adashboev va u kishining tengdoshlari bolalikning shirin daqiqalaridan benasib qolishgan. Ularning bolaliklari ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keldi. Daladagi og'ir mehnat, maktabdagi og'ir sharoitlarda o'qib, bilim olish ularning bolalik xotiralaridir:

Yorilgan tovonimga
Onam piyozdog' surib... ...
Bezgak xuruj qilganda
Ko'kka chiqib nolishim,
Tol bargiga ko'mishsa,
Beda bo'lgan bolishim... ...
(«Onajonim»)

Bugun ayrim bolalarning non tanlab xarxasha qilishlari, sal suvi qochgan nonni esa tashlab yuborilishi, isrof qilinishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bu holat haqida achinib gapiramiz. Tursunboy Adashboev esa bu noxush holatni she'rga ko'chirib, o'quvchi xayolini yana urushning og'ir kunlariga tortadi:

Suli asli otning yemi,
Ishlatilmas bo'lakka...

Ha, shunday. Ammo qahatchilik yillari hatto sulidan ham non yopib yeyilgan. Qaynoq suvga qoqi solib, «olmachoy», «sabzichoy»lar damlab ichilgan. Bir burda non esa arzanda...

Nabiramning non
tanlashi, Malol kelgach,
so'nggi dam, Bolalikdan
ushbu lavha O'tdi ko'zim
o'ngidan...

(«Nabiramga»)

Tursunboy Adashboev tug'ilib, voyaga yetgan joy Safed Bulon deb ataladi. Bu qishloq Namangan va O'sh viloyatlarining bir-biriga tutash qismida joylashgan. Ijodkorga uning go'zal tabiati, shirinso'z, mehr-oqibatli odamlari ilhom beradi, deyilsa yanglish bo'lmaydi. SHoir she'rlari va dostonlarida tabiat manzaralari tasvirini ko'p uchratamiz. Zero, bolalar adabiyotining muhim vazifalaridan biri farzandlarni tabiat go'zalliklarini his qilish va sevishga, qadrlashga o'rgatishdir.

Hoy chechak,
Boychechak,
Yashnab ketdi qir tagi,
Quyoshmisan qirdagi?
-Biz oftobning
parchasi Ochib yerning
darchasin SHu tuproqqa
boylandik,
Boychechakka aylandik.
Bahordan elchi — chechak,
Rahmat senga, Boychechak.
(«Boychechak»)

Bolalar adabiyotiga nazar tashlasak, bahor manzarasini tasvirlovchi satrlarni ko'p uchratamiz. Nima uchun shunday ekan? Ehtimol, umrning bolalik fasli ayni bahorga o'xshaganidandir? Bu faslda «yomg'irning yerni iydirishi, yashil chakmon kiydirishi» bola uchun ulug' mo'jiza bo'lib tuyuladi.

Bahor ko'ylak
kiydirdi Ko'k egniga
bulutdan...

Tabiat mo'jizalarini hayrat bilan kuzata olish ham inson zotiga berilgan ulug' ne'mat. Tabiatni seva olgan odam bolasi esa baxtlidir. Tabiat go'zalligidan zavq ololgan kishi ko'nglida zulmga o'rin yo'q. Tabiatni seva olish — shu tabiatning bir zarrasi bo'lmish odamni seviz demak. Bu zarur fazilat bolaning musaffo qalbida xuddi bahordagi chechak kabi yuz ochadi. Biz — ota-onalar tirikchilik tashvishi bilan bo'lib, bu tarbiyaga uncha ahamiyat bermaymiz. «Nega yomg'ir yog'adi?», «Nega daraxt gullaydi?», «Nega momaqaldiroq gulduraydi?» kabi savollardan yengil- elpi, Ba'zan noto'g'ri, noo'rin javoblar bilan qutulmoqchi bo'lamiz. Ana shunda farzandimizga sodiq maslahatgo'y do'st — kitob yordamga keladi.

CHaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
Qizg'aldoqlar selda oqdi,

Quyosh yana kulib boqdi,
Bahor kelgach...

Tursunboy Adashboevning ijodi bilan tanishgan kishi bir narsaga amin bo'ladi: bu asarlar bolalar ham, kattalar ham baravar o'qiydigan ibrat kitobidir.

Tursunboy Adashboevning eng sara she'rlari jamlangan «Orzularim — qo'sh qanotim» deb nomlangan kitobini sinchiklab o'qib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: qalamga olingan mavzular bolalarning o'ziday beg'ubor, hajman qisqa va lo'nda. Kutilmagan qofiyalar esa she'rning ravonligini oshirib, kichkintoylarning osongina yod olishini ta'minlaydi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shogirdparvarlik Tursunboy akaga ulug' ustozlar Mirtemir bilan Quadrat Hikmat dan yuqqan. So'nggi o'n besh yil ichida o'zbek bolalar adabiyotiga kirib kelgan Hamza Imonberdiev, Abdurahmon Akbar, Zafar Isomiddin, Sodiqjon Inoyatov, Erpo'lat Baxt, Miryusufzoda va Qo'zi Ismoil kabi iqtidorli ijodkorlarga beminnat yordam ko'rsatib kelyapti. Xorazmlik shoir Sodiqjon Inoyatovning Tursunboy Adashboevga bag'ishlab yozgan she'ridagi quyidagi misralar fikrimizning yaqqol isbotidir:

She'r cho'g'ini she'r
bilan Dilga solib
qo'ydingiz.
Qo'limizdan yetaklab,
Yo'lga solib qo'ydingiz...

Agar kishi qadriyat nima, u qanday avaylab-asralishi kerak, ma'naviyat nima, u qanday boyitilishi lozim, degan savollarga bolaligidan javob topolmasa, yoshi o'tgandan keyin bu fazilatlarga erishmog'i juda mushkul. Dunyo bolalari adabiyotini kuzatsak, shu mavzuga e'tibor kuchli ekanini ko'ramiz. Jumladan, Tursunboy Adashboevning ijodi ham bundan mustasno emasligini alohida ta'kidlash mumkin. Hajman bir-biridan shinam «Qismat», «Oriyatli xo'roz»,

«Burgutning o'limi», «Oltin yolli tulpor» va «Yassaviy zurriyotlari» kabi qator asarlariga yuksak ma'no va mazmun yuklanganligini ko'ramiz. SHoirning «SHarq yulduzi» jurnalida bosilgan turkum

she'rlari esa kichkintoylarning fikriy olami — xayolot dunyosi bilan bog'liq loflardan iborat. Bu mavzu — o'zbek bolalar adabiyotida ochilmagan qo'riq.

Tursunboy Adashboev vaqtli matbuotda, nashriyotda va har ikki respublikaning Yozuvchilar uyushmalarida xizmat qiladi. SHuningdek, jahon bolalar adabiyotining eng yetuk vakillari asarlarini maromiga yetkazib tarjima qilgan. Qirg'iz xalq eposi — «Manas»ning nasriy variantidan tortib S. Eraliev, S. Jusuev, T. Qosimbekov, J. Mavlonov, B. Sarno'g'aev, N. Alimbekov kabi ijodkorlarning o'ttizga yaqin asarlari o'zbek tilida bosilib chiqqan.

Ikki elning ardoqli shoiri Tursunboy Adashboevning xizmatlari munosib baholangan.

Ijodkor

«O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» degan nom va «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan. SHuningdek, «Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» hamda «Manas» ordenining sovrindoridir.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. T. Adashboev ijodining eng muhim fazilatlari nimada?
2. SHoirda she'rning tug'ilishi qanday kechar ekan?
3. SHoirning tabiat manzaralari haqidagi qaysi she'rlarini bilasiz?
4. Yosh avlod tarbiyasida T. Adashboev she'rlarining ahamiyati qanday?

7- mavzu: Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati. Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she'rlarining mavzu doirasi. Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari. Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar. Muhammad Alining temuriylarga bag'ishlab yozilgan romanlari haqida.

Reja:

1. Qambar Otaning hatoyi va ijodi.
2. Muhammad Alining tarjimai holi.
3. Kichkintoylarning sevimli shoiri.
4. Shoir asarlarida –beg'ubor bolalik.

Qambar Ota

Bolalarning sevikli shoirlaridan biri Qambar Ota 1941 yilda Kattaqo'rg'on shahrida tavallud topdi. 2-o'rta maktabda o'qidi. O'quvchilik davridan she'rlar mashq qila boshladi.

U 1958-1967 yillar shahardagi Suv xo'jaligi texnikumida so'ngra Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida o'qidi.

1970-1974-yillarda turli oliy o'quv yurtlarida muallimlik qildi.

Qambar Otaning kichkintoylar hayotidan olib yozgan turli she'riy mashqlari tuman, viloyat, hozirgi "Tong yulduzi" gazetasida tez-tez bosilib turdi.

1975-yilda oilasi bilan Toshkentga ko'chib kelib G'afur G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, "O'zbekiston agitatori" jurnali, "Xalq so'zi", "Ma'rifat" gazetalarida, O'zbekiston istiqbolini belgilash Davlat qo'mitasida turli lavozimlarda ishlash bilan birga qizg'in va samarali badiiy ijod qilish bilan mashg'ul bo'ladi.

Kichkintoylarning katta shoiri tinimsiz o'z ustida tinimsiz ishlar, mashq qilar, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Quddus Hikmatdek zabardast bolalar ijodkorlarining she'rlarini o'qir, xulosalar chiqarar, yosh kitobxonlar davrasida bo'lar, yozuvchilar tomonidan uyushtirilayotgan adabiy-badiiy yig'inlarda ishtirok etar edi. Bunday intilish va harakatlar shoir ijodida o'z samarasini berdi. Natijada "Vatan tuprog'i", "Yuzlar", "Diydor", "Dil ko'rki", "CHavandoz orzusi", "Tinim bilmas shamolvoy", "Quyoshli dunyo", "Sizday yashagim kelar", "SHirin so'z", "Bolalarning ko'zlari", "Quyosh bilan gaplashdim", "Mashhur Toshpolvon haqida ertak", "Tinmay izlan, yuragim" kabi bolalar va kattalarga atalgan 30ga yaqin she'riy kitoblar chop etilgan. Respublikamizning iqtidorli bolalariga ustozlik qilib, adabiy to'garaklar olib borgan.

Qambar Ota bir necha o'nlab jahon bolalar shoirlari ijodidan sara tarjimalar qilgan va o'z navbatida uning she'rlaridan rus, belorus, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik, uyg'ur, turk tillariga namunalar tarjima qilingan.

SHoir Qambar Otaning ijodi ayniqsa bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari diliga yaqin bo'lganligi uchun 80-yillar boshidanoq bog'cha tarbiyachilari uchun metodik qo'llanmalar va maktab darsliklariga ko'plab asarlari kiritilib boshlaganligi bolalar orasida uning keng tanilishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatimizda Istiqlolini shoir katta quvonch bilan kutib oldi. Bu tarixiy xushxabar to'g'risida bor ovoz bilan "Istiqlol" nomli she'rini yozdi. SHE'rda shoirning jarangli ovozi kitobxon bolalarning sho'x-shodonligi, quvonchi bilan qo'shilib ketadi:

Sen kelgansan
yurtimga, Sen kelgansan
baxtinga. Aylanasan
ahdinga, Istiqlol!
G'olib bo'lay o'qishda, G'olib bo'lay har ishda.
Yangi bo'lg'in turmushda,
Istiqlol!

Qambar Otaning 100dan ortiq she'rlariga Respublikamizning taniqli bolalar kompozitorlari kuy bastalashgan. Bu qo'shiqlar notasi bilan barcha bog'chalar, maktablar, bolalar san'at dargohlariga tarqab ketgan. U 1999-yili adabiyotdagi halol xizmatlari uchun Prezidentimiz tomonidan ikkinchi darajali Sog'lom avlod uchun ordeni bilan taqdirlangan.

SHoira ona tabiatning o'zi mavzu va ilhom beradi. "Oq bulut, ko'k bulut" she'rida yomg'irni olqishlaydi. Yomg'ir qancha ko'p yog'sa, suv shuncha serob bo'lishini, maysalar butun borliq guldek yashnab, odamlar sog'lom –u ekin-tekni mo'l-ko'l bo'lishini ta'kidlaydi. SHoir tomchi-yomg'irning har qanday turini ma'qullaydi.

Jalayu do'l bo'lsang
ham Qarshilar maysa,
yaproq Kutadi sel
bo'lsang ham, Bag'ri
keng ona tuproq. Seni
mushtoq kutganni
G'uborini yuv bulut
Xo'l bo'lishdan
qo'rqqanni Pana joyga quv
bulut.

SHoirning o'nlab she'rlarida tabiatga munosabat, hayvonlar, jonivorlar-u parradalarni asrash, avaylash, ularni ko'paytirish masalasi ko'tariladi. Uning ko'pgina she'rlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar berilib tanglaydigan asarlarga aylanib qolgan. "Do'stlik kerak", "Qalam deydi", "Men otimni taqaladim", "Asl bobo", "Go'zal odob, a'lo xulq", "Mehribonlar", "Vatanni yashnataylik", "Kitob olib bersangiz", "Bog'cha opam", "Fikrim o'sar", "Bog'chamizda" she'rlarini tinglamagan bog'cha bolasi yoki boshlang'ich sinf o'quvchisi topilmasa kerak.

O'zbek bolalar she'riyatida oddiygina qalam haqida ancha she'rlar bitilgan. SHoirning "Qalam deydi" she'ri butunlay o'ziga xos original asar. Sarlavhasidan sezilganidek, butunlay yangi mazmun, yangi ifodaga ega. Qalam sinib ketmay uzluksiz ishlashni, odamlarga foyda, naf keltirishni istaydi. Yosh kitobxonni tinmay o'qish, yozish va izlanishga chorlaydi.

Qalam deydi:	Ayab, aslo
Yozavergin,	Tindirmagin.
Ilm konin	Qog'ozlarda
Qazavergin.	Izim bo'lsin
Faqat meni	Elga aytgan
Sindirmagin.	So'zim bo'lsin.

Bola tetapoya qilib yura boshlashi bilanoq, o'ziga sherik, do'st, o'rtoq qidiradi. Ular qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, davra yanada kengayib, o'yin-kulgu avjga chiqaveradi. O'yinda ham, o'qish-u mehnatda ham do'st, bir-biriga qo'l-qanot:

Do'st mushkulini
oson- Qilishni istar
inson, Olam to'lsin
ziyoga, Do'stlik kerak
dunyoga.

"Kitob olib bersangiz" she'rining qahramoni hali bog'chaga qatnaydigan bola. U otasi oldiga bir qator masalalarni ko'ndalang qilib taxlab tashlaydi. Bolaning orzusi zo'r, istak-niyati buyuk. Mabodo ota unga ot, tuya va durbin olib bersa, murodi hosil bo'ladi, maqsadiga erishadi. Agar kitob sovg'a qiladigan bo'lsa, kelajakda yaxshi o'qib, ilmda olamni lol qodirmoqchi,

Kitob olib
bersangiz Sipqoraman
ziyoni- Ilmi zo'rlar

yorqinroq Yoritadi
duyoni.

SHoir asarlari orasida “Go’zal odob, a’lo xulq” she’ri alohida ajralib turadi. SHE’r bor- yo’g’i sakkiz misradan iborat. SHE’rda o’qimishli, bilimdonlikdan tashqari, yuksak axloqli bo’lish to’g’risida ham gap boradi:

CHin yurakdan
tirishsang A’lo o’qishing
mumkin. Bilganlaring
ehtimol Yodingadan
chiqar bir kun Go’zal
odob, a’lo xulq O’rnashsa
yuragingga, Seni mangu
tark etmay, Yetkazar
tilagingga.

Qambar Ota anchagina “Erka egzaklar”, “CHO’lga sayoxat”, “Baroq mushuk fojeasi”, “Bog’bon hikoyasi”, “Robotlar”, “G’ildiraklar qo’shig’i”, “O’n ikki supa” kabi yirik doston, doston-ertaklar yozgan. Bular orasida “Erka egzaklar” dostoni juda ommalashib ketgan.

Dostonda “Farzand aziz, odobi undan aziz” maqoli atrofida gap boradi. SHoh farzandlar tarbiyasi bilan yaxshi shug’ullanmaydi. To’g’ri, o’nlab enaga-yu boshqa tarbiyachilar ular xizmatida. Bolalar juda erka o’sib-ulg’ayishadi. Erkatoylar otaning xazinasining kulini ko’kka sovuradilar. Odobsizlik, andishasizlik qilib bolalar shohni xona vayron qiladilar. SHoir asarga ta’sirli yakun yasaydi. Yomonlardan, odobsizlardan qattiq ranjiydi:

Odob-inson ziynati.	Ota o’g’il, el qizi.
Yaxshi farzand oshirar	O’g’il-yurtning posboni,
O’z yurtining hislatin.	Qiz-baxtimiz yulduzi.
Yomon ko’p bo’lsa elda,	Sodiq bo’lsin vatanga
Xarob bo’lar bir kuni.	Har kim kichik yoshidan.
Narsaga o’ch ekan xalq	Baxt quyoshi manguga
Kiradi g’aflat tuni.	Arimasidan boshidan!
Hamma bola bo’lishsin	

Qambar Otaning “Kitobcha va buzoqcha”, “CHavandoz orzusi”, “Tinim bilmas SHamolvoy”, “Shirinso’z”, “G’ildirak”, “Tabiatga rahmat” kabi 30ga yaqin kitoblari o’quvchilarning ma’naviy mulkiga aylangan.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Qambar Ota ijodining eng muhim jihatlari nimada?
2. SHoir she’ryatida qaysi mavzu yetakchi ahamiyat kasb etadi?
3. SHoirning tabiat haqidagi qaysi she’rlarini bilasiz?

Muhammad Ali

(1942-yilda tug’ilgan)

O’zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali (Ahmedov Muhammad Ali) serqirra qalam sohiblaridan biri hisoblanadi. Adib she’riyat va nasr, publitsistika va tarjima janrlarida ko’plab asarlar yaratgan. Uning katta-katta asarlar yaratish barobarida kichkintoylarni ham unutmay she’r va afsonalar yozayotganligi quvonchli hodisadir.

Bolalar mavzusini yoritish, bolalar uchun ijod qilish ijodkordan katta mas’uliyat talab qiladi. Adib o’zining tarixiy mavzuga bag’ishlangan «Boqiy dunyo» (she’riy roman), «Ulug’ saltanat», «Sarbadorlar», «Abadiy sog’inchlar» nomli romanlarida bolalarning yorqin akslarini chizib berdi. Ayniqsa, bu «Ulug’ saltanat» tarixiy dilogiyasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Biz unda Muhammad Sulton, Halil Sulton, Mirzo Ulug’bek singari shahzodalarning bolalik davrlari tasvirlangan sahifalarni ko’ramiz. «Boqiy dunyo» she’riy romanida esa asar qahramonlaridan biri Farhodning

bolaligi tasvirlari, ayniqsa, uning ismi ma'nosining yangicha talqinda berilishi juda qiziqarli va ibratlidir.

SHoirning bolalarga bag'ishlangan she'r va afsonalari ham mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi. Adib bolalar uchun asar yozganda bolalar tabiatining o'ziga xosligini unutmaydi. Bolalar har narsaga hayrat bilan boqadilar, hamma narsa ularga qiziq tuyuladi. Ular har bir narsaga qarab dunyoni o'zicha kashf etadilar, bundan beqiyos quvonadilar. SHoir ana shu kashfiyotni tasvirlashga harakat qiladi.

«Bo'taloq» she'rida bo'talog'iga boqib quvongan, atrofida parvona bo'lgan bolakay obrazi chiziladi. Bolaga, ayniqsa, bo'taloqning lo'k-lo'k etib chopishi, unga «cho'k-cho'k!» deyish juda yoqadi, uning o'zi ham birga chopishga tayyor:

Bo'talog'im yayraydi,	Bo'talog'im to'ysin deb,
Yantoq bersam chaynaydi.	Barra o'tlar tutaman.
Yam-yashil o'tloqlarda,	Agarda qasd qilsam-chi,
Lo'k-lo'k chopib o'ynaydi.	Undan o'zib ketaman!
Bo'talog'im lo'k-lo'k,	Bo'talog'im lo'k-lo'k,
Lo'killama, cho'k-cho'k!	Lo'killama, cho'k-cho'k!

SHoir o'z she'rlariga tabiat manzaralarini, hayvonot olamini, o't-o'lanlarni mavzu qilib oladi.

Bu esa shoir she'rlariga tabiiylik baxsh etadi.

Tabiatda juda ko'p maysalar, o't-o'lanlar, gullar quyoshga boqib, undan nur olib, yorug'likka, issiqlikka talpinib umr kechiradi. Quyoshning yo'nalishi bo'yicha u qaysi tomonga qarab yursa, unga qarab intilib, undan kuch-quvvat olib nish uradigan, o'sib, toblanib pishadigan o'simliklardan biri kungaboqardir. SHu ma'noda shoirning «Kungaboqar» she'ri alohida ajralib turadi.

Quyosh — oftob bor joyda mehnat-u odob, ahillig-u do'stlik, vatanparvarlig-u muhabbat, sadoqat bo'ladi. Kungaboqarning yashnashiga, yashashiga havasi kelmaydigan bolaning o'zi yo'q. Bolaning quvonchiga quvonch qo'shgan kungaboqar uni eng avvalo, mehnatkash, odobli bo'lishidan tashqari, nafsini tiyishga, xiyonat qilmaslikka o'rgatadi:

...Bahor kelib ilisa kun,
Bo'ylarini cho'zib mamnun,
Yuz-boshini o'rab butun,
Gulchalardan tanga taqar.
Qora-qura tishlari bor,
CHo'ng boshiga kiyib dastor,
SHo'xlik qilmay, jim, beozor,
Qarashlari menga yoqar.
Dalalarda yurar bo'lsang,
Bog'-rog'larga borar bo'lsang,
Turishadi, qarar bo'lsang,
Marzalarda turna qator.
Bo'yim kichik — yetay
desam, Qo'lim kalta — tutay
desam, Pistasidan totay desam,
Hamma kulib menga boqar.

Bolalarning odobiga odob, mehnatsevarliklariga mehnatsevarlik, ona-tabiatga nisbatan mehrlariga mehr qo'shadigan asarlaridan biri «SHudring»dir.

Kichkintoylar ona tabiat qo'ynida yayrab-yashnab, erkin kamol topadilar. Ona tabiatdagi har bir holat ular uchun bir yangilik, kashfiyot bo'lib tuyuladi. Bolalardagi bunday holatni yaxshi bilgan Muhammad Ali o'zining «SHudring» she'rida shu hagida so'z yuritadi.

SHudring kuz faslining boshlanishi bilan bog'liq. Yerga shudring tushishi bilan meva- chevalar, poliz ekinlari pishadi. Yurtda to'kin-sochinlik boshlanadi. SHu ma'noda she'r qahramonining zo'r quvonch-u qo'li ochiqlik bilan aytgan gaplari juda hayotiy chiqqan:

Bog'imizga bir qarang,
Gul ochildi rang-barang.
Tongda shudring tushibdi,
Gulga chiroy qo'shibdi.
Bog'dan nari poliz bor,
Unda qovun-tarvuz bor.
Qovunlar katta-katta,
Mehmon bo'ling, albatta!

Onalarni ulug'lovchi «Onamlarning bayrami» she'ri bayram munosabati bilan xonadonda yuz bergan quvonchli kayfiyatni nurlantirib turadi. Bolaning nazarida butun tabiat aziz onajonini qutlug' ayyom bilan qutlashga shaylangan. Qushlar hovlini to'ldirib uchib yurishibdi, ariqlarning labida ham o't-o'lanlar ko'karib chiqibdi, oppoq bodom esa, gullarga ko'milgan shoxini ko'z-ko'zlab, darchadan onajonisining xonasiga «qo'l» cho'zib turibdi... Bayramga bolaning ham sovg'asi bor: u o'nta «5» olib qo'ygan!

Muhammad Alining xalq afsonalari asosida «Ninachi haqida ertak», «Uch oltin g'isht», «Sirli qushlar» nomli asarlar yaratganligi ham diqqatga sazovordir. «Ninachi haqida ertak» (1977) xalqimiz orasida qadimdan mashhur bo'lgan «Kim zo'r?» degan afsonaga asoslangan. Asar qahramoni Ninachi qish kirib qolganini sezmagani, yozni taralabedod qilib o'yin-kulgi bilan o'tkazgan, uy-joysiz qayga borishini bilmay, «xazon cho'pni hassa qilganacha» yo'lga chiqadi. Muz ustidan o'taytib oyog'i toyib ketadi va quyrug'ini sindirib qo'yadi. U bu falokatdan qattiq ozor chekadi va Muzga, sen zo'r ekansan, deydi. Muz esa, men zo'r emasman, agar zo'r bo'lsam, quyosh eritib yuborarmidi, Quyosh zo'r, deydi. Ninachi so'ng Quyoshga, uni berkitib olgan Bulutga, uni bag'rini teshib o'tgan Yomg'irga, keyin yomg'ir ipiga osilib yerga tushib, uni shimib olgan Yerga, yerdan unib chiqqan Maysaga, uni bosib o'tgan Otga va nihoyat, uni minib olgan Odamga keladi...

SHoir adolat qidirib yurgan Ninachi sarguzashtini juda jonli va qiziqarli tasvirlaydi, o'qiganda tabiat manzaralari o'quvchi ko'z o'ngidan bir-bir o'tadi.

«Uch oltin g'isht» afsonasini shoir o'z otasidan eshitgan. Voqea juda qiziq va ibratli. Uch aka- uka — To'ng'ich, O'rtancha, Kenja — uzoq safarga chiqishib, uchta oltin g'isht topib oladilar. Har biriga bittadan oltin g'isht to'g'ri keladi. Biroq nafs tuzog'iga tushgan To'ng'ich bilan O'rtancha o'g'il fitna uyushtirishib, Kenjani o'ldirmoqchi bo'ladilar va uni ovqat olib kelishga yuboradilar. Kenja ovqat olib kelib dasturxonga qo'yayotganda uning boshiga g'isht bilan urib o'ldiradilar. Keyin xursand bo'lishib, ovqat yeyishga tutinadilar. Va shu zahotiy o'zlari ham til tortmay o'ladilar. CHunki Kenja ham uchta oltin g'ishtni o'ziga olmoqchi bo'lib, akalarining ovqatiga pinhona zahar qo'shgan edi... SHoir bu afsonasida inoqlik, hamjihatlikni ulug'laydi, ochko'zlik, nafsga berilishni qoralaydi. Asarni o'qigan o'quvchi sadoqat-u ixlos yo'lini tutish, halol bo'lish kerakligini, ezgu ishlarda birlashish lozimligini, yomonlik qilish asli insonning ishi emasligini ang'laydi, yaxshilikning umri uzun, yomonlikning esa davri qisqa, degan haqiqatning bo'qiyiligini tushunib yetadi.

«Sirli qushlar» shoirning hind xalq afsonalaridan ilhomlanib yozgan asaridir. Unda halollik, fidoyilik, chin insoniylik mavzulari ulug'lanadi.

Muhammad Ali ijodida Amir Temur mavzusi alohida o'rinni egallaydi. U 1967-yildayoq jasorat ko'rsatib, Sohibqironning bunyodkorligini ulug'lagan va Mustaqillik yillarida maktab darsliklariga kiritilgan «Gumbazdagi nur» dostonini yozgan edi. «Sarbadorlar» tarixiy dilogiyasida (1989) o'zbek prozasida birinchi marta 24—30 yoshli Amir Temurning siymosi chizib berildi.

2007-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan «Ulug' saltanat» tarixiy romandilogiyasi («Jahongir Mirzo» — 1999, «Umarshayx Mirzo» — 2004)da adib Amir Temur hayoti va uning suronli davri, o'zbek xalqining milodiy XIV asrdagi turmush tarzi, ijtimoiy hayotda va tafakkurlarda ro'y bergan o'zgarishlar haqida qiziqarli va ishonarli hikoya qiladi.

2008-yilda yozuvchi «Ulug' saltanat» trilogiyasini yaratish ustida izlanishlarini davom ettirib, uchinchi kitob «Mironshoh Mirzo» romanini yozib tugatdi.

Romandagi voqealar milodiy 1392— 1399-yillarda Turon, Xuroson, Fors mamlakatlarida yuz beradi. CHingizxon imperiyasini tiklashga katta umidlar bog'lagan, aslida Amir Temur qo'llovi bilan Oltin O'rdani egallagan «tutingan o'g'il» To'xtamishxon goh-goh Turon yurtiga bosqinlar uyushtiradi, Xulaguxon mulkiga ko'z tikib, SHirvon, Sultoniya, Tabriz va boshqa shaharlarni qo'lga kiritish niyatida qilich yalang'ochlaydi. Uning maqsadi Oltin O'rda davlatini kuchaytirish, Buyuk ipak yo'lini qo'lga kiritish edi. Amir Temurday qudratli hukmdorga qarshi kurashishga yuraklari dov bermay, Misr sultoni, Iroq hukmdori, Oltin O'rda xoni barchasi birlashib, katta kuchga aylanishni dilga tugadilar.

Amir Temur o'zining idroki, zukko va donishmandligi bilan xalqaro vaziyatni teran kuzatib, bilib turar edi. U saltanatning jahondagi mavqeyini yuksaklarga ko'taradigan, ayni paytda davlat xazinasini boyitib turadigan Buyuk ipak yo'lini, albatta, dushmanlarga berib qo'ymas edi. Uning ustiga, XIV asrning oxirgi o'n yilida Eronda hukm surgan muzaffariylar, Iroqda jaloyiriylar, qoraqo'yunlilar qabilasi o'zaro urushlarga tortilgan, hatto Hajga borguvchilar yo'li tahlikali tus olgan, o'sha mamlakatlar notinchligidan qaroqchilar tomonidan talanardi. Adolatpesha Sohibqironning bularning barini jimgina kuzatib tura olmasdi. Tarixda «Besh yillik yurish» deb nom olgan safar sabablari ana shunday edi. Muallif romanda Amir Temur tilidan: «Turon tursa bo'ron bo'ladi», degan muxtasar jumlani o'rinli ishlatadi. Bu so'zlar Sohibqironning o'ziga bo'lgan katta ishonchini, bemisl kuch-qudratini yorqin ifodalab turar edi.

Yozuvchi yuqorida nomlari zikr etilgan asarlarda ham, yangi romanida ham Amir Temur siymosini yaratishga kirishar ekan, Amir Temurni dastavval chin inson sifatida ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

«Ulug' saltanat»da buyuk davlat arbobi, bunyodkor, ilm-fan homiysi va ulug' sarkarda, adolatparvar Amir Temur o'quvchi ko'z oldida donishmand ota, suyukli yor, mard va sheryurak zot, ahli ayoliga mehribon, kechirimli, o'z nafsini jilovlay olishga qodir, teran aql sohibi, komil insonlarning komili sifatida namo-yon bo'ladi. Sohibqironning farzandlariga mehri alohida tahsinga sazovor, adib uni buyuk inson sifatida ko'rsatishga erishadi, mehr bilan Sohibqironning insoniy fazilatlarini qalamga oladi.

Suyukli o'g'li Umarshayx Mirzoning bevaqt halok bo'lganini eshitganda Sohibqiron ko'zlariga to'lgan yoshdan bir tomchisini ham yerga tushirmaslikka o'zida kuch topa oladi:

«Qo'limdagi qarchig'ayimni ovga solmoqqa shaylang'on erdim. Qarchig'ayimning o'zini merganlarning mergani ovlab ketdi, burgutga bergisiz qarchig'ayimni!..» deydi bosiqlik bilan.

Turon qo'shini Jazira viloyatining Mordin qal'asini (hozirgi Turkiya hududida) zabt qilib turganda, Sultoniya shahridan SHohrux Mirzo xonadonida o'g'il tug'ilganligi (Ulug'bek Mirzo edi) xabari yetadi. «Alloh ta'lo bizga nabira ato etdi! — dedi Sohibqiron Mordin tarafga ko'z qirini tashlab. — Haq o'z bandalariga ravo ko'rgan yaxshi odatlardan biri shukur aylamakdur. Alhamdulillah, shukur qilamen, shukronasiga Mordin elining joni-molidan kechamen! Ulug'bek Mirzo sharofatidan Mordin ahlining gunohlaridan o'tdum! Barchaga omonlik berilsun!» Bu so'zlarda Sohibqironning insoniyligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Qambar Ota ijodining eng muhim jihatlari nimada?
2. SHoir she'ryatida qaysi mavzu yetakchi ahamiyat kasb etadi?
3. SHoirning tabiat haqidagi qaysi she'rlarini bilasiz?

8- mavzu: Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida. Anvar Obidjon she'rlarida kitobxon ongiga ta'sir qilish emas, qalbiga yo'l topishga bo'lgan urinishlar. Anvar Obidjonning «Sen eshitmagan qo'shiqlar» turkumi – o'quvchilarning eng sevimli to'plami. Anvar Obidjon – ustozlar e'tirofida. Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy

faoliyati. Abusaid Ko'chimovning kichkintoylarga bag'ishlangan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar. Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Rea:

1. Anvar Obidjonning hayoti va ijodi.
2. Shoir ijodida Vatan tuyg'usi
3. Yumorga boy qissa va hikoyalari.
4. "Dahshatli meshpolvon" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

So'nggi yillar o'zbek bolalar adabiyotini o'zining qisqa va mazmunli she'rlari, qiziqarli hikoya, qissa, pesalari bilan boyitib kelayotgan O'zbekiston xalq shoiri, adib va dramaturg Anvar Obidjon 1947 yilda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tavallud toptan. Hozirgi O'zbekiston milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. U bir qator gazeta va jurnallarda xodim, bo'lim mudiri bo'lib ishlagan. «Cho'lpon» nashriyatida bosh muharrir, direktor lavozim-larida faoliyat ko'rsatgan.

Anvar Obidjonning 1974 yilda «Ona yer», 1980 yilda «Bahromning hikoyalari», 1983 yilda «Ey, yorug' dunyo», «Olovjon va uning do'stlari», «Alamazon i yego druzya», 1985 yilda «Ketmagil», «Bezgak shamol», 1986 yilda «Masxaraboz bola», 1987 yilda «Akanq qarag'ay Gulmat», «Juda qiziq voqea», 1988 yilda «Oltin yurakli avtobola», 1989 yilda «Dahshatli meshpolvon», 1990 yilda «Yerliklar», 1992 yilda «Alamazon va Gulmat hangomasi», 1993 yilda «Ajoyibxona», 1994 yilda «Meshpolvonning janglari», 1996 yilda «Alisher ila Husayn yoki uch o'g'ri», 1999 yilda «Oltiariq hangomalari», 2001 yilda «Bul-bulning cho'pchaklari» kabi qator to'plamlari chop etilgan.

Aytishlaricha, Luqmoni hakimning oldiga bir guruh kishilar mehmon bo'lib keldi. Undan hikmatga oid narsalardan so'rashdi. Shunda kelganlardan biri:

-Ey hakim, sen falon yerda cho'ponlik qilgan kishi yemasmi? — deb so'rab qoldi.

-Ha, o'sha cho'ponman, — javob berdi Luqmon, — hozir ko'rib turibsanki hakimman.

- Bu darajaga qanday yerishding? — so'radi yana u. Luqmoni hakim unga:

To'g'ri so'zlashdan, odamlarga yaxshilik qilishdan, omonatga xiyonat qilmaslikdan, yolg'on so'zlamaslikdan, behuda gapirmaslikdan, musubat va qiyinchiliklarga mardona chidashdan, o'zimni barchadan kam olishdan! — deb javob berdi.

Anvar Obidjonning butun ijodi yukoridagidek va chm fani o'zida mujassamlantirganligi bilan ajralib tu radi. U har bir asarida bolalarni kamtar, odobli, o'qimishli, vatanparvar bo'lishga undab keladi.

Bola borki, nurga intiladi. Quyoshga talpinib yashaydi. Negaki quyosh bor joyda, nur bor, nur bor joyda ma'murchilik, xursandchilik bo'ladi. Ma'murchilik, xursandchilik bor joyda g'am, kulfat, ofat bo'lmaydi, tinchlik, xotirjamlik, ahillik, baxt bo'ladi. Shoirning «O'zimning quyoshim» asari xuddi shu yezgu maqsadni ilgari surishi bilan kitobxon bolalarga behad katta quvonch, shodlik bag'ishlab kelmoqda.

She'r juda oddiy, sodda va hayotiy. Bolalar bo'r, ko'mir bilan yo'lka, yo'l, maydonchalarda quyoshning rasmini chizib ko'rganligini ko'p bor uchratamiz. She'r xuddi shu voqeaga bag'ishlangan. U bolalarning dil so'zlari asosiga qurilgan. Mana siz ham tinglab ko'ring:

Ona quyosh, aksingni
Chizdim yo'lakka.
Sen hammaga mehribon,
O'zing bo'lakcha.
Nur tushmagan joylarda
Kezarmish kulfat.
Yo'lagimni hech qachon
Bosmasin zulmat.

Anvar Obidjonning «Latifachi oyim» she'ri nafa-qat shoirning, balki butun uzbek bolalar adabiyotining katta yutug'i hisoblanadi. Asarda bola ta'lim-tarbiyasi-da xalq og'zaki ijodining ahamiyati ochib beriladi. Xalk azal-azaldan xalq og'zaki ijodini astoydil sevgan. Farzandlarini alla, yertak, maqol, tez aytish, topishmoqlar aytib berish bilan tarbiya qilgan. Bunday bolalar SOGLOM, tetik, pok, o'ktam, polvon, vatanparvar, ota-onaga muhabbatli bo'lib o'sgan. Bu an'ana bugungi kunda xam davom yetib keladi.

Yana bir gap. Agar bolaning vujudi xalq og'zaki ijodi bilan yo'g'rilgan bo'lsa, uni tinglashni hamma narsadan ustun qo'yadi. Olaylik, hamma bola shirinlikka o'ch bo'ladi. Ba'zi bolalar shirinlik desa o'zini tomdan tash-lashga ham tayyor turadi. Lekin ba'zi bolalar buvilar, bobolar, onalar, otalar tilidan tinglaydigan alla, yer-tak, topishmoq, tez aytishni o'sha lazzatli shirinlikdan ham afzal ko'rishadi. Kerak bo'lsa o'zlariga kulgi, jasorat, orom bag'ishlaydigan xalq og'zaki ijodini kechasi-yu kunduzi tinglashga tayyor turadiganlari ham yo'q yemasligini Anvar Obidjon ishonarli qilib tasvirlaydi:

Qand uzatsa ham Oyim,
Tinmay yig'lar Guloyim.
Aytgach qiziq «Afandi»
Singlim darrov Yupondi.

Kichkintoylarni kelajakda sog'lom, dovyurak bo'lib kamol topishlarida oila, atrof-muhitning ta'siri kuchli bo'ladi. Bu g'oya Anvar Obidjonning «Dorboz bola» she'rida ko'zga tashlanib turibdi. Shoir ta'kidlab o'tga-nidek, kichkintoylar o'y-o'ylash'ni, xayol surishni, o'zla-rining tengsiz o'y-xayollari bilan o'sishni orzu qilisha-di. Dorbozlik san'ati ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib keladi. Bu o'ta darajada nafis, chaqqonlik, yehtiyotkorlik, dovyuraklik ishi. Bu ishni uddalash, dorga chiqish o'y, xayol bilan bitmaydi. Qayta-qayta mashq, chidam, dovyuraklik, yextiyotkorlik bilangina bu maqsadga yeri-shiladi. Bolalar dorga chikish, sim ustida tomosha ko'rsatish haqida qancha o'ylamasinlar, xayol surmasinlar xolva degan bilan og'iz chuchimaganidek dor ustida ham yura olmaydilar:

Langarcho'pni mahkam ushla,
O'yna, lochin!
Botirlarning ko'nglin xushla,
O'yna, lochin!
Ko'rqqoq yesa havas qilmay,
Turaversin.
Ehtiyot bo'l,deb maslahat
Beraversin.

Rivoyat qilishlaricha, bir podsho bulbul ovozi tilashni juda hush ko'rar yekan. Bir so'lim go'shadan bitta bulbulni ushlatib kelib oltin kafasga solib qo'yibdi Bulbulni parvarish qilishni, unga yaxshi qarashni xizmatchilar, vazir-u vuzoralarga topshiribdi. Oltin **qafas** ichida bulbul kechasi-yu kunduzi xonish qilibdi. Bulbul o'z qo'shig'ida do'st-yorini, ozodlikni, ko'm-ko'k go'shasini, yerkinlikni sog'inganligini qo'shib aytibdi.

Bulbul tilini, qo'shig'ining ma'no va mazmunini tu shunmaydigan podsho uning dardli xonishidan behad yayrab dam olar yekan. Lekin bulbulda o'z yeliga, vatanga muhabbat kuchli yekan. Kundan-kunga u oltin qafas ichida siqilgandan siqilibdi, ozib-to'zib ketibdi. Kunlardan bir kun bir iloj qilib qafas teshikchasidan boshini chiqaribdi, qarasaki tanasi ham sig'ibdi, bir intilish bilan oltin qafasdan chiqib olibdi. Bor kuchini to'plab, o'z makoniga parvoz qilibdi. O'z go'shasiga kelsa, qurg'oqchilik bo'lib chor tomon vayrona bo'lib yotgan yemish. Bundan u zarracha afsuslanmabdi. Aksincha, xursand bo'lib-di. Negaki u bugun ozod, yerkin. Xohlagan tomonga ucha olishidan baxtiyor yemish.

E'tibor bering. Ozod bulbulga oltin qafas ham, podsholarcha qarov ham kerak yemas. Unga vayrona bo'lsa ham o'z uyi, vatani kerak. To'yib ovqat yemasa ham, yelka kerib yashamasa ham o'z kulbasi bilan baxtiyor. Anvar Obidjonning «Vatan» asarida vayronada yashaydigan Boyqush ham xuddi bulbul kabi o'z hayotidan mamnun, vayronasi bilan shod. Negaki vayrona bo'lsa ham o'z uyi bor:

Senga bitta savol bor,

Menga quloq sol, xoy, qush.

Vayronada yashaysan,

Noming yesa naq Boyqush.

Ayt- chi, nahot sen boysan?

- Asl boylik neligin

Tushunmaysan, chamasi,

Bu — vayrona bo'lsa xam,

O'zimmiki hammasi,

Shuning uchun men boyman.

Dunyoda yeng yomon odat bu ochko'zlikdir. Nafsni tiyish, ochko'z bo'lmaslik boylik hisoblanadi. Kimki nafsini tiyib, yon-atrofga quloq solib yashasa faqat yutadi, yel-yurt o'rtasida obro'-e'tibori oshib boraveradi. Bir misol. O'tmishda bir kampirning bir chiroyli tovug'i bor yekan. Bu tovuq har ikki kunda bir marta tuxum qilar yekan. Kampir ikki kunda bitta tuxum olishga qanoat qilmabdi. Bir kuni u o'ziga-o'zi:

—Tovug'im o'lgurning ichi to'la tuxum, qornida tuxum xazinasi bo'lsa ham, ikki kunda bitta tuxum berib meni aldab yuribdi. Undan ko'ra qornidagi hamma tuxumni chiqarib ola qolay, deb o'ylabdi. Darhol tovuqni so'yibdi. Lekin uning qornidan bir dona ham tuxum chiqmabdi, boz ustiga nodon kampir tovug'idan ham ajralib qolibdi...

Mana sizga ochko'zlikning oqibati! Agar kampir sabr-toqatli bo'lganida, ochko'z bo'lmaganida, yertani o'ylab ish ko'rganida o'z nasibasini o'zi qiymagan, tovuqni o'ldirmagan bo'lar yedi. Anvar Obidjon o'zining bir qator asarlarida bolalarni xuddi kampir singari ochko'z bo'lmaslikka chinakamiga da'vat qilganligini ko'ramiz. Ayniqsa, «Ochofatning po'pisasi»da bu mavzu yanada jaranglab turadi:

Meni yana ursang Mamat,
Yuragimda o'ch yig'aman.
Sezdirmay saryog'ingni yeb,
Urishgani kuch yig'aman.
...To'yda to'yib qopketmagin
Oshingdan bir cho'qib o'tsam,
Zo'rg'a topgan nisholdangga
Besh panjamni tiqib o'tsam...

Anvar Obidjon uzbek bolalar adabiyotida o'ziga xos maktab yaratgan shoirlardan biri hisoblanadi. Bu ko'proq uning turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar hakida yaratgan asarlarida ko'zga tashlanadi. G'azal janrida nriil gan «Bulbulning salomnomalari» uzbek bolalar adabi! tida katta voqea bo'ldi. Bu asarda turli xil narsalar ning o'ziga xos qirralari ochib beriladi. Masalan, qo'rqqoq Quyon, do'stsiz Chayon, arg'amchidek buralib yuradigan Ilon, tunu kun yer qaziydigan Yumron, tovusdek chiroyli Qizil ishtonlarning tuzilishlari, hayot tarzlarini ochib b| rish bilan kichkintoylarda tabiat olamiga nisbatan bo'lgan qiziqishlarini o'n chandon oshirishga yerishtan.

Anvar Obidjonning she'rlarida bolalarni mehnatkash, o'qimishli, odobli, vatanparvar bo'lishga mudom chorlovchi kuch bor.

Bir rivoyatda tutun cho'g'-olovga zorlanib:

-Onajon, men sizning qizingiz bo'lsam ham nege doimo qop-qoraman, siz, yesa, porlab yonib turasiz, buning sababi nima? — deganida cho'g' shunday javob beradi:

-Qizim, bu ish yangi bir ish yemas. Dunyoda inson uz porlokligi bilan porlaydi. Bolaning porlok bo'lishi uchun bir porloq ota-onaning farzandi bo'lgani kifoya qilmaydi, ya'ni olijanob, fazilatli ota-onaning shunday go'zal fazilati bilangina inson ulardek bo'lmaydi. Farzandning o'zi fazilatni

kasb yetib olishi kerak. Shundagina u farzand porlaydi, cho'g'dek yonib turadi. Ha, Anvar Obidjonning she'rlari yosh kitobxonni ana shu cho'g'dek porlab turishiga barakali hissa qo'shmokda.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shib kelayotgan Anvar Obidjon 1980-yilda «Bahromning hikoyalari» nomli to'plami chiqqanidan so'ng adabiy jamoatchilikning e'tiboriga tushdi. Oradan shuncha vaqt o'tib ham, u o'zining munosib o'rnini mustahkam saqlab turibdi, uning ko'p qirrali ijodiga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. Ibrohim G'afurov, Xudoyberdi To'xtaboev, Abdug'afur Rasulov, Said Ahmad, Safo Matjon, Rahmon Qo'chqor, Miraziz A'zam, Mamasoli Jumaboev, Mahmud Sattor, Kavsar Turdieva, Tursunboy Adashboev, Lola Sodiqova-Zvonaryova, Rahmatulla Barakaev, Hulkar Hamroeva kabi munaqqid va adiblarimiz bu ijodkorning asarlari to'g'risida bir-biridan ko'tarinki maqolalar yozishdi.

Izlanuvchi olim Zamira Ibrohimovaning «Quvnoqlikka yashiringan izti-roblar» nomli kitobida (A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005) adibning nazm va nasrdagi asarlarining nihoyatda o'ziga xosligi, o'quvchini o'ziga mahliyo eta olish sirlari keng talqin qilib berilgan.

Anvar Obidjon ijodi yuzasidan fikr bildiruvchilarning barchasi doimo bir narsaga, ya'ni uning bolalar adabiyotiga yangicha bir yo'nalish olib kirganiga alohida urg'u berib o'tishadi. Kichkintoylar shoiri Tursunboy Adashboev bu holni soddagina ta'riflab: «80-yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar she'riyatidagi ob-havoni bir yo'la yangiladi», deb yozgan edi.

Haqiqatan ham, bolalar adabiyotida o'tgan asrning 80-yil-larigacha chop etilgan kitoblardagi she'rlarga nazar tashlasak, ularning aksariyat qismi o'sha mahaldagi tuzumni ulug'lashga, turmushimizning o'ta farovon, kelajagimizning behad yorqin ekanligiga o'quvchini ishontirishga qaratilgan «yalang'och mafkura»li she'rlar, bog', maktab, oromgohlardagi g'amxo'rliklarni, yosh avlodning dunyoda eng baxtiyorligini aks ettiruvchi quruq Ma'lumotlardan nariga o'tolmaydigan asarlardan iborat edi. Ko'r-ko'rona pand-nasihatlar, xalq ertaklari va latifalari asosida yengil-elpi hazillar to'qish ham avj olgan edi. Bunday asarlarning vazifasi bir xil bo'lib, ular bolalarning ongiga ta'sir o'tkazishga xizmat qilar edi. SHunday sharoit mavjud bo'lgan, bolalarni «Imperiya mafkurasi» chizib bergan chiziqdan chiqarmay tarbiyalash qonunga aylanib qolgan muhitda boshqacha yo'lda ijod qilish mumkin emasdek tuyular edi. Anvar Obidjon shu chiziqdan yorib o'tishni uddalashga urina boshladi.

Anvar Obidjonga xos kashfiyotning siri shundaki, shoir bolalarning ongidan ko'ra ko'proq ko'ngliga ta'sir o'tkazish yo'lidan bordi. Binobarin, ko'ngilga qattiq o'rnamagan narsa ongda uzoq vaqt saqlanishi, saqlanganda ham faol harakatga sabab bo'lishi qiyin.

Tahlil qilib ko'rish uchun «Bahromning hikoyalari» kitobidagi «Bezori» degan she'rni olaylik:

Qarg'a kirdi	— Menga qara,
Kinoga,	Vey,
Laylak,	
O'xshab	Eganmisan
Buratinoga.	Hech
kaltak? Hamma joylar	Qani,
Edi band,	Tur-chi o'rningdan.
Borib dedi	He, o'rgildim
Nopisand:	Burningdan!

«Eski maktab»da suyagi qotgan shoir bezorilikni qoralamoqchi bo'lsa, kuchim ko'p deb boshqalarga ozor yetkazaverma, hammaga xunuk ko'rinib, oxiri nazardan qolasan, sen bilan hech kim o'rtoq bo'lmay qo'yadi, deganga o'xshash mazmunda she'r bitishi tabiiy hol edi. Bu bilan u o'quvchining ongiga ta'sir qilmoqchi bo'ladi. «Bezori»da esa, Anvar Obidjon she'rxonning ko'ngliga yo'l izladi va o'quvchiga quvnoq kayfiyat bag'ishlovchi qiziq holat, kulgili obraz yaratish orqali bunga muvaffaq bo'la oldi. Dilozor bezorining ko'pchilik uncha xushlamaydigan, isqirt joylarda ivirsib yuruvchi qarg'a qiyofasida berilganining o'zi jajji kitobxonning ko'nglida unga

nisbatan ijrg'anish hissini uyg'otadi va bolaning g'ashiga tegishi mumkin bo'lgan quruq nasihatlarini aytishga hojat qolmaydi.

«Bahromning hikoyalari»dagi «Parvarda» degan boshqa bir she'rda esa yosh Bo'richa onasi quyon go'shtini, otasi kiyik go'shtini uning tug'ilgan kuniga sovg'a qilishmoqchi bo'lsa-da, bunga ko'nmay, hali o'zi totib ko'rmagan, juda shirinligini birovlardan eshitib bilgan parvarda olib berishlarini talab qilishga tushadi. Ota-onasi kuyunib, parvarda faqat shaharda sotilishini, u yoqqa borish xatarli ekanini tushuntirishga urinishadi. Ammo, Bo'richa bu gaplarga quloq solmay, jonini xatarga qo'yib bo'lsa ham, parvardani yeb ko'rish ishtiyoqida yonganicha shaharga qochib ketadi. SHaharga borganidayoq uni tutib olishib, ajoyibxonadagi qafasga tiqib qo'yishadi, hammaga tomosha bo'lib, endi parvardani o'ylamay, o'zi tug'ilgan adirni sog'ina-sog'ina kun ko'ra boshlaydi. Oradan bir necha yil o'tgach, taqdirga ko'nikib, yuvoshgina bo'lib qolgan Bo'richaga aynan u tug'ilgan kunda bir qizcha parvarda tashlab o'tadi. Endi unga parvarda kerakmikan, degan savol tug'iladi o'quvchida.

O'sha davrda bolalar adabiyotida hukm surib turgan muhitni hisobga olganda, bu singari she'rlarni yozish o'ziga xos bir o'jarlik, hatto shakkoklik sanalardi. CHunki u davrlarda qishloqlardagiga qaraganda shaharlardagi hayot darajasi bir necha o'n baravar yuqori bo'lib, u yerdagi maoshi ko'p zavod-fabrikalarga boshqa respublikalardan kelgan ishchilarni joylashtirishar, mahalliy aholini qishloqda ushlab turish uchun ko'pchiligiga hatto pasport ham berilmas, ulardan birovi shaharga borib kelsa, falon g'aroyibotlarni ko'rdim, deb u yoqdagi turmushning shirinligini maqtashga tushar, barchaning havasi kelar edi. SHoir «Parvarda» she'rida, bir tomondan, qishloqdan narini bilmay kun kechirayotganlarga achinsa, ikkinchi tomondan, shaharning o'ziga xos hayot tarzini yaxshi bilmay turib borganlarning hammasiga ham «shirin» luqma nasib etavermasligini sha'ma qiladi. Bu she'r real hayot haqida edi, faqat bolalarni emas, katta yoshdagilarni ham o'ylantirib qo'yadigan kuchga ega edi. Zamonaga esa, saviyasi qay darajada yuqori bo'lmasin, bunga o'xshagan she'rlar kerak emasdi, bolalarimizning ko'nglini cho'ktiradigan, pessimistik (tushkunlik) ruhdagi narsalar bizga yot, biz turmushimizdagi qahramonliklarni, kishilarimizdagi yaxshi xislatlarni targ'ib etishimiz zarur, degan g'oya hukmron edi.

SHaroit shunday ekaniga qaramasdan, Anvar Obidjon barii bir o'z uslubiga sodiq qolib, o'zi tanlagan yo'lda turib, tinimsiz ijod qilaverdi. Hali qishloqda yashab turgan vaqtlarida, asosan, o'tgan asrning 70-yillari o'rtalaridan boshlab yaratgan turkum- turkum she'rlari avvaliga matbuotda bitta-ikkita bo'lib ko'rinib turdi. SHoir 80-yillar boshida Toshkentga ko'chib kelgach, she'rlariga endi matbuotdan kengroq o'rin berib borildi, bolalar adabiyotini nazorat qilib turuvchi ko'zlar ham uning uslubiga asta-asta ko'nika borib, yangidan yangi kitoblari nashr etildi.

SHoir poytaxtga kelib ish boshlaganida yoshi o'ttiz beshdan o'tib qolgani bois, tanilishga kechikkanga o'xshab tuyulardi. Lekin oradan ikki-uch yil o'tmayoq keng adabiy jamoatchilikning e'tiborini tortdi, tez nom qozondi. Uning «Siz eshitmagan qo'shiqlar», «Dalalardan bolalarga»,

«G'alati maktublar», «Botirvoyning kundaligi», «Kulchalar» kabi turkumlarga jamlangan hamda turli buyumlar, jonzotlar, o'simliklar olamini yosh kitobxonga sirdosh etib, ularda tabiatga mehr uyg'otuvchi, ohang va uslub jihatdan juda o'ziga xos, ham kulgi, ham falsafaga boy she'rlari o'zbek bolalar she'riyatida yangi bir oqimni shakllantira bordi. «Bulbulning cho'pchaklari» turkumi esa, garchi muallif ularni shaklan g'azal holati deb baholagan bo'lsa-da, bolalar adabiyotiga g'azal janrini olib kirdi.

Professor Abdug'afur Rasulov «Ijodiy o'zlik sari yon» maqolasida («SHarq yulduzi», 2-son, 2008) shunday deydi: «Anvar Obidjon bolalar uchun nimaiki yozmasin, go'zallikni, kuyni, shakl va mundarija mutanosibligini nazarda tutadi. Bulbul qo'shiqlari turkumida hamma narsa go'zal, mukammal. Ohangga mos so'zlarni tanlaydi, qahramonlarning fazilatlarini topib-topib, o'rniga qo'yib-qo'yib tasvirlaydi:

Musichalar yuvosh-u
Chumolilar tirishqoq,
Suvaraklar bebosh-u
Kuchukchalar urishqoq.
Xo'tiklar zo'r yallachi,

Savoding sal
Chalamish.

Sen yozibsan
«Kemir!» deb.

Yoki «G'alati maktublar» turkumidagi «Osmachiroqning Oymomoga yozgan xati»ga nazar tashlaylik:

To'lishibsiz, Oymomo,
Kirib olib darmonga.
Shisham sindi...
Buguncha —
Chiqib turing osmonga.

Men ham yordam qilarman
Nochor qolgan chog'ingiz.
Omon bo'ling,
Baxtinga
Tugamasin yog'ingiz.

Ketmon traktorni o'ziga qiyoslagandek, kerosinda yoqiladigan osmachiroq ham oymomoni o'ziga taqqoslab, yog'i bevaqt tugab qolmay, doimo charaqlab turaverishini tilaydi. Bularga o'xshash she'rlarni yozish uchun nechog'li yuksak iste'dod kerakligini, bunday pishiq, tagdor, mag'zi to'q, aksariyati sof milliy tuyg'ularga yo'g'rilgan she'rlar boshqa tillarga tarjima qilinsa, qanday baho olishligi, bu hol millatimizga qanchalar g'urur bag'ishlashi mumkinligini sharhlab o'tirish ortiqcha.

Anvar Obidjonning she'riy dostonlari ham talaygina. «Odil Burgutshoh va «Zamburug'» laqabli josus haqida ertak»da agar yurt ichidagi odamlar ahil bo'lib, hushyor bo'lib yashamasa, tashqi g'animlar har qanday qudratli va obod o'lkani ham hiyla-nayranglar bilan kuchsizlantirishi,

vayron qilishi mumkinligi to'g'risida so'z boradi. «O'g'irlangan pahlavon haqida ertak» esa bir qarashda, asosan, bosqinchilikni qoralagandek tuyulsa-da, bunda eng asosiysi millatning tili masalasidir. Dostonda go'dakligida boshqa yurtga o'g'irlab ketilgan bola tengsiz pahlavon bo'lib ulg'aygach, bosqinchilarga qo'shilib o'z xalqiga qarshi jang qilgani, hatto o'z onasi bilan olishib, onaning tilini tushunmagani bois, halok bo'lishiga sal qolgani hikoya qilinadi.

Necha yillar yig'lab-yig'lab, sog'inib yurgan farzandini bilmay o'ldirib qo'yishdek fqjiadan bolaning yelkasidagi tanish tamg'a tufayligina saqlanib qolgan ona falakka shunday iltijo qiladi:

Hech bandani,
Ey, Tangrim,
Judo qilma elidan.
Farzandlarni onadan
Hamda ona tilidan!

Bu doston 1986-yilda chiqqan «Masxaraboz bola» nomli kitobda, o'zbek tili davlat tili bo'lmagani uchun rasmiy doiralarda nufuzini tamoman yo'qotib, turli tahqirlashlarga uchrab turgan bir zamonda e'lon qilinganini nazarda tutsak, bu chinakam jasorat edi. Bunday asarlar rasmiy doiradagilarning qattiq jig'iga tegishi tabiiy hol edi. Anvar Obidjon asarlari o'quvchilar orasida mashhur bo'lishiga qaramay, muallif Mustaqillikdan ilgari unvon, nishon u yoqda tursin, hatto biron-bir oddiy adabiy mukofot bilan ham taqdirlanmaganining boisi balki shundadir.

Anvar Obidjon ijodi haqida yozgan munaqqidlarning bir qanchasi uning o'ta kurashuvchanligi, qaramlikdan qutulishga, erkinlikka intilishga da'vat mavzusini bolalar adabiyotiga dangal olib kirganini alohida ta'kidlab kelishadi. Garchi Anvar Obidjonning o'zi, istibdodga nafrat mavzusini

«O'ychan ko'zlar egasi», «Bizda» singari she'rlari bilan Miraziz A'zam 60-yillardayoq bolalar adabiyotiga olib kirgan, deya yuqoridagi fikrlarini inkor etishga urinsa-da, bu masalaga xolislik va adolat bilan yondashib aytish joizki, munaqqidlar baribir haq. Qaramlik bois millatimiz boshiga tushgan ko'rgiliklarni bolalar adiblaridan ba'zilar ilgari ham onda-sonda sha'ma qilib o'tishgan, Anvar Obidjon esa bu mavzuga keng ko'lamda yondashdi, talay she'rlarida, dos-tonlarida, hikoyalarida, ayniqsa, «Alamazon va uning piyodalari», «Dahshatli Meshpolvon» qissalarida,

«Qo'ng'iroqli yolg'onchi» pesasida bosqinchilikni o'z nomi bilan atab, o'z millati bolalarini kishanlardan xalos bo'lishga tinmay da'vat etadi, muntazam ravishda kurashadi.

Anvar Obidjon nihoyatda serqirra ijodkor: nazmda, nasrda, dramaturgiyada birdek ijod qiladi. Publisistika va adabiyotshunoslikda ham o'z o'rniga ega. Kattalar uchun ham turli janrlarda asarlar yaratgan. Ayniqsa, Gulmat SHoshiy tilidan yozgan g'azallari, oddiy kishilarning tiliga yaqinligi bilan ajralib turuvchi o'ta quvnoq va tagdor hajviyalari, «Oltiq hangomalari» turkumi tilga tushgan. Munaqqidlarimiz hajvchilikda uni Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad an'alarining davomchisi sifatida baholashadi. SHundan kelib chiqib aytilsa, munaqqidlar Anvar

Obidjon ijodi haqida talay maqolalar yozganiga qaramay, uning asarlari har bir janr bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlarini kutmoqda.

Bolalarning sevimli yozuvchisi, asarlari jahondagi o'nlab xalqlar tiliga tarjima qilingan dovuqli adib Xudoyberdi To'xtaboevning so'zlari Anvar Obidjon har tomonlama keng o'rganilishga arziydigan ijodkor ekanini tasdiqlaydi. «Polosonlik Anvar Obidjon» nomli maqolada («Xalq so'zi», 2006-yil 20-may) X. To'xtaboev shunday yozadi: «Mark Tven, aka-uka Grimmmlar, SHarl Perro, Janni Rodari singari jahonshumul yozuvchilarni o'qiganda... ularning o'ziga xosligi, adabiyotga hech kim aytolmagan gaplarini aytib kirib kelganligini o'ylab, «Yo, Xudo, bizga ham ana shunday yozuvchilardan bersang edi», deb ich-ichimdan orzu qilgan paytlarim ham ko'p bo'lgan. Ana shunday ijodkorni Alloh bizga polosonlik Anvar Obidjon qiyofasida berganga o'xshaydi».

Etuk ustozlarning mehrini qozongan Anvar Obidjon yurtimiz mustaqillikka erishgach, nihoyat o'zining munosib bahosini oldi. U 1987-yilda hukumatimiz tomonidan «SHuhrat» medali bilan taqdirlandi, 1988-yilda O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'ldi.

Anvar Obidjonning bolalarga atalgan «Qo'ng'iroqli yolg'onchi» nomli birinchi pesasi 1983- yilda Respublika yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan. Keyinchalik mazkur teatrdan va Farg'ona, Guliston, Qarshi, Qo'qon teatrlarida uning «Pahlavonning o'g'irlanishi», «Topsang, hay-

hay», «To'tiqul», «Samozvanes», «Qorinbotir», «Alamazon», «Navro'z va Boychechak» kabi pesalari namoyish etildi. «O'zbekfilm» kinostudiyasida uning ssenariylari asosida «Tilsimoy — g'aroyib qizaloq», «Dahshatli Meshpolvon» kinolari suratga olingan.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. SHoirning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Anvar Obidjon she'rlarida, asosan, qanday g'oya ilgari surilgan?
3. Dramaturg sifatida Anvar Obidjonning qaysi asarlarini bilasiz?

Abdusaid Ko'chimov

(1951-yilda tug'ilgan)

Ilk mashqlarini maktabda — o'quvchilik partasida xabar va maqolalar yozishdan boshlagan Abdusaid Ko'chimovni maktabdoshlari «muxbir bola» deb atar edilar. CHunki uning lavha va xabarlarini tez-tez gazetalarda chiqib turardi. U a'lo o'qish, jamoat ishlarida faol qatnashish bilan birga, adabiyotni jon-dildan sevar, «O'zbek xalq ertaklari», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Tohir va Zuhra», «Uchar gilam», «Gulliverning sayohatlari», «Temur va uning komandasi», «Shum bola» singari kitoblarni qo'ldan qo'ymay o'qirdi. Adabiyotga bo'lgan muhabbat uni, o'rta maktabni 1967-yili tamomlaganidan keyin, Toshkentdagi Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga yetaklab keldi. U 1968—1972-yillarda mazkur institutning (hozirgi universitet) o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil oldi.

Institutda o'zbek va jahon adabiyoti durdonalari bilan yanada chuqurroq tanishdi. Ulkan adiblar ijodi unga mahorat maktabi vazifasini o'tadi. Bu yozuvchilardan haqqoniy qiyofa yaratish, jonli xarakter chizish, qiziqarli badiiy usullar bilan bolalarni katta hayot ichiga olib kirish yo'llarini o'rgandi. So'zning sehrli kuchini his qildi. Ehtimol, ushbu hodisalar bo'lajak shoir va adibning tuyg'ulariga yanayam kuchliroq g'ulg'ula solgandir.

Abdusaid Ko'chimovning mehnat faoliyati 1972-yilda «O'qituvchi» nashriyotida musahhihlikdan boshlandi. Ushbu nashriyotda olti oy ishlaganidan keyin, bolalarning respublika gazetasi «Tong yulduzi»ga adabiy xodim bo'lib ishga o'tdi va 1984-yilgacha ana shu gazetada bo'lim mudiri, mas'ul kotib vazifalarida mehnat qildi. Gazetachilik ishi Abdusaid Ko'chimov qalamini charxlab, adabiy ishga yo'llabgina qolmadi, balki keng hayot ichiga olib kirdi, bolalar dunyosi, ruhiy olami bilan do'stlashtirdi. Hayotiy kuzatishlar yangi mavzu, yangi material berdi. Bu yillar ijodkorning tarjimai holida hayotni o'rganish, anglash, tushunish va adabiyot sirlarini egallash davri bo'lib qoldi, deyish mumkin. Gazetachilik ishi yuzasidan tez-tez safarlarga chiqqan qalamkash respublika shahar va qishloqlarini kezdi, yirik qurilishlarda, maktablarda bo'ldi. O'zining bo'lajak qahramonlari bilan yaqindan tanishdi. SHu tariqa uning asarlarida odobli, a'lochi, mehnatkash,

tirishqoq va ayni paytda, o'jar va sho'x bolalarning xilma-xil qiyofalari paydo bo'ldi. Ana shunday asarlardan biri «Mening O'zbekistonim» dostonidir. Doston bolalar adabiyotidagi tipik usullardan biri — sayohat janrida yozilgan. Dostonda mamlakatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar Bobo bilan Nabiraning xayolan qilgan sayohati vositasida juda qiziqarli hikoya qilinadi. Bu doston 1979-yilda alohida kitob — albom shaklida nashr etildi.

Tinimsiz izlanishlar, hayotdan va ustozlar ijodidan o'qib o'rganishlar Abdusaidga ijodda o'z ovozi, o'z yo'lini topib olishga imkon yaratdi. SHoirning uchinchi kitobi — «Toshburgut» (1981-yil) Abdusaid Ko'chimovning Ma'lum kamolotga yetganiga dalolatnoma bo'ldi, deyish mumkin.

«Toshburgut» to'plami bilan tanishar ekansiz, shoirning har doim bugungi kichik kitobxonning nafis didiga mos she'rlar yozishga intilayotganiga guvoh bo'lasiz. SHu bois uning kichkintoylar bilan muloqoti samimiy dildan kechadi.

«Maqtanchoqlar», «Mish-mishvoy», «Inoqlar», «Yolg'on-chi-sayohatchi», «Jazo», «Suflyor» she'rlarida yuksak yumor bilan birga bolalarda uchraydigan sodda mug'ambirlik, maqtanchoqlik, o'yinqaroqlik ajoyib mahorat bilan tasvirlanadi. «Suflyor» asari ana shu jihatdan e'tiborli.

She'r bir sinfdagi oddiy va hayotiy voqea zaminiga qurilgan. Bayram arafasida bolalar sinfda pesa qo'ymoqchi bo'ladilar. Rollar taqsimlanadi. Birov ot, birov chol, yana birov quyon. Barcha rollar taqsimlab bo'lingach, o'qituvchi:

Sahnada o'z so'zidan
Adashgudek bo'lsa kim,
Unga parda ortidan
Xolis yordam beruvchi,
Bilmay qolgan so'zini
Sekin aytib turuvchi,

Suflyor kerak, — deb qoladi. Muallimning gapini eshitgan bolalar yoppasiga Hakim degan bolaga qaraydilar.

Negaki, oldingi partada o'tiradigan Hakimjon doskaga chiqib adashib qolganlarga doimo beminnat yordam ko'rsatar, pichirlab adashganlarga aytib turar edi...

Bu she'rdagi hajviy yumoristik xislat xuddi malham singari shifobaxsh kuchga ega bo'lib,

«Mish-mishvoy»da yana ham bo'rtibroq namoyon bo'ladi. SHoir bu asarida har xil yolg'on mish-mishlarga ishonish xunuk oqibatlariga olib kelishi muqarrarligini sodda misralarda, aniq misollar vositasida ishonchli va ta'sirli ifodalaydi.

Mish-mishvoy
o'zi Tug'ilar qayda?
Hurmat va ishonch
Yo'qolgan joyda.

Ko'zga ko'rinmas Mish-mishvoyning g'iybatlariga laqqa tushib, bir-birlari bilan yoqalashishgacha borgan bitta sinfdagi bolalar oxiri ana shunday xulosaga kelishadi. Ishonch, sadoqat bilan yashash hayotning asosiy mazmuni bo'lmog'i zarurligi bu she'rda badiiy ifodalanadi.

Kitobxonni ham kuldurish, ham o'ylatish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun iste'doddan tashqari tabiiy mahorat ham bo'lishi lozim. Abdusaid Ko'chimov she'rlarida quvnoq yumor, nafis misralar ko'p. SHoirning qahramonlari hazil-mutoyibani sevuvchi, sho'x bolalardir. Mana ulardan biri:

«Qag'» etmasam qish kelmaydi,— deydi
qarg'a, Qichqirmasam, tong otmaydi, — deydi
xo'roz. Men bo'lmasam, doim futbol
komandamiz, Yig'lab-yig'lab yutqizadi, —
deydi O'roz.

(«Maqtanchoqlar»)

Maktabda hamma meni hamma vaqt Qo'rqmas, bahodir deydi. kuchimga.	Bu ishlarda Suyanaman
Katta-kichik har kuni	Lekin ularni faqat... Faqat g'amimni yeydi.
	Bajaraman ichimda. («Jasur bola»)

Kichkintoylarning o'ziga xos ma'naviy olamini tiniq aks ettiruvchi bunday misralardagi quvnoq kayfiyat darrov boshqalarga ham yuqadi. Bunday she'rlarni o'qigan bolada o'zidagi va boshqa tengdoshlaridagi yaxshi-yomon xislatlarga munosabat uyg'onadi, kamchiliklarga qarshi nafrat, yutuqlarga nisbatan muhabbat paydo bo'ladi. SHoirning «Men g'iybatchi emasman» asari bu fikrimizga yorqin misol bo'ladi. SHE'rda g'iybatchilik — illat ekani, aslida bu illatga qarshi bo'lgan bola tilidan g'oyat ishonchli va ta'sirli tarzda bayon qilinadi:

Men g'iybatchi
emasman, G'iybatga
yo'q toqatim. Jahlim
chiqib ketadi,

Viji-viji qilsa kim, — degan bola «g'idi-bidichi» bolalarni fosh qilaman deb o'zi ham ularning qatoriga qo'shilib ketganini sezmay qoladi va o'zi ham zo'r g'iybatchi ekanini oshkor qilib qo'yadi.

Abdusaid Ko'chimovning ijodi bilan tanishar ekansiz, uning asarlarida bola xarakterining shakllanishida oila, jamoa va do'st-birodarlarning roli muhim ekanini ko'rsatish alohida o'rin egallashini ko'rasiz. Aksariyat asarlarida bolalarning ijtimoiy hayotda o'ynaydigan roli batafsil tilga olinadi, tahlil va tasvir etiladi. «Biz o'n yetti o'rtoqmiz», «Uch do'st, Ali bobo va anzur piyoz haqida ballada», «Er — boyliklar onasi» kabi she'rlari xuddi shunday xususiyatga egadir. Ularda baxtning kaliti mehnat ekanligi shunchaki bayon qilinmaydi, balki mehnatsiz, qiyinchiliklarni yengib o'tmasdan hech narsaga erishib bo'lmasligi bolalarbop badiiy bo'yoqlarda mahorat bilan tasvirlanadi. Dangasalik va ayyorlik bilan do'stlik qadrini yerga urish, mulohazasizlik, maqsadsizlik va maslaksizlik oxir-oqibat xunuk oqibatlariga olib borishi qoralanadi. SHoirning «CHanoq» dostonini o'qigan kishi bunga yana bir karra ishonch hosil qiladi.

Dostonda bitta brigada bo'lib mehnat qilayotgan paxtakor bolalar faoliyati qalamga olingan. Doston qahramonlari — Qo'chqor, Alisher, Oysuluv, Dildora va boshqalar ota-bobolari kasbi — paxtachilik sirlari, mashaqqatlari dardi bilan yashaydilar. Asarda kitobxon e'tibori mehnat kishini bolalikdan chiniqtirishi, dadillikka undashi, har turli yot qusurlardan xalos etishi, ayni vaqtda bolani hayotiy muammolar, paxtachilikning mashaqqatlari, go'zal tabiatni asrab-avaylash kerakligiga qaratiladi.

She'riy ertak bolalar adabiyotining eng ommaviy janridir. Yaxshi ertak yoki afsona jajji yuraklarga tez ta'sir ko'rsatadi. Ularning qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ularini uyg'otadi.

Abdusaid Ko'chimovning «Yosuman», «Toshburgut», «Vulqonlar» kabi ertaklari adolat, do'stlik kabi insoniy tuyg'ular talqiniga ayricha yondashilgani bilan xotirada muhrlanadi, o'quvchi qalbini junbushga keltiradi. Binobarin, yosh avlodni chin odamiylik ruhida tarbiyalash, jamiyatga munosib kishilar qilib kamol toptirishdek muqaddas mavzuda asar yaratish har qaysi qalamkashning birinchi vazifasidir.

SHoir o'zining «CHaman» dostonida mazkur vazifani yana bir karra go'zal bir shaklda ado etgan. Tarixiy mavzudagi mazkur yirik asar yosh kitobxon qalbida vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, dushmanlarga qahr-u g'azab uyg'otishi bilan yuksak hayotiy va badiiy ahamiyatga molikdir.

Ijodkorning faoliyatida bolalar uchun yozilgan qissalar va hikoyalar, ayniqsa, muhim o'rin egallaydi. Uning «Mening yulduzim», «Halqa», «Baland tog'lar» kabi kitoblaridan o'rin

olgan asarlari yuksak badiiy salohiyati bilan yoshlar nasrini bezab turadi. Bu asarlarni inson xarakterini yaratishdagi betakror mahorati bilan ham o'zbek nasrining eng sara namunalari, deb bimalol aytish mumkin. SHunday xususiyatlari uchun ham adibning bir qator hikoya va qissalari, she'rlari jahondagi ko'pgina xalqlar tiliga tarjima qilindi. Xitoyda uning ikki kitobi «Halqa» (1993-yil) va

«Hayot hukmi» (2000-yil) nomlari bilan nashr etildi. «Boychechak» hikoyasi, «Baland tog'lar ostida» qissasi asosida ko'p seriyali badiiy filmlar yaratildi. 1987-yilda chop etilgan «Halqa» kitobi G'afur G'ulom nomidagi mukofotga sazovor bo'ldi. Tabiat mavzusida yozgan asarlari uchun esa 1984-yil YuNESKO mukofoti bilan taqdirlandi.

Adibning barcha nasriy asarlariga xos bo'lgan yana bir fazilat bor. Bu kattalar va kichiklar, otalar va bolalar o'rtasida azaliy munosabatlarning nozik qirralarini o'ta sezgirlik bilan idrok etish va badiiy qiyofasini topa bilishdir. Muallif o'z asarlarida hamisha hayotiylikka, tabiiylikka intiladi. Hech qachon voqealarni to'qib chiqarmaydi, to'qimalik ham hamisha o'ta tabiiy tasviri bilan asar qahramonlari qoniga singdirib yuboriladi. Misol uchun «O'g'il» hikoyasini eslaylik. Hikoya qahramoni Avaz ismli oddiy qishloq bolasi. Uning otasi bir zamonlar o'zbek xalqi boshiga mislsiz kulfatlar keltirgan mash'um «Paxta ishi» bo'yicha olib borilgan tekshiruvda nohaq qamalgan. Bola hayot murakkabliklarini tushunishga hozircha qodir emas. SHu boisdan u otasi «ikki tonna paxtani qo'shib yozgani uchun», degan kattalarning aldoviga ishonadi. Otasining «kamomadi»ni qoplash va ozodlikka chiqib olishiga yordam berishga astoydil bel bog'laydi. Ertadan kechgacha, hatto kun-u tun, yomg'ir tinmagan ezgin damlarda ham paxta teradi. Lekin tergani ikki tonnaga yetganda haqiqatni biladi. Nishonboy tabelchiyam, Suvon traktorchiyam aldanchi eka-nini anglaydi. Beg'ubor bolaning ruhiy dunyosi ostin-ustun bo'lib ketadi. «Yolg'onchi! — dedi kutilmagan nohaqlikdan yurak-bag'ri o'rtanib ketgan Avaz,— Hammangiz aldanchisizlar, aldanchi! Aytaman, hammangizni otamga aytaman! Ota, otajon! — Bola keskin burildi-yu, izillab yig'lagancha yomg'irsim-sim yog'a-yotgan kimsasiz dala bo'ylab yugurib ketdi...» Hikoya ana shunday dilo'rtar satrlar bilan yakunlanadi. Bolaga hech qachon yolg'on so'z aytmaslik kerakligi, uning murg'ak qalbiga yolg'on sig'masligi va har qanday yolg'on uning ruhiyatiga putur yetkazishi hikoyada o'z ifodasini topgan.

«Boychechak» hikoyasida esa ana shu g'oya yanada chuqurroq talqin etiladi. Bu asarning sujeti ham oddiy va sodda: qishloqdagi an'anaga ko'ra har yili erta bahorda «Boychechak» qo'shig'i aytiladi. Boychechakni birinchi bo'lib topib kelganlar doimo boshqalar oldida ayricha ehtiromga ega bo'ladilar. Qo'zivoi ismli mittigina bola bu yil ana shu hurmatga sazovor bo'ladi. Tog'asi unga «Boychechak» keltirib beradi. Sevinib ketgan bolalar to'planishib, yarim tunga qadar uyma-uy «Boychechak» qo'shig'ini aytadilar. Odatga ko'ra, tushgan pul hammaga teng bo'linishi, boychechak egasiga esa ko'proq berilishi lozim edi. Ammo jo'raboshi — Murod chilim Qo'zivoi'ga hammadan kam pul beradi. Boshqa bolalar nohaqlikni sezgan esalar-da, avvaliga jim kuzatib turishadi. Biroq Qo'zivoi pulni otasi urushda halok bo'lgan, onasi ko'pdan buyon betob bo'lib to'shakda mixlanib yotgan do'stiga bermoqchi ekanini bilishgach, chidab turisha olmaydi. Nafaqat bolalar, hatto Murod chilimning o'zi ham qilmishidan pushaymon yeydi va boshqalardan berkitib, paytavasi orasiga yashirgan chaqalarni o'rtaga tashlaydi. Bolalar hamma pulni olib, onasi bemor bo'lgan Usmonlarnikiga qarab yo'l olishadi. Uyat va or-nomusdan ezilgan jo'raboshi hamrohlarining ko'ziga tik qarashga botinmay o'zini zim-ziyo tun qa'riga uradi.

Hikoya quyidagicha yakun topadi:

« — O'zidan ko'rsin, — dedi bolalardan biri.

Bahrilla pullarni shu holicha gazetaga o'radi. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek, g'uvullab Usmonlarnikiga jo'nashdi. Oldinda pildirab ketayotgan Qo'zivoi'ning shodligi ichiga sig'masdi. Uning xayolida qo'lidagi boychechak mash'al singari hammalarining yo'lini yoritayotgandek tuyular va shuning uchun ham qo'lini baland ko'tarib ketib borardi».

Ko'pchilik e'tibor bermaydigan shunchaki voqeadan g'oyat ulkan xulosalar chiqaruvchi bunday barkamol asarlar bolalar adabiyotida uncha ko'p emas. Bu hikoya yuksak badiiy mahorat mevasi bo'lgani uchun ham adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallaydi.

Adibning «Qochoq», «Halqa», «Ishqibozlar» kabi hikoyalari ham o'zbek bolalar adabiyotida yaratilgan eng sara asarlar qatoriga kiradi.

Abdusaid Ko'chimovning qissanavislikda erishgan muvaffaqiyatlari, ayniqsa, havas qilgulikdir. Ijodi kamolot bosqichiga ko'tarilib borgan sayin, mahorati ham yarqirab borgan yozuvchi hozirga qadar «Qayta tug'ilgan bola», «Baland tog'lar ostida», «Oq kaptarlar oroli» kabi yirik asarlar yaratdi. Bu asarlar bolalarning kichkina dunyosi orqali ulkan hayotni ko'rsatishi, samimiyligi, har bir so'z, ovoz va rangga shakl va timsol bera oluvchi qudratga egaligi bilan dilni o'ziga rom etadi.

Bugungi kunga kelib yigirmadan ortiq kitob muallifi bo'lgan Abdusaid Ko'chimov nafaqat bolalar, ayni chog'da kattalar adabiyotining ham ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biriga aylandi. Uning «Ikki bahor», «Umid daraxtlari», «Qiyofa», «Yosuman», «Ko'zlarimning qarog'idasan»,

«Muhabbat bog'lari», «El suv ichgan daryolar» kabi kitoblarini barcha yoshdagi o'quvchilar sevib o'qishmoqda.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. A. Ko'chimovning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. SHoir she'rlarida bolalar hayoti qanday aks ettirilgan?
3. A. Ko'chimovning adib sifatida bolalar adabiyotida tutgan o'rni qanday?

9-mavzu: Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik.

Reja:

1. Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.
2. Hamza Imonberdiyevning "Adolat kaliti" ertagida ilgari surilgan g'oyalar.
3. Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr(saj') shaklidagi turkumidagi she'rlarning o'ziga xosligi.
4. Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari haqida.

Hamza Imonberdiev

(1954- 1997)

Shalpangquloq, hoy,
filcha, Javob bergil
so'roqqa.

Suv to'la
xartuming-la
Ketayapsan
qayoqqa? E,
do'stim, bu
sayyohlar Rosa
tegdilar jonga.

Ermakka gulxan
yoqib, Xavf solishar
o'rmonga. Shunga
bo'lib ko'z-quloq,
Yuribman kun
kechirib.

Ular yoqib
ketishgan
Gulxanlarni
o'chirib...

Bu ajoyib misralar, ma'no va mazmunga boy, badiiy jihatdan yuksak darajadagi she'r iste'dodli bolalar shoiri Hamza Imonberdiev qalamiga mansub. U 1954- yilda Qozog'iston Respublikasi CHimkent viloyatining Suzoq qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topdi. Hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetida Abusaid Ko'chimov, Abdug'affor Hotamov kabi yozuvchilar, SHuhrat Jabborov, Hamid Habibullaev kabi taniqli jurnalistlar bilan birin-ketin o'qidi. Talabalik yillarida yuqoridagi ijodkor do'stlari bilan O'tkir Rashid rahbarlik qilgan fakultetning «CHashma» to'garagida, universitetning «Ma'rifat yo'lida» gazetasida she'riy mashqlarini tobladi.

Universitetni imtiyozli diplom bilan tamomlagan bo'lajak bolalar shoiri H. Imonberdiev o'z mehnat faoliyatini «Tong yulduzi» gazetasida boshladi. Umrining so'nggi o'n yilini esa

«CHO'lpon» nashriyatida, kichkintoylar uchun katta adabiyot chop etadigan maskanda muharrirlik bilan o'tkazdi.

Talabalik yillaridayoq ijodda kitobxon ko'ziga tashlanib qolgan bolalar shoiri Hamza Imonberdiev «Quvnoqlar quvonchi», «SHokoladxo'rlar», «Kulgi shaharchasi», «G'aroyib pufak»,

«Oydagi tomosha», «Qutichada mitticha», «Lofchilar — aldoqchilar», «G'aroyib Kent hangomalari», «Bir kunlik mo'jiza» kabi kitoblar muallifi sifatida bolalar dilidan mustahkam joy oldi.

SHoir asarlari rang-barang, mavzu doirasi keng. U har bir katta-kichik asarida kenja kitobxon do'stlarini nimagadir o'rgatadi, o'rganishga, ibrat olishga, turmushda xulosa chiqarib yashashga chorlaydi.

Xalqda: «Birovga chuqur qazisang, unga o'zing qulaysan», degan naql bor. Bu borada «Kalila va Dimna»da juda ibratomuz bir hikoya bor. U har qanday odamga ta'sir qiladi:

«Bir kuni Qoraquloq o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqonning jahd-u jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko'rib qoladi.

Daraxt tilga kirib unga dedi:

— Ey, dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqyapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogah bir burchakdan ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir zumda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan

«Dilozorning jazosi ozor ekan», degan xulosa chiqarib oldi.

SHu vaqt bir tarafdin tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora- pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to'ygach, daraxt soyasida koptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogah bir och tulki kelib qoldi. Tipratikanning nayzalaridan qo'rqib, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikanni ag'angatib qorniga yozildi. Tipratikan yomg'ir yog'yapti shekilli deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shashib qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. SHu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib, hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan uni tinchitdi. Qoplonning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o'tib qoldi. Unga qoplonning terisi yoqib, ovchi bilan urisha boshladi. Qilich solib, ovchining boshini tanidan judo qildi va qoplonning terisini olib

yo'lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan ediki, oti qoqilib, yerga yiqildi. Gardani sinib, shu onda halok bo'ldi».

Bolalar shoiri Hamza Imonberdiev «O'q» she'rida xuddi shunga yaqin bir voqeani yosh kitobxonga havola qildi. Kamondan bemavrid otilgan o'q hayotda bosar-tusarini bilmaydi, u o'ta dahshatli, qasd qilish ishtiyoqida hammaga dag'dag'a qiladi. O'q hech kimni nazar-pisand qilmaydi, chor tomonni nobud qilaman, otaman, bag'rini tilaman, o'ldiraman, deb oldinga intilaveradi:

Kelib qoldi ro'baro'	O'tib ketdi bir yondan.
Ona Jayron yo'lida.	Hamon uchib
borar u Quyosh ko'kda qotdi tosh,	Qora ajal
qo'lida. Nafasini yutgancha.	Kelib qoldi
ro'baro'	
Gullar ma'yus egdi bosh	Keksa CHinor
yo'lida. O'zligin unutgancha.	— Hoy, ko'zingga qara-
da, Qochar Jayron quyunday	Titrab dodladi
CHinor, Tuyog'idan chaqnar o't.	
	Bag'rimdagi inlarda
— Jon o'q, tegma, uyimda	Axir palaponlar bor!
Kutar bolam, ko'zi to'rt!	O'q voz kechib
nishondan, O'q voz kechib nishondan,	O'tar-ketar bir
yondan...	

Odatda, kim haddidan oshsa, yon-atrofdagilar bilan hisob-kitob qilib yashamasa, o'ziga ortiqcha bino qo'ysa, albatta, hayotda qoqiladi. CHor tomonga dahshat solib, hammaningjonini olmoqchi bo'lgan o'q o'ziga nisbatan zo'rroq mergan otgan o'qqa duch kelib vayron bo'lishi kitobxon bolalarni quvontiradi.

SHoir she'rilarini rang-barang dedik. U haqiqatan ham shunday. «Tarbiyachi» asari buning yorqin isboti bo'la oladi. Inson insofli, adolatli, or-nomusli bo'lsa, har bir bosadigan qadamini o'ylab, bilib tashlaydigan bo'lsa, hayotda qoqilmaydi, baxtiyor bo'ladi. Bunday odamlarni vijdonli, or-nomusli kishilar deb atashadi. Insondagi bunday ijobiy fazilatlarni birov unga hadya qilmaydi, o'zini o'zi kuzatadi, noo'rin xatti-harakati uchun o'zi javob beradi. Uning tarbiyachisi — vijdoni. SHu vijdon kuzatuvini uni har doim to'g'ri yo'lga boshlaydi va to'g'ri yo'lga solib turadi:

Tunov kuni futbolga	Ikkilanib turdim men,
Ketayotsam tez shoshib,	Biroz xayol
surdim men.	
Ko'zi ojiz chol yo'lda	Futbol zavqi bir
dunyo, Turgan ekan adashib.	Yo'lni to'pga burdim
men.	
To'pga tegmasdan oyoq,	Qarshi chiqmoq
foydasiz, Solgan kabi tizginga,	Qayga boray da'voga?
Tarbiyachim o'sha choq	Qo'llaridan
olib tez, Qaytardi-ku izimga.	Yo'l ko'rsatdim
bobomga.	

Inson hayotda sog'lom, tetik, qo'rqmas, jasoratli bo'lib kamol topishi zarur. Mabodo u soyasidan ham cho'chib, hadiksirab, qo'rqib yashaydigan bo'lsa, bunday bola kelajakda omadsiz, tolesiz bo'lib qoladi.

Hamza Imonberdiev «Yolg'izlikda» she'rida xuddi shu masala ustida to'xtaladi. Botir o'zi tabiatan qo'rqqoq bola. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar deganlaridek, ayniqsa, kechqurunlari har

qanday sharpadan cho'chib, qo'rqib yuradi. U kechqurun ko'chaga chiqdimi, tamom, go'yo qo'shiq aytgandek baqirib-chaqirib, to'polon qilib yuradi. Natijada u hammaning tinchini, oromini buzadi:

mushuklar miyovlaydi, itlar vovullaydi, odamlar «hang-mang» bo'ladi. Voqea oydinlashgach, ko'rsalarki, bu Botirning quyonyurakligi bo'lib chiqadi:

Bilsak, Botir bu palla Qo'shiq aytib baralla, Madad berib o'ziga, Bot-bot qarab iziga Qo'rqinchdan qochib borar.

Bolalar adabiyotida o'y o'ylash, xayol surish, xayoliy orzular bilan yashash ijobiy natija berishi to'g'risida ko'p gapiriladi. Bunga misol qilib G'afur G'ulom, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Miraziz A'zam asarlaridan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Bolalardagi bunday shirin tuyg'ularni Hamza Imonberdiev ham to'g'ri payqay olgan. «Lofchilar — aldoqchilar» asarida u kichkintoylardagi mana shunday orzu-havasni o'ziga xos usul bilan ochib berishga erishgan.

Ali xayolan qushcha shaklini yaratdi. Uni tomosha qilishga Valini chaqirdi. Vali ko'rsaki, qushcha yo'q. Lekin Alining bo'sh kelmasligi kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Ha, bolalar qush rasmini chizishadi, xayolan qushchalarga don berishadi. Bularning hammasi umumlashib, kelajak poydevorini bunyod etadi. Bu bolalarning kelajakda mustaqil mamlakatimiz kenja avlodini bilimdon, zukko, rahm-shafqatli bo'lib kamol topishiga barakali ta'sir qiladi.

Hayvonot olamiga mehr qo'yish, uni ehtiyot qilish, asrash, avaylash, do'st tutunish bolalikdan, oiladan boshlanadi va bir umr insonga hamroh bo'lib qoladi. Hamza Imonberdiev bu haqda

«Olamoshim» degan bir she'r yozgan. Bunday olib qaraganda bu asar juda oddiy, sodda, bolalarni o'ylantirmaydigan, ularni hech narsaga o'rgatmaydigan, xulosa chiqarmaydigan she'rlardan biriga o'xshab ketadi. Lekin bir o'ylab ko'rilsa, tahlil qilinsa, ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati juda katta va eng ta'sirli she'rlardan biri ekanligi yarq etib ko'zga tashlanib qoladi.

Tokchadagi qaymoqdan Ko'tarmay siraboshin, Ichayapti qarasam, sabab Uyalmay Olamoshim.	Quloqlarin chimirib, Ichar edi bir mayin. Beparvoligim Qorni ochgani tayin.
Avvaliga «pisht» deb bir Quvmoq bo'ldim-u, biroq hovliga — Rahmim kelib negadir yemasam Tikilib qoldim uzoq.	Oyoq uchida asta CHiqib ketdim Bir gal qaymoq Emabman-da, mayliga.

E'tibor bergan bo'lsangiz, «Bir gal qaymoq yemasam yemabman-da, mayliga»ning o'zi ijobiy holat, bag'rikenglik, bir mayizni qirq bo'lib yeyishga bolalikdan o'rganishning boshlanishi. Bunday bolalar kelajakda haqiqiy inson bo'lib kamol topishlariga shak-shubha yo'q.

Hamza Imonberdiev o'zi bilimdon, o'ta madaniyatli, to'g'ri so'z, halol, pok, ozod va obod O'zbekistonimizni juda qattiq suyardigan ajoyib inson bo'lganligi uchun ijodining mundarijasi ham shunday. Adolat masalasida u ko'p jon kuydirar va bu haqda ko'plab asarlar yaratgan edi.

Hadislarda to'g'riso'z, halol, pok bo'ling, deyiladi. Kimki bunga qattiq amal qiladigan bo'lsa, el-yurt o'rtasida xijolat bo'lmaydi, obro'-e'tibori oshadi. «Adolat kaliti» ertagida Hamza Imonberdiev xuddi shu haqda gap yuritadi. Asar boshlanishidayoq yosh kitobxonlarni o'ziga tortadi:

Hayron quyosh,
loldir oy, Necha

kun-u necha oy
Ikki elat urushar,
Bir-birlarin
qirishar. O'rtaga
kimki tushsa,
Biz haqmiz, deb turishar.

Hamma gap, hamma balo ana shu «biz haqmiz»da. Buning asl boisi, sababini hech kim tushunmasligida. Qonli urush davom etaveradi. Bundan podshoh ham hayron:

Podshohning boshi qotgan,
Halovatin
yo'qotgan.
Ojizligin his etib.
Og'ir xayolga botgan.

CHorasiz qolgan podshoh bu ishni — qonli urushni to'xtatish chora-tadbirini qidiradi. Bu jumboqni yechadigan, urushga chek qo'yadigan adolatli, xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'yadigan bir Odilbek otli qozini toptiradi.

Odilbek halol, pok, adolatli. U og'ir-bosiqlik bilan voqeani so'rab-surishtiradi, so'roq qiladi. Daovogar-u aybdorlarning ko'rsatmalari yosh kitobxonda haqiqat uchun kurashchi bo'lish orzusini nish urdiradi. Daovogarning:

Yigitimiz zo'r edi,
To'g'ri, yosh-da,
g'o'r edi. U elatning
bir qizin —
Latofatda yulduzin
Sevarkan, dil
ochibdi, SHu kun
olib qochibdi.
U qizning
og'alari,
Qasoskor
tog'alari Quvib
yetib olibdi, Etib
qilich solibdi.
Bechora
bovirimizning
Tani yerda
qolibdi.
Yovlar to'lasin
xunin, Yo'qsa
ko'radi kunin!
CHiqqunicha
tandan jon,
Olishamiz,
begumon!
Qozikalon, biz
haqmiz,
Hukmingizga
ilhaqmiz. To'g'ri

hal eting, illo, —
Deya bir xalta tillo

Uzatib chiqib ketmish, —deyishi va pora berishi Odilbekni sergaklantiradi. U ishiga yanada jiddiy kirishadi. Aybdorlarning g'irromliklari ham yotig'i bilan kitobxon ongiga yetib boradi:

Yuzimiz yorug'
eting, To'g'ri hal
qilib keting. Haq
qaror topsin, illo,
— Deya bir xalta
tillo Uzatishib, ko'z
qisib, CHiqib
ketmishlar pusib.

Hamma gap mana shunda. O'sha pora sifatida berilgan ikkita xalta — boylikda. Mabodo Odilbek odil bo'lmaganida xaltachalarni olib uyiga ravona bo'lar edi. Ammo u nafsini tiyadi, xalqni o'ylaydi, urushni to'xtatish yo'llarini qidiradi. Uning da'vogarning huzuriga chorlab voqeani mana bunday hal qilishi o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi:

— Haq so'z
nishonga tegdi, Raqib
to'liq bosh egdi.
Ayblarin tan
olishib, Mulzam
bo'lib qolishib, Bir
emas, qayta-qayta
Tavbasin ayta-
ayta, Deyishib yigit
xuni Tashlab
ketishdi buni, —
Deb qo'sh xalta
tilloni Daovogarga
uzatdi.
Yalt ko'zi
yonganini,
G'ururi qonganini
Diqqat bilan
kuzatdi. Tugab
deng olaqarash,
Bo'libdi «yarash-yarash».

Hamza Imonberdievning o'nlab qo'shiqlari, ko'plab doston-ertaklari bolalar tilida kuylanmoqda, o'qilmoqda.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Hamza Imonberdievning «Tarbiyachi» asari qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
2. Shoirning quyi sinf yoshidagi o'quvchi bolalarga bag'ishlangan yana qaysi she'rlarini bilasiz?
3. H. Imonberdievning «Adolat kaliti» ertagidan siz o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

Abdurahmon Akbar

(1962 - yilda tug'ilgan)

Abdurahmon Akbar 1962-yilda Yangiyo'l tumani Niyozbosh qishlog'ida tavallud topgan. U 1987-yilda hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. A. Akbar «Kichkintoy va paxtaoy», «Ehtiyotkor toshbaqa», «Uyquchining tushlari» kabi o'ndan ortiq she'riy kitoblar muallifi.

Abdurahmon Akbar ijodi rang-barang mavzuda, shirali, ta'sirli yozilganligi bilan ajralib turadi. Aksariyat she'rlarining qahramonlari ko'ngillari osmon kabi musaffo, shaloladek quvnoq, orzulari buloqlar suvidek toza, shamoldek tinim bilmaydigan bolakaylar ekanligining guvohi bo'lasiz.

Kichkintoylar dunyoni o'zgacha idrok qiladilar. Kattalar uchun oddiy tuyulgan narsalar ular ko'z o'ngida fojiali ko'rinishi, kattalar uchun og'riqli va armonli tuyulgan yechilmas masalalar esa ular nazarida oddiy, yechimini topishi qiyin emas. Masalan, mana bu she'riy parchadagi kabi:

Meni ko'rsa tog'amning ko'zlariga yosh
kelar, Botirim, polvonim deb opichlab yurar
uzoq.

Yoshi dadajonimdan ancha kichik
bo'lsa-da, G'o'zasi kabi rangpar,
paxtasidek sochi oq. Ona, tog'amning
nega bitta ham bolasi yo'q? Qiliqlari,
yuzlari menga rosa o'xshaydi,

Menga o'xshab arazchi, menga o'xshab
hazilkash. Ammo bitta gapiga sira
tushunolmayman,

Nimaydi, ha, «Bunchalar, bunchalar qiyin
yashash?» Ona, tog'amning nega bitta ham bolasi
yo'q?

Shoirnig «Iltimos» deb atalgan she'ring adabiy qahramoni tog'asining ushalmagan armoniga mana bu yo'sinda nuqta qo'yishga bel bog'laydi:

Ertakdagi parilar sarvqomat desalar,
Ulardan go'zal derdim Lobaroy
kennoyimni. Kasal bo'lib qolasiz
yig'layversangiz agar,

Desam ham ko'zin yoshlab solib berdi
joyimni, Ona, tog'amning nega bitta ham
bolasi yo'q?

Akam, opachalarim xafa bo'lishsa
bo'lar, Mening aytganimga ham bir
borgina kiringlar, Ko'nmasangiz agarda
uydan qochib ketaman, Meni kichik
tog'amga o'g'il qilib beringlar.

Ona, tog'amning axir bitta ham bolasi yo'q.

Bu Abdurahmon Akbarning armon haqidagi she'ri:

A'lochi qiz edi Nigora,
Darslaridan sira qolmasdi.

Axvol so'rab borgan
paytimiz — U o'rnidan tura
olmasdi.

SHoir she'rlarining ikki xususiyati mazkur satrlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Birinchisi: Nigoraning darslardan sira qolmasligi, lekin uning yura olmasligi zamirida ilojsizlik, taqdirning achchiq haqiqati yotadi. Va ikkinchi xususiyat — bolalar she'riyatida ham tabiat tasvirini voqealar rivoji bilan uyg'unlikda berish:

Sog'aymadi
sinfdoshimiz Oxirgi
kun qorayganda qosh.
Derazada bizlar
keltirgan Atirgullar
qolgandi so'lib...
Armon va ilojsizlikka she'rning so'nggi misralari go'yo so'nggi
nuqtani qo'ygandek bo'ladi: Ko'zimizni qizartirdi g'am,
Qalbimizdan armon
ketmadi. Ko'taraylik
tobutin desak, Bo'yimiz
yetmadi, yetmadi...

Bu kabi qarama-qarshiliklar ko'plab shoirlarning ijodiga xos. Asosiy fikr bu emas. Asosiysi shundaki, Abdurahmon Akbar o'z ijodiy izlanishlari bilan hozirgi zamon o'zbek bolalar she'riyatiga lirik kayfiyat va bola kechinmalarini qahramon tilidan berishning o'ziga xos uslubini olib kirdi.

SHoir «Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar» nomli she'rida bolakaylarni mard, botir va ziyrak bo'lishga da'vat etadi:

Kech kirib,
ko'kda hali Oy
kezmagan pallada,
Norni kuchuk
quvlabdi Sukut
to'la dalada.

Etib olsa
tishlaydi Degan
xayolga borib,
Chopibdi Nor
bechora Oyog'in
qo'lga olib. Ortda
qolibdi dala,
Ortda qolibdi ariq.
Toshko'chaga
yetganda Toyib
ketibdi qattiq...
Ko'zin ochib
qarasa, Yuragi
urib duk-duk,
O'zin Laychasi
emish O'sha...
«quvlagan» kuchuk.

Aabiyotshunos Rahmatilla Barakaevning Abdurahmon Akbar ijodiga bergan bahosi ham e'tiborga loyiq. Muallif «Istiqloq davri bolalar adabiyoti: an'ana, vorislik va izlanish» nomli tadqiqotida shoir ijodining quyidagi qirrasiga alohida e'tibor qaratadi: «Abdurahmon Akbarning mumtoz adabiyotimizdagi qofiyali nasr (saj)ni eslatuvchi «SHoir dadam haqida she'riy hikoyalar» turkumini she'riy shaklga sig'magan fikrlar tizimi deyish to'g'ri bo'lar edi. Abdurahmon bu she'rlari bilan bolalar adabiyotimizga fikrlovchi, o'ychan bola timsolini olib kirdi. Besh she'riy hikoyadan tarkib topgan turkum shoir dadasining armon-u iztiroblarini, dard-u tashvishlarini eshitib qolib, jajji yuragiga sig'dira olmay, to'liqlanib so'zlayotgan bolakay tilidan hikoya qilinadi. Jumladan, «Dadamning qalbi» she'riy hikoyasida shunday deyiladi:

«Armon uyasimish dadamning qalbi, dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj.

Yozgan uch-to'rt she'ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko'rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish...»

Ichki qofiyalanishga uyg'un bo'lgan so'z takrorlari va bolakayning mo'jaz taxayyul olamiga sig'magan nogahoniy qiyoslar ushbu turkumga mansub she'riy hikoyalarning shaklan va mazmunan mukammalligini ta'minlaydi.

A. Akbarning shakliy izlanishlari ham e'tiborga molik. Uning raqamli she'rlari kichik maktab yoshidagi bolalar she'riyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitdi:

«Aka, qanday yuribsiz, Soz ketyaptimi xizmat? Askarlikkakl konikib Ketgandirsiz batamom. Buvim, qo'ni-qo'shnilar Sizga yo'llashdi salom.	Terib qaytsak adirdan. Ko'chamizni nomlashib, Ketishibdi yangidan. «Ul.Zarechnaya» emas, Bilib qo'ying, aka, siz, Endi bizning uy-hovli Quchoq-quchoq chuchmoma «1lik» ko'cha, 18!
---	---

«Paxtakor» ham
ketma-ket Q3ib turibdi
zafar.
Imas, 3ta, to'p
urdi Ilhom
kechagi safar...
(«Salom xat»)

Sinchkov bolalarning tiyrak nigohi bahorda tabiatning gul ochib yangilanishi, adirlardan bolalarning zavq-shavq bilan quchoq-quchoq chuchmomalar terib kelishlari bormi, Mustaqillik sharofati bilan ko'chalarimiz nomlari milliylashgani («Zarechnaya» emas — «Birlik») bormi,

«Paxtakor»ning ketma-ket zafar quchayotgani bormi, aslida yosh bola qiyofasiga musavvir shoirning g'aroyib mo'yqalami chizayotgan turfa chizgilardir...

Bunday she'riy usul o'zbek bolalar adabiyoti uchun yangilik. Bu she'rlarning o'ziga xosligi haqida fikr yuritilganda, dastavval, ijodiy izlanish mahsuli sifatida baholash joiz. Zero, yosh kitobxon she'r o'qir ekan, hatto uning g'ayritabiiy shaklidan ham zavq topadi. Harflar raqamlar bilan uyqalashib ketgan bunday she'riy usul yosh kitobxon uchun ham hayratli, ham qiziqarli topilma.

SHoirning ijodini kuzatgan adabiyotshunos Zamira Ibrohimova Abdurahmon Akbarning hayotiy voqea va xayoliy tasavvurlardan ta'sirchan manzaralar yaratgani haqida, jumladan, shunday yozadi: «Bu manzaralar xuddi aqlli farzand oilaga fayz-baraka, ota-onaga rahmat olib kelganday, ko'ngillarda mamnuniyat tuyg'ularini paydo qilib, yosh kitobxonning xayolot olamini boyitadi, kengaytiradi: o'quvchi chirildoqlarning sokin oqshomni to'ldirib kuylashlarida

osoyishtalik gashtini anglagandek, yog'gan yomg'ir tomchilaridagi mo''jizani tuygandek, asalari, chumolilarning mehnatiga xos go'zallik, fayz-ziyatni ko'rgandek bo'ladi».

Etti qalam, yetti rang, Etti ohang — kamalak. tezroq kel. Qaerlarda yuribsan, Quyosh — sochi jamalak? bo'lar yel. Qalamlaring topildi, shu, Bulut — qog'oz ham tayyor. San'atingdan bahramand	Qalamdonni qo'yatur, Kel, quyoshjon, Rasm chizib ber bizga, O'chirg'iching ...Million yilki, ahvol Erliklar kutib tolar. Qalamlar bor paytda Bo'lay lik bizlar bir bor. Quyo sh «yo'qolib » qolar. («Kamala k»)
---	--

Bolalar olamida mayda va ahamiyatsiz narsalar uchramaydi, ya'ni kattalar mutlaqo nazarga ilmaydigan, e'tibor bermaydigan, ular uchun ahamiyatsiz ko'ringan narsalar bola nazarida o'zgacha, ajib bir qiyofada jonlanadi. Masalan, jajji Zeboxon birinchi marta qo'shaloq giloslarni ko'rib, ularning o'rtoq bo'lib olishganidan («O'rtoqlar») quvonadi. Yoki Sevinchoy issiq choydan ko'tarilayotgan bug'ni ko'rib «choyim uchib ketayapti» deb («Sevinchoy haqida she'r») hayratlanadi. Yulduzoy esa o'ziga yoqqan fasl haqida samimiyat bilan «Yozda yoz fasli, kuzda bo'lsa kuz» («Eng to'g'ri javob») deb ko'nglidagini aytadi.

Darhaqiqat, ularning dunyosida yolg'on yo'q. SHoir bolalikning musaffo olami har kuni quvonchlarga, kashfiyotlarga to'liq ekanligini nozik did bilan kuzatadi va mahorat bilan badiiy qiyofalarda gavdalantiradi:

Gilos qoqib bergandim Zeboxonga erinmay. qo'ymay: Oldiga qo'shalog'i Qarang, tushib qolibdi. olibdi!	Qiqirlar Zebogina Ularni qo'ldan — Dada, gilolarimiz O'rtoq bo'lib
--	---

(«O'rtoqlar»)

Shoir ko'pgina she'rlarida hayotning «anglab bo'lmas murakkab» tomonlari haqidagi fikrlarni ilgari surishga intiladi. «Yolg'iz farzand», «Umid haqida she'r», «Iltimos», «CHivin» kabi she'rlarida nafaqat tabiatni, bolalarni ham asrash, qadrlash kerakligi kuyunchaklik bilan uqtiriladi. Bu she'rlarga xos umumiy xususiyat shundaki, ularda kattalar adabiyoti mavzusiga doir insoniy dardlar aks etgan. SHoir yosh kitobxoniga ishonadi, uning nimalarnidir tushunmay qolishidan cho'chimaydi.

So'zimizni muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, Abdurahmon Akbar qalamiga mansub she'r va tarjimalarda bolalar dunyosiga chuqurroq kirib boriladi, ularda fikr aniq va lo'nda ifodalanadi. Asarlar tilining sodda va ravonligi, tasvir vositalarining puxtaligi, jahon bolalar she'riyatining eng yaxshi an'ana va usullarini, shakllarini o'zida omuxta qilganligi bilan nafaqat yosh kitobxonlar, shu bilan birga katta yoshdagi adabiyot, she'riyat muxlislari e'tiborini ham torta oladi. Yoshlarning barkamollikda, bugunning va kelajakning egasi ekanini his etib ulg'ayishlariga ko'mak beradi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. SHoirning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. SHoirning o'qish, odob haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
3. Uning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi asarlarining o'quvchilarga ta'siri qanday?

4-Mavzu: G'afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar.

Reja:

1. G'. G'ulom hayot, ijodi va faoliyati.
2. Shoirning o'qishga da'vat etuvchi she'rlari.
3. Shoirning she'rlarida bolalikning kuylanishi.
4. G'.G'ulom prozasidagi o'ziga xos tasvir.
5. "Bari seniki", "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi", "Shum bola", "Yodgor" asarlarini o'qish, yod olish .

Adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Asarlari. O'n tomlik. Dostonlar mavzumalar, bolalar uchun she'rlar . Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti . 1973-yil. 370 bet.
2. G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1978-yil. 286 bet.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. II-tom. G'afur G'ulom. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. Toshkent. "FAN" nashriyoti . 244-321betlar.
4. Kattabekov A va boshqalar. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik G'afur G'ulom. "O'qituvchi" nashriyoti . 1990 -yil. 244- 265 betlar.

Mashg'ulot turi: amaliy

Mashg'ulotda qo'llaniladigan innovatsion texnologiya 6x6 va Bumerang metodlari: tarkatma mantiar, 10 dona yozuv qog'ozi, markerlar, kompyuter, ekran, proektor Baholar asosi:

Mavzu bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan xulosalarning keltirilganlik darajasiga qarab 25% gacha Mavzuning mantiqiy asosini ilmiy-nazariy kontseptsiyalar hamda amaliy faoliyat nutai-nazaridan yoritib berilganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzu bo'yicha shaxsiy fikr va nutai-nazarlarning keltirilishi hamda ularning asoslanganlik darajasiga qarab 25% gacha

Mavzu bo'yicha amaliy faoliyat ko'nikma va malaklarining shakllanganlik darajasiga qarab 25% gacha

Test va krasvorddan foydalanish *Eslatma.*

1. Topshiriqlar belgilangan muddatlarda tadim ilinishi shart.
- 2.Mavzu yuzasidan shaxsiy fikrlaringizni shakllantiring.

5-MAVZU: Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.

Dars rejasi:

1– Rejada Q.Muammadiyning o'zbek bolalar adabiyotit taraqqiyotiga qo'shgan xissasi to'g'risida to'xtalinadi.

2– Rejada esa shoirning bolalarga bag'ishlab yozgan she'rlarining g'oyaviy mundarijasida gapirilib uning "Mening orzum", "Solijonning dars xonasi" she'rlari tahlil etiladi.

3- Rejada Q.Muammadiy ijodida ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy masalalar to'g'risida so'z yuritilib "Dum" she'ri talil qilinadi.

ADIB ASARLARI ASOSIDA INSHO YOZISH (Sodda reja asosida)

Mashg'ulotning yozish jarayonida uyidagi adabiyotlarga murojat qilish mumkin

- 1.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.; 2000.
- 2.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. o'qituvchi, 2003. 3..Jumaboyev M.

6-MAVZU: Zafar Diyorning hayoti va ijodi.

Dars rejasi:

1– Rejada Zafar Diyorning o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida qo'shgan hissasi.

2– Rejada Shoirning bolalarga bag'ishlab yozgan she'rlarining g'oyaviy mundarijasi.

3- Rejada Zafar Diyor ijodida ma'naviy-ma'rifiy masalalarga oid asarlari tahlil qilinadi.

Mavzu yuzasidan savol topshiriqlar

1. Adib asarlari vatanparvarlik tuyg`usi.

Mashg`ulotning yozish jarayonida uyidagi adabiyotlarga murojat ilish mumkin

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.; 2000.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. o`qituvchi, 2003.
3. Jumaboyev M. Bolalar folklori ilanma. 1999.

7- Mavzu: Shukur Sa`dulla hayoti va ijodi.

1. Hakim Nazir asarlarida hikoyalarida kichkintoylar hayotining aks etishi.
2. Adib asarlarida davr ruhining tarbiyaviy ahamiyati
3. "So`nmas chaqmoqlar", "Yonar daryo" qissalarining ahamiyatini konspekt qilish.
4. Shukur Sa`dulla asarlarida harbiy vatanparvarlik tuyg`ulari.
5. "Ayyor chumchuq", "Boychechak", "Dastyor qiz" she`rlaridan namunalar yodlash.

Adabiyotlar:

1. Shermuhammedov P., Tursunov J., Safarov O., Egamov X. O`zbek bolalar adabiyoti. Darslik -xrestomatiya. Hakim Nazir. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1976- yil. 244-260 -betlar
2. Ahmedov I, Suyumov A, Jumaboyev M, Soliyev, Bolalar adabiyoti. Majmua. Hakim Nazir. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1993- yil. 95-105-betlar.
3. Suyumov A, Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti. Qo`llanma. Hakim Nazir. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1994- yil.
4. Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti, Darslik. Hakim Nazir. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1995- yil.

Adabiyotlar:

1. Shermuhammedov P., Tursunov J, Safarov O, Egamov X. O`zbek bolalar adabiyoti. Darslik -xrestomatiya. Shukur Sa`dulla. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 225-230- betlar.
2. Ahmedov I, Suyumov A, Jumaboyev M, Soliyev. Bolalar adabiyoti. Majmua. Shukur Sa`dulla. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1993 -yil. 90-94-betlar.
3. Ahmedov I va boshqalar. Bolalar adabiyoti. Xrestomatiya. Shukur Sa`dulla. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1993 - yil.
4. Suyumov A, Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti. Majmua. Shukur Sa`dulla. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1994 - yil.

8-9-MAVZU: Sulton Jo`raning hayoti va ijodi. Sulton Jo`raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari

1. Sulton Jo`ra hayoti va ijodi.
2. Shoir dostonlarida odob, mehnat o`qish mavzusilar tasviri.
3. Sulton Jo`ra asarlarida vatan mehri tasviri.

Adabiyotlar:

1. Shermuhammedov P, Tursunov J, Safarov O, Egamov X. O`zbek bolalar adabiyoti. Darslik -xrestomatiya. Po`lat Mo`min. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1976 -yil. 260-265- betlar.
2. Ahmedov I, Suyumov A, Jumaboyev M, Soliyev, Bolalar adabiyoti. Majmua. Po`lat Mo`min. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1993- yil. 106- 116- betlar.
3. Suyumov A, Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti, Qo`llanma. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1995- yil.
4. Jumaboyev M, Bolalar adabiyoti. Darslik. Po`lat Mo`min. Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1995-yil.
5. Jumaboyev M, O`zbek va jahon bolalar adabiyoti. Majmua. Po`lat Mo`min Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1996- yil. 205-209- betlar.

10- Mavzu: Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag`ishlangan asarlariga xos xususiyatlar

Reja:

1. Adibning tarjimai holi.

2. H. Nazir hikoyalarida bolalar hayotining aks yetishi.

3. H. Nazir asarlarida davr ruhining berilishi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshidagi yoki yendigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks yettirishga bag'ishlangan bo'ladi. Buni adibning «Bir og'iz so'z», «Rasmi kitobcha», «Davronning qushchasi», «Qaysargina ukam», «Yaxshi ism», «Ikki o'rtoq», «Bulbul», «Qanddon», «Igna», «Bir tupg'o'za» kabi hikoyalar misolida aytish mumkin. Bunday hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masallar yotganini ko'ramiz.

Mustaqil o'qish uchun asarlar

Hakim nazir o'zbek bolalar adabiyotida qissachilik janrining rivojlanishiga ham «So'nmas chaqmoqlar», «Yonar daryo», «Ko'kterak shabadasi», «Suv gadosi», «Kenjatoy», «Tohir va Zuhra qissasi», «Dadamni topib beringlar» kabi asarlari bilan katta hissa qo'shdi.

Adibning «Lochin qanotlari» romani hamda «Chiranma g'oz hunaring oz» dramalari

YAKUNIY XULOSALAR

1. Grammatika hozirgi grammatika darajasiga ko'tarilgunga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini boshidan kechirgan. Dastlab u yozuvni, yozuv «tili»ni tekshirish bilan shug'ullangan va «yozuv san'ati» ma'nosini bildirgan. Keyinchalik grammatika terminining ma'nosi kengayib va o'zgarib, tilshunoslik fanining muhim tarkibiy qismini anglatadigan hozirgi ma'nodagi atamaga aylandi va tilning grammatik qurilishini o'rganadigan fan darajasiga ko'tarildi. Grammatika hozir fanning nomi ma'nosinigina emas, til grammatik qurilishining o'zini ham anglatadi.

2. Grammatika ikki qismga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiya grammatikaning quyi darajadagi umumiyliklarni o'rganadigan qismi va shunday umumiylik darajasidagi hodisalarni bildiradi. So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari-so'z turkumlari, so'z shakllari, ularning hosil bo'lish yo'llari ana shunday hodisalardir.

3. Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, sintaksisda yuqori darajadagi umumiyliklar o'rganiladi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, sodda gap, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil til birliklarining birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi va bu aloqa natijasida yuzaga keladigan hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shu sababli sintaksis sintaktik aloqa va munosabatlarni o'rganishdan boshlanadi.

4. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabat sintaktik bog'lanmalarning mazmuniy va shakliy bog'lanish xususiyatlaridir.

*Sintaktik aloqa qanday birliklar hosil qilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

a) predikativ aloqa ;b) nopredikativ aloqa.

Predikativ aloqa. Gap hosil qiluvchi aloqa predikativ aloqadir. U ega va kesim orasidagi aloqa orqali ifodalanadi. Predikativ aloqa natijasida ikki bosh bo'lakli gap hosil bo'ladi. Havo sovuq. Suvlar muzlagan. qish eshik qoqib qoldi.

Nopredikativ aloqa. So'z birikmasi hosil qiluvchi aloqa nopredikativ aloqadir. Bu aloqa aniqlovchi-aniqlanmish, to'ldiruvchi - to'ldirilmish orasidagi hamda hol va hollanmish orasidagi aloqalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, so'z birikmasining turli tiplarida namoyon bo'ladi.

*Sintaktik aloqa komponentlarning o'zaro mazmuniy munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi

:

1) teng aloqa;

2) tobe aloqa.

Teng aloqa. O'zaro teng huquqli, bir xil sintaktik vaziyat – mavqedagi, bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar, qismlar aloqasi teng aloqa deyiladi. Sodda gapdagi uyushiq bo'laklar, bog'langan qo'shma gap qismlari va bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari, bir xil tipli ergash gaplar o'zaro teng aloqada bog'langan.

Tobe aloqa. Har xil, ya'ni biri hokim, ikkinchisi tobe sintaktik mavqedagi, biri ikkinchisini aniqlab, izohlab, to'ldirib keluvchi komponentlar o'rtasidagi aloqa tobe aloqa hisoblanadi.

5. O'zbek tilining qonun-qoidalarida asosida ma'lum bir so'z yoki so'zlar guruhini bog'lab, ularni nutqning mustaqil (sodda, qo'shma gaplar va mikro matn) va nomustaqil xususiyatga ega bo'lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog'lovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari hisoblanadi.

1)so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar(kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalari); 2)fe'l shakllarini yasovchi qo'shimchalar(-b, -ib, -gach,-guncha, -sa kabilar); 3)ko'makchilar(bilan, uchun, sari, sayin, kabi, haqida, to'g'risida, qaraganda kabilar), 4)yuklamalar.(-u, -yu, -da, -mi kabilar); 5)bog'lovchilar(va, ammo, yo, yoki, shuning uchun, chunki, go'yoki,ki kabilar); 6)olmoshlar(shu, u, ushbu,o'sha, ana shu, bunday, shunday, kim, nima, qaer kabilar); 7)payt, o'rin bildiruvchi so'zlar (paytda, zamonda, qaerda, o'sha erda kabilar); 8)modal so'zlar(zero, zotan, vaholanki, modomiki kabilar); 9)bog'lamalar(edi, ekan, emish, bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq, -dir, -man, -san kabilar); 8)tartib va intonatsiya (So'zlarning sintaktik aloqasi maxsus ko'rsatkichlar bilan ifodalanmaganda, ularning sintaktik aloqasida tartib bosh rolni o'ynaydi) kabilar ana shunday vositalardir.

6.Sintaksisning asosiy tekshirish ob'ektlari sintaktik qurilmalardir. Sintaktik qurilmalar mustaqil so'zlarning yoki gaplarning o'zaro erkin bog'lanishidan hosil bo'ladi. Lekin har qanday ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan til birliklari sintaktik qurilma hisoblanavermaydi. O'rinbosar (qo'shma so'z), ishlab chiqarish birlashmasi (turg'un birikma), og'a-ini (juft so'z), misi chiqdi (frazologik birlik) tipidagi bog'lanmalar lug'aviy birliklar, maktab tomon,dadam bilan, vatan uchun, aytib qo'ya qol kabi ifodalar so'z bilan ko'makchining yoki ko'makchi fe'lning qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zning analitik shakllaridir. Yuqoridagilarning hammasi bir necha so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular bo'laklarga bo'linmaydigan bog'lanmalar, so'z shakli holatidagi til birliklaridir. Sintaktik qurilmalar bevosita nutq jarayonida ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida hosil bo'ladigan, bo'laklarga bo'linuvchi bog'lanmalardir.

7. Sintaktik qurilmalar to'rt xil ko'rinishga ega: a)so'z birikmasi; b) sodda gap; b) qo'shma gap; s) matn(mikromatn).Shunga ko'ra sintaksis ham o'z ichida to'rtga bo'linadi:1)so'z birikmasi sintaksisi; 2) sodda gap sintaksisi; 3) qo'shma gap sintaksisi) 4) mikro matn sintaksisi.

8. So'z birikmasi sintaksisning gapning nominativ funktsiya bajaruvchi nopredikativ birligi hisoblanadi.

*Nutq jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil til birliklaridan birining ikkinchisiga grammatik jihatdan tobelanib,uning ma'nosini aniqlab, izohlab, to'ldirib kelishi natijasida hosil bo'ladigan tushuncha ifodalovchi erkin birikma so'z birikmasi deyiladi.

* So'z birikmalari uch tomonlama, uch mezonga ko'ra tasnif qilinadi :

-tuzilishiga ko'ra;

-hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra;

-tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra.

*So'z birikmasi tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi : a)sodda so'z birikmasi; b) murakkab so'z birikmasi .

Sodda so'z birikmasi. Tobe va hokim komponentlar ikki mustaqil so'zdan, shuningdek, bir so'z yoki bir so'z shakli hukmida qabul qilinadigan frazeologizmlar, turg'un birikmalar, tarkibli nomlar bilan ifodalangan so'z birikmalari sodda so'z birikmalari hisoblanadi .

Murakkab so'z birikmasi. Murakkab so'z birikmalari sodda so'z birikmasining kengayishidan, birikmalarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bunda kengayish, yoyiqlashish, asosan, tobe komponentga taalluqli bo'ladi. Chunki murakkab birikma hokim komponent ma'nosini yanada aniqlashtirish, konkretlashtirish, yorqinlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Masalan:yosh yozuvchi – iste'dodli yosh yozuvchi – sirlaryolik iste'dodli yosh yozuvchi kabi.

9. Hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi umumlashtirilib, asosan, ikki guruhga ajratiladi:

1) otli so'z birikmalari; 2) fe'lli so'z birikmalari.

Otli so'z birikmalari keng ma'noda bo'lib, komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, undov, taklidiy so'zlar bilan ifodalangan so'z birikmalarini o'z ichiga oladi.

Fe'lli so'z birikmalari. Bosh so'zi shaxsli fe'l formasi va ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalangan so'z birikmalari fe'lli so'z birikmalari hisoblanadi.

10. So'z birikmalari tobe komponentning sintaktik mavqei, vazifasiga ko'ra uch turga ajratiladi: 1) aniqlovchili; 2) to'ldiruvchili; 3) holli.

Aniqlovchili so'z birikmalari. Tobe komponenti aniqlovchi (ular sifat, sifatdosh, ot, olmosh son, ravish, taqlidiy so'zlar, frazeologizmlar bilan ifodalangan bo'ladi) vazifasini bajaradigan birikmalar aniqlovchili so'z birikmalari deyiladi.

To'ldiruvchili so'z birikmalari. Tobe komponenti tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi yoki ko'makchilar bilan birga kelib to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi ob'ektni bildirgan birikmalar to'ldiruvchili birikmalar hisoblanadi.

Holli so'z birikmalari. Tobe komponenti jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shaklida yoki ko'makchilar bilan kelib hol vazifasini bajaruvchi relyativ birikmalar holli so'z birikmalari deyiladi.

11. Gap sintaksisning asosiy birligidir. Chunki gap tilning asosiy funksional belgisi kommunikativlikni, ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Gap termini umumlashgan birlik, mohiyat sifatida til birligini ham, reallashgan birlik, hodisa sifatida nutq birligini ham ifoda etadi. Gap sathida til va nutq hodisalarini farqlash uchun "gap modeli, qolipi" (til birligi) va "jumla, gap" (nutq birligi) terminlaridan foydalanish o'rinli. Gap qolipi, gap modeli jumlaning umumlashirilgan, tipiklashtirilgan grammatik shaklidir (O.M.Maskalskaya), gap, jumla esa uning muayyan vaziyat bilan bog'langan ko'rinishidir.

Til va nutq farqlanishiga binoan gapga ikki xil ta'rif berish mumkin.

*Til nuqtai nazaridan gap kesimlik kategoriyasi orqali shakllangan atov birligidir.

*Nutq nuqtai nazaridan esa grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan iborat bo'lgan fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Gap so'z va so'z birikmasidan farqli o'laroq tushuncha emas, balki fikr ifodalaydi. Bu xususiyat gapning ob'ektiv borliqqa xos voqea-hodisa, holatning in'ikosi ekanligida, uning voqelik bilan bevosita bog'lanishida o'z ifodasini topgan. Sintaksisda bu gapning predikativligi deyiladi. Shunga muvofiq gap predikativ birlik hisoblanadi.

12. Predikativlik har qanday gapga xos xususiyat bo'lib, gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajratilmaydigan grammatik ma'nosidir. Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar tizimi orqali ifodalanadi. Binobarin, ana shunday shakllar tizimiga ega bo'lgan har qanday eng kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi.

Gapni gap bo'lmagan boshqa lisoniy birikmalardan farqlovchi grammatik ma'no bo'lgan predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik ma'no sifatida quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalar sintezidan iborat:

- 1) grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;
- 4) modallik kategoriyasi.

Grammatik shaxs predikativlikni yuzaga keltiruvchi muhim grammatik kategoriya, gapning ajralmas bir xususiyati, zarur elementidir.

Grammatik shaxs kategoriyasi fe'llarning morfologik shaxs kategoriyasi asosida vujudga kelsa ham, undan bir muncha keng tushunchadir. Chunki grammatik shaxs kategoriyasi fe'l ishtirok etmagan gaplarda ham ifodalanadi. Bunda grammatik shaxs shaxs otlari, kishilik, belgilash-jamlash olmoshlari orqali, bular ham bo'lmaganda sintaktik konstruksiyaning o'zi bilan ifodalangan bo'ladi. So'nggi holda grammatik shaxs boshqa shaxsli gaplarga qiyosan belgilanadi.

Masalan: Toshkent – O'zbekistonning poytaxti gapining grammatik shaxsi Akram – o'qituvchi, U-ishonchli hamkor gaplariga qiyosan III– shaxsga aloqador bo'ladi. Grammatik shaxs kategoriyasida 1,2,3– shaxs, noaniq shaxs, umumlashgan shaxs hamda shaxssizlik ajratiladi. Bunda: a) fe'ning shaxs-son kategoriyasi; b) fe'ning nisbat kategoriyasi; v) shaxs olmoshlari; g) shaxs otlari qatnashadi.

Grammatik zamon. Gap orqali ifodalangan voqeaning ma'lum zamonga munosabati va bu munosabatni ifodalovchi shakllar tizimi gapning grammatik zamon kategoriyasi deyiladi.

Grammatik zamon kategoriyasi fe'ning zamon ko'rsatadigan maxsus shakllari, payt bildiruvchi so'zlar, payt ravishlari, bu vositalar bo'lmaganda sintaktik qurilmaning o'zi orqali ifodalanadi.

Grammatik zamon kategoriyasi fe'ning zamon kategoriyasidan keng tushunchadir. Fe'ning zamon kategoriyasi fe'ning turli zamon shakllarini qamrasa, gapning grammatik zamon kategoriyasi tarkibiga fe'ning turli shakllarini qo'llashga imkon beradigan gapning turli shakllari kiradi. Shunga muvofiq gapning zamon paradigmasi a'zolarining miqdori turlicha bo'ladi. 1) Gapning zamon paradigmasi fe'l zamon paradigmasiga muvofiq keladi. Bu vaqtda gapning uyushtiruvchi bosh bo'lagi fe'l bo'ladi va u gapda o'zining barcha shakllari bilan kela oladi. Men (o'qidim), (o'qiganman), (o'qib edim), (o'qiyotgan edim), (o'qiyapman), (o'qimoqdaman), (o'qiyotirman), (o'qimoqchiman), (o'qiyman) kabi. 2) Gap tuzilishidagi ayrim ishtirokchilar fe'ning faqat ayrim shakllari bilan kelishini taqozo qiladi. Bu vaqtda gap faqat bir zamon shaklida keladi: Hozirgina keldi. 3) Ot kesimli gaplarda kesim zamon shakliga ega bo'lmay, zamon ma'nosi gapning tuzilishi orqali ifodalanadi va hozirgi zamonga taalluqli bo'ladi. Men talabaman. Otam-o'qituvchi. 4) Atov gaplarda zamon gapning umumiy mazmuni orqali ifodalanib, hozirgi zamoni bildiradi. Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k. 5) Ba'zan predmet, voqea, hodisa ish-harakat qaysi zamonda yuz berishi emas, balki shu harakatning o'zi muhim bo'ladi. Bunda umumzamon ma'nosi ifodalanadi. Umuman hozirgi zamonga to'g'ri keladi: Po'lat – qattiq metall. qush ham hayvonot dunyosiga kiradi. Chopsa chopilmaydi, ko'msa ko'milmaydi.

Modallik. Predikativlikda modallik kategoriyasi asosiy o'rin to'tadi. Chunki predikativlik gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqadorlik, bog'lanish xususiyati bo'lsa, modallik ana shu umumiy munosabatni konkretlashtiradi: gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqasi so'zlovchi shaxsning nutq mundarijasiga qarashi bilan aniqlashtiriladi, to'ldiriladi.

Shunga ko'ra modallik a) ob'ektiv va b) sub'ektiv modallikka bo'linadi

Ob'ektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy grammatik ma'nolardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, sub'ektiv modallik ob'ektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. U gapda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun u gapning doimiy uzvi emas. Tilga xos modallik so'zga, iboraga, so'z birikmasiga ham xos bo'lishi mumkin (grammatik, leksik, fonetik vositalar orqali ifodalanadi). Demak, modallik gapning ob'ektiv holat bilan belgilanadigan, shuningdek, ob'ektiv holatdan kelib chiquvchi sub'ektiv munosabat ifodalash xususiyatidir.

Modallik turli vositalar: fe'ning mayl ko'rsatuvchi shakllari; modal so'zlar (Bu, shubhasiz, sening ishing. Ehtimol, kelib qolar); yuklamalar (Nahotki, podachi bormay qolsa. Sen-a?); gapning maxsus tipi (harakat nomi-kerak (zarur, lozim, shart, aniq, gumon kabi so'zlar orqali)); intonatsiya orqali ifodalanadi. Bormaydi! – ishonchli, qat'iy inkor intonatsiyasi. Bormaydi?! – qat'iy tasdiq intonatsiyasi. Albatta, boradi ma'nosida.

13. Intonatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, grammatik-fikriy tugallikni ko'rsatadi. Bunday tugullangan intonatsiya gapga xos bo'lib, u so'z birikmasida yo'q. Demak, bu tipdagi intonatsiya so'z birikmasi bilan gapni farqlaydigan belgilardan biridir. Predikatsiya, predikativlik ma'lum darajada shu intonatsiya bilan ifodalanadi. Bir so'zdan iborat Tong tipdagi gaplarda, shuningdek, Shahar-shahar; qishloq-qishloq tipdagi gaplarda predikativlikning intonatsiya yordami bilan ifodalanishini yaqqol ko'rish mumkin.

14. Gaplarning tasnifi. Gaplar: a) mazmun-maqsadiga; b) tuzilishiga ko'ra tasnif qilinadi. Gaplar tuzilishiga ko'ra dastlab ikki asosiy turga bo'linadi: a) sodda gaplar; b) qo'shma gaplar.

Sodda gaplar grammatik asosi bitta bo'lgan, o'zidan boshqa gaplarga bo'linmaydigan gapdir.

qo'shma gap ikki yoki undan ortiq grammatik asos(sodda gaplar)larning birikishidan hosil bo'lgan sintaktik qurilmadir. qo'shma gaplarning grammatik asoslari sodda gaplarga teng kelishi ham, teng kelmasligi ham mumkin.

Sodda gaplarni tuzilishiga ko'ra tasnif qilishda quyidagilarga asoslaniladi:

*grammatik asosning tarkibi yoki bosh bo'laklarning miqdori;

*ikkinchi darajali bo'laklarning ishtiroki;

15. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar ikkiga bo'linadi: 1. Ikki bosh bo'lakli gap. 2. Bir bosh bo'lakli gap.

Ikki bosh bo'lakli gap. Egasi ham, kesimi ham mavjud bo'lgan sodda gaplar ikki bosh bo'lakli gap sanaladi. Bunda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Masalan: Atrof ko'm-ko'k. Binafshalar ochilgan. Fazoda ko'klam qushlari charx uradi.

Bir bosh bo'lakli gap. Predikativ yadrosi, grammatik markazi bitta bo'lgan sodda gaplar bir bosh bo'lakli sodda gaplardir. Bunda bosh bo'lak yolg'iz o'zi yoki ikkinchi darajali bo'laklar bilan birgalikda predikativ yadroni tashkil etgan bo'lishi mumkin.

16. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gaplar yig'iq va yoyiq sodda gaplarga bo'linadi.

Yig'iq sodda gaplar faqat bosh bo'laklarning o'zidagina iborat bo'ladi. Yig'iq sodda gapning uch xil ko'rinish bor:

A) ega va kesimning o'zidan tashkil topgan gaplar. Bahor keldi. Otam - o'qituvchi.

B) kesimning o'zidagina tashkil topgan fe'l asosli sodda gaplar: Chekilmasin. Shovqin qilmang.

V) kesimning o'zidagina tashkil topgan ot asosli gaplar:

Tun. Kuz. Urush.

Yoyiq sodda gaplar. Bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq sodda gaplar hisoblanadi. Buning asosan uch xil ko'rinish bor: A) ega - to'ldiruvchi (hol)- kesim; B) to'ldiruvchi - (hol)- kesim; V) aniqlovchi - bosh bo'lak: Masalan: Ziyodulla yozishni o'rganyapti. Uy ishini tayyorladim. qirq birinchi yilning bahori. Sokin tun.

17. Gaplar, ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, to'liq gap va to'liqsiz gaplarga bo'linadi.

To'liq gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning barchasi ifodalangan bo'ladi. Viloyatimiz poytaxti - ona shahrimiz Guliston kundan-kunga chiroy ochib, tobora ko'rkamlashib boryapti.

To'liqsiz gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ma'lum qismi tushirilgan yoki yashiringan bo'ladi, lekin fikr to'liq bo'ladi. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib - Teatrga bilet oldingmi? - Oldim.

To'liqsiz gap biron bo'lagi etishmagan gap emas, u sodda gapning alohida bir turi. Ma'lum mazmunni ifodalashda qo'llanuvchi stilistik vositadir.

18. Sodda gaplar bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) bo'laklarga ajraladigan gaplar;

2) bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

19. Gaplarning aksariyati o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib bir butunlikni hosil qilgan bir necha lug'aviy birliklardan tashkil topgan sintaktik tuzilmalardir. Bunday qurilmalar hamma vaqt bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Ammo gapdagi lug'aviy birliklar va gapning tashkil etuvchilari bir xil hodisa emas. Gapning tashkil etuvchilari uning sintaktik tuzilishini hosil qiluvchi struktur birliklardir.

Gapning sintaktik tuzilishi gapning semantikasini shakllantiruvchi struktura bo'lib, u shu sintaktik semantikaning ifodalanishida muayyan vazifaga ega bo'lgan struktur birliklar-sintaktik shakllarning maqsad- mazmunga muvofiq o'rinishi va bog'lanishidan vujudga keladi.

20. Gap muayyan shakl va mazmunga ega bo'lgan sintaktik butunlikdir. Gap sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini sintaktik bo'laklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 sintaktik bo'lakdan iborat bo'ladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap bo'laklari

bo'lsa, 3 tasi odatdagi gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklardir. Bular undalma, kirish va kiritmalardir.

*Gap bo'laklari gapning predikativlik ifodalovchi qismini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Gap bo'laklari ma'no-vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) bosh bo'laklar; 2) ikkinchi darajali bo'laklar.

21. Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini, predikativ yadrosini tashkil etuvchi asosiy bo'laklardir. Bular ega va kesim munosabati yoki kesimning(kesim sostavining) o'zi orqali ifodalanadi. Shu sababli eng kichik gap bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli bo'ladi. Bu bosh bo'laklarsiz gap tushunchasini tasavvur qilish qiyin.

22. Gapdagi bu ikki bosh bo'laklardan boshqa elementlar ikkinchi darajali bo'laklardir. Ikkinchi darajali bo'laklar doim bosh bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishgan bo'ladi. Chunki ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo'laklar o'z funktsiyalariga qarab uchga bo'linadi: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

23. Gap tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan ifodalar ham bor. Bular gapga mazmun jihatdan bog'lansa ham, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Shuning uchun ular gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi. Bunday ifodalar nutqda gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi. Bular tilshunoslikda kirish, undalma va kiritma qurilmalar deb yuritiladigan sintaktik hodisalardir.

24. Ega. Ikki bosh bo'lakli gapning fikr, hukm qarashli bo'lgan shaxs, narsa hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo'lagi ega deyiladi. Ega kim? nima? qae? so'roqlaridan biriga javob bo'lib, bosh kelishik formasida keladi. Ega vaziyati kesimga qarab belgilanadi. Kesimning sub'ekt valentligini to'ldiruvchi va u bilan moslashuv munosabatida bo'luvchi bosh kelishikdagi sintaktik shakl egadir. Shuning uchun ham gap tarkibidagi har qanday bosh kelishikdagi sintaktik shakl ega sanalavermaydi. Faqat kesim bilan tobe munosabatda bo'lgan bosh kelishik shaklidagi grammatik shaklgina ega vaziyatida kela oladi va ega hisoblanadi. Bunday talabga javob bermagan boshqa biron bosh kelishikdagi so'z yoki birikma ega hisoblanmaydi.

*Egalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda va murakkab. Murakkab egalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik bog'lanishidan hosil bo'ladi. Murakkab eganing ham uch xil ko'rinishi bor: A) ajralmas holdagi erkin birikmali ega: Ishlamay egan og'rimay o'lar. Har daqiqa g'animat. B) bir butun holda qo'llanuvchi bog'lanmalar bilan: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi - 50 yoshda. GDU - g'olib. V) frazeologizm holatidagi murakkab ega: Og'iz ochish boshlandi.

25. Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi, biroq grammatik jihatdan egaga tobe bo'lgan bosh bo'lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi. Shuning uchun kesim predmet, narsa -hodisaning harakati, belgisini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi.

Kesim fe'ldan tashqari sifat, ot, son, olmosh, ravish, modal so'z, harakat nomlari bilan ham ifodalanadi. Bularning barchasi umumlashtirilib ot-kesim doirasiga kiritiladi. Kesim gapning shakllanishi, uyushishida, fikrning yuzaga kelishida egaga nisbatan asosiy rol o'ynaydi. Negaki, gapning grammatik asosi bo'lgan predikativlik ko'proq kesim bilan ifodalanadi. Shuning uchun predikativlikni kesimlik ham deyishadi. Predikativlikning tarkibiy qismlari - sintaktik shaxs, sintaktik zamon, modallikning, tugallangan intonatsiyaning ifodalanishi ham asosan kesimga bog'liqdir. Shuning uchun ko'p hollarda ega tushirib qoldirilsa ham, fikr ifodalanaveradi. Biroq kesimsiz fikrning ifodalanishi, gapning yuzaga kelishi deyarli mumkin emas. Hatto shaklan ega sifatida talqin qilinadigan nominativ - atov gaplar ham moxiyatan kesim mazmuniga egadir. Zero, bular bosh kelishik formasidagi predmetning nomigina emas, uning mavjudligini tasdiqlovchi tugallangan intonatsiyaga ega predikatdir, kesimdir.

*Kesim tuzilish jihatdan sodda va sostavli(murakkab) turga bo'linadi. 1.Sodda kesimlar bir so'z bilan ifodalanadi: Ko'zlar yumildi, qoshlar chimirildi. Hammaning e'tibori bizda. 2. Sostavli kesimlar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi: qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi shiviray boshladi.

26. Gapning bosh bo'laklari ega va kesim odatda moslashgan holatda bo'ladi. Moslashish har xil darajada bo'ladi: 1. Ega va kesim mantiqiy jihatdan ham, grammatik jihatdan ham moslashadi: Universitetimiz talabalari fan sirlarini egallash uchun astoydil o'qimoqdalar. 2. Ega va kesim faqat mantiqiy jihatdan moslashadi: Barcha to'plandi. 3. Ega va kesim forma jihatdan moslashadi.

27. Sifatlovchi. Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir predmetning boshqasiga qarashlilikini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchilar ikki xil bo'ladi. 1. Sifatlovchi-aniqlovchi. 2. qaratqich - aniqlovchi.

Sifatlovchi - aniqlovchi qanday? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerda- gi? qachongi? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi aniqlovchidir. qaratqich aniqlovchi kimning? nimaning? qaerda so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u predmet yoki shaxsni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar ko'pincha ot orqali ifodalanishi bilan aniqlovchining boshqa turlaridan farqlanadi.

Izohlovchi izohlagan bo'lak izohlanmish deyiladi.

28. To'ldiruvchi. Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qaerda? so'roqlariga javob bo'ladi

Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

29. Hol. Harakat-holatning bajarilish o'rni, payti, sababi, tarzi, maqsadi va shu kabilarni ko'rsatib, boshqa bo'lakka tobe bo'lgan ikkinchi darajali bo'lak h o l deyiladi. Hollar aksariyat fe'l-kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifat-dosh, ravish-dosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib, ularni biror jihatdan izohlab keladi. Ifodalagan ma'nosiga ko'ra hollar quyidagi turlarga ajratiladi: ravish holi, miqdor-daraja holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, shart holi, to'siqsizlik holi.

30. O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lishiga qaramay, ko'p qo'llanadigan odatdagi tartib bor. Odatdagi tartibda ega avval, kesim gapning oxirida, payt holi egadan avval, to'ldiruvchi egadan keyin, ravish holi kesimdan avval, qaratqich qaralmishdan avval keladi.

O'zbek tilidagi tap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lganligi uchun ularning o'rnini o'zgartirish ko'pincha grammatik holatga ta'sir etmaydi, ya'ni bo'laklarning o'rnini o'zgartirilsa ham, ularning sintaktik vazifasi avvalgicha qolaveradi.

Biroq ba'zan gap bo'laklarining tartibi grammatik holatga ta'sir etishi mumkin. Bu bilan ma'no ham o'zgaradi. Bu hodisa so'zning vazifasi – grammatik funktsiyasi morfologik shakllanishidan bilinmay, tartib bilan tayin etilgan vaqtlarda uchraydi.

*O'rnini bilan gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgarishi ham mumkin. Bu tilshunoslikda inversiya deyiladi. Inversiya so'zlashuv va she'riy uslubda ko'proq kuzatiladi.

*Odatdagi tartib logik-grammatik, stilistik talab bilan o'zgaradi. Mazmun jihatdan birinchi o'rinda turgan bo'lak, o'z tipik o'rnidan qat'iy nazar, odatda kesimning oldida keladi va logik urg'u oladi, o'zbek tilida logik urg'u tartib bilan zich bog'langandir. Intonatsiya va tartib bo'laklarning mazmun jihatdan ahamiyatini ko'rsatishdagi asosiy vositalardir.

31. Murakkablashgan sodda gaplar. Har qanday sintaktik qurilma singari sodda gaplar ham o'z ichida tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'linadi :

1) oddiy sodda gaplar;

2) murakkablashgan sodda gaplar.

Oddiy sodda gaplar bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli, yig'iq yoki yoyiq, to'liq yoki to'liqsiz, yoki so'z-gaplarning o'zidan iborat bo'ladi.

*Murakkablashgan sodda gaplar oddiy sodda gaplarning turli sintaktik shakllar bilan mazmunan va shaklan murakkablashuvi natijasidir. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi sintaktik hodisalar, asosan, beshta:

- 1) gap bo'laklarining uyushishi;
- 2) gap bo'laklarining ajratilishi;
- 3) undalimalarning qatnashishi;
- 4) kirishlarning qatnashishi;
- 5) kiritmalarning qatnashishi.

Bu hodisalarning voqelanishi natijasida murakkablashgan sodda gaplarning muayyan ko'rinishlari: uyushiq bo'lakli sodda gaplar, ajratilgan bo'lakli sodda gaplar, undalmali sodda gaplar, kirishli sodda gaplar va kiritmali sodda gaplar yuzaga keladi.

*O'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bog'langan, bir xil so'roqqa javob bo'lgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi bo'laklar tizmasi gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Gap bo'laklarining barchasi uyushib kela oladi.

Eganing uyushib kelishi: O'tmishda xalkimiz orasidan Beruniy va Navoiy, Ulug'bek va Boburlar etishib chiqqan.

Kesimning uyushib kelishi: U o'rnidan turdi, ammo gapirmadi. To'ldiruvchining uyushib kelishi: Men uning jasorati va mardligi, chidam va sadoqatiga qoyil qoldim.

Aniqlovchining uyushib kelishi: Ijodiy ish go'zal, juda ham og'ir va hayron qolarli darajada xursand qiluvchi mehnatdir.

Izohlovchining uyushib kelishi: O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Izzat Sulton – o'zbek adabiyotshunoslarining otaxoni.

Holning uyushib kelishi: Adolat qurqib, kaltirab, jaxl ustida yonib, tez-tez qarardi.

Uyushiq bo'laklarning har biri son, egalik kesimlik affikslari, ko'makchilar bilan kelishi mumkin. Bunda ularning har biri ta'kidlanadi: Menga ham, senga ham, ukangga ham etadi.

Son, egalik, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar uyushiq bo'laklarning oxirgisida kelib, ularning hammasi uchun umumiy bo'ladi.

*O'zlari taalluqli bo'lgan gap bo'laklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi. Ajratilgan bo'laklar fikrni odatdagiga qaraganda kuchli, ifodali, ta'sirli, aniq va yorqin qilib berish uchun qo'llanadi. Buning uchun ajratilgan bo'laklar o'zlari taalluqli bo'lgan bo'laklardan maxsus intonatsiya, pauzalar bilan ajratiladi.

O'zbek tilida bosh bo'laklar ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham ajratiladi.

Bosh bo'laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog'liq. Ajratilgan bosh bo'laklar o'zidan oldin kelgan ega yoki kesimni izohlaydi.

Ajratilgan ega: Keyinchalik biz, aka-uka ikkimiz, texnikaga berildik.

Ajratilgan kesim: Mening tug'ilgan yilim – shu – bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi inversiya, izohlash, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

Aniqlovchilarning ajratilishi: Hech erinmay kuch to'kibdi Ko'kan-devkor, O'ylamapti shuncha piyoz kimga darkor. Nargizning ovozigacha boshqa gullarning, qizlarning, ovozlari kelib qo'shildi. Izohlovchilarning ajratilishi inveresiya hodisasi bilan bog'liq:

Kasb, hunar, amal, unvon kabilarni ifodalovchi izohlovchilar o'z izohlanmishidan keyin keltiriladi. Obid Sodiqov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, atoqli olimdir.

To'ldiruvchilarning ajratilishi izohlash va uning yoyiq holda kelishi bilan bog'liq: Bektomirga, sobiq sodda cho'ponga, komandirning fikri g'oyat yoqdi. Pul topishning turli yo'llariga kirish bilan, san'atkorni xor qiluvchi bunday yo'l bilan, teatrning obro'sini aslo tiklab bo'lmaydi.

Hollarning ajratilishida ham izohlash va ularning yoyiq holda kelishi muhim rol o'ynaydi. Ertasi kechqurun, soat ettilarda, kutilmaganda G'ulomjon kirib keldi. Navoiy, bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda, boshni kamtar engil qimirlatish bilan xalqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

*Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi. Undalma, gap bo'laklari bilan bevosita grammatik aloqaga kirishmaydi, chunki u gap bo'laklariga ajratishning

bosh mezon bo'lgan tobelanish talabiga javob bermaydi. Biroq bu undalmaning gap bo'laklariga hech qanday aloqasi yo'q, degani emas.

Undalma gap bo'laklari bilan mazmuniy bog'lanishga egadir. Bu bog'lanish tilshunoslikda introduktiv aloqa deyiladi.

*So'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabati, qarashini, ba'zan emotsional tuyg'ularini ifodalovchi sintaktik shakllar kirish deyiladi. Kirish vazifasida so'z turkumidan ajralib chiqib, faqat kirish vazifasida ishlatiladigan so'zlar (morfologiyada ular modal so'zlar deb yuritiladi Masalan: shekilli, albatta, demak, xullas, modomiki, darvoqe kabilar), ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan kirish vazifasida ham, gap bo'lagi vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar (qisqasi, rost, ortidan, oxiri kabilar) keladi.

Kirishlar tuzilishiga ko'ra 3 xil: kirish so'zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar. Masalan: Ibrohimov, qurbon ota aytmoqchi(kirish gap), gullarni o'z ilmidan xabardor qildi. Menimcha(kirish so'z), bu gapda kirish so'z qatnashgan. Baxtga qarshi(kirish birikma), bugun dushanba-bozor ishlamaydigan kun.

*Kiritmalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir. Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadi. Kiritmalar ohang jihatdan mustaqillikka ega bo'ladi. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydi, sintaktik vazifa bajarmaydi, gap bo'lagi yoki qo'shma gapning biror komponenti hisoblanmaydi. Kiritmalar tuzilishiga ko'ra uch tipga bo'linadi: kiritma so'zlar, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

32. Bir bosh bo'lakli gapda fikr shaklan ega yoki kesimni eslatuvchi bitta bosh bo'lak bilan ifodalanadi. Biroq bu bunday gaplarda ega yoki kesimning «tushib qolganligi»ni yoki etishmasligini bildirmaydi (U to'liqsiz gap emas). Bir bosh bo'lakli gap ham ikki bosh bo'lakli gap singari odatdagi, normal hodisadir. Bir bosh bo'lakli gaplar ikki sostavli gapning kesimi yoki egasi tushib qolgan qismi emas. Ular fikrning bir bosh bo'lak orqali ifodalangan mustaqil bir ko'rinishidir. Bu bo'lak qanday ifodalanganidan qat'iy nazar kesimdan yoki kesim sostavidan iborat.

*Bir bosh bo'lakli gaplar mano- vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) shaxsi aniq gap; b) shaxsi noaniq gap; v) shaxsi umumlashgan gap; g) shaxssiz gap; d) atov gap.

*Shaxsi aniq gap. Kesimi harakatni bajaruvchi shaxs-egani aniq ko'rsatib turadigan xususiyatga ega bo'lgan bir bosh bo'lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi. Masalan: Borsam, yo'q ekansan. Yaxshi uxladigizmi? Kiring, o'tiring.

*Shaxsi noaniq gap. Kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Masalan: Jo'jani kuzda sanaydilar. Uni institutga qabul qilishdi.

*Shaxsi umumlashgan gap. Umumshaxsga, hammaga qaratilgan ish-harakatni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Masalan: Bir yoqadan bosh chiqarib ishlaylik. Avlodlarga ozod va obod Vatan qoldiraylik. Etti o'lchab bir kes. Suyanmang, xavfli.

Bunday gaplarning kesimi shaxsni aniq ko'rsatib tursa ham, bu shaxs mazmunan umumlashgan bo'ladi, chunki undan anglashilgan ish-harakat ko'pchilikka, barcha shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Masalan: Bir kun burun sochsang, bir hafta burun o'rsan. Dexqon bo'lsang, shudgor qil. Avval uyla, keyin so'yla. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

*Shaxssiz gap. Kesimdan anglashilgan ish - harakatning bajaruvchisi - egani topib bo'lmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxssiz gaplar deyiladi. Shaxssiz gapda umuman ega va ega tushunchasi bo'lmaydi, ega faraz ham qilinmaydi. qiyoslaylik: – Sen sayohatga borasanmi? – Boraman – to'liqsiz gap- ega «men» tushirib qoldirilgan. Bu suvni ichib bo'lmaydi-shaxssiz gap-grammatik jihatdan ham, mazmunan ham shaxsni qo'shib bo'lmaydi.

*Atov gap. Predmet, voqea-hodisaning mavjudligi to'g'risidagi hukmni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap atov gap deyiladi.

Atov gapda predikativlik maxsus yo'l bilan - gapga xos tugallangan intonatsiya bilan ifodalanadi. Shu sababli aslida lug'aviy yoki nominativ birliklar bo'lgan so'z va so'z birikmalari narsa-hodisalarning atamasigina bo'lib qolmay, balki shu narsa-hodisalarning nutq so'zlanib turgan momentda mavjudligini tasdiqlovchi, shu haqidagi hukmni bildiruvchi kommunikativ

birlik - gapga aylanadi. Masalan: qirq beshinchi yil. May oyi. G'alaba bayrami ! Amudaryo! Amudaryo deganlari shu ekan-da !

Atov gaplar logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: A)mavjudlikni tasdiqlash xarakteridagi atov gaplar: Bahor.Chor atrof ko'm-ko'k libosga burkandi.

B)ham mavjudlikni tasdiqlash,ham ko'rsatish xarakteridagi atov gaplar. Ana samolyot ! Uchishini kara. Mana bizning qishloq.Butun tuman uni biladi. Bu tipdagi atov gaplarda emotsionallik avvalgisiga qaraganda kuchli bo'ladi.

33. So'z-gaplar sodda gaplarning bo'laklarga ajralish-ajralmaligiga ko'ra bir turidir. Sodda gaplar bu jihatdan ikkiga bo'linadi:1)bo'laklarga ajraladigan gaplar.2)bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

*Bo'laklarga ajraladigan gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajraladi. Ikki bosh bo'lakli gaplar va bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlari bo'laklarga ajraladigan gap hisoblanadi.

*Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar bir so'zdan iborat bo'lib, u yoki bu gap bo'lagiga ajralmaydigan o'ziga xos so'zlardan tashkil topgan predikativ birliklardir. Ularni ega ham, kesim ham yoki ikkinchi darajali bo'lak deb ham deb bo'lmaydi. Chunki ular mazkur gap bo'laklari belgilariga ega emas. Ular garchi bir so'zdan iborat bo'lsa-da, shu holicha fikr ifodalash xususiyatiga ega. Shu sababli ular so'z – gap deyiladi. Masalan:– Bugungi majlis bo'ladimi?-Yo'q. Assalomu alaykum, domla. – Alaykum assalom.

Ba'zan to'liqsiz gaplar ham bir so'zdan tashkil topadi. Shuning uchun so'z-gap va to'liqsiz gaplarni bir-biridan farqlash lozim. To'liqsiz gapni hosil qiluvchi so'z ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z-gap gap bo'lagi emas, mustaqil gapning bir tipi, semantik shakllangan gapdir.

Fan bo'yicha chuqur o'rganishni talab qiladigan, shuningdek, o'z echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Til va tafakkur munosabati yangi bosqichda.
2. Ichki nutq va til.
3. Sintaktik munosabat va sintaktik aloqaning o'zaro munosabati.
4. Bir so'zli sintaktik birliklarda sintaktik munosabat.
5. Fe'lli so'z birikmasi va fe'l predikatli gaplar.
6. Predikativlik va predikat, kesim munosabati.
7. Atov gaplar bosh bo'lagining sintaktik mavqei talqini.
8. Gapning semantik tuzilishi.
- 9.Gap bo'lagining yangicha talqini.
- 10.Ega va sub'ekt munosabati.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,1997 y.
2. A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis, darslik. T. «O'qituvchi», 1987 y.
3. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.
- 4.R. Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III.(o'quv qo'llanmasi). T., 2006.
- 5.M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
- 6.R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
- 7.J. Abdullaev. Ona tili. Sodda gap. O'quv qo'llanma

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. Toshkent, 1988.
- 2.O'zbek tili grammatikasi. T., Fan, 1976.

3. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi.T.,O'qituvchi, 1996.

INTERNET SAYTLARI

1. <http://G'G' ursuG'uzpakG'uzG'msG'btmG'MAXKURS ONAG'TIL 5.DOC>.
2. <http://G'G' ziyoG'edu.uzG'showinfo>.

GLOSSARIY

Grammatika yunoncha «grammatike» so'zidan olingan bo'lib, aslida "yozish san'ati" ma'nosini bildiradi. Manbalarga qaraganda, u qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi. (1-89-b): gramma – yozuv belgisi, chiziq degani. Dastlab u, darhaqiqat, yozuv tilini tekshirish bilan shug'ullangan. Shu sababli ham u "yozuv san'ati" ma'nosini bildirgan. Biroq ijtimoiy hayot va fan taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda grammatika tushunchasining doirasi kengayib, yozuvi bo'lmagan jonli tillarni ham tekshira boshlagan, lekin nomi o'zgarmagan. grammatikada so'zlarning umumiy leksik-grammatik kategoriyalari, so'zlarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan so'z-shakllar, so'zlarning o'zgarishini ta'minlovchi omillar, so'zlarning bog'lanishi, buning natijasida yuzaga keladigan bog'lanmalar, bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar, qonun-qoidalar, usullar o'rganiladi.

Morfologiyada uch xil umumiylik mujassamlashgan. 1. So'zning bevosita nimani anglatishi, bildirishi, bilan bog'liq leksik satxga aloqador umumiy ma'nosi (predmet, belgi, miqdor, harakat kabilar). 2. So'zning boshqa so'zlar bilan aloqasi, bog'lanishi bilan bog'liq sintaktik sathga aloqador munosabat, bog'lanish holati bilan izohlanuvchi umumiy ma'nosi. 3. Ayni morfologiya bilan izohlanuvchi umumiy ma'no-xususiyatlar. Shu ma'noda morfologiya, leksika va sintaksis orasidagi oraliq shakllarni o'rganuvchi oraliqdagi sohadir.

Sintaksis. Grammatikaning ikkinchi qismi sintaksis yuqori darajadagi umumiyliklarni o'rganadi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, gap bo'laklari, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil hodisalarning birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi bilan bog'liq hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shuning uchun ham u so'zdan, so'z-shakldan yuqori turadigan umumiyliklarni o'rganadi.Ularni umumiyashtiradi, umumiy qonuniyatlarni yoritadi .

Sintaksis grekcha syntax so'zidan olingan bo'lib, tuzish degan ma'noni bildiradi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, sintaksis tayyor, avvaldan mavjud bo'lgan narsalarni emas, nutq jarayonida tuziladigan, hosil qilinadigan birliklarni o'rganadi. Sintaksisning o'rganish ob'ektlari mohiyat e'tibori bilan kamida ikki mustaqil so'zdan hosil qilingan tuzilma, bog'lanma xususiyatiga ega bo'lishi va bu bog'lanmalar ham bizning xotiramizda saqlanmagan bo'lishi, ayni nutq jarayonida hosil qilinishi lozim.

Sub'ektili munosabat sub'ekt va uning harakati munosabatidir. Bu munosabat ikki xil bog'lanish orqali ifodalanadi. Birida ega va kesimning moslashuv yo'li bilan bog'lanishi orqali ifodalanadi. Masalan: Behzod kelyapti. Ikkinchisida esa sub'ektni bildiruvchi qism qaratqich aniqlovchi shaklida, qaratuvchi predmetni bildiruvchi qism egalik shaklida qaralmish vaziyatida keladi. Demak, qaratuvchi va qaralmishning moslashuv aloqasi orqali ifodalanadi. Masalan : Otamning xotirasi .

Relyativ munosabat bir qancha semantik modellarga ega :

1. Harakat-uning sifat yoki miqdor tavsifi (tez gapirmoq, ko'p o'ylamoq).
2. Harakat-uning yuzaga chiqish o'rni (Toshkentdan kelmoq, Germaniyada ishlamoq).
3. Harakat yoki belgi- uning yuzaga chiqish payti (Tushda kelmoq, hamisha baxtiyor);
4. Harakat yoki belgi-uning yuzaga chiqish sababi (Betobligi uchun bora olmadi yoki betobligidan bora olmadi,mehribonligi uchun hurmatli);
5. Harakat-uning yuzaga chiqish maqsadi (davolanish uchun bordi, o'qish uchun keldi va boshqalar.)

Atributiv munosabat belgi-predmet semantik modelidagi soʻz birikmasi uchun xosdir: oq koʻylak, yaxshi inson, toʻrtinchi sinf kabilar. Shoir Abdulla Oripov tipidagi birikmalar ham atributiv munosabatning bir turidir.

Ob'ektli munosabat ob'ekt-predmet, predmet-belgi (chog'ishtiruv birikmalarda: Dadamdan katta, Anvardan kuchli va boshqalar) semantik modellaridagi soʻz birikmalarida ifodalanadi. Demak, sintaktik munosabat turlari bilan ularning ifodalanishi oʻrtasida nomutanosiblik bor. Bir sintaktik munosabat ikki va undan ortiq shakllarda ifodalanishi mumkin. Bu tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining bir koʻrinishidir. Bulardan tashqari, undalma, kirish, kiritma orqali ifodalanadigan sintaktik munosabat turlari ham borki, bu mazmuniy munosabat yuqoridagi mazmuniy munosabatlardan farqlanadi. Bu undalma orqali ifodalangan predmetning (tinglovchining) gap (jumla) orqali ifodalangan mazmun bilan va kirish, kiritma orqali ifodalangan mazmun bilan jumla mazmuni oʻrtasidagi sintaktik munosabatlardir.

Atributiv, relyativ, ob'ektli, sub'ektli munosabatlar gapning sintaktik tuzilishi orqali ifodalanadigan mazmunning ikki birligi oʻrtasidagi munosabat bo'lsa, kirish, kiritma, undalma bilan jumla oʻrtasidagi munosabat, jumla mazmuni bilan soʻzlovchi, tinglovchi oʻrtasidagi munosabatdir. Birinchi tipdagi munosabat oʻzining shakliy bogʻlanish vositalari va usuliga ega boʻlsa (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), ikkinchi turi bunday xususiyatga ega emas. Shuning uchun keyingi tip gap boʻlaklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan unsurlar hisoblanadi. Ular soʻzlovchining munosabati bilan bogʻliq boʻlganligi sababli sub'ektiv munosabat ham hisoblanadi. Birinchi tip esa ob'ektiv munosabatdir.

Soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar. Bular kelishik, egalik, shaxs-son qoʻshimchalaridan iboratdir.

sintaktik aloqa oʻzaro mazmuniy munosabatda boʻlgan sintaktik birliklar qismlarining soʻz birikmasi, gap va matn tarkibida shakliy bogʻlanishidir.

Egalik va shaxs-son qoʻshimchalari bogʻliq nutqda mustaqil soʻzlarni oʻzaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar sanalsa, kelishik qoʻshimchalari bundan tashqari, ergash gaplarning bosh gapga bogʻlanishida ham ishtirok etadi. qiyoslang: Universitetda oʻqiyman. Universitetda oʻqiyotganimda, akam mendan doim xabar olib turdi.

Fe'l shakllarini yasovchi qoʻshimchalar: - r, -ar, -gan, -b, -ib, -gach, -guncha, -gani, -sa kabilar. Bular koʻproq ergash gaplarning kesimi vazifasida kelib, ularni bosh gapga bogʻlash uchun xizmat qiladi. Bunda ulardan ayrimlari, xususan, sifat-dosh yasovchi -r, -ar, -gan, -yotgan qoʻshimchalari toʻliqsiz fe'l (edi, ekan) yoki kelishik qoʻshimchasi, asosan – oʻrin-payt kelishigi shakli yoki koʻmakchilar bilan birga keladi. Masalan: Nigora biznikiga tez-tez kelib turgani uchun, onam hammani ularnikiga borishga majbur qilar edi. Chet el tovarlari har yoqni toʻldirib, kosiblarning bozori kasod boʻldi. Er toʻymaguncha, el toʻymas. Otasi oʻsha kuni ham kelmagach, ularni vahima bosdi. Borsam, yoʻq ekansiz. Hozir mamlakatimizning qaysi burchagiga bormang, u erda bunyodkorlik ishlarining avj olganiga guvoh boʻlasiz. Oʻt oʻchiruvchilari etib kelguncha uy yonib, kul boʻlgan edi.

Koʻmakchilar. Koʻmakchilar ham xuddi soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar singari gap boʻlaklarini va qoʻshma gap qismlarini bogʻlovchi vosita hisoblanadi. Masalan: Paxta mashina bilan terilganda, oʻz xususiyatini birmuncha yoʻqotadi. Sen uchun hech narsamni ayamayman. Shisha boʻshagan sayin, Saidiy oʻzini Salimxonga yaqinroq seza boshladi.

Yuklamalar. Yuklamalar gap boʻlaklari va gaplarga qoʻshimcha ma'no yuklashi bilan birga bogʻlovchi vazifasini ham oʻtaydi. Bu koʻproq ham, -u, -yu, -da, -mi yuklamalariga xosdir. Masalan: Kelibdi-yu ketibdi. Sen-u men. Keldi-da ketdi. "Ham" yuklamasi ham bogʻlovchi, ham yuklama vazifasini oʻtaydi.

Bogʻlovchilar. Bogʻlovchilar sodda gap qismlarini, qoʻshma gap qismlarini oʻzaro grammatik va mazmuniy aloqaga kiritish uchun xizmat qiladi. Masalan: Suylab beray Zaynab va Omon, sevgisidan yangi bir doston. Havoni bulut qopladi, ammo yomgʻir yogʻmadi.

Olmoshlar. Olmoshlar ergash gaplarning bosh gapga bogʻlanishida va matn qismlarining oʻzaro bogʻlanishida xizmat qiladi. Masalan, Toleim shuki, Vatanda bir guliston tanladim. Bu gapda ergash gapni bosh gapga bogʻlashda-ki yuklamasi ishtirok etish bilan birga, olmosh

mazmuniy “puch” soʻz boʻlganligi uchun keyingi gap ana shu “puch” soʻzning maʼnosini izohlash, uni “toʻldirish” uchun xizmat qilmoqda. Demak, olmosh asosida ikki gap bogʻlanadi.

Bogʻlama. Bogʻlama ega va kesimning birikishida shaxs-son, zamon maʼnolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchidir. U shu maʼnolarni oʻzicha koʻrsata olmaydigan, shu maʼnolarni ifodalovchi formalarga ega boʻlmagan soʻzlar bilan birga kelib, ularni ega bilan grammatik jihatdan bogʻlaydi. (Biz oʻqituvchi boʻldik. U chavandoz edi). Demak, bogʻlama kesim ot bilan (keng maʼnoda) ifodalanadigan gaplarda ega va kesimning birikishini koʻrsatuvchi boʻlmoq, hisoblamoq, edi, ekan kabi yordamchilardir.

Gap boʻlaklarining tartibi. Soʻzlarning sintaktik vazifalari maxsus koʻrsatkichlar bilan ifodalanmaganda, yaʼni yuqoridagi leksik-grammatik vositalar boʻlmaganda, ularning sintaktik aloqasida tartib(nutqda tartib va intonatsiya) bosh rol ni oʻynaydi. Bunda soʻzning sintaktik vazifasi, asosan, tartib orqali belgilanadi. Tartib oʻzgarsa, mazmun bilan birga sintaktik holat ham oʻzgaradi. Katta bino - bino katta. Toshkent - Oʻzbekistonning poytaxti. Oʻzbekistonning poytaxti – Toshkent kabi.

Intonatsiya. Intonatsiya ham turli sintaktik aloqalarni ifodalashda xizmat qiladigan vositadir. Biror gruppada intonatsion oʻzgarish boʻlar ekan, bu odatda sintaktik boʻlinishning, mazmunning boshqaligini koʻrsatadi. Masalan : qalin muqovali-kitob (muqova qalin). – qalin - muqovali kitob (kitob qalin). U - ahmoq odam emas (u aqlli)- U ahmoq, odam emas. (U aqlli emas,axmoq).

Predikativ aloqa. Ega va kesim orasidagi sintaktik aloqa predikativ aloqadir. Demak, predikativ aloqa natijasida ikki sostavli gap hosil boʻladi : Havo sovuq. Suvlar muzlagan. Men hayronman. Siz kiring.

Nopredikativ aloqa. Aniqlovchi-aniqlanmish, toʻldiruvchi va toʻldirilmish orasidagi hamda hol va hollanmish orasidagi aloqa nopredikativ aloqadir. Demak, nopredikativ aloqada fikr ifodalovchi kommunikativ birlik emas, balki tushuncha ifodalovchi nominativ birlik – soʻz birikmasi hosil boʻladi. Masalan: Katak daftar, paxtani termoq: daryoda soʻzmoq kabi.

Nopredikativ aloqa barcha turdagi soʻz birikmasi komponentlarining oʻzaro aloqasini oʻz ichiga oladi, shuningdek, uyushiq boʻlaklar orasidagi sintaktik aloqa ham nopredikativ aloqa doirasiga kiradi. Uyushiq boʻlaklar soʻz birikmasiga nisbatan olib soʻz tizmalari deb ham yuritiladi.

Teng aloqa. Oʻzaro bir xil sintaktik vaziyat – mavqedagi, bir xil sintaktik shakldagi, bir xil soʻroqqa javob boʻlgan boʻlaklar, qismlar aloqasi teng aloqa deyiladi. Sodda gapdagi uyushiq boʻlaklar, bogʻlangan qoʻshma gap qismlari va bogʻlangan qoʻshma gapga sinonim boʻlgan bogʻlovchisiz qoʻshma gap komponentlari, bir xil tipli ergash gaplar oʻzaro teng aloqada bogʻlangan. Masalan : Ega va kesim sodda gapning grammatik asosi, predikativ qoʻshilmadir. Soy shuvillab oqar va uning muzdek shamoli oʻtlarni silkitar edi. Agar traktor berilsa,erlar traktor bilan haydalsa, birinchidan, mehnat unumi ortadi, ikkinchidan, hosil moʻl boʻladi .

Tobe aloqa. Har xil, yaʼni biri hokim, ikkinchisi tobe sintaktik mavqedagi boʻlaklar yoki komponentlar oʻrtasidagi aloqa tobe aloqa hisoblanadi.Tobe aloqadagi komponentlardan biri doim hokim, biri tobe holatda boʻladi. Tobe boʻlak hokim boʻlakni mazmunan izohlaydi, toʻldirib keladi.

Soʻz birikmalarida ergash – tobe soʻzlar hokim - bosh soʻzga uch xil usul bilan: moslashuv, boshqaruv, bitishuv yoʻli bilan bogʻlanadi. U yoki bu jihatdan aniqlanadigan, toʻldiriladigan, izohlanadigan komponent doim hokim boʻladi, hokim boʻlakdagi ana shu noaniqlikni aniqlaydigan, izohlaydigan, toʻldiradigan boʻlak tobe boʻlak hisoblanadi. Aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol, kesim boʻlaklari (sodda gapda), ergash gap (qoʻshma gapda) ana shunday komponentlardir. Tobelanish gapning asosini tashkil qiluvchi bogʻlanishdir, tobelanishsiz gap yuzaga kelmaydi. Gapning asosini tashkil qilgan ega va kesimning oʻzaro aloqasi tobelanish yoʻli bilan boʻladi. Anglashiladiki, soʻzlarning tobelanish orqali bogʻlanishi natijasida yo soʻz birikmasi (quvnoq qiz kabi) yoki gap hosil boʻladi. (qiz quvnoq kabi). Tobelik CBda moslashuv, boshqaruv, bitishuv orqali reallashadi.

Moslashuv deb shaxs va sonda bir biriga mos bo'lgan ergashishli birikmalarga aytiladi. qaratqichli birikmalarda qaratqich bilan qaralmish shaxs va sonda mos bo'lib, moslashuvni tashkil qiladi. Masalan: bizning uyimiz birikmasidagi ergash so'z (bizning) ham, bosh (uyimiz) ham birinchi shaxs ko'plikda kelgan. Mening vatanim birikmasida komponentlar 1-shaxs orqali moslashgan.

Boshqaruv. Ergash so'z bosh so'zning talabiga muvofiq muayyan kelishik affikslari yoki ko'makchilar olib kelishi natijasida hosil bo'lgan tobelik boshqaruv deyiladi. Bunda ergash so'z tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklaridan birini yoki shunga mos ko'makchilardan birini olib keladi. Akmalni vokzalga kuzatib qo'y. Terrorchilar qirg'iziston tomonga qochib ketdilar.

Bitishuv deb birining o'zgarishi ikkinchisiga ta'sir etmaydigan, komponentlari tartib va ohang orqali bog'lanishga aytiladi. Bitishuv ikki turli bo'ladi: birinchi turda ergash so'z ravish, ravishdosh va ravish vazifasidagi son, sifatlar bilan ifodalanib, bosh so'zga (fe'lga) bog'lanadi : tez yozmoq, asta yurmoq, kulib gapirmoq, yaxshi ko'rmoq kabi. Ikkinchi turi sifatlovchi bilan sifatlanmish munosabatini ko'rsatadi. Bunday birikmalarda ergash so'z sifat, son, olmosh, ot, sifatlovchi bilan ifodalanadi: odobli qiz, katta orzu, uchta kitob, beshinchi uy, shu ko'cha, o'sha bino; kumush qoshiq, po'lat sandiq, hurmat taxtasi kabi. quyidagi kabi zimdan kuzatmoq, to'satdan kelmoq, birga ko'rmoq birikmalari ham shaklan boshqaruv bo'lsa-da, aslida bitishuv aloqasidir. Chunki bu erdagi kelishik shakllaridagi so'zlar shu shaklda ravishga ko'chgan.

So'z birikmasi ikki so'zli va ko'p so'zli sintaktik qurilmalarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir. Sintaktik qurilmaning bir ko'rinishi bo'lgan so'z birikmasi boshqa sintaktik qurilmalardan nomustaqilligi, butunning tarkibiy qismi holatidagi erkin birikma ekanligi bilan farqlanadi. Bu uning qurilish materiali bo'lib xizmat qilishida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun so'z birikmasi fikr ifodalay olmaydi, tushuncha ifodalovchi ochik qurilma hisoblanadi, kommunikativ emas, nominativ funktsiya bajaradi. Shu ma'noda so'z birikmasi kamida ikkita mustaqil so'zning tobelanish asosida, birining ikkinchisiga ergashishi natijasida hosil bo'ladigan nominativ birlik, tushuncha ifodalovchi erkin so'z bog'lanmasidir.

Erkin bog'lanish so'z birikmasini, turg'un bog'lanish esa frazeologizmlarni o'z ichiga oladi.

Erkin bog'lanish sintaksisning, turg'un bog'lanish frazeologiyaning tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Solishtiring; 1) qizil olma, o'tmas pichoq, 2) o'tmas burchak.

Sintaktik so'z birikmalari frazeologik birikmalardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) sintaktik so'z birikmalari ma'lum so'z birikmasi modeli asosida nutq jarayonida hosil bo'ladi. Shuning uchun ham real sintaktik so'z birikmalari nutq birliklari sanaladi. Frazeologik birliklar esa nutq jarayonigacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Nutqqa tayyor holda bir lug'aviy birlik sifatida olib kiriladi;

2) sintaktik so'z birikmalarida qismlarning sintaktik aloqasi erkin, frazeologik birlikma kesimlari o'rtasidagi sintaktik aloqa turg'un bo'ladi;

3) sintaktik so'z birikmalari qismlari gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'lib keladi. Frazeologik birlikma qismlarining grammatik munosabati faqat shu birlikma ichida amal qiladi. Frazeologik birlikma bir butun sifatida gap ichida bir gap bo'lagi o'rnida keladi.

So'z birikmalari uch tomonlama, uch mezonga ko'ra tasnif qilinadi:

1) tuzilishiga ko'ra;

2) hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra;

3) tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra.

Sodda so'z birikmasi. Tobe va hokim komponentlar ikki mustaqil so'zdan, shuningdek, bir so'z yoki bir so'z shakli hukmida qabul qilinadigan frazeologizmlar, turg'un birikmalar, tarkibli nomlar bilan ifodalangan so'z birikmalari sodda so'z birikmalari hisoblanadi.

Sodda soʻz birikmasining asosan quyidagi koʻrinishlari bor: a) sifat - ot : yaxshi kitob b) ravish-fe'l: tez gapirmoq.v) ot-ot: tilla uzuk, onamning mehri g) ot-fe'l : magazinga bormoq.

Sodda soʻz birikmasining har ikki komponenti yoki ulardan biri qoʻshma soʻz, soʻzning analitik shakli. juft soʻz, takror soʻz boʻlishi mumkin.

Murakkab soʻz birikmalari sodda soʻz birikmasining kengayishidan, birikmalarning qoʻshilishidan hosil boʻladi. Bunda koʻzga tashlanadigan xarakterli jihat shundaki, odatda kengayish, yoyiqlashish tobe komponentga taalluqli boʻladi. Bu hokim komponentni yanada aniqlashtiradi, konkretlashtiradi, boʻrttiradi. Demak, murakkab birikma hokim komponentni yanada aniqlashtirish, konkretlashtirish, yorqinlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Masalan: Erkak kishi – anavi erkak kishi, setka koʻtargan anavi erkak kishi yoki chinni piyola – gulli chinni piyola – paxta gulli chinni piyola-yangi paxta gulli chinni piyola kabi. Demak,bunda ham grammatik jihatdan ikki boʻlak mavjud: aniqlovchi - aniqlanmish. Biroq bulardan biri aslida soʻz birikmasidan iborat boʻladi.

Otli soʻz birikmalari. Bosh soʻzi shaxsli fe'l formasi va ravishdosh, sifatdosh shakllaridan boshqa soʻzlar bilan ifodalangan soʻz birikmalari otli soʻz birikmalari hisoblanadi. Demak, otli soʻz birikmalari keng ma'noda boʻlib, komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, undov, taklidiy soʻzlar bilan ifodalangan juda koʻp soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Bu erda koʻrinib turibdiki, hatto fe'lning harakat nomi shakli hokim komponent boʻlib kelgan soʻz birikmasi ham otli birikma doirasiga kiradi. Bunda uning otga yaqin turishi-harakatning nomi ekanligi hisobga olingan. Otli soʻz birikmalari komponentlari oʻzaro bitishuv, boshqaruv, moslashuv usullari bilan bogʻlanadi .

Bitishuvli otli birikmalar. Bitishuvli otli birikmalarning quyidagi tiplari bor:

Ot-ot. Bu ikki otning qoʻshimchasiz tobe bogʻlanishidir. Bunda birinchi kelgan ot aniqlovchi, ikkinchisi aniqlanmish boʻladi. Masalan: qoʻngʻiroq ovoz, otash yurak, shoir tabiat, shamol tegirmon, oʻrik domla kabi.

Olmosh-ot. Odatda, soʻroq, koʻrsatish, belgilash olmoshlari otga bitishuv orqali bogʻlanadi : oʻsha bodomzor, qaysi gap, har bir kishi, barcha odam kabi.

Son-ot: yigirmatadan qalam, oʻn beshinchi qavat, toʻrt talaba kabi.

Sifat-ot: Bu tip otli birikmalar eng keng tarqalgandir: yaxshi niyatli, uzoq yoʻl, goʻzal qiz, shu bola kabi.

Sifatdosh-ot:kelayotgan asr, oʻqigan bola, oqar suv, boʻlmagan voqea.

Boshqaruvli otli birikmalar. Ot boshqaruvchi deganda, asosan ot, sifat son, ravish soʻzlar boshqaruvchi nazarda tutiladi. Ot boshqaruvning ikki turi ajratiladi (bu fe'l boshqaruvga ham taalluqlidir): kelishikli boshqaruv, koʻmakchili boshqaruv.

Kelishikli boshqaruv. Bunda hokim komponent oʻrnidagi ot, sifat, ravish, sonlar joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigidagi tobe komponentni boshqarib keladi . Masalan: oyogʻida etik, elkasida xurjun, tilga e'tibor, vatanga mehr, gʻishtdan devor, respublikada mashhur. soʻzga chechan, mehmonlardan uchtasi, haqiqatga yaqin, oʻqdan tez kabi.

Koʻmakchili boshqaruv. Bunda tobe soʻz boshqaruvchi otga koʻmakchilar yordamida tobelanib bogʻlanadi: bolalar haqida she'r, onam uchun sovgʻa, shahar birinchiligi uchun musobaka,shoirlar bilan uchrashuv kabilar.

Moslashuvli otli birikmalar. Bu qaratuvchi va qaralmish munosabatidagi ikki otning birikuvidir:

Maktabimiz hovlisi, universitetimizning rektori, Vatanimizning kelajagi kabi. Bu tipdagi bogʻlanishning bitishuvli bogʻlanishdan farqi shundaki, bitishuvda ikki ot hech qanday qoʻshimchasiz yoki koʻmakchisiz birikadi: deraza parda, yogʻoch uy, tosh yoʻl, tandir kesak kabi. Moslashuvli otli birikmalarda esa birikmaning birinchi (tobe) komponenti qaratqich kelishigi

shaklida, hokim komponent egalik shaklida bir-biri bilan moslashib, muvofiqlashadi: yaxshilarning suhbat, mening orzuim, bizning qishlog'imiz. Biroq moslashuvli otli birikmalarning yoz issig'i, paxta terimi, Guliston guldastasi, shahar hokimi, bizning she'r, bizning qishloq kabi belgisiz qaratqichli, belgisiz egalikli ko'rinishlari ham faol qo'llanadi.

Bu shakllarning qo'llanilishida nozik farqlar ham ko'zga tashlanadi. Tobe komponentning qo'shimchasini olmagan moslashuvli birikma, belgili moslashuvga nisbatan umumiylik ma'nosi, ma'nosining mavhumligi bilan xarakterlanadi. Masalan, chog'ishtiring: Ona mehri-onaning mehri, deraza pardasi-derazaning pardasi, kuz manzarasi-kuzning manzarasi.

Hokim komponentning egaliksiz, belgisiz qo'llanilishida ham shu holat kuzatiladi, shu bilan birga ma'noni kuchaytirish ham seziladi. Chog'ishtiring: Bizning Vatan-bizning Vatanimiz, bizning zamon-bizning zamonimiz.

Ko'rinadiki, moslashuvli otli birikmaning qaratqich va egalik qo'shimchasini olgan turi konkretlikni ifodalaydi. Ularda egalik va qarashlilik ma'nosi kuchli bo'ladi. Ularning qo'llanmasligi bilan bu ma'nolar kuchsizlanadi, umumiylik holati yuzaga keladi.

Fe'lli so'z birikmalari. Hokim komponenti barcha turdagi tuslanadigan fe'l shakllari, ravishdosh, sifatdoshlar bilan ifodalangan birikmalar fe'lli so'z birikmalari hisoblanadi: kitobni o'qidi-kitobni o'qigan-kitobni o'qib-kitobni o'qiguncha-kitobni o'qigach-kitob haqida gapirdi-kitob haqida gapirgan-kitob haqida gapirgach kabi. Fe'lli so'z birikmalari otli so'z birikmalardan farqli o'laroq moslashuvli birikma shaklida kuzatilmaydi. Fe'lli so'z birikmalari ikki katta guruhga bo'linadi:

Bitishuvli birikmalar .

Boshqaruvli birikmalar.

Bitishuvli fe'lli birikmalar. Tobe komponent hokim komponent fe'lga harakat belgisini bildiruvchi sifat, ravish, ravishdoshlar orqali hech qanday qo'shimcha olmay tartib va intonoatsiya orqali birikib kelsa, bitishuvli fe'lli birikmalar hosil bo'ladi. Masalan: Dadajonga ishonmang, yomon qaridi u (I.Raxim)Normat to'y egasi bilan xayrlashgach, tez chiqib ketdi. O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.

Ot, olmosh va otlashgan so'zlar turli yasovchilar vositasida ravishga aylanadi va fe'lga bog'lanib bitishuvli birikma hosil qiladi. Uning ko'zlari paxsa devorga munchoq qadalganday yiltirar edi. Saidaning o'z fikrida turib olishiga qalandarov o'zicha ma'no berdi. Buni Ochil buva haligacha bilmaydi. U otasidan yashirincha xotinini ko'rib ketardi. Tobe komponenti – a, -y, -b, -ib, -gani, -gach, -guncha qo'shimchali ravishdosh, -r, -ar, -mas qo'shimchali sifatdosh, takror qo'llangan taqlidiy so'zlar bilan ifodalangan fe'lli birikmalar ham bitishuvli birikmalar hisoblanadi. Masalan : U maktabdan kela solib o'qishga kirishadi. Kifoyatxon ... yosh qizday uyala-uyala zinadan chiqib keldi. Hammasi senga- to'yguningcha eyaverasan. Saida eshitilar – eshitilmas: Ayol boshim bilan, dedi-yu, u yog'ini aytmadi. Nigor oyim dasturxon yozib tovoqni Anvarning oldiga qo'yar ekan, birdan piq-piq yig'lab yubordi.

Boshqaruvli fe'lli birikmalar. Tobe komponenti qaratqich kelishigidan boshqa ko'rsatkichli kelishiklar yoki ko'makchilar bilan birga hokim komponent fe'lga tobelanib keladigan birikmalar boshqaruvli fe'lli birikmalar hisoblanadi. Masalan: Vatanni sevadi, telefonda gapirdi, qalam bilan yozdi, baxt haqida kuyladi kabi.

Kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv fe'lli so'z birikmalarga ham xosdir. Bunda kelishikli fe'lli boshqaruv ko'makchili fe'lli boshqaruvdan farqli o'laroq belgisiz qo'llanish xususiyatiga ham ega. Bu holat tushum kelishigi formasidagi tobe komponentga ko'proq xos bo'lsa-da, ba'zan jo'nalish kelishigi shaklida ham kuzatiladi. Masalan: Lola tergani tog' sayliga chiqdik. Gul teraman, gullar teraman. Toshkent boramiz, Parij ketdi.

2.

Boshqaruvli fe'lli birikmalar asosan ob'ekt bilan harakat o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Aniqllovchili soʻz birikmalari. Aniqllovchili soʻz birikmalari soʻz birikmalari sistemasida nihoyatda keng tarqalgan va faoldir. Aniqllovchili birikmalarning tiplari ham nihoyatda rang-barang boʻlib, turli soʻz turkumlari bilan ifodalanadi va har xil shakliy koʻrinishga ega. Masalan: 1. Sifat-aniqllovchili birikmalar: yaxshi niyat, yoqimli shabada, kamtar inson,

Ot aniqllovchili birikmalar: taxta koʻprik, mustaqillik sharofati .

Son-aniqllovchili birikma: uchinchi kurs, ettinchi tramvay, beshta daftar.

Olmosh- aniqllovchili birikmalar: bu yoʻl, ana shu vazifa, hamma odam .

Ravish -aniqllovchili birikmalar : oz soʻz, koʻp gap .

Sifatdosh -aniqllovchili birikma: koʻtayotgan qalb, kelayotgan yil, oqar suv.

Taqlid soʻz- aniqllovchili birikma: gʻir-gʻir shabada, piq-piq yigʻi, lim-lim suv.

Undov soʻz-aniqllovchili birikmalar : “ura” sadolari, ox-vox ovozlari.

Toʻldiruvchili soʻz birikmalari. Tobe komponenti tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi yoki koʻmakchilar bilan birga hokim komponentga bogʻlangan ob'ektni bildirgan birikmalar toʻldiruvchili birikmalar hisoblanadi. Toʻldiruvchili birikmalar ikkiga boʻlinadi: a) vositasiz toʻldiruvchili birikmalar; b) vositali toʻldiruvchili birikmalar;

Vositasiz toʻldiruvchili birikmalarda tobe komponent tushum kelishigi formasida, belgisi yoki belgisiz holda qoʻllanadi. Masalan: Vatanni sevmoq, anor termoq, taom emoq, ekinni yigʻishtirmoq kabi.

Vositali toʻldiruvchili soʻz birikmalarida tobe komponent joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi qoʻshimchalari yoki koʻmakchili konstruksiyalar bilan kelib, hokim komponentga bogʻlanadi. Masalan: Vatan haqida qoʻshiq, onamga xat, televizorga qaramoq, telefon orqali gaplashmoq, hech kimga kerak emas.

Holli soʻz birikmalari. Tobe komponenti joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shaklida yoki koʻmakchilar bilan kelgan relyativ birikmalar holli soʻz birikmalari deyiladi.

Harakat - uning sifat, xususiyatini bildiradi: tez yurmoq, koʻrib gapirmoq.

Harakat - uning yuzaga chiqish oʻrnini bildiradi: Toshkentdan kelmoq. Samarqandda yashamoq.

Harakat yoki belgi - uning yuzaga chiqish paytini bildiradi: Hamisha baxtiyor, ertalab olmoq.

Harakat yoki belgi-uning yuzaga chiqish sababini bildiradi: Halolligi uchun mukofotlandi, bagʻri kengligi uchun hurmatli.

Harakat - uning yuzaga chiqish maqsadini bildiradi: oʻqish uchun keldi, yashash uchun kurashdi

Harakat - uning yuzaga chiqish shartini bildiradi: Oʻlmasa yashaydi, qaynamasa kuydirmaydi.

Toʻldiruvchili va holli soʻz birikmalarining grammatik shakli tushum kelishigidan boshqa hollarda bir-biridan farq qilmaydi. Bunda tobe komponentning leksik-semantik xususiyati hal qiluvchi rol oʻynaydi. Harakat oʻtgan predmetni yoki harakatning bajarilishi uchun vosita boʻlgan predmetni bildirgan tobe komponentli birikmalar toʻldiruvchili, harakatning bajarilish oʻrnini, paytini bildirgan tobe komponentli birikmalar esa holli soʻz birikmalari hisoblanadi

Gap. Grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega boʻlgan bir soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi .

Predikativlik quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalardan iborat:

- 1) gapning grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) gapning grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) Gapning grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;
- 4) Gapning modallik kategoriyasi.

Soʻroq gap.

Soʻzlovchiga noma'lum boʻlgan biror voqea - hodisa, harakat-holat, belgi haqidagi soʻroqni bildirgan gaplar soʻroq gap deyiladi.

Buyruq gaplar. Buyurish, iltimos, maslahat kabilarni ifoda qiluvchi gaplar buyruq gaplar deyiladi

Tasdiq gaplar narsa-hodisalar orasidagi munosabatning mavjudligini tasdiqlaydi. Masalan: Yig'im-terim tugadi. qor yog'di.

Inkor gaplar esa shu munosabatning mavjudligini inkor qiladi. Masalan: Yig'im-terim tugamadi. qor yog'madi. Tasdiq va inkor kategoriyalari orasida chambarchas bog'liqlik bor. Har qanday tasdiqdan inkor, har qanday inkordan tasdiq kelib chiqadi. Havo sovuq (issiq emas). Havo issiq (sovuq emas).

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, o'ziga xos his-hayajon, ayrim undov intonatsiyasi, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir.

Predikativ markazning tarkibiga yoki bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar ikkiga bo'linadi: 1. Ikki bosh bo'lakli gap. 2. Bir bosh bo'lakli gap.

Ikki bosh bo'lakli gap. Egasi ham, kesimi ham mavjud bo'lgan sodda gaplar ikki bosh bo'lakli gap sanaladi.

Bir bosh bo'lakli sodda gaplar. Predikativ yadrosi bitta bo'lgan sodda gaplar bir bosh bo'lakli sodda gaplardir.

Gap bo'laklari ma'no-vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Bosh bo'laklar.
2. Ikkinchi darajali bo'laklar.

Gap bo'laklarini belgilashda quyidagilar asosga olinadi:

- 1) gap bo'laklarining leksik - semantik xususiyati.
- 2) gap bo'laklarining o'zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari.
- 3) gap bo'laklarini sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar.
- 4) Sintaktik aloqa komponentlarining formasi.
- 5) sintaktik aloqaga kiruvchi komponentlarning bir-biriga nisbati.

Ega. Ikki bosh bo'lakli gapning fikr, hukm qarashli bo'lgan shaxs, narsa- hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo'lagi ega deyiladi.

Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi, biroq grammatik jihatdan egaga tobe bo'lgan bosh bo'lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi.

Gapning markazini tashkil etib, tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab, hukm bildiradigan va gapning boshqa bo'laklarini (ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) o'z atrofiga birlashtirib keladigan bo'lak **kesim** deb ataladi.

Kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab 2 xil bo'ladi:

1. Fe'l-kesim quyidagicha ifodalanadi:

- 1) **sof fe'l** bilan: *Karimjon maktabdan keldi.*
- 2) **siftdosh** bilan: *Bu kitoblarning barchasi o'qilgan.*
- 3) **ravishdosh** bilan: *Bolta tushguncha, to'nka dam oladi. (Maqol)*

2. Ot-kesim quyidagicha ifodalanadi:

1) **bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi otlar** bilan: *O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. Bu sovg'a ukamga. Uyning kaliti onamda. Bularning hammasi sevinchdan.*

2) **sifat** bilan: *SHahar go'zal.*

3) **olmosh** bilan: *Bu narsa o'z-o'zimmiki.*

4) **otlashgan son** bilan: *Ikki o'n besh - bir o'ttiz.*

5) ravish bilan: *Dangasaning vaji ko'p*.

6) undov so'z bilan: *Buyruqni bajarmaganning holi voy*.

7) modal so'z bilan: *Uning ezgu niyatlari bor*.

Kesimlar tuzilishiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi:

1. Sodda kesim bir so'zdan iborat bo'ladi:

1) **sodda fe'l-kesim:** *Men keldim*.

2) **sodda ot-kesim:** *Uyat o'limdan gattiq*.

2. **Murakkab kesim** kamida ikkita so'zdan tuzilgan bo'ladi:

1) **murakkab fe'l-kesim** quyidagicha tuziladi:

a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan iborat bo'ladi: *Odamlar tarqala boshladi*.

b) sifatdosh va to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi. *Mashg'ulot haftada bir marta o'tadigan bo'ldi. U kelgan edi*.

v) ibora bilan ifodalanadi: *Sobir so'zining ustidan chiqdi*.

2) **murakkab ot-kesim** quyidagicha tuziladi: a) ot, sifat, son, olmosh, ravish hamda "bo'lmoq" fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Mehnat qancha qiyin bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi*.

b) *yo'q, bor, oz, ko'p, zarur, lozim, kerak, darkor* kabi so'zlar hamda *bo'lmoq* fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: *Uzoqda ko'ringan sharpa bir zumda yo'q bo'ldi*.

v) harakat nomi hamda *kerak, lozim* kabi so'zlardan iborat bo'ladi, bunda kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son qo'shimchalari harakat nomiga qo'shiladi: *CHoyxona yangi solingan qishki binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi*.

Ot-kesimni ega bilan bog'lovchi vosita **bog'lama** deb ataladi. Bog'lama **-dir** kesimlik qo'shimchasi (*Mehnatning noni shirindir*), shu qo'shimchaga sinonim bo'lgan *bo'lmoq, hisoblanadi, sanaladi* fe'llari (*U kishi mening ustozim hisoblanadi*), to'liqsiz fe'llar (*U mening do'stim edi*), shuningdek, ot-kesimlarga qo'shilgan shaxs-son qo'shimchalari (*Men o'quvchiman*) bilan ifodalanadi.

Kesimlik so'zlari. Ayrim mustaqil so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlar *-moq, -sh(-ish)* qo'shimchali harakat nomlari bilan kelib kesim tarkibida qatnashadi. Bunday o'z mustaqil ma'nosidan uzoqlashib, gapning fikriy markazi vazifasida kelgan so'zlar **kesimlik so'zlari** deb ataladi (17; 96). Ular ot (*shart*), sifat (*kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, muhim*) turkumlariga tegishli bo'lishi mumkin: *Bu ishni bajarish kerak (lozim, zarur...)*

Aniqlovchi. Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir predmetning boshqasiga qarashlilikini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi.

Qaratqich –aniqlovchi. Qaratqich aniqlovchi kimning? nimaning? qaerning? so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Qaralmish. Qaratqich tomonidan aniqlangan bo'lak qaralmish deb yuritiladi: qaratqich qaralmish bilan moslashuv yo'li bilan birikadi. Behunarning hunari yalqovlikdir.

Izohlovchi: Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u predmet yoki shaxsni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

To'ldiruvchi. Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qaerni? so'roqlariga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi: 1. Ot va olmosh bilan: *Do'stingdan pulingni qizg'anma. Sizni unutmayman, Sherzod aka.*

Vositali to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

Hol gapning ma'noviy mundarijasi va sintaktik tuzilishida faol qatnashuvchi gap bo'lagidir. Biroq u gapning bosh bo'laklari singari doimiy a'zosi, grammatik markazi emas. Uning gapda qatnashishi so'zlovchining fikri, maqsadiga bog'liqdir.

Ravish holi. Harakatning qay tarzda, qanday vaziyatda sodir bo'lishini bildiradigan hol ravish holi deyiladi.

Miqdor-daraja holi: Miqdor-daraja holi ish-harakat, holat, vaqt kabilarning qay darajada ekanligini miqdor jihatdan chegaralab, darajalab ko'rsatadi.

O'rin holi: Ish-harakat yoki holatning sodir bo'lishidagi o'rin ma'nosini bildiruvchi hollar o'rin holi deb ataladi. O'rin hollari ish-harakatning biror jihatdan o'ringa munosabatini ko'rsatadi va qaerda? qaerdan? qaerga? qaergacha? singari so'roqlarga javob bo'ladi.

O'rin hollari ma'nolariga ko'ra uchta asosiy gruppaga bo'linadi: 1. Harakatning yuz berish, bajarilish o'rnini bildiruvchi hollar. 2. Harakatning boshlanish, chiqish o'rnini ko'rsatuvchi hollar. 3. Harakatning oxirgi nuqtasini ko'rsatuvchi hollar.

Ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiruvchi hollar harakatning ma'lum bir nuqtada, doirada yuz berganligini anglatadi va quyidagicha ifodalanadi. 1) O'rin-payt kelishigidagi o'rin-joy nomlari bilan: Mirzacho'lda birinchi bahor boshlandi. 2) O'rin ma'nosidagi olmoshlar: Bunda bulbul kitob o'qiydi, bunda qurtlar ipak to'qiydi. 3) O'rin angatuvchi ot ko'makchilar bilan: Yigit eshikdan odim narida otning boshini silab turar edi.

Harakatning chiqish nuqtasini ko'rsatuvchi hollar chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan shakllanib, harakatning manbaini, qaerdan boshlanganligini anglatadi, qaerdan? so'rog'iga javob bo'ladi. Moskvadan keldim, - deb kulib qo'ydi Mirzaev.

Harakatning yo'nalishi va oxirgi chegarasini ko'rsatuvchi hollar jo'nalish kelishigi bilan shakllanadi, qaerga? so'rog'iga javob bo'ladi. Siddiqjon Bekobodga jo'nab ketdi.

Payt holi. Ish-harakatning bajarilish paytini bildiruvchi hollar payt holi deyiladi. Ish-harakat paytini bevosita ifodalash payt ravishlariga va vaqtni anglatuvchi otlarga xosdir: yozda, hozir, ertalab, tongda kabi.

Payt holi qachon? qaysi vaqtda? qachondan beri? qachondan boshlab? qachongacha? qay vaqtga qadar? singari so'roqlarga javob bo'ladi. Payt holi asosan quyidagicha ifodalanadi:

1. Payt ravishlari bilan: Kontsert juda kech tamom bo'ldi.

2. Otlashib, o'rin-payt kelishigida shakllangan sifat, harakat nomi, mavhum ot bilan: qaytishda ular ancha qiynalishdi.

3. Payt ma'nosini anglatuvchi so'zlar bilan: Men ko'rgan paytda u kichkina edi.

4. Sifat, son va vaqtni anglatuvchi so'zlardan tashkil topgan birikmalar bilan: Issiq oylarda g'o'zani tunda sug'oradilar.

Harakatning bajarilish jarayoniga, vaqtga munosabatiga ko'ra payt holi quyidagicha bo'ladi:

A) harakatning boshlanish paytini ko'rsatuvchi hollar: Ertadan boshlab qo'shma gaplarni o'rganishga kirishamiz.

B) harakatning tugash paytini bildiruvchi hollar: Yig'im-terim 20 noyabrga qadar davom etadi.

Sabab holi. Ish harakatning bajarilish sababini bildiruvchi hollar sabab holi deyiladi. Sabab holi nima sababdan?, nima sababli?, nima uchun?, qanday munosabat bilan?, nimaga?, nima natijasida? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravishdosh bilan: Sevgilisining qamchilanishiga chiday olmay maydonga otildi.

2. Frazologik birikma bilan: Shomil do'stining astoydil ishlashga bel bog'laganidan xursand bo'ldi.

3. Ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlarning ko'makchilar bilan birikib kelishi bilan: Yodgor extiyot yuzasidan juda past ovoz bilan kuylar edi..

Maqsad holi. Ish-harakatni bajarishdan maqsadni bildiruvchi hollar maqsad holi deyiladi. Maqsad holi nima maqsadda? nimaga?, nima uchun? qanday maqsad bilan? singari so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravish bilan: Solovyov asirlar bilan gaplashar ekan, atayin vahimali gaplarni aytardi.

2. Ravishdosh bilan: Nay eshitgani keldik.

3. Harakat nomi bilan: Bizni chipta kovushni o'rishga yuborishdi.

To'siqsizlik holi. Ma'lum bir harakatning bajarilishida to'siq, zidlik bo'lishiga qaramay, shu harakatning bajarilishini anglatadigan hol to'siqsizlik holi deyiladi.

To'siqsizlik holi nimaga qaramasdan?, nimaga qaramay?, nima demay? singari so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Turib ko'makchisi bilan shakllangan ravishdosh oborot bilan: Mening borolmasligimni bila turib taklifnoma olib keldingmi?

2. da, ham yuklamasini olib kelgan shart fe'li bilan: Bilib tursangiz ham yana so'raysiz?

3. demay ko'makchisini olib kelgan so'zlar bilan: qish demay, yoz demay, bo'ron demay, yil o'n ikki oy qo'ying orqasidan yuramiz.

Shart holi. Shart holi harakat ifodalaydigan bo'lakka bog'lanib, shu bo'lak orqali anglashilgan harakatning sodir bo'lishidagi shartni ko'rsatadi va fe'lning shart mayli formasi bilan ifodalanadi, Hokim bo'lakka - sa affiksi yordamida bog'lanadi

Gapning uyushiq bo'laklari. O'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bog'langan, bir xil so'roqqa javob bo'lgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi so'zlar tizmasi gapning uyushiq bo'laklari deyiladi.

Ajratilgan bo'laklar. O'zlari taalluqli bo'lgan gap bo'laklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi.

Undalma. Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi.

Kirish bo'laklar so'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi: Albatta, buyuk kashfiyotlar osonlikcha tug'ilmaydi. Yolqin akang bundan ham kattaroq bir unvonni ko'zlayapti, chamasi.

Kiritma gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir. Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadilar.

Kirish so'z va kirish birikma. So'zlovchining o'zi bayon qilayotgan fikriga bo'lgan turli munosabatini bildiruvchi so'z yoki so'z birikmasi kirish so'z yoki kirish birikma deyiladi.

Shaxssiz gaplar. Kesimdan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini topib bo'lmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxssiz gaplar deyiladi.

Umumlashgan gap. Umumshaxsga, hammaga qaratilgan ish-harakatni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi.

Shaxsi noaniq gap. Kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi.

Shaxsi aniq gap. Kesimi harakatni bajaruvchi shaxs-egani aniq ko'rsatib turadigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi.

Atov gap. Predmet, voqea-hodisaning mavjudligi to'g'risidagi hukmni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap atov gap deyiladi. Masalan: O'rtada katta stol. Stolning ustida guldor choynak. Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k libosga burkangan.

ME'YORIY HUJJATLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TO'RISIDAGI QONUNI

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda)

UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

4-modda. Bilim olish huquqi

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;

barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;

oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

6-modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmuilariga hamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

8-modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

II. TA'LIM TIZIMI VA TURLARI

9-modda. Ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta'lim turlari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

Boshlang'ich ta'lim (I—IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (I—IX sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mo'taxassislar tayyorlashni ta'minladi.

Oliy ma'lumotli mo'taxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mo'taxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

18-modda. Oiladagi ta'lim va mustahil ravishda ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustahil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'hitish va mustahil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

19-modda. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasalarida o'qitilishi shart bo'lgan va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan mo'taxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo'yilgan baholar yozilgan varag'i ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy

darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirida O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo'yicha ishlash huquqini beradi.

III. TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOY HIMOYA QILISH

20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

22-modda. Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash; boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida

ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish; qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash; davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash; davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; davlat grantlari miqdori va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash; davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash; ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

26-modda. Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi

Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mo'taxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar; o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar; ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi. Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

V. YAKUNLOVCHI XULOSALAR

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

31-modda. Ta'limni moliyalash

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro hamkorlik

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I. A.KARIMOV

Toshkent sh., 1997 yil 29 avgust, 464-I-son

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida

N I Z O M

(Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Topshiriqqa muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.)

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

I. Umumiy qoidalar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

- e) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;
- j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimni semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

4. Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashhulotda talabalarga e'lon qilinadi.

6. Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun "Yozma ish" yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov)) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mo'taxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

7. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

8. Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

9. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

III. Baholash tartibi va mezonlari

10. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda bo'tun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga – 30 ball;

joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

12. Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

13. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

v) 55-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;

bilmaslik.

14. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e'lon qilinadi.

15. Namunaviy mezonlarga muvofiq mo'taxassislik fanlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta'lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta'lim muassasalariga etkaziladi.

16. Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

17. Talabanning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi: bu erda:

V– semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

_ –fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

18. Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha 55 va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan balning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi balni to'plagan talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

19. Talabanning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o'tkazish muddati

20. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

21. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

22. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

23. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plangan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarini har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

24. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

25. Baholashning o'rnatilgan talabalar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

26. Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

27. har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi.

28. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra fan o'qituvchisi talabalarining fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi.

29. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yihindisi orqali aniqlanadi.

30. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi.

31. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi hisobga olinadi.

32. Talabalarining nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o'quv-metodik bo'linmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

33. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

34. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

35. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

36. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi, Davlat soliq qo'mitasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.

**O'ZBRESEKISTON RESPUBLIKASI O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUYRUQ**

**Toshkent shahri
mart 2011 й. № 118**

22

O'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etilishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari prorektorlari taqdimotini tashkil etish xaqida

"Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy ishlarini modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish" loyihasi ijrosini hamda ushbu loyiha asosida har bir fanni o'qitish texnologiyasi, unda qo'llaniladigan interaktiv va pedagogik texnologiyalar majmuasini ishlab chiqish borasidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish va takomillashtirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta'lim muassasalari o'quv ishlari bo'yicha prorektorlarining "Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish" loyihasi asosida yaratilgan o'quv-uslubiy majmualariga bag'ishlangan tasdimoti jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Taqdimotda oliy ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlanadigan har bir ta'lim yo'nalishidan 2-3 tadan fan (jami 10 ta umumkasbiy yo'ki maxsus fan) bo'yicha tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua namoyish etilishi belgilab qo'yilsin.

2. Oliy ta'lim muassasalari rektorlariga:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 17 aprelda o'tkazilgan hay'atini 3G`1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish namunaviy rejasi"da belgilangan vazifalarni ijrosi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va taqdimot kuni vazirlikka topshirish;

taqdimotlarni o'tkazish bilan bog'liq shart-sharoitlar hamda zaruriy tarqatma materiallarni tayyorlash;

taqdimot qiladigan o'quv ishlari prorektori bilan birgalikda tegishli kafedra mudirlari ishtirokini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Oliy ta'lim muassasalari bosh boshqarmasi (I.Majidov)ga:

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha prorektorlarining "Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish" loyihasi asosida yaratilgan o'quv-uslubiy majmualariga bag'ishlangan taqdimotini muvofiqlashtirib borish vazifasi topshirilsin.

4. Taqdimotda ishtirok etuvchilarning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlari asosiy ish joyidan qoplanishi belgilab qo'yilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosiy nazorati vazir o'rinbosari M.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir:

B.Xodiyev

MODEMOGRAMMA

87-01/1-166 15.10.2011й.
muassasalari rektorlariga

Oliy ta'lim

Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy
majmualarni tayyorlanish holati
to'g'risida ma'lumotlarni taqdim
etish haqida

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mu'taxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PQ-1533-sonli qarori 2-ilovasi 7-bandi ijrosini ta'minlash maksadida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanayotgan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar haqidagi ilovada keltirilgan ma'lumotlarni joriy yilning 19 oktabrigacha bo'lgan muddatda Oliy ta'lim muassasalari bosh boshqarmasiga qog'oz va elektron variantda (daliyev @edu.uz elektron manziliga) taqdim etilishini ta'minlashlaringizni so'raymiz.

Ilova 1 varaqda.

**Oliy ta'lim muassasalari bosh
boshqarmasi boshlig'i**

I. Majidov

Shoymardonov I.A

Ona tili va adabiyot

(sintaksis)

So'z birikmasi, gap.

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish
yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun ona tili fanidan
o'quv-uslubiy majmua

Termiz davlat universiteti, 2016.